

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

*Is'hoqov Mirsodiq Mirsultonovich, Alimova Rahima Ruskulovna*

# **ARXIVSHUNOSLIK**

## **DARSLIK**

5120300 – Tarix (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha)

5120300 – Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo'yicha)

ta'lif yo'nalishlari bo'yicha tahsil oluvchi talabalarga mo'ljallangan

## “Arxivshunoslik”

Is’hoqov Mirsodiq Mirlsultonovich, Alimova Rahima Ruskulovna

Annotatsiya. “Arxivshunoslik” nomli ushbu darslik oliv ta’lim tizimining 5120300 – Tarix (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo‘yicha), 5120300 – Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan. Unda jahon sivilizatsiyasining qadimgi o‘choqlari hamda Markaziy Osiyo mintaqasida qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar arxiv va arxiv ishi tarixi tizimli ravishda bayon etilgan. Darslikda birinchi marta Turkmanistonning Eski Nisa xarobalaridan topilgan qadimgi Parfiya podsholigi arxivi, Kushonlar davriga oid Ravatak arxivi, qadimgi Xorazmning Tuproqqala va Tojikistonning Panjikent shahri yaqinidagi Qalai Mug‘ qasri xarobalaridan topilgan ilk o‘rta asr Sug‘d arxivi materiallari tahliliy ravishda jalb qilingan. Bulardan tashqari o‘rta asrlar hamda hozirgi zamon arxivlari haqida ma’lumotlar berilgan. Bu shaklda birinchi tajriba sifatida ushbu darslik ta’lim mazmunini to‘ldirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

### **Mas’ul muharrir:**

*O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi dotsenti t.f.d. I.Bekmirzayev*

### **Taqrizchilar:**

*Tarix fanlari doktori, professor A.X.Doiyorov*

*Tarix fanlari doktori, dotsent M.C. Isaqova*

Darslik Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘quv-uslubiy kengashining 2020 yil “19” may 5-sonli bayonnomma qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Is’hoqov Mirsodiq Mirlsultonovich, Alimova Rahima Ruskulovna

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2020

## **SO‘Z BOSHI**

Insoniyatning tamadduniy davrlari turli jabhalarini qamrab olgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy munosabatlarni hujjatlarsiz tasavvur etish qiyin. Besh ming yildan oshibdiki, yozuv madaniyati bilan yonma-yon hujjatchilik amaliyoti davom etib kelmoqda. Jahonning turli mintaqalarida ko‘plab hujjat jamlamalari vujudga kelgan. Ular uzoq tarix varaqlarini zarur mazmun bilan to‘ldirishda muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo hududida ham arxiv ishining vujudga kelishi va rivojlanishi qadimiylashtirilishiga bo‘lib, davlatchilik tarixi hamda kichik va katta davlat uyushmalarining barpo qilinishi bilan bog‘liq. Markaziy Osipyoda yozuv paydo bo‘lishi bilan muhim voqealardan qandaydir qattiq ashyolar yuzasiga – devor, tosh, sopol buyumlar, metall, qayin po‘stlog‘i, yo‘nilgan yog‘och tayoq yoki yog‘och taxtachalarga qayd qilib borish amaliyoti paydo bo‘ldi. Shunday qilib, muhim voqealar hujjatlashtirilib borilgan va hujjatlarni saqlash an’anasiga paydo bo‘lgan. Bu esa xo‘jalik hisobi yoki huquqiy taftish, soliq nazorati, mulkchilik mubosabatlarini boshqarishga xizmat qilgan.

Markaziy Osiyo hududida qadimgi davrlarga oid bir qator arxiv majmu‘ato‘plamlari topilgan. Masalan: Eski Niso arxivi (Turkmaniston), Ravatak arxivi (Afg‘oniston), Tuproqqal`a arxivi(Xorazm) kabilar shular jumlasidandir. Arxiv hujjatlarida parfiyoniy, xorazmiy, yunon-boxtariy va b. yozuvlardan foydalananliganki, bu qadimiylashtirilishiga qadimgi yozuv madaniyatning yuksakligini ko‘rsatadi.

Qoraqalpog‘istonning Ellikqal`a tumanidan Tuproqqal`a xarobalaridan topilgan III-IV asrlarga taalluqli hujjatlar kompleksi fanga 1930 yillar oxirida ma’lum bo‘ldi. Zarafshon daryosining yuqori qismida VII asr oxiri-VIII asr birinchi choragiga oid sug‘d hujjatlarining ulkan arxivi topilgan. Tarix fanida bu arxiv “Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlari” nomi bilan ataladi.

Arablar bosqinidan keyin devonxona ish yuritish va arxivlashtirish ishlari yanada rivojlandi va kengaydi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo hududlarida kechgan davlatchilik va ma’muriy-xo‘jalik tizimlari rivojlangan sari boshqaruv jarayonlarida ish yuritishning

hujjatli hamda hisobotli asolari tarixiy zaruratga aylangan. Qadimgi Misr, Mesopotamiyada Shumer, Akkad, old Osiyo, Qadimgi Eron kabilar qatori Markaziy Osiyoda ham hujjatchilik ishi shakllandi. Bu jarayon mil.avv. I ming yillik o‘rtalaridan boshlanib, bir necha bosqichlarda davom etdi: qadimiyat, antik yunon-boxtar davri, kushanlar davri boxtariy tilli arxivchilik, xioniyalar, kidariylar, ilk o‘rta asr Markaziy Osiyo davlat uyushmalari arxivchilik an’analari, islom davri..., nihoyat hozirga qadar bu soha davomiy rivojlanib kelmoqda.

O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha davlatlarda devonxona ish yuritish va arxivlashtirish ishi kengamal qilgan. Ushbu qo‘llanmada qadimiy va ilk o‘rta asr arxivlari, ularning yetib kelgan darajada qoldiqlari, Somoniylar, Qoraxoniylar, davlatchiligidan yana bir qator boshqa bosqichlari, nufuzli xonardonlarning arxivlari (Buxoroda Boxarziy vaqflari, Jo‘ybor shayxlari arxiv), Buxoro amirligining Qushbegi arxiv, Xiva xonligining Qozilik arxiv, Turkiston general-gubernatorligi arxiv, sovet davri, mustaqillikka erishilganidan keyingi arxiv ishi hamda sohadagi islohotlar qamrab olingan.

Tashkilotlarda hujjatlarni saqlash va arxivlashtirish ishiga sobiq sho‘ro’lar davrida katta ahamiyat berilgan. Biroq, arxivlar faoliyatida davlat siri, mahfiylik, mutlaqo mahfiylik kabi tamg‘lar ostida aksariyat hollarda turli fondlar hujjatlaridan ochiq, emin-erkin foydalanish mumkin emas edi. Mustaqillik sharoitida, ya’ni 1999yilda O‘zbekiston Oliy Majlisi tomonidan “Arxivlar to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinganligi munosabati bilan Respublika arxiv ishida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

2004 yilda Respublika Vazirlar mahkamasining 49-sonli “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” Qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi arxiv agentligi “O‘zarxiv” tashkil qilindi. Uning tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxiv, O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy-texnik va tibbiyot hujjatlari markaziy davlat arxiv, O‘zbekiston Respublikasi Kino-foto hujjatlar markaziy davlat arxiv kiritildi. Ushbu tuzilmaning Qoraqalpoq Respublikasi, viloyatlar,

Toshkent shahri hududiy boshqarmalari hamda Qoraqalpoq Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri davlat arxivlari hamda ularning filiallari tashkil etildi.

Mazkur 2004 yil 3 fevraldagagi 49-sonli Qarorga Ilova sifatida “O’zarxiv” to’g’risida Nizom qabul qilindi. Nizom 4 bo’limdan iborat. I bo’lim “Umumiy qoidalar”, II bo’lim “O’zarxiv” agentligining asosiy vazifalari, III bo’lim “O’zarxiv” agentligining huquqlari va javobgarliklari, IV bo’lim “O’zarxiv” agentligi faoliyatini tashkil etish kabi nomlangan. Nizom O’zarxiv agentligi faoliyatining barcha sohalarini qamrab oluvchi hujjatdir.

“2008 yil 26 avgustda Vazirlar mahkamasi “O’zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirish to’g’rsida” yana bir muhim qaror qabul qildi. Qarorga muvofiq 2008-2011 yillarga mo’ljallangan “O’zbekistonda arxiv ishini va uni boshqarishni takomillashtirish dasturi qabul qilindi.

2009 yil 3 noyabr kuni O’zbekiston Respublikasi Oliy majlisi “Arxiv ishi to’g’risida” Qonun qabul qildi. 2010 yil 7 mayda bu Qonunni Senat ma’qulladi. Qonun arxiv ishining takshiliy asoslarini, vazifalari va funksiyalarini, huquqiy jihatlarini belgilab berdi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 sentyabrdagi “O’zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmonida mamlakatimizda arxiv ishi va ish yuritish sohasida davlat boshqaruvi va nazoratini takomillashtirish, qog’oz shaklidagi, kino, foto va fono hujjatlarini raqamlashtirishni yanada jadallashtirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O’zarxiv” agentligi negizida O’zbekiston Respublikasi “O’zarxiv” agentligi tashkil etildi. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi negizida O’zbekiston Milliy arxivi; O’zbekiston Respublikasi Kinofotofono hujjatlari markaziy davlat arxivi negizida O’zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi;

O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy-texnika va tibbiyat hujjatlari markaziy davlat arxivi negizida O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyat hujjatlari milliy arxivi; Toshkent shahar davlat arxivi negizida Toshkent shahar markaziy davlat arxivi tashkil etildi.

Ushbu darslik arxiv ishiga zamonaviy talablardan kelib chiqib uzoq o‘tmishdan to hozirgacha davlatchilik bosqichlarida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy munosabatlarning hujjatlarda qayd etilishi, mahkamachilik tarixi, hujjatchilik madaniyatini o‘rganishga xizmat qiladi, degan umidda yaratildi.

Arxivshunoslikning o‘quv fani sifatida joriy etishdan **maqsad** – talabalarda jahon miqyosida, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida arxivshunoslik va arxiv ishining yo‘lga qo‘yilish tarixii arxiv materiallaridan tarixiy ma’lumotlar olish masalalari bo‘yicha tasavvur, bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning **vazifalari** talabalarga Markaziy Osiyo mintaqasida qadimdan to hozirgacha iltimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’muriy boshqaruv, davlatchilikda mahkamachilik ish yuritish tizimi, devonxona ish usullari va arxivlashtirish tarixini yoritishdan iborat; talabalarni devonxona va arxiv ishining taraqqiyot dinamikasi bilan tanishtirish; qadimgi zamon arxivlarining tarixiy funksiyalari haqida ma’lumot berish; turli arxivlar haqidagi ma’lumotlar orqali arxiv materiallarining manbashunoslik uchun muhim ahamiyatini ko‘satib berish, davlatchilik jarayonlari rivojida arxivshunoslikning ahamiyatini ko‘rsatib berish bilan yosh tarixchi-sharqshunos kadrlada arxiv tarixi faktlaridan o‘z ilmiy va amaliy faoliyatlarida samarali foydalanish malakasi hamda ko‘nikmasini berish . Shulardan kelib chiqib, suyidagi aniq vazifalarni belgilash mumkin:

1. Jahon miqyosida arxivchilik tarixi haqida umumiylar ma’lumot berish;
2. Markaziy Osiyo xalqlari arxiv an’analaring tarixiy ildizlarini ochib berish;
3. Mintaqada davlatchilik tarixi va arxiv ishi tarixinining bog‘liqligini ko‘rsatish;
4. Markaziy Osiyo mahkamachilik, devonxona ish yuritish va arxivlashtirish tarixini yoritish;

5. Devonxona va arxiv ishining taraqqiyot dinamikasini o‘rganish;
6. Davlatchilik jarayonlari rivojini o‘rganishda arxivshunoslikning ahamiyatini ko‘rsatib berish;
7. Arxivlarning tashkilotlar ish yo‘nalishlari bilan bog‘liq tasnifini o‘rgatish, arxiv ishining nazariy, texnik amaliy va tashkiliy boshqaruvi masalalari bilan tanishtirish kabilardan iborat.

### **Darslikning tuzilishi**

Ushbu “Arxivshunoslik” darslik uch bo‘lim o‘n bir paragrafdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim to‘rt paragrafdan tashkil topgan bo‘lib, unda qadimgi va antik davr arxivlari torisida, ikkinchi bo‘lim to‘rt paragrafni qamragan bo‘lib, unda Markaziy Osiyoning ilk va rivojlangan o‘rta asrlar arxivlari, uchinchi bo‘lim uch paragrafdan iborat bo‘lib XIX asr so’nggi choragi va mustaqillik yillarida O‘zbekistonda arxiv ishining takomillashuv holati to‘g‘risida ma’limot berilgan. Har bir mavzu boshida darsning rejasi keltirilgan. Har bir paragraf oxirida mavzuni o‘zlashtirish uchun savol va topshiriqlar, mustaqil ta’lim uchun savol va topshiriqlar, atamalar izohli lug‘ati va adabiyotlar ro‘yxati berilgan. Darslikning oxirida glossariy va adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

## **I – BO‘LIM. QADIMGI VA ANTIK DAVR ARXIVLARI**

### **§ 1. Arxivshunoslik kursining predmeti, metodologik asoslari, maqsad va vazifalari**

#### **1.1. Arxivshunoslik fanining maqsadi va vazifalari**

Arxivshunoslik – arxivlar haqidagi fan bo‘lib, arxiv ishining tarixi, arxiv faoliyatining maqsadi vazifalari va ularning davriga, maqsadlariga bo‘liq xususiyatlari, hujjatlarni tizimli komplektatsiya qilish tamoyillari, arxiv hujjatlaridan foydalanishni tashkil etish masalalarini o‘rganadi. Arxiv so‘zi atamasiga kelsak, bu lotincha “arxivium - hukumat binosi so‘zidan kelib chiqqan. Lekin “Arxiv” atamasining hozirgi qo‘llanish ma’nosi birmuncha kengroq.

“Arxivlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida “arxiv” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan; “Arxiv – arxiv hujjatlari majmui, shuningdek arxiv muassasasi yoki korxona, muassasa va tashkilotning arxiv hujjatlarini qabul qiluvchi, saqlovchi va ulardan foydalanuvchi tarkibiy bo‘linma” deb ta’rif berilgan.

Arxivshunoslik fanining predmetini arxivlar va ularning faoliyati bilan bog‘liq jarayonlar tashkil etadi.

Arxivshunoslik fanining ob’ekti sifatida arxivlar, arxiv hujjatlari, arxiv ishini tashkil qilish va rivojlantirish omillari hamda uslublari tushuniladi.

Fanning **maqsadi** davlatchilikda mahkamachilik ish yuritish tizimi, devonxona ish usullari va arxivlashtirish tarixini, arxiv muassasalari faoliyatining xususiyatlarini o‘rganish hamda arxiv ishining nazariy-uslubiy va amaliy jihatlarini yoritishdan iborat.

Fanning vazifasi talabalarni devonxona va arxiv ishining taraqqiyot dinamikasi bilan tanishtirish; qadimgi zamon arxivlarining tarixiy funksiyalari haqida ma’lumot berish; arxiv haqidagi materiallar orqali manbashunoslikning muhim sohasi haqida bilim berish, davlatchilik jarayonlari rivojida arxivshunoslikning ahamiyatini ko‘rsatib berish bilan yosh tarixchi-sharqshunos kadrlarda arxiv tarixi faktlaridan o‘z ilmiy va amaliy faoliyatlarida samarali foydalanish malakasi hamda ko‘nikmasini berish.

Arxivlar mustaqil muassasalar, tashkilotlar, korxonalar bo‘limi bo‘lib, hujjatli materiallarni, shuningdek muassasalar, jamiyatlar va ayrim shaxslarning ish faoliyati natijasida paydo bo‘lgan hujjatlar to‘plamlarini saqlaydi. Shuni alohida aytish kerakki, arxivlar manbalar to‘plami sifatida ilmiy izlanish maqsadlari, xo‘jaliklarning, davlat boshqaruvining, alohida shaxslarning, jamoat tashkilotlarining ehtiyojlariga xizmat qiladi. Arxiv hujjatlaridan foydalanish – bu tarixchi izlanishining poydevoridir. Mustaqil O‘zbekistonda tarix fanining rivojlanishida arxiv ma’lumotlari katta ahamiyatga egadir. Ma’limki, O‘zbekiston Respublikasida tarix fanini rivojlantirishga, tarixiy o‘tmishni ob’ektiv, xolisona o‘rganishga katta ahamiyat

berilmoqda. Ma’naviyatni tiklashda, davlatimizni ma’naviy rivojlantirishda tarix asosiy elementdir.

Arxivshunoslik arxiv hujjatlashtirish ishlari, arxiv hujjatlariga ilmiy-texnikaviy ishlov berish uslublari va ularning tarixiy qimmatini aniqlash ekspertizasi, tarixchi-arkivchi olimlar faoliyati sohasi va arxiv ilmiy ma’lumotnomalarini tashkil qilish masalalari, arxivda tadqiqotchilik faoliyati, qimmatli arxiv hujjatlarini ommalashtirish va boshqalar bilan bog‘liq masalalarni tahlil qiladi.

O‘zbekistonda “Arxivshunoslik” fanining darsligi birinchi bor 2018yilda nashr qilingan. 1999yilda O‘zbekiston Oliy Majlisi tomonidan “Arxivlar to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinganligi, so‘nggi yillarda respublikada arxiv ishi sohasida bir qator qonun va farmonlarning e’lon qilinganligi natijasida anchagina o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Davlat arxiv xizmati rivojida ayrim muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. Arxiv ishi bu davlat va nodavlat korxonalar, tashkilotlar va muassasalar arxiv hujjatlarini saqlashni tashkil etish, hisobga olish, markazlashtirish hamda ulardan foy-dalanishni tashkil qilish bilan bog‘liq faoliyatdir.

O‘zbekistonning milliy davlat sifatida rivojlanishi va bozor iqtisodiyoti yo‘liga o‘tishi arxiv ishidagi islohotlarni belgilab berdi. Sho‘ro’lar davrida xususiy tashkilotlar, korxonalar bo‘lmas edi, shuning uchun nodavlat arxiv fondlari ham yo‘q edi. Shu sababli ilgarigi O‘zbekiston Davlat arxivi fondida faqat davlat tashkilotlari, korxonalari va fuqaro’larning arxiv fondlari saqlanardi. Mustaqillik davrida O‘zbekiston davlat arxiv fondi o‘rniga O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi (O‘zRMAF) tashkil qilindi. Qonunda O‘zRMAF davlat va nodavlat arxiv fondlaridan tashkil topadi deyilgan. Nodavlat yuridik shaxslarning faoliyati natijasida to‘plangan arxiv hujjatlari, shuningdek fuqaro’larning shaxsiy arxivlari nodavlat arxiv fondini tashkil qiladi. Demak, O‘zRMAFda davlat va nodavlat tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, shaxslar arxiv fondlari saqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi negizida O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi negizida O‘zbekiston Milliy arxivi tashkil etildi.

Markaziy Osiyo hududida arxiv ishining vujudga kelishi va rivojlanishi davlatchilik tarixi, kichik va katta davlat uyushmalarining paydo qilinishi bilan bog‘liq. Har qanday arxivning asosida yozuv yotadi. Yozuv paydo bo‘lishi bilan muhim voqeahodisalarni qandaydir qattiq narsalarga – devor, tosh, sopol buyumlar, metal taxtacha, yog‘och va yog‘och taxtachalarga qayd qilib borish an’analari paydo bo‘ldi. Shunday qilib, muhim voqealar hujjatlashtirilib borilgan va hujjatlarni saqlash an’anasi paydo bo‘lgan.

Fan doirasida Markaziy Osiyoda arxiv ishining shakllanishi va yo‘lga qo‘yilishi, arxiv ish yuritishi tarixini o‘rganiladi. Arxiv ishi bu yangi davrda paydo bo‘lgan emas. Arxivlar qadimgi davrdan boshlab shakllangan. Markaziy Osiyo mintaqasi miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi choragidan, ya’ni ilk temir davridan boshlab hududiy davlatchilik jarayonlariga kirib kelgan. Manbalar Xvarasmiya, Sug‘uda, Mauri (Marg‘iyona), Baxdi (Baqtriya), Sakastana (Seiston), Xarxusha (Araxosiya) kabi davlat uyushmalari haqidagi ma’lumotlar xronologik jihatdan mil av. VII-VI asrlarga taalluqli siyosiy tuzilmalar to‘g‘risida tasavvur beradi. Jahan miqyosida davlatchilik va davlat hujjatchiligi tarixi mil.av. IV ming yillik oxiri – III ming yillik birinchi choragidan boshlab kuzatiladi. Lekin u davr hujjatchiligidagi amal qilgan yozuv tasvir ifodali iyerogliflardan iborat edi. Mesopotamiya hududlarida esa dastlabki bo‘g‘inli, ponasimon belgi tizimlari yaratilgan edi. Markaziy Osiyo davlatchilik mahkamaviy ish yuritish haqida gap ketganda, bu amaliyotda yozuv madaniyatining yuqori saviyasini belgilovchi alifboli yozuv tizimlaridan foydalanilgan va bu davr miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o‘rtalaridan boshlangan.

Ma’lumki, Ahmoniylar sultanati O‘rta Osiyo va O‘rta Sharq mintaqasining katta qismini ham o‘z tasarrufiga olgan. Bu mintaqada Ahmoniylar davlatida amal

qilgan oramiy yozuvli hujjatchilik saqlanib qolmagan. Biroq sultanat doirasiga kirgan Parfiya, Xorazm, Sug'd va Baqtriya o'lkalarida tez orada oramiy yozuvi asosida mahalliy tillarga muvofiqlashgan yangi alifbolar paydo bo'lган. Ayni shu alifbo tizimlarida yozilgan davlat hujjatlarini arxivlashtirish jarayoni miloddan avvalgi ming yillikning so'nggi asrlarida va milodning I asridan boshlab ko'zga tashlanadi. Jumladan, Parfiya, Kushon, Xorazm, Sug'd arxivlari fikrimizning dalili bo'la oladi.

Ahmoniyalar salatanatida amal qilgan oramiy yozuvli va oramiy tilli hujjatchilik arxivlari sultanatning g'arbiy qismiga taalluqli bo'lib, bizning mavzuimizdan tashqaridadir (bular Elefantin arxivi - mil. avvalgi V asr, Suza arxivi - mil av. VI asr, Persepol arxivi - mil.av. V asr va boshqalar)<sup>1</sup>.

Ahmoniyalar davlatida davlat hujjatlarini arxivlashtirish an'analari Markaziy Osiyoga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Jumladan, 1980 yillarda Afg'onistonning shimolidagi Ravatak qishlog'idan kushonlar davriga oid 100 dan ortiq baqtriya hujjatlari topilgan. Ular teri, mato va taxtachalarga yozilgan. 1948 yilda M.E.Masson rahbarligidagi Janubiy Turkmaniston arxeologik ekspeditsiyasi vakillari Eski Nisodan bir necha oramiy yozuvli sopol bo'laklarini topishgan. Eski Nisodagi vino omboridan yozuvlar bitilgan 3000 dan ortiq sopol bo'laklarini topilgan. Fanga Eski Niso arxivi nomi bilan kirgan parfiya arxiv hujjatlari qadimgi tariximizni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Qadimgi Xorazm vohasining Ellikqal'a massivi (hozirgi Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumani)dan topilgan Tuproqqal'a arxivi va Mug'tog'i Sug'd hujjatlari arxivi tariximizdagi kam o'rganilgan sahifalarni to'ldirishda muhim hisoblanadi.

Zarafshon daryosining yuqori oqimida sug'd hujjatlarining ulkan arxivi topilgan. Tarix fanida bu arxiv "Mug' tog'i sug'd hujjatlari" nomi bilan ataladi. Arablar bosqinidan keyin devonxona ish yuritish va arxivlashtirish ishlari yanada rivojlandi va kengaydi. Ayniqsa, ma'muriy-xo'jalik tizimi rivojlangan somoniylar davlatidagi davlat boshqaruvini alohida ko'rsatish mumkin.

---

<sup>1</sup> Дандамаев М.А., Луконин В.А. Культура и экономика Древнего Ирана. –М., 1980; Дьяконов И.М. Люди города Ура. –М., 1990.

Tarixdan ma'lumki, Buxoroda IX-X asrlarda sominiy hukmdorlar kutubxonasi bo'lgan. Abu Ali Ibn Sino uning kitoblaridan foydalangan. Hujjatlarni ham toplash va saqlash an'anasni amal qilgan. Markaziy Osiyoda arxiv ishi XI-XII asrlarda Xorazm davlatida, keyinchalik Oltin O'rda, Temuriylar, so'nggi xonliklar davrlarida ham davom etgan va arxivlashtirish amaliyoti keng tarqalgan. Jo'ybor shayxlari arxivi, Buxoro amiri Qushbegi arxivi, Xiva xonligining Qozilik arxivi, Turkiston general-gubernatorligi arxivi va boshqa arxivlar arxiv an'anasining davomiyligidir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivsi o'zbek xalqining qo'lyozma hujjatlari saqlanadigan eng katta xazinasidir. Bu yerda saqlanayotgan eng qadimgi hujjatlar vaqfnomalar bo'lib, ular Somoniylar davridan boshlanadi. Shu davr vaqfnomalari O'zFA Sharqshunoslik instituti fondlarida hamda Madaniy Meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish boshqarmasida ham saqlanmoqda.

Qadimgi davlatlarning, o'rta asr sultanatlari va so'nggi xonliklarning XIX asrgacha bo'lgan hujjatli manbalari bizgacha to'liq saqlanmagan. O'zaro urushlar, vayronagarchiliklar oqibatida arxiv hujjatlari yo'q bo'lib ketgan. Qo'qon va Xiva xonlari arxivlari, Buxoro amirligining qushbegi arxivi saqlanib qolgan. Podsho Rossiyasining Markaziy Osiyoni bosib olgandan keyingi davr arxivlari to'la saqlanib qolgan.

Xulosa shuki, mazkur "arxivshunoslik" fani doirasida Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan davlatlar va ularda arxiv ishining yo'lga qo'yilishi masalasi bilan tanishiladi va tarixni o'rganishda ulardan foydalanish imkoniyati hamda zaruriyat haqida fikr yuritiladi.

## 1.2. Arxivshunoslik fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Tarix tadqiqot bilan shug'ullanayotgan har bir olim, ilmiy izlanuvchi arxiv hujjatlarini, tarix fani uchun yordamchi tarixiy fanlar nomi ostida birlashtiriladigan ilmiy va amaliy sohalarni chetlab o'ta olmaydi. Shundan kelib chiqib, tarixiy voqelikni to'laqonli yoritishda arxivshunoslik fanining o'rni katta

bo‘lib, u o‘z navbatida yordamchi tarixiy fanlar sohalariga tayanadi. YOrdamchi tarixiy fanlarning har biri mustaqil fan sifatida shakllanish va rivojlanish yo‘lini bosib o‘tmoqda. Har bir yordamchi tarix fani umumiy va maxsus tarix fanlarini chuqur va keng hamda mufassal o‘rganishga yordam beradi. Yordamchi tarix fanining har bir bo‘limi alohida bir tarmoq bo‘lib tarix fani oldidagi muammolarni, kamchiliklarni to‘ldirish bilan birga o‘zining alohida tadqiqot usuli va tadqiqot ob’ekti, o‘z yo‘nalishlariga ega. Tariximizdan ma’lumki, qadimiyatdan boshlab davlat ish yuritish tizimida tarixiy jarayonlarni hujjatlashtirish, uni saqlash, avlodlarga uzatish, arxiv muassasalarini tashkil qilish, jamg‘armalarini shakllantirish, hujjatlarni tasniflash ishlari amalga oshiriladi. Bugungi kunda hujjatlarning tarixiyligi, qimmatliligi, muhimligini belgilash jarayonida arxivshunoslarga chuqur tarixiy bilimlar zarur bo‘ladi. Arxiv jamg‘armalarini tashkil etishda hujjatlarning dastlab davriyligi, uning ma’lum tashkilot yoki shaxsga tegishliligi, so‘ngra arxiv hujjatining turini aniqlaydilar. Arxivariuslar fondlarni shakllantirishda hujjatlarning tarixiy davrlari va ulardagi muhim voqeahodisalar bilan bog‘liq jarayonlar, yashab o‘tgan mashhur tarixiy shaxslar, turli sohalarda yuz bergen o‘zgarishlardan xabardor bo‘lishlari lozim.

Arxiv muassasalarining asosiy ishslash ob’ekti bu arxiv hujjatlari bo‘lgani bois, ushbu soha mutaxassislari hujjatlarning turi, tizimi, ularni yaratish qoidalari, rasmiylashtirilishi, yuritilishi, saqlanishi, foydalanish uchun taqdim etilishi kabi jarayonlar xususida aniq tasavvurga va puxta bilim, ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim. Hujjatshunoslikka oid bilimlar yordamida arxivarius hujjatlarning ilmiy qimmatini aniqlash, unga ishlov berish, ekspertizadan o‘tkazish, ularni tasniflash va ro‘yxatga olish shakllarini to‘g‘ri tashkil qilishi kerak.

Tarix manbashunoslikka tayanadi. Manbalar esa, moddiy-ashyoviy hamda yozma turlarga bo‘linadi. Moddiy narsalar inson faoliyati mahsuloti sifatida faralardi va tarixchi-arxeologlarning talqinlari orqali tarix faktlariga aylanadi. YOzma yodgorliklar esa, ular tadqiqotiga etkazgan ma’lumotlari bilan qadarlanadi. Biroq yozma yodgorliklardan ular qanday yozuvda bitilganligi, yozuvning uslubi,

qanday materialga bitilganligi, yozuvning qanday siyohda yozilganligi, saqlanish holati, yozuv ashyolari kabi masalalar bilan bog‘liq paleografik ma’lumotlarsiz o‘z mazmunini to‘la ochib bermaydi.

Tarixiy informatika tarix fani va ta’limini axborotlashtirish jarayoni qonuniyatlarini o‘rganuvchi bilimlar sohasidir. Tarixiy informatika asosida barcha turdagи tarixiy manbalarning elektron versiyalarini yaratish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlar majmuasi yotadi. Tarixiy informatikaning nazariy asosini zamonaviy axborot konsepsiysi bilan ijtimoiy informatika va nazariy manbashunoslik tashkil etadi. SHunday ekan tarixiy informatika fani ilmiy axborotning tuzilishi va umumiy xususiyatlari, inson faoliyatining turli sohalarida axborotning paydo bo‘lishi, qayta ishlanishi, uzatilishi va qo‘llanilishini tadqiq etadi. Arxivshunoslikda informatsion uslublarni jalg qilishdan maqsad hujjatlardagi ma’lumotlarni avtomatlshirilgan elektron uskunalarga kiritish va asl nusxalarning umrini uzaytirishdan iborat.

*Arxeografiya qo‘lyozma manbalarni* nashr qilish nazariyasi va amaliyotini tashkil qiluvchi yordamchi tarixiy fan sohasi hisoblanadi. Arxeografiya o‘z navbatida filologiya, manbashunoslik, paleografiya, matnshunoslik, diplomatika, hujjatshunoslik kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, arxiv hujjatlarini belgilangan mavzu yuzasidan tanlash, hujjat mazmunini yoritib berish va unga sharhlar yozish, nashrga tayyorlangan matnni to‘g‘ri rasmiylashtirish ishlarida amal qiladi.

*Paleografiya* fani yozma yodgorliklarning yozuv tuzilishi, alifbosi yoki boshqa turdagи shartli chizma belgi va shakllarning genetik asoslari, ularning rivojlanish yo‘llari va dinamikasi, yozuv asboblari, yozuv uchun foydalanilgan materiallar, xat turlari, dastxan shakllari, xususiy xat namunalari, yozuvning uslub turlari, husnixat sifatida me’yoriy darajalarga etgan namunalari, yozuvning bezaklari, umumsavodxonlik va kotiblik kasbiy san’ati turlari, matn tuzish tamoyillari, yozuv materiallari, yozuv matnlarining saqlanish holati kabi qator masalalarni o‘rganadi.

Epigrafika fani asosan tosh, sopol, metall va boshqa qattiq buyumlarga bitilgan qadimgi va o‘rta asr yozuvlarini o‘rganuvchi fandir. Ushbu fan uyg‘onish davrida qadimiylitka, chunonchi Qadimgi SHarqqa qiziqish kuchayayotgan paytda paydo bo‘lib, XIX asr o‘rtalaridan tez rivojlanan boshlagan. Epigrafika fani yordami bilan Livan, Suriya, Karfagen, O‘rta er dengizi orollari, Italiya, Fransiya, Ispaniya va SHimoliy Afrikadan topilgan Finikiya, Puni qadimgi yozuvlari, dajla va Frot daryolari oralig‘i va Old Osiyoning qadimgi hududlaridagi miloddan avvalgi III ming yillikka oid mixxat matnlari, ahmoniyalar davri tarixini o‘rganishda qoyalar, saroy devorlari va oltin taxtachalarga bitilgan Eron mixxatlari, slavyan, gruzin, arman, qadimgi turkiy, xitoy, Markaziy Osiyo vak boshqa hududlardan topilgan ko‘plab yozma yodgorliklar (bitiklar) topib o‘rganildi. Epigrafikaning taraqqiyoti tufayli qadimgi xalqlarning turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va moddiy madaniyati, diniy mazhabi va umumiy tarixi haqidagi qimmatli ma’lumotlarni to‘plash imkoniyati yaratildi. Harf shakllarining o‘zgarishini ilmiy jihatdan o‘rganish orqali arxeologik yodgorliklarning qaysi davrga mansubligi, qadimgi yozuvlarning rivojlanish dinamika aniqlandi.

*Numizmatikada* turli tarixiy davrlarda va hududlarda zarb etilgan tangalar tadqiq etiladi. Tangalar tasvirlari tushirilgan turli tarixiy hujjatlar va zamonaviy fotonusxalar hamda elektron hujjatlar hozirgi arxiv, muzeylarda, shuningdek, ilmiy kutubxonalarda saqlanadi. Ularni tadqiq etishda arxivshunos mutaxassislar bevosita numizmatikada erishilgan yutuqlardan foydalanadilar.

Toponimikaning fan tarmog‘i sifatidagi asosiy vazifasi geografik nomlarni o‘rganish, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tekshirish, ilk ma’nolarini, keyingi davrlarda ularning ma’nolarida ro‘y bergen siljishlar, toponimlarni shakllantirgan grammatik omillarni o‘rganadi. Toponimikaning aksariyati uzoq tarixiy o‘tmish bilan bog‘liq. Ularning paydo bo‘lishini bilish muayyan tarixiy shart-sharoitlarning ma’nosini ochishga xizmat qiladi.

Metrologiya tarixning etakchi atributidir. Davlatchilikning tashkil topishi va ravnaqi bevosita uning ichki va tashqi faoliyati orqali tamsiflanadi. Metrologik tizimdagи o‘lchov birikmalarining paydo bo‘lish davri va foydalanish qо‘llash turlicha bo‘lgan. *Tarixiy metrologiyada* o‘tgan zamonlarda qо‘llanilgan turli davrlarga oid o‘lchov biliklari tadqiq etilib, zamonaviy o‘lchov birliklari bilan solishtiriladi, aloqadorligi o‘rnatiladi. Ushbu ma’lumotlar arxiv hujatlarida uchraydigan o‘lchov birliklari bilan bog‘liq matnlarni o‘qish, mazmunini tushunish, ayni vaqtda ularning davriyligi va hududiy jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

*Tarixiy xronologiya* o‘tmishda amal qilgan vaqt o‘lchov birliklarini o‘rganadi hamda ularni zamonaviy vaqtni o‘lchash belgilari va vositalari bilan taqqoslash yo‘li bilan tadqiqotlarni amalgalashdi. Xronologiya tarixiy fanlarning rifojjlanishi natijasida vaqtni o‘rganadigan fan sifatida XVI asrda vujudga kelgan. Xronologiya ilm sifatida Bobil, Misr, yunoniston va rimda shakllangan. Arxivshunoslikda tarixiy xronologiya hujjatlarning yaratilgan vaqtini hamda joyini aniqlashtirish uchun muhim hisobanib, hujjatlarni davriylik jihatidan turkumlash va jamlashda ham alohida o‘rin tutadi.

Sfragistika tarix fanining muhrlar bilan shug‘ullanuvchi yordamchi sohasidir. Sfragistika muhrlar va ularning qoliplari hamda muhrlardan bosib qoldirilgan izlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. SHu bilan birga *sfragistika* muhrlarning qaysi davlatga, qanday shaxsga tegishliligi, asliliygi, muhrni tayyorlagan shaxs, joy va vaqt to‘g‘risidagi axborotni jamlab beruvchi fan sifatida arxiv hujjatlaridagi muhrlarni aniqlashda, hujjatning tegishliligini belgilashda arxivshunoslikka yordam beradi.

*Geraldika* bu gerblar va ular haqidagi bilimlar tizimidir. Geraldika fani turli davrlarga oid gerblarning kelib chiqishi, ulardagи tasvirlarni mazmun-mohiyatini, tarixiy, ijtimoiy-huquqiy ahamiyatini tadqiq etadi. Geraldika tadqiqotlari natijalaridan arxivshunoslikda arxiv hujjatlarining davriy va hududiy xususiyatlarini aniqlashda foydalaniladi.

*Tarixiy geografiya* fani qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi vaqtga qadar er yuzidagi tabiiy va iqtisodiy geografik ob'ektlarning joylashgan o'rni, ularning nomlari, tarqalish areali, xalqlarning hududlar bo'yab tarqalishini o'rganadi. Geografik ma'lumotlar arxiv jamg'armalari hujjatlarida qo'plab saqlanadi va ularni tadqiq etish tadqiqotchidan maxsus tarixiy geografik bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. SHu nuqtai nazaridan tarixiy geografiya fani arxivshunoslik fanining etakchi sohalaridan biri hisoblanadi.

Tarixiy kartografiya – ilmiy sohasining vazifasiga tarixiy karta va atlaslarni tuzish, ularni ishlab chiqish metodlarini o'rganish kiradi. Ushbu bilimlar arxivshunoslik sohasida kartografik manbalarni tadqiq etishda, ulardan tegishli ma'lumotlarni topishda, arxeografik maqsadlarda foydalanishda muhim hisoblanadi. Arxivshunoslardan kartalarning turlari (siyosiy, iqtisodiy, harbiy va h.k.), o'lchami, asliyligi, yaratilgan davri, ulardagi yozuv va belgilarning ma'nolari, ma'lumotlarning haqqoniyligi, to'g'ri yozilishi, ranglarning qo'llanilishi masalalari bo'yicha etarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab qilinadi.

Diplomatika tarixiy aktlarni o'rganadigan yordamchi tarixiy fan sohasi bo'lib, diplomatik va yuridik xarakterga ega bo'lgan hujjatlar, aktlar va shunga o'xshash matnlarni o'rganadi. Turli rasmiy hujjatlarning haqqoniyligi, asl nusxasi, vazifalari hamda uning tarkibini o'rganadi. Diplomatika tadqiqoti natijasidan arxivshunoslikda hujjatlarning davri, haqiqiyligi, nusxalari, muallifi kabilarni aniqlashda foydalilanildi.

*Genealogiya* fanida insonlarning shajerasi, nasl-nasabi, kelib chiqishi, qon-qarindoshligi bilan bog'liq munosabatlarni o'rganiladi. Arxivlardagi shaxsiy jamg'armalarda saqlanayotgan hujjatlarda odamlarning shajerasi, hayoti va faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar ham mavjud. Bu kabi hujjatlarni tadqiq qilish jarayonida genealogiya faniga xos tadqiqot uslublarini qo'llash zarurati paydo bo'ladi.

Yuqorida yordamchi tarixiy fan sohalari bo'yicha aytilgan ma'lumotlar arxivshunoslik fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligidan darak beradi. Tadqiqot

jarayonlarida aytib o‘tilgan fan sohalari yutuqlaridan unumli foydalanilgan holda ish yuritilishi arxivshunoslik fanining rivojiga katta hissa qo‘shadi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Arxiv, arxivarius, arxivshunoslik “Arxivlar to‘g‘risidagi” qonun, “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademisining tarix institutining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaror, O‘zRMAF.

#### Nazorat uchun savollar

1. “Arxiv” deganda nima tushuniladi?
2. Arxivshunoslik fanining predmeti deganda nima tushunnildi?
3. Arxivshunoslik fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Arxivlarning huquqiy-me’yoriy asoslari deganda nimalar tushuniladi?
5. Arxiv ishi bo‘yicha qanday manbalar va adabiyotlar mavjud?
6. Ahmoniyilar salatanatida amal qilgan oramiy yozuvli va oramiy tilli hujjatchilik arxivlari haqida ma’lumot bering?
7. O‘tmish tariximizni o‘rganishda arxiv hujjatlarining ro‘lini izohlang.
8. Arxivlarning hozirgi jamiyat hayotidagi ahamiyati nimalardan iborat?

#### Mustaqil ish topshiriqlari

1. “Arxivlar to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi va arxivlar sohasidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida taqdimot tayyorlash.
2. O‘zbekistonda arxiv ishining rivojlanish dinamikasi bo‘yicha referat tayyorlash.

#### Adabiyotlar

1. “Arxivlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 1999yil 15 aprel.
2. “Arxiv ishi to‘g‘risida” 2009 yil 3 noyabr O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 3-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.
  4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2008 yil 26 avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirish to'g'rsida"gi qarori.
  5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 5-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to'g'rsida"gi qarori.
  6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
  7. Is'hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. –T., 2017.
  8. Алимов И.А. Архившунослик. –Андижон, 2015.
  9. Бобоқулов Б. Архив иши назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. – Т., 2011.
  10. T.R.Schellenberg Modern archives. Princihles Techniques. Chicago. 2003.
  11. Report on archives in the enlarged European Union Increased archival cooperation in Europe: action plan. Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities, –2005.
  12. Archive Principles and Practice. Crown copyright. 2011. P.25.
  13. Ҳужжатлар. Архив атамалари изоҳли лугати. –Т., 2000.
  14. Вальберг Х. Электронные документы в архивах // Отечественные архивы. 2004. № 1.
- Жукова М.П. Комплектование архивов электронными документами // Отечественные архивы. 2000. № 2. С. 5–17.

## **2-§. Markaziy Osiyoda qadimiy yozuvlar, yozuv madaniyati va arxiv ishining vujudga kelishi**

### **2.1. Yozuv madaniyatining shakllanish bosqichlari**

Yozuv insoniyat tarixida eng noyob kashfiyotlardan biri. Shartli chizma belgilar yordamida inson o‘z fikrini tosh, yog‘och, suyak, sopol buyumlar sirti kabilarga muhrlash tajribasiga erishguniga qadar million yillar ibtidoiy yovvoyilik holatida bo‘lgan. Avvalo tafakkurning, so‘ngra esa nutqning xossalarini anglash odamzodning olam ichra sharaflı o‘rnini belgilab bergen desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Nutq inson va faqat insonga musharraf etilgan beqiyos ne’mat ekan, yozuv uni makon va zamonlar osha uzatish, o‘tmishni bugungi kun bilan bog‘lash imkonи sifatida yanada muhim va noyob madaniy hodisa bo‘ldi. Ayni yozuv insoniyat sivilizatsiyasining yaxlitligiga xizmat qila boshladi.

Jahon miqyosida yozuv yaratilganiga besh ming yildan oshdi deb hisoblanadi. Umuman inson biror belgini chizibmi yo o‘yib va yoki bo‘yab qoldirsa u o‘zidan iz qoldirdi demak. Bu ma’noda tosh asrining turli bosqichlaridayoq odamzod bir muncha tajribaga ega edi. Jahon bo‘ylab qoya toshlarda saqlangan son-sanoqsiz rang-bo‘yoq yoki tirnab – o‘yib ishlangan suratlar ham ma’lum ma’no tashish vazifasini o‘tagan. Ularda ham voqelik, turli xil munosabatlар aks etgan. Masalan;, odam nimanidir e’zozlagan, nimanidir daf etishni o‘ylab suratga sirli kuch bag‘ishlamoqchi bo‘lgan. Qadimiy ovchilar hayot uchun eng zarur faoliyat – ov oldidan o‘zlariga omad tilab, qoya toshlar sirtiga o‘yib ishlangan baroridan kelgan ov tasvirlari poyida marosimlar qilishgan. Masalan, Zaraut kamar g‘oridagi yovvoyi ho‘kiz ovi manzarasi, Sarmishsoy qoyalaridagi ov chog‘i tasvirlari, ularning oldida marosim raqsiga tushayotgan ibtidoiy ovchilar va boshqalarni eslash kifoya. Biroq qadimiy qoyatosh suratlari hali yozuv emas edi. Ular qandaydir axborot tashishlari mumkindir. Lekin tasvirlarni istagan kishi istagan tilda tasvirlashi mumkin. Qoya tosh suratlari inson nutqiga bog‘lanmagan edi.

Jahon yozuv amaliyoti tarixida iyeroglif, ideograf tasvir yozuv tajribasi ham olg‘a qo‘yilgan bir qadam edi. Bu o‘rinda tasvirlarning ma’nosini ochib beruvchi aniqlagich

belgilar orqali Misr iyeroglifi suratli tizim Qadimgi Misr tili bilan bog‘langan. Xitoy iyeroglfif yozuvi ham dastlab tasvirlardan boshlanib, asta-sekin shartli ramziy chizma shakllarga kirgan. Qadimgi Hindiston suratli yozuvi haligacha ishonchli o‘qilgan emas. Fest diskidagi (doira shaklidagi sopolak yuzasidagi) suratlarning yozuv sifatidagi mazmuni haqida bahslar uch asr yuzini ko‘rmoqda va hokazo.

Yozuv tarixida harf – tovush, ya’ni bir harf bir tovush birligini ifoda etadigan shartli belgilar tizimi – alifbo paydo bo‘lgunicha inson nutqining tabiatini tushuna borish barobarida yozuvning “belgi-jumla”, “belgi-so‘z”, “belgi-bo‘g‘in” va nihoyat, belgi-tovush kabi murakkab izlanishlar bosqichlari bo‘lib o‘tgan. Ayni harf-tovush, bir belgiga bir fonema to‘g‘ri keladigan yozuv bu sohadagi kashfiyot-chilikning yuksak bosqichi hisoblanadi.

## **2.2. Markaziy Osiyoda yozuv madaniyatining shakllanish bosqichlari**

Markaziy Osiyo xalqlari yozuv madaniyati tarixida ana shu bosqich o‘zining xilma-xil mahalliy yozuv-alifbo tizimlari bilan alohida ajralib turadi. Bu o‘rinda aytish lozimki, genetik asoslari jihatidan asl mahalliy, tub joy va chetdan o‘zlashtirilgan yozuvlar farqlanadi. Masalan;, Qadimgi Xorazmda Qora tobe qoya toshidagi chizmalar va boshqalar. Bu belgilar ko‘pincha shu qadar qorishtirib yuboriladiki, ularni diqqat bilan kuzatib payqash mumkin. S.P.Tolstov Qora tobe qoya chizmalarini qisman Moxenjo Daro (Hindiston)ning qadimiy yozuviga o‘xshashligini ta’kidlagan holda piktogrammadan (rasmli suratli yozuv bosqichidan) ideogrammaga o‘ta boshlash davriga oid deb taxmin bildirgan<sup>2</sup>.

Xuddi shu kabi o‘qilishi bahsli bo‘lib kelayotgan Issiq Qo‘rg‘oni (Olmoti shahri yaqinidagi sak shahzodasining qo‘rg‘on-qabri)dan topilgan kumush idish sirtidagi yozuv ham tub joy kashfiyoti deb baholanishi mumkin. “Issiq yozuvi” nomi bilan yuritilayotgan bu topilmada aks etgan “harf” belgilar Markaziy Osiyo bo‘ylab Janubiy O‘zbekistonda, Afg‘onistonda topilgan. Demak, Issiq yozuvi ulkan mintaqada tarqalgan qadimiy tub yer alifbolarimizdan biri, deb baholash mumkindir.

---

<sup>2</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. – М., 1948. – С.71-76.

## 2.2. Markaziy Osiyoda oramiy yozuvining tarqalishi

Miloddan avvalgi I ming yillik o‘rtalarida Markaziy Osiyoning ulkan qismi, G‘arbda Misrgacha barcha Old Osiyo shomiy xalqlar yurtlari ham Qadimgi Eron ahmoniylar sulolaviy sultanati tomonidan bosib olingan edi. Eron sultanati davlat mahkama ishlarida ayni shu Old Osiyo o‘lkalarida, xususan, Kan’on (Finikiya) yurtida yaratilib, keyinchalik mil.avv. X-IX asrlarda oramiy qabilalari tomonidan o‘zlashtirilgan yozuvdan foydalanishgan. Tabiiyki, Eron ahmoniy humdorlari sultanat miqyosida bir xil, ya’ni oramiy yozuvli mahkama ishlashidan manfaatdor edilar. Shunday qilib, butun sultanat bo‘ylab barcha satrapliklarda, jumladan, Parfiya, Xorazm, Sug‘d, Marg‘iyona, Boxtar yurti va boshqalarda oramiy yozushi amal qildi. Buning ustiga mahkamachilik ishlarida oramiy kotiblari ish yuritganlari uchun hujjatchilik ham dastlab oramiy tilida olib borilgan. Kotiblar hujjat mazmunini fors amaldorlariga forschcha bayon qilib berish odati yuzaga kelgan. Biroq, Eron sultanati davom etgani sari barcha satrapliklarni oramiy kotiblar bilan ta’minalashning iloji bo‘lmay qoldi. Kotibiyat asta-sekin mahalliy ziyolilar qo‘liga o‘ta boshladi. Bular endi oramiy tilini bilmaydigan yangi avlod edi. Natijada hujjatlarni oramiy yozuvida mahalliy tillarda tuzishga amal qila boshlandi. Bu tajribaning bir jihatni bor edi. Bu ham bo‘lsa, matn tuzishda ko‘p takrorlanadigan so‘zlar, ba’zi so‘z birikmalari oramiycha yozilishi edi. Ammo bu kabi oramiycha so‘zlarning jumlalar ichida grammatik bog‘lanishi uchun mahalliy til qo‘sishchalari ishlatilar edi. Ayni shu grammatik ko‘rsatkichlar hujjat tilining mahalliy tilda ekanini ko‘rsatadi. Mahalliy tillardagi matnlarda oramiycha so‘zlar (ular asosan so‘z o‘zaklari) hujjatni o‘qishda oramiycha o‘qilmagan. Chunki oramiycha so‘z mahalliy tildagi mazmunan to‘g‘ri keladigan so‘zni talaffuz qilish uchun darakchi (signal) vazifasini o‘tagan. Masalan; matnda MLKA (malik so‘zi o‘zagi) yozilgan bo‘lsa, sug‘dcha ixshid “podsho” deb o‘qilgan; BARI so‘zi sug‘dcha jote “o‘g‘il”; XMR so‘zi madu “may, vino”; AHN so‘zi bratar “aka” yoki “uka” kabi, MRAY – xvabu (xitav) “hokim” kabi o‘qish uchun so‘z – ishorat (signal) bo‘lgan. Matn tuzishda o‘zga til so‘zlarining “so‘z-signal” vazifasida

ishlatish yozuv tarixida geterografiya deyiladi. Buning ma’nosи o‘z tili so‘zlarini o‘zga tildan “qolip” so‘zlar orqali ifodalash demakdir.

Shunday qilib, Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi V-IV asrlardan boshlab oramiy alifbosi asosida, uning harflarini mahalliy tillar fonetik xususiyatlarini ifodalashga moslashtirilgan mustaqil alifboli yozuvlar paydo bo‘ldi. Bular parfiyoniy, xorazmiy, sug‘diy, oramiy-boxtariy yozuvlari edi. Keyinchalik bu o‘lkalarda, xususan, Hindistonda oramiy asosida paydo bo‘lgan kxaroshtxi, braxmi yozuvlari ham tarqalgan. Boxtar o‘lkasida esa Yunon-boxtar davlati amal qilgan mil.avv. III asr o‘rtalaridan I asr o‘rtalarigacha yunon yozuvi amal qilgan edi. Milodiy I asrda Kushon podsholik sulolasи vakili Kanishka davrida yunon yozuvini mahalliy boxtar tiliga moslashtirib yunon-boxtar yozuviga asos solindi. Bu yozuv arab istilosi davrlariga qadar amal qildi. Ayniqsa, uning tezkor ravon usuli eftaliy yozuvi deb shartli ravishda atalgan davri ham bor.

Mazkur yozuvlar orasida sug‘d yozuvining mavqeи baland, tarqalish maydoni xalqaro miqyosda edi. Buning sababi Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab xalqaro savdo – madaniy aloqalarda sug‘d xalqining faol ishtiroki bilan izohlanadi. Natijada sug‘d alifbosi asosida uning kursiv (ravon tezkor) husnixat shaklining bevosita ta’sirida uyg‘ur-turkiy yozuv yuzaga kelgan. Sug‘d yozuvi ta’sirida keyinchalik yozuv yaratish mo‘g‘ullarga, manchjurlarga, va nihoyat, koreys xalqigacha yetib borgan. Bu o‘rinda koreys yozuvining yaratilish tarixini hozir VII-VIII asrlar bilan bog‘liq deb isbotlangani madaniy ta’sirlarning qadimiy ildizlarini bilish ma’nosida muhim yangilikdir. Koreys alifboli yozuvi Koguryo, Pekche, Shilla (Silla) davlatchilik bosqichlaridan keyin bir necha asr Xitoyning siyosiy va madaniy ta’sirini zo‘rmazo‘raki singdirishga urinishlar tufayli hayotga joriy etilishi qiyin bo‘lgan. Biroq, Koryo va Choson qirolliklari davrida, xususan, Koreyani kuchli mustaqil davlatga aylantirish yo‘lida katta islohot ishlarini amalga oshirgan qirol Sechjon (1418-1450) davrida koreys yozuvini yanada mukammallashtirib, 28 harfli alifbo sifatida maxsus buyruq bilan joriy etildi.

Markaziy Osiyoning qadimiy yozuvlari oramiy alifbosini davom ettirganlari sababli o'sha ajdod alifbodagi kabi 22 harfli belgilar tizimidan iborat bo'lgan: alif, beyt, gimal, dalet, ha, vav, zayn, xet, tet, yoy, kof, lom, mim, nun, se, a'yn, pe, tsadde, qof, resh, shin, tau – bular oramiy harflarining an'anaviy “nomlari”. Asli bularning o'zi kan'oniy (finikiy) yozuvining davomida paydo bo'lgan. Holbuki, hali hanuz ushbu sal kam 3500 yillik qadimiy alifbo tizimlarining nomlari zamonaviy alifbo tizimlarining tartibida, ba'zi siljishlarni e'tiborga olmasak, saqlanib kelmoqda: alif, be, te, se, yu, jim, dol, zol, va h.k.; alfa, beta, gamma, delta.....; ey, bi, si, di....., a, b, v, g, d..... va hokazo.

Yuqorida qayd etilgan qadimiy Markaziy Osiyo yozuvlaridan parfiyoniy, xorazmiy, sug'diy, uyg'ur-turkiy, oramiy-boxtar, yunon-boxtar, o'rta fors pahlaviy, nihoyat, qadimgi turkiy yozuvlarning tarixiy manbashunoslik uchun, bu sohaning muhim yordamchi ilmiy-amaliy tarmog'i – arxivshunoslik uchun ahamiyati beqiyos katta. Zero, arab yozuvi kirib kelib, bu yozuvlarning mavqeい yo'qola borganiga qadar bitilgan ko'p miqdordagi yozma yodgorliklarni ushbu qadimiy yozuvlarni bilmay turib o'rganishning aslo iloji yo'q. Masalan; birgina parfiyoniy yozuvida Eski Niso xarobalaridan 3000 dan ortiq hujjatlar, bir qancha qoya tosh bitiklari, xorazmiy yozuvida Tuproqqal'a arxivi, Aybuyir qal'a, Oqchaxon, Mizedaxkan, Xumbuz tepa, Yakka Porson bitigi, sug'd yozuvida Mug' tog'i sug'd arxividan tashqari o'nlab buddaviy, moniycha, diniy-falsafiy, ahloqiy asarlar epigrafik yodgorliklar yetib kelgan. 25 harfdan iborat yunon-boxtar alifbosi zaminidagi boxtar yozuvining O'zbekiston va Tojikistonning janubiy hududlaridan topilgan namunalaridan tashqari Afg'onistonda yaqinda muhim hujjatlar majmui – ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarga oid yuzdan ortiq boxtariy tilli hujjatlar – Ravatak arxivining topilishi favqulodda muhim hodisa bo'ldi.

#### 2.4. Markaziy Osiyo mintaqasiga arab yozuvining kirib kelishi

O'lkamizga arab yozuvining rasman kirib kelishi (milodiy VIII asr o'rtalarida bevosita, halifa Xishom II davri) ajdodlarimizning qadimiy yozuv madaniyatini ta'qiqlash orqali amalga oshirilgan. Bir tomondan, bu hodisa mintaqamiz xalqlarini

yangi jahon sivilizatsiya maydonlariga olib chiqqani bilan belgili bo'lsa, ikkinchi tomondan, asrlar osha avaylab kelingan yuksak madaniy an'analarning chuqr transformatsiyasiga yo'l ochib berdi. Tez orada o'lkamiz xalqlari o'zлari uchun yangi yozuv madaniyati tajribasiga, keng ma'noda ommaning savodxonlik darajasi yangi arab yozuviga o'tishda qo'l keldi. Qolaversa, qadimgi turkiylar, sug'diyalar, xorazmiy va boshqalar o'zлari asrlar osha foydalanib kelgan yozuvlarning arab yozuvi bilan genetik asoslari bir ekani, bir manbadan turli yo'naliшlarda tarqalganini ongli qabul qilganlar. Natijada oramiy yozuvi alifbo tizimidagi harflarning tovush ifodalash bilan bog'liq ichki ma'nosini o'z tillarining fonetik talablariga javob beradigan qilib, harf-tovush funksional sohasini qisman o'zgartirganlar. Masalan;,, sug'dlar **bet** harfini faqat **lab-lab** b tovush uchun, **h (he)** harfidan o'z tillarida xos tovush bo'limgani uchun 1) satr oxirida bo'sh qolgan o'rinni to'ldirish; 2) muannas (ayol grammatik jins) ma'noni ko'rsatish belgisi qilib foydalanishgan. X (xet) harfiga mos tovush bo'limgani uchun undan sug'dchada deyarli foydalanimagan. X (xet) faqat geterografik oramiycha AXR – ozagida "so'ngra, undan so'ng" ma'nolari uchun ishlatilgan. Sug'd tilida portlovchi d tovushi bo'limgan. Shu sababli oramiycha D (dol) harfi sug'dcha matnlarda yo'q. Lekin sug'dlar alifbo qatorida dol harfi bo'lganini bilishgan. Buni VII asr oxiri VIII asr boshida Panch shahri saroy maktabi (dabiriston)da ta'lim olgan o'quvchining sopol parchasidagi mashq uchun yozgan alifbosida dol harfi borligi tasdiqlaydi. Bundan tashqari sug'd tilida 1 (lom) tovushi bo'limgani sababli oramiycha lom harfi til oldi sirg'aluvchi δ (th) va uning jarangsiz jufti θ kabi tovushlarini ifodalagan.

Sug'dlar keng xalqaro munosabatlar doirasi bilan faol bog'liq bo'lgnlari, shu sabab. o'zлari muloqot qilgan xalqlar tilida mavjud 1 (lom) tovushini zarur o'rnida ishlatishga majbur bo'lishgan. Shu ehtiyoj yuzasidan sug'dlar alifbosida 23 – harf paydo bo'lgn. Bu harf biror kashfiyat emas, balki 12-raqam ostidagi lom harfining takroran yozilishi bo'lgn. Demak, sug'dlar asl oramiy alifbosidagi lom harfining qaysi tovush uchun ishlatilganini bilishgan va bu harfdan qo'shni xalqlar tilidan kiradigan 1 (lom) tovushli so'zlarni yozishda foydalanishgan. Nihoyat, oramiycha

tsadde harfi sug‘dcha Ch (chim) tovushini ifodalashga bo‘ysindirilgan. Oramiycha q (qof) harfi ham sug‘dchada tovush ifodasiga ega emas. Qof harfi hozirgacha ma’lum sug‘dcha matnlarda bir martagina (“Eski xatlar” nomli IV asrga oid maktublar turkumining V matnida) “100” (yuz) raqamini ifodalash uchun ishlatilgan.

Arab yozuvi bosqichida ham qadim ajdodlarimiz yozuv madaniyatining peshqadamlari qatorida bo‘lishgan. Yetib kelgan kitobat yodgorliklarida, epigrafik obidalarda o‘lkamiz hattotlari qo‘li bilan o‘yilgan, koshin parchalaridan yig‘ilgan naqshin bitiklar arab xatining turli grafik usullari va husnixat shakllarida bajarilgan. Ayniqsa, ko‘p foydalanilgan xat turlari ko‘fa va uning variantlari, nasta’liq, suls va shikasta shakllaridir. Bulardan tashqari arab yozuvi epigrafik yodgorliklari orasida ko‘p turli muhra naqshin bitiklar usulidan ham foydalanilgan. Ular imorat peshtoqlari, ustunlari va burchak naqshlaridir. Gumbaz ostidan roviy yozuvlarda va imorat dekorativ yozuvlarida asosan Qur’on va Hadis matnlaridan ibratli parchalar bitilar edi. Umuman imorat bezak yozuvlarining g‘oyaviy asosi devorlar yuzasidagi “al-mulk lillah” jumlasiga qo‘sishimchadek hisoblanadi.

Arab yozuvining kitobiy husnixat turlari ham bir qancha. Kitoblar nasx, ta’lik, nasta’liq, suls kabi mashhur xatlar bilan bitilgan. Ularning boshlov lavhalarida ko‘pincha ko‘fa yozuvining badiiy turlaridan hamda shikasta usullariidan foydalanilgan.

Markaziy Osiyoda arab yozuvining VIII asrdayoq faol o‘zlashtirilishi va mahalliy tillarga modifikatsiya qilingan alifbolarning tezda shakllanishi bejiz hodisa emas edi. Buning ostida ajdodlarimizning saltak uch ming yillik yozuv an’analari va madaniyati yotar edi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** iyeroglyph, ideograf, petroglif, issiq yozuvi, oramiy yozuvi, parfiyoniy yozuvi, xorazmiy yozuvi, sug‘diy yozuvi, oramiy-boxtariy yozuvi, yunon-boxtar yozuvi, arab yozuvi.

Nazorat uchun savollar:

1. Markaziy Osiyoda yozuv madaniyatining shakllanish bosqichlari?
2. O‘tmish tariximiz haqida aniq ma’lumot beradigan eng noyob kashfiyot?

3. Markaziy Osiyoda oramiy yozuvining tarqalishi?
4. Oramiy yozuvi amal qilgan hududlar?
5. Markaziy Osiyoda yunon-boxtar yozuvining paydo bo‘lishi shart-sharoitlari?
6. “Issiq yozuvi” haqida qanday hujjat?
7. Markaziy Osiyo mintaqasiga arab yozuvining kirib kelishi.

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. *Markaziy Osiyoda ilk yozuvning paydo bo‘lishi.*
2. *Markaziy Osiyoda boxtariy yozuvining shakllanishi.*

### **Adabiyotlar**

1. Is’hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. –T., 2017.
2. Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой писменной культуры (древность и раннее средневековье). –Т., 2008.
3. Исҳоқов М. Суғд ёзувининг шаклланиши ва тараққиёти. / Ўлмас обидалар. Тошкент : Фан, 1989. – 3-146 б.
4. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (Қадимги замон ва ўрта асрлар). – Т.: Ўқитувчи, 2001.
5. Мадраимов А. Фузаилова Г. Манбашунослик. Бакалавриат таълим йўналиши талабалари учун дарслик. –Тошкент, 2008.
6. Архив атамалари изоҳли луғати. –Т., 2000.
7. Дьяконов И.М. Люди города Ур. –М., 1990.
8. Дьяконов И.М., Лившиц В.А. Документы из Нисы. –М., 1960.
9. Новые документы из Старой Нисы. / Переднеазатский сборник. М.: ГРВЛ. 1966.

### **3-§. Ahmoniyalar hukmronligi davrida Yaqin Sharq arxiv ishi an'analarining Markaziy Osiyo xalqlariga ta'siri**

#### **3.1. Qadimgi Eronning ahmoniyalar davri yozma manbalari**

Qadimgi Eronning ahmoniyalar davri turli xil yozma manbalar bilan kengroq hujjatlashtirilgan. Bular shohlar yozuvlari, tarixiy yilnomalar, qonunchilik farmoyishlari, shohlarning farmonlari va satraplarning farmoyishlari, raiyatning viloyat hokimlariga yozilgan shikoyatlari, eronlik yuqori amaldorlarning shaxsiy xatlari, mulklarni boshqarish yuzasidan ko'rsatmalar, soliqlarni yig'ish va qullarga munosabat, soliqlarni to'laganlik haqida kvitansiya (patta), harbiy majburiyatlarni o'taganlik haqida hujjatlar, sud jarayoni bayonnomalari, nikoh shartnomalari, arenda shartnomalari, qarzdorlik tilxatlari, diniy va ilmiy asarlar, adabiy qissalar va boshqalar. Turli xil tillarda yozilgan bu matnlar Eron davlati aholisining tarixiy voqealar jarayonini, iqtisodiy va ijtimoiy tarixini o'rganish, madaniy hayoti, kundalik hayat tarzi, turmushi va urf-odatlarini o'rganishda katta imkoniyat beradi.

Ahmoniyalar epigrafik mixxat yozuvlarining deyarli barchasi qadimgi fors, elam va akkad tillarida yozilgan. Ular tarixiy voqealarning qimmatli guvohligi ekanidan tashqari turli tillardagi ijtimoiy leksikani taqqoslashga yordam beradi. Muhim savdo yo'llaridan, shohlarning qabrlari, saroylarning devorlari va ustunlaridan yoki metal buyumlardan, quro'llar va tosh vazalardan va muhrlardan topilgan juda ko'plab yozuvlar nashr qilindi. Ba'zi yozuvlar saroy poydevorlaridan topilgan, bular quruvchilar tomonidan qurilish jarayonida yotqizilgan.

Qadimgi fors yozuvlarining ko'pchiligi Eron, Elam va Midiyadan topilgan. Ulardan eng kattasi – bu Behistun yozuvlaridir. Bu yozuv Kambiz hukmronligining oxirlaridagi voqealarni va Doro I podsholigining birinchi yillaridagi tarixiy voqealarni o'zida aks ettirgan. Behistun yozuvi Kirmonshohdan sharqda 30 km masofadagi Bobil bilan Ekbatanni bir-biriga bog'laydigan karvon yo'li ustidan topilgan. Bu karvon yo'li baqtriya-hind chegaralarigacha davom etgan. Yozuv 105 m balandlikda tik tog' qoyasiga yozilgan.

Yozuvning umumiyligi 7,80 m, eni 22 m. Yozuv markazida beshta ustunli qadimgi fors varianti, ularning dastlabki to'rttasi eniga 2 m dan kam bo'limgan joyni egallaydi, balandligi 4 m keladi. Jami qadimgi eron matni 515 qator, fors matni ustida balandligi 3 m va eni 5,48 m keladigan relyef (bo'rtma tasvir) lavhas bor. Unda Doron o'zini podsho qilib ko'rsatadi va unga bo'ysingan shohlar ustidan qozongan zafarini ko'z-ko'z qladi.

Relyefdan o'ngda dastlabki elam variantining o'chirilgan tik qatorlari bo'lib, relefni kengaytirish maqsadida yozuvni qoyaga yozganlar tomonidan o'chirilgan bo'lgan. Har bir qator balandligi 2,10m. bo'lib, eniga 1,5 m. dir. Elam matni 323 qatorni tashkil qiladi. Fors variantidan o'ng tomonda, ancha keyingi uchta ustun xat mavjud bo'lib, u dastlabki elam variantining nusxasidir va birinchi to'rt ustunli fors matniga mos tushadi. Har ikkala variantda 650 qator elam yozuvi bor. Relyefdan chapda akkad varianti bo'lib, eni 3,23 m. dan 4,36 m gacha va balandligi 3,16 m. dan 3,37 m. gacha, 141 uzun qatorli yozuvdir. Bundan tashqari 11 kichik yozuqlar bo'lib, ular bo'rtma tasvirlar yaqiniga yozilgan. 1963-64yillarda Tehronda o'sha vaqtdagi G'arbiy Germaniya arxeologiya instituti ekspeditsiyasi yozuvlarni sinchiklab o'rghanib, relyefni rasmga olgan.

Doro I ning boshqa bir yozuvi Persepoldan shimoldagi Naqshi Rustamda yozilgan. Ahmoniyalar shohlari qabrlariga kirishda, qoyaga mixxat xatida Doro I ning qadimgi eron, elam va akkad yozuvlaridagi xatlari yozilgan. Unda shoh shajarasi va Eronga tobe mamlakatlar ro'yxati hamda etnik va huquqiy asoslari bitilgan bo'lib, Doro I ning mamlakatni idora qilishda undan foydalangan. U yerda Doro I ning aksi tushirilgan relief ham bor. Kserksning yozuvi ham saqlanib qolgan.

Doro I va Kserksning Persepol va Suzadagi yozuvlari muhim ahamiyatga ega. Shularning muhimlaridan biri, Persepolda Doro yozuvi bilan oltin va kumushga yozilgan garov xatlaridir. Suzada Doro I ning saroyida yozuvlarning ko'plab nusxalari topilgan. Marmar, loy taxtachalarga va g'ishtlarga bitilgan yozuvlar topilgan. Bu yozuvlarning ba'zilari shoh saroyining turli joylariga, ba'zan poydevorlariga qo'yilgan.

1970 va 1972yillarda fransuz arxeologlari tekshirish natijasida noyob yozuvlarni topishgan. 1972 yilda ular Doro I ning 3 metrli haykalini topganlar (boshi saqlanmagan). Unda qadimgi fors, elam, akkad va misr iyerogliflari bilan bitilgan matnlar bo‘lgan. Bular sultanatning turli qismlariga turli tillarda jonatilgan deklarativ matnlar va farmonlarning nushalari hisoblanadi.

Persepol va Pasargadda Kserksning toshga o‘yilgan yozuvi topilgan bo‘lib, ta’qiqlangan xudolarning tangrilari bilan kurashi haqida ma’lumot berilgan.

So‘nggi ahmoniyalar podsholarining tarix uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yozuvlari ham topilgan. Bundan tashqari, Eronda o‘ndan ortiq oltin va kumush idishlar topilgan bo‘lib, ularda qadimgi fors mixxat yozuvi yoki uch tilli (elam, akkad va fors tillaridagi) matnlar (trilingvalar) topilgan.

Bir qator ahmoniyalar davri yozuvlari Midiyadan topilgan. Hamadon yaqinida mixxat yozuvli trilingva, oltin va kumush plastinkalarda yozuvlar topilgan. Bular Ekbatanadagi (hozirgi Hamadon) Doro I saroyi poydevoriga qo‘yilgan. Bobilda shoh saroyi xarobasida toshga o‘yilgan Bexistun yozuvi variantining parchasi topilgan. Urukda mixxat yozuvidagi trilingva bitilgan alebastr vaza (ayoq) topilgan.

Misrdan ahmoniyalar yozuvlari topilgan. U Doro I ning Suvaysh kanali qurilishidagi eski fors, elam, akkad va misr iyeroglif yozuvidagi uchta tosh lavhadir. Erondagи Suza shahri xarobalaridan ko‘plab vazalar (ayoqlar) topilgan bo‘lib, ular Misrda tayyorlanib, Eronga keltirilgan.

1952-1955yillarda turk arxeologlari tomonidan Kichik Osiyodagi Eron satrapi poytaxti Daskildan ahmoniyalar davriga oid 300 ga yaqin farmonlar arxivni topilgan. Ulardan 41 tasi mixxat yozuvida va oramiy yozuvidagi muxrlar (bullalar) bilan tasdiqlangan<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup>Hujjat o ‘rami bog ‘langan tizimcha ustidan yopishtirilgan loyga bosilgan muhr izlari bulla deyiladi. Bu loy muhr hujjatni adresatga yetguncha hech kim ochmaganiga guvohdir. Adresat hujjatni ochgan paytda loy muhr sinib parchalangan. Ularni arxeologlар shu holda topishgan.

Xullas, ahmoniy podshohlarining qadimgi fors mixxati yozushi o'yib tushirilgan muxrlari ko'plab saqlanib qolgan. Jumladan, Moskvada Artakserk (Artaxshastra) II ning tasviri tushirilgan mixxat yozuvli muxri saqlanmoqda.

### 3.2. Avesta

Zardushtiylik (Mazda Yasna) dinining asosiy manbai Avesta kitobi Markaziy Osiyo va O'rta Sharq xalqlarining eng qadimgi yozma yodgorligidir. Ilk bora Avesta oramiy yozushi yordamida kitobga birlashtirilgan deb hisoblanadi. Avestaning oramiy yozuvli nusxasi esa yunon-makedon bosqini davrida Aleksandrning buyrug'i bilan olovga tashlangan, degan xabarlar manbalarda yetib kelgan. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, gap Avestaning 12 ming mol terisiga oltin harflar bilan yozilgan va "Doro ibn Doro" saroyi xazinasida (ya'ni xos arxiv yoki kutubxonada) saqlangan nusxasi haqida bormoqda. Shunday qilib, Avesta kitobi yo'q qilingach, uni mo'badlar xotirasida (yod olingan holda) avloddan avlodga o'tib kelgan shaklidan qayta yozib olishga qaratilgan harakatlar ko'p marta takrorlangan. Dastlabki urinish Parfiya podshosi Valaxsh V (Vologez) davrida (miloddan avv. I asr oxiri – milodiy I asr boshlari), keyinchalik zardushtiylik Eronga kirib borib davlat dini maqomiga ko'tarilgan III asrdan boshlab to milodiy VI asr o'rtalarigacha Avestani to'liq tiklashga harakatlar takror-takror amalga oshirilgan. Nihoyat, milodiy 531-579yillarda podsholik qilgan Xusrav I Anushirvon davrida bu ish payoniga yetib, Avesta 21 kitob (nasklar) shaklida tiklangan. Bu orada O'rta Osiyo xalqlari og'zaki ravishda Avesta matnlarini avloddan-avlodga uzatishda davom etishgan. Chunki zardushtiylikda din amali uchun har bir xonodon otasi javobgar deb hisoblangan.

Milodiy VI asrga kelib kitob shaklida tiklangan Avestaning taqdiri og'ir kechdi. Arab istilosi va islom dini joriy etilishi tufayli zardushtiylik va Avesta o'z o'rnini musulmonchilik va Qur'onga bo'shatib bera boshladi. Bunga islomdag'i vahdoniyatning mutloqligi va zardushtiylikda yaratganning yakkaligi g'oyasidan

chekinish (turli ma’bud va ma’budalarga sig‘inishga yo‘l berilishi) kabi farq katta ro‘l o‘ynagan.

Markaziy Osiyo va O’rta Sharq mintaqalarida islom keng tarqalgan vaziyatda zardushtiylikni saqlab qolishga harakat qilgan ayrim jamoalar islom o‘lkalaridan qochib Hindistonga, uning Mumbay va Gujarat viloyatlariga joylashganlar. Ayni shu jamoalar Avestaning eng muhim nasklarini – Yasna, Videvdat, Visparat, Yasht qismlarini saqlab, bugungi kungacha yetkazganlar. Hozirda Avestaning eng qadimiy qo‘lyozmasi Daniyada Kopengagen kutubxonasida saqlanmoqda. O‘zbekistonda shu nusxa asosidagi faksimil nashrning bir nusxasi Fanlar akademiyasi Bosh kutubxonasida mavjud. Bundan tashqari O‘z R FA Abu Rayhon Beruniy nmidagi sharqshunoslik institute kutubxonasida Avestaning XIX asr oxirda amalga oshirilgan ingliz tiliga tarjimasi (Jahon muqaddas kitoblari turkumida) saqlanmoqda.

Avesta faqat shu kitobni yozib olish uchun maxsus yaratilgan 51 harfli alifbo yordamida ko‘chirilgan va o‘ta e’zozlangan kitob bo‘lgani uchun podshohlar xazinalarida, ibodatxonalar (otashkadalar)ning mo‘tabar zahiralarida saqlangan.

Avestaning tarixiy manba sifatidagi ahamiyati benihoya katta. Unda asotiriy tasavvurlardan boshlab ulkan tarixiy-ijtimoiy, madaniy, ma’naviy jarayonlar, huquqiy masalalar aks etgan.

Hindstonning Mumbay shahridagi zardushtiylik va Avesta tadqiqotlai Koma institutida Avestaning sunggi bir necha asrlarda ko‘chirilgan nus’halari mavjud. Bulardan tashqari Avestani sharxlovchi hamda zardushtiylikning tarixi, payg‘ambari Zardusht hayoti, diniy kosmogoniya, axloqiy-falsafiy risolalar o‘rtta fors pahlaviy tilida yetib kelgan. Bular “Zotsparam”, “Bundaxishn”, “Dotestone meno‘gi xirad”, “Shoyast na shoyast” va boshqalar.

### **3.3. Elam hujjatlari**

Suza arxivi. Fransuz arxeologlari tomonidan Suzadagi akropolda qazish ishlari davrida elam xo‘jalik hujjatlari arxivi topilgan (300 ta taxtachadan ortiq).

Matnlar sanasi yo‘q, lekin mazmuniga ko‘ra, ularni ilk ahmoniyalar davriga (Kir II podsholigi davriga) taalluqli bo‘lishi mumkin deb hisoblanadi. Biroq, bu hujjatlarni so‘nggi Elam podsholigi yillari bilan belgilash mumkin, (650-630 yy.) yoki bobil-liklarning Suzani bosib olish davri (600-560 yy.) bilan bog‘lash mumkin. Elam hujjatlari qadimgi eronliklar haqida muhim ma’lumotlar beradi. Masalan, bir hujjat ahmoniyalar davri Doro I yoki Artakserks I podsholigi davri bilan belgilangan. Hozircha bu taxtacha (табличка)ning boshqa taxtachalar bilan bog‘liqligi aniqlanmagan. Hujjatlar V.Sheyrl tomonidan nashr qilingan, rus tiliga tarjimasi Yu.B.Yusufov tomonidan amalga oshirilgan. Yu.Yusufov 1-298 matnlar VI asrning ikkinchi choragiga to‘g‘ri kelishini, 301-307 matnlar VI asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelishini taxmin qiladi. 1950 yil R.Girshman Suzada uchta elam xo‘jalik hujjatlarini topgan, bular ham Suza taxtachalari kabi o‘sha davrga taalluqli bo‘lgan.

### **3.4. Persepol arxivi**

1933-1934-y. Chikago universiteti Sharqshunoslik instituti arxeologik ekspeditsiyasi E.Xersfeld rahbarligida Persepolning shimoli-g‘arbiy burchagida qal‘a devorini qazib ochgan. U yerdan ko‘plab elam yozuvidagi mixxat matnlarini topgan. Ular shartli ravishda “qal‘a devori taxtachalari”<sup>4</sup> (“Таблички крепостной стены) nomini olgan.

1969yilda R.Xollog mazkur matnlardan 2087 hujjatni nashr qilgan. Minglab matnlar chop qilinmay qolgan. Dastlab topilmalar 30000 atrofida deb e’lon qilingan, ammo nashr qilishga yaraydiganlari soni 8000 tani tashkil etgan. Ba’zilari hanuzgacha o‘qib chiqilmagan va tarjima qilinmagan.

Qal‘a devori hujjatlari mil.avv. 509-494yillar, ya’ni Doro I ning 37 yil davom etgan hukmronligi davrining 13-28yillari bilan belgilanmoqda. Ular garchi barchasi Persepoldan topilsa ham ko‘proq Eronning Pars viloyati va qadimgi Elam hududida (shu bilan birga ba’zi matnlar Suzada) yozilgan. Taxtachalarni ikki katta guruhga bo‘lish mumkin:

<sup>4</sup> Tablichki so’zi xumdonda pishirilgan g’isht ko’rinishidagi yozma yodgorlik bo’lib, yuzasiga o’yib xat bitilgan loy taxtacha.

1) Xo‘jalik talablari va davlat zahiralari uchun bir joydan ikkinchi joyga turli xil oziq-ovqatlarni tashish bilan bog‘liq yirik operatsiyalarni ro‘yxatga olish hujjatalari;

2) Shoh xo‘jalik xodimlari va amaldorlar uchun oziq-ovqat tarqatganligi to‘g‘risidagi vedomost-qaydnomalardan iborat.

Matnlar orasida har xil hajmdagi hujjatlar, ya’ni bir va bir necha qatordan iborat yozuvli yorliqlardan tortib, 80-90 va undan ham ortiq qatorli yozuv bitilgan oziq-ovqatlar xarajatlarining yig‘ma qaydnomalari uchraydi. Mazkur yig‘ma vedomostlarda ma’lum joyda ma’lum qaydnoma asosida oziq-ovqatlarning sarf qilinganligi aks ettirilgan. Bu qaydnomalar ba’zan bir necha yillik xarajatlardan iborat bo‘lgan. Oziq-ovqatlarni aniq maqsadda sarflanganligi to‘g‘risida yozma ma’lumot - tilxatlar ham bor.

Matnlarda oziq-ovqatlarni tashish va hayvonlarni joydan joyga haydash, soliq olish, ishchilar uchun oziq-ovqat berish va davlat amaldorlariga maosh berish va boshqalar haqida ma’lumotlar bor. Ular orasida uy hayvonlarining terilarini omborga topshirganlik haqida hujjatlar, oziq-ovqatlar (don, un, o‘simplik yog‘i, may, bo‘za, xurmo va mevalar) nimalarga sarf qilinganligini ko‘rsatib qilingan hisobotlari bor.

Qal’a devorlaridagi taxtachalar orasida yuqori martabali shoh amaldorlarining yozishmalari saqlanib qolgan. Hozircha 78 ta xat nashr qilingan.

Qal’a devor matnlari mazmuniga ko‘ra, 1936-1938yillarda Persepol shoh yo‘lining janubi-g‘arbiy burchagida qazib olingan xazinaning bir xonasida topilgan qimmatbaho buyumlar haqidagi hujjatlar deb nomlanuvchi hujjatlar bilan o‘xshashligi bor. Jami 753 ta yaxlit taxtachalar va 200 hujjatning parchalari topilgan. Shulardan 140 qa yaqini Kamerun tomonidan nashr qilingan. Bo‘laklarning aksariyatidagi matnlarni bir-biriga bog‘lab bo‘lmaganligi sababli nashr qilishning iloji bo‘lmagan.

Qimmatbaho buyumlar xazinasi hujjatlari 492-458yillar (Doro I ning 30yillaridan to Artakserks I ning 7yil hukmronligigacha bo‘lgan davr) bilan sanalashtirilgan va Persepol saroy xo‘jaligi hamda uning viloyatlari xo‘jaliklariga kumush va natural oziq-ovqatlar berilishini qayd etgan. Bu matnlar saroy xazinasi

bilan saroy ombori o‘rtasidagi oziq-ovqatlarni sarf qilish to‘g‘risidagi hisob-kitoblardir.

Formulyarlarga ko‘ra<sup>5</sup>, hujjatlar xatlar va **esdalik yozuvlari** (“*memorial notes*”)ga bo‘linadi. Xatlar har xil amaldorlardan Persepoldagi xazina mudiriga jo‘natilgan. Xatlarda ma’lum miqdordagi pul qaysidir bajargan ishi uchun ma’lum kishilarga berilishi ko‘rsatilgan. Esdalik yozuvlarida bajarilgan ish, u qachon boshlanib, qachon tugaganligi, ishga mas’ul shaxs va ishchilarga ularning mala-kasiga ko‘ra turlicha (kategoriya) toifaga asosan ish haqi miqdori to‘lanishi (ko‘rsatilgan) aks etgan. Xazina va qal’a devorlarining ba’zi matnlari shohning shaxsiy farmonlaridan iborat.

Hujjatlar muhrlar bilan tasdiqlangan, muhrlar g‘o‘lakcha (*silindr*) va to‘rburchak shaklida (*shtempel-tug‘ro ko‘rinishida*) bo‘lgan. Xazina taxtachalarida 199 muhr saqlangan (loy bullalar)<sup>6</sup>. Kamerun muhrlardan 114 tasini nashr qilgan. Qal’a devorlaridagi matnlarda juda ko‘p muhrlar bo‘lib, hali ular to‘liq nashr qilinmagan. Bu turkum yuzdan ortiq muhrlarda yozuvlar mixxat yoki ba’zan oramiy xatida yozilgan. Aytish mumkinki, qal’a devori matnlarining birida (№1853) Ashpazan ismli amaldorning muhri aniqlangan. Bu ism o‘yilgan muhr xazinaning yana to‘rtta taxtachasida ham bor.

Persepoldagi elam taxtachalari tashqi ko‘rinishiga ko‘ra mixxat yozuvli loy taxtachalar guruhiba mansub. Bobilning ayni shu davrga oid (sinxron) tablichakalaridan farqli o‘laroq o‘ng qirg‘og‘i dumaloq, chap qirg‘og‘i esa yapasqi silliq ko‘rinishga ega, sababi u joyga muhr tushirilishi kerak edi. Bundan tashqari bobil hujjatlaridan farqli ravishda Persepol hujjatlari oramiycha ko‘chirmalariga bog‘lab qo‘yilgan. Bunga taxtachalarning silliq burchagidagi teshik va tizimchalar guvohlik beradi. Aksariyat taxtachalarning o‘lchami - uzunligi 6 sm, eni 3 sm bo‘lgan.

---

<sup>5</sup>Formulyar – hujjatning boshlov va tugallash qismlaridagi an’ anaviy jumlalardir. Bu o‘rinda sarfiyot haqida xotirot yozuvlarining ikki xili haqida so‘z bormoqda. Ularning biri maktub, ikkinchisi eslatma shakli.

<sup>6</sup>Bulla so‘zi hujjat o‘ramining tizimcha bog‘ichi ustiga yopishtirilgan loyga tushirilgan muhr izi ma’ nosini bildiruvchi atama.

Persepol hujjatlari barchasi biror istisnosiz juda muhim. Binobarin, o'sha davrga oid ko'plab manbalar mavjudligiga qaramay, axmoniyalar davri arxivining topilishi katta ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, xususiy arxivlar va ibodatxona xo'jalik arxivlari Persepol hujjatlari Erondagi shoh xo'jaligi to'g'risida favqulodda ko'p ma'lumot berdi. Hujjatlar qadimgi eron leksikasini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi, chunki ularda elamliklar o'zlashtirib olgan ko'plab qadimgi eroniy so'zlar, 200 tacha fors ismlari tilga olingan. Ismlar jamiyatning mafkuraviy g'oyasi, turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy munosabatlariga ishorat qiluvchi materialdir.

### **3.5. Akkad hujjatlari**

Old Osiyoning chegaralarida IX-VII asrlarga taalluqli ossur (ashshuriy) yozuvlari eron qabilalari to'g'risida muhim ma'lumotlar beradi. Yozuvlarda Ossuriya qo'shinlarining u yoki bu Eron viloyatlariga yurishlari aks ettirilgan. Masalan, shunday matnlarning birida Parshumashaning podshosi Kir I esga olinadi. Yozuvlardan ba'zilarida Ossuriyaning oliy xudosi Ashshurga qaysidir bir harbiy yurish tafsiloti ma'lum qilingan. Shunday matnlar orasida Sargon II ning Urartu va u bilan qo'shni viloyatlarga 714yilda qilgan urushi haqida ma'lumot berilgan. Eron viloyatlariga uyuştirilgan yurishlarning muhim natijalari, jumladan muhim tarixiy voqealar ossuriya harbnomalarida bayon qilingan. Shu bilan birga, ba'zi shohlar yurishlarining geografik bayoni ham berilgan, g'alabanoma yozuvlarida esa voqealarning qisqa bayoni berilgan. Ossuriya podsholarining yurishlari haqidagi ikkita tosh lavha Midiya hududidan topilgan.

Hamma matnlarda Ossuriya yurishlarining g'alabalari sharaflanadi, ammo mag'lubiyatlari to'g'risida og'iz ochilmagan. Lekin ossur ayg'oqchilarining xabarları, chegara viloyatlari hokimlarining ossur podshosiga xabarları, shohning farmoyishlari va VIII-VII asrlardagi diplomatik yozishmalar ham saqlanib qolgan. Ossur podsholarining chegara viloyatlardagi voqealar yuzasidan xudolarning karomatli kohinlari (orakul)ga murojaatlari ham diqqatga sazovordir (Masalan;, VII asrning ikkinchi choragida Assarxadon va Ashshurbanipalning murojaatlari).

672yil Ossur podshosi Assarxadonning Midiya hukmdori bilan tuzgan shartnomasining matni ham saqlanib qolgan. Bu matn Midiya hukmdori buyrug‘i bilan akkad tilida yozdirilgan bo‘lib, qadimgi Midiya hududida saqlangan.

VIII asrdan boshlab Bobilda ob-havo haqidagi yozuvlarda muhim tarixiy voqealar xronologik tartibda bayon qilingan. Shu matnlar asosida 745-668, 626-623, 616-595 va 556-538yillarda sodir bo‘lgan Eronning siyosiy voqealari tarixi bayon qilingan. Bu xronikalarda, jumladan, Midiya va Bobil qo‘sishlari zarbasiga dosh bero’lmay mag‘lub bo‘lgan Ossuriya davlatining qulashi hikoya qilingan (616-609yillarda Xronika Gedda deb ataluvchi), shu bilan birga eronliklar tomonidan Mesopotamiyaning bosib olinishi ham tilga olinadi. (556-538yillarda Nabonid-Kir xronikasi. Bu hujjat Kir II davrida tuzilgan bo‘lib, Nabonidga adovat ruhida yozilgan).

Keltirilgan so‘nggi xronikalarda Mesopotamiyaning eronliklar tomonidan bosib olingandan so‘ng bobil kohinlari tomonidan yozilgan matnlar uchraydi. Bu avvalo so‘nggi Bobil shohi Nabonid hukmronligining to‘liq bo‘limgan she’riy usulda yozilgan hisobotidir. Matnlarda forslarning, jumladan, Kir II ning faoliyati, Bobilga harbiy yurishlari va mamlakatni bosib olishi haqidagi ma’lumotlar uchraydi. Ayniqsa, Kir II ning Mesopotamiyaning bo‘ysundirilgan aholisiga nisbatan tutgan siyosati haqida hikoya qilinadigan Kir II ning silindri<sup>7</sup> katta ahamiyat kasb etadi. Kir yozuvining akkad tilidagi tarjima matni Urdan ham topilgan. Biroq, barcha matnlar Kirning foydasiga Nabonidni qoralab yozilgan. Shuning uchun matnlar sinchkovlik bilan taqqoslab o‘rganilishi muhimdir.

Bobildan bir qolipda bo‘lgan so‘nggi ahmoniy shohlarining yozuvlari bilan bir qatorda ahmoniyalar davriga oid 4000 dan ortiq xususiy huquqiy va ma’muriy xo‘jalik hujjatlari topilgan. Ularning asosiyлари (3000) Kir II, Kambiz va Doro I hukmronligi yillariga tegishlidir. Hujjatlar so‘nggi bobil lahjasida akkad tilida tuzilgan va aksariyati xumdonda pishirilmagan loy taxtachalarga yozilgan. Bundan tashqari,

---

<sup>7</sup> Silindr – loy g ‘o ‘lak. Unga Kir II harbiy yurishi, bosib olingan yurt aholisiga nisbatan siyosati haqidagi ma’lumotlar mixxat bilan o ‘yib yozilgan.

mingdan ortiq ahmoniyalar davri bobil hujjatlari hali nashr qilinmagan (ular muzeylarda va xususiy jamg‘armalarda saqlanmoqda).

Bobildagi ibodatxona va shaxsiy arxivlarda saqlanayotgan 400 ta xat ham ahmoniyalar davriga oiddir. Ular uzun ingichka to‘g‘ri to‘rtburchak loy taxtachalarga mayda zikh qilib yozilgan. Ularning ba’zilari xumdonda pishirilgan, ko‘pchiligi quyoshda quritilgan. Xatlar manzilga muhrlangan loy konvertlarda jo‘natilgan, shu bilan xatning maxfiyligi himoya qilingan va shikastlanishining oldi olingan. Xatlarning ko‘pchiligi ma’muriy-xo‘jalik xarakterga ega bo‘lgan. Xatlarning aksar ko‘pchiligi Urukdagি Eanna ibodatxonasi va Sispardagi Ebabbarra arxivlaridan topilgan. Xususiy arxivlardan ham xatlar topilgan (tadbirkorlik yozishmalari, oilaviy yozishmalar va b.).

Bobil hujjatlarining kattagina qismi yirik shaharlar (Bobil, Sippar, Ur, Uruk, Nippur va b.)dan topilgan. Bobildagi ayrim ahmoniyalar davri davlat (shoh) arxivlari matnlarini hisobga olmaganda, barcha hujjatlar ibodatxona va shaxsiy arxivlarga taalluqli. Ibodatxona arxivlaridan Urukdagи Eanna va Sippardagi Ebabbarr ibodatxona arxivlarini alohida ta’kidlamoq zarur.

Shaxsiy arxivlardan Egibi va Murashu xonadoni shaxsiy arxivlari boy hujjatlar fondiga ega. Egiba arxivi hujjatlarining ko‘pi Bobilda va uning atroflarida tuzilgan. Ammo bu arxiv hujjatlari turli muzey va nashriyotlarga tarqalib ketgan.

Murashu xonadoni arxivi bitta xonadan topilgan, shuning uchun to‘liq nashr qilingan. Hammasi bo‘lib, 730 ta taxtacha (taxtacha). Ularning aksariyati juda yaxshi saqlangan. Shu kungacha asosiy ko‘pchiligi nashr qilingan. Ular o‘nlab kotiblar tomonidan juda toza va mayin pishitilgan loyga yozilgan. Taxtachalar Nippur va atrofdagi viloyatlarda yozilgan. Ularda 200 dan ortiq aholi punktlari tilga olinadi. Aksariyat matnlar Artakserks I va Doro II davri bilan sanalashtirilgan.

Hujjatlarning ozgina qismi boshqa davlatlarga tegishli. Bu esa bobilliklarning savdo ishlari bilan boshqa davlatlarga borganligi va u yerda turli xil shartnomalar tuzganligidan dalolat beradi. Masalan;,, Egibi va Murashu xonadoni a’zolari Ekbatan va Suzaga borishgan va u yerda tuzilgan shartnomalar yetib kelgan.

Bobildan tashqaridagi joylarda akkad tilida hujjatlarning tuzilishi ahmoniyalar davrida o'sha joylarda ko'plab bobilliklar yashaganligidan dalolat beradi.

Persepoldagi taxtachalar orasida 502yilda davlat solig'i to'laganlik qayd qilgan akkad tilida yozilgan bitta mufassal matn topilgan. Kamerunning fikricha, bu hujjat Persepolda tuzilmagan, balki birorta Bobil shahrida tuzilib, keyinchalik Eronga keltirilgan, bunday bo'lmasligi ham mumkin, chunki matnda soliq to'lovchilar bobilliklar emas, midiyaliklar bo'lib chiqqan. Persepoldagi qal'a devorlari taxtachalari orasida yangi bobil lahjasidagi taxtacha topilgan, lekin bu hujjat hali o'qilmagan. Neyrabda (Suriyadagi Halafdan 5 km masofada) akkad tilidagi hujjat topilgan bo'lib, uning sanalari Nabonid davridan to Kambiz va Navuxodonosar IV davrigacha bo'lgan yillar bilan taqqoslanadi.

### **3.6. Oramiy matnlari**

Fors davlatida oramiy tilli hujjatchilik keng yoyilganligini Qizil dengizdag'i Elefantin oro'lidan to Hindiston chegaralarigacha bo'lgan ulkan hududda topilgan ko'plab papirus, charm o'ramlari, toshlardagi yozuvlar, tangalar, tarozi toshlari, muhrlar va loydan yasab quritilgan "taxtachalar"ga o'yib bitilgan yozuvlar tasdiqlaydi.

Masalan, Naqshi Rustamdan mil.av. III asrga taalluqli yozuv topilgan. Unda Salavk ismi uchraydi. 1936-38yillarda Persepolda siniq tosh idish topilgan. Shu kabi idishlarning 203 bo'lagida qora siyoh bilan yozilgan oramiy yozuvli oramiy tilidagi matnlar bo'lgan.

Erondan mil.av. VIII-V asrlarga taalluqli oramiy yozuvli ko'plab vazalar? qadahlar (ayoqlar)<sup>8</sup> topilgan.

Persepoldagi qal'a devoridan topilgan matnlar orasida bir necha sopol taxtachalar diqqatga loyiq. Bundan tashqari, elam tilidagi matnli 44 ta taxtacha topilgan. Ularga siyoh bilan oramiy yozuvi va oramiy tilida izoylar qo'shimcha ma'lumotlar sifatida ilova qilingan. Bu qo'shimcha yozuvlar Elam matni mazmunining qisqacha bayonlaridir.

---

<sup>8</sup>Idish-ayoq – juft so'z. Uning ikkinchi juz'i baland ayoqqa o'rnatilgan idish-vazani bildiradi. O'rta asrlarda ayoq so'zi qadah ma'nosida ham qo'llangan (M.Is'hoqov)

Shu kabi oramiy tilidagi va oramiy yozuvidagi qo'shimchalar mil. av. VII asrlardagi bobil mixxat yozuvlariga ham qo'shilgan. Bunday qo'shimcha izohlar V asr hujjatlarida ayniqsa ko'p uchraydi. Murashu va Nippur arxivlari buning yaqqol misolidir.

Mesopotamiyada yozuv uchun asosan charm va papirus ishlatalgan. Ahmoniyalar davrida shaxsiy huquqiy va xo'jalik hujjatlari oramiy tilida charmga yozilgan.

Charm va papirusga yozilgan yozuvlar quruq iqlimli sharoitlarda saqlanib qolgan. 1962-64yillarda qadimgi Ierixondan 14 km masofadagi Vadi Daliyaxda, ya'ni ahmoniyalar davridagi sobiq Samariya viloyatida topilgan bitta qabrdagi 20 ga yaqin oramiycha papirus va yuzlab hujjat parchalari topilgan. Ular juda yomon ahvolda saqlangan. Papiruslarda 29 muhrning izi saqlangan va sinmagan. Papiruslardagi matnlar xususiy huquqiy va ma'muriy xarakterga ega (nikoh shartnomalari, qullarning huquqiy-ijtimoiy holati, mulklarning oldi-sotdisi va b.) bo'lib, mil.av. 375-335yillarni o'z ichiga oladi

Misrda ahmoniyalar davriga oid 200 oramiy papirusi topilgan, aksariyati yaxshi saqlangan. Ba'zi papiruslar XIX asrda ma'lum bo'lgan. Birinchi oramiy papirusi Yevropaga 1824yilda keltirilgan. Ularni 1903yildan nashr qilish boshlangan. 1907-1908yillarda Elefantinda nemis arxeologlari 100 ga yaqin papiruslarni topishgan, bular yahudiy harbiy koloniyasiga taalluqli. Ba'zi hujjatlarda butun bullalar (loy muhr) topilgan. Ularning aksariyati, nikoh shartnomalari, oldi-sotdi hujjatlari, shu bilan birga ahmoniy podsholarining farmonlari va boshqa rasmiy hujjatlardir. Ushbu arxivda bulardan tashqari Qadimgi Eron podsholarining diplomatik maktublari hamda Falastindagi harbiy istehkomlar bilan yahudiy jamoalari o'rtasidagi munosabatlarga taalluqli yozishmalar ham bor. Ba'zi hujjatlar V asrning ikkinchi yarmi bilan sanalangan. Ularning orasida Bexistun yozuvlarining oramiy tilli tarjimalari ham bo'lgan. Bular Doro I devonidan Misrga jo'natilgan, kechroq ko'chirilgan Naqshi Rustam qoyasidagi matnning tarjimasi edi.

1954yil G.R.Dreyver tomonidan Misrdagi fors satrapi Arshamaning 13 ta xatidan iborat muhim kolleksiyasi nashr qilindi. Matnlar charmga oramiy tilida yozilgan. Ular V asrda Misrda fors podsholarining hukmronligi to‘g‘risida guvohlik beradi. Ular ishchi kuchini olish bo‘yicha ko‘rsatmalar, itoatsiz qullarga munosabat, Arshama va boshqa fors amaldorlarining yerlarini boshqarish to‘g‘risidagi hujjatlardir. Xatlar Arshamadan va boshqa eron mansabdor amaldorlaridan mulk boshqaruvchilariga, ehtimol Bobil va Suzaga jo‘natilgan maktublarning nusxalaridir. Shunday qilib, ular shaxsiy xatlar tarzida yozilgan bo‘lsa ham, satrap sifatida Arshamaning xizmat faoliyatiga daxldor bo‘lmasa ham, xat jo‘natuvchilarning yuqori lavozimlarini hisobga olsak, bu xatlar rasmiy yoki (yarim rasmiy) xarakterga ega bo‘lib, davlat ishlari to‘g‘risida muhim ma’lumotlar beradi. Xatlarga sana qo‘yilmagan, lekin ularning mazmuniga qarab, Dreyver ularni 411-408yillarga to‘g‘ri keladi, deb baholaydi. Shu bilan birga xatlarning 454yilda yozilgan bo‘lishi mumkinligini ham inkor qilmaydi. Xatlarda loy surguch ustidan bosilgan muhr izlari –bullalar saqlangan. Bir muhrda ikkita fors jangchisining dushmanni qo‘li bilan ushlab turganligi tasvirlangan. Jang tasvirida quyosh gardishi va oramiy yozuvi izlari bo‘lib, uni “Shahzoda Arshamaning muhri” deb tarjima qilingan. Dreyver, bu xatlar Arshamaning amaldorlaridan birining arxividan bir qismi bo‘lishi mumkin, deb hisoblaydi. Arshama amaldorlaridan Nextimorga jo‘natilgan xat bo‘lib, ular Nextimorning shaxsiy arxivi hujjatlaridan bo‘lishi ehtimol.

1945yilda Misr arxeologi Sami Gabra Tuna El-Djebel (Qadimgi G‘arbiy Germopol) qabristonidan Misr xudosi Tatuning ramzi hisoblangan ibis qushi mumiyolarini topgan (laylakka o‘xshagan qush). Qabnda 8 ta oramiy papirus solingan loy idish ham bo‘lgan. Ular mamlakatda qo‘zg‘olon vaqtida qabristonga yashirilgan bo‘lishi kerak. Bu papiruslar shaxsiy maktublar bo‘lib, Memfisdan oramiy harbiy kolonistlari tomonidan Misrdagi semit kolonistlariga jo‘natilgan (4 ta xat Sienga qolganlari Ofi, ya’ni Luksorga jo‘natilgan). Ularda oilaviy xabarlar, yaxshi niyatlar, savdo ishlariga ko‘rsatmalar berilgan. Matnga sana qo‘yilmagan, lekin yozuv uslubi V

asrga taalluqlidir. Idishga yaqin joyda muhra shaklida “Intarvii” so‘zi bitilgan ashyo bo‘lib, bu so‘z Doro I ismining misrcha aytilishidir. Xat o‘rami ochilmagan holda topilgan. Hujjat qandaydir sabablarga ko‘ra, manzilga yetib bormagan, Germopol janubida yo‘lda to‘xtab qolgan. Hujjat katta ilmiy ahamiyatga ega. Ular tadbirkorlik aloqalari va Misrning turli joylarida semit harbiy koloniyalari bilan yozishmalar bo‘lganligidan dalolat beradi. Elefantis papiruslaridan farqli o‘laroq, germopol xatlari oramiylar va boshqa semit qabilalarining (Nobu, Betelk, Malkat-Shamni xudolariga sig‘inuvchi) til xususiyatlari to‘g‘risida muhim xabarlar beradi.

Misrdagi oramiy manbalaridan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: 1931yil N.Eme-Jiron 112 ta matnni nashr qildi, ulardagi papiruslar orasida sopol bo‘laklari va buyumlar sirtiga tirnab yozilgan matnlar ham bo‘lgan. Barcha matnlar 1926yildagi Sakkara (Memfis) dagi qazish ishlari chog‘ida topilgan. Ushbu to‘plamdagagi papiruslarning ko‘pchiligi, noshirning fikriga qaraganda, Memfisdagagi harbiy kemalarmi qurish va ta’mirlash bo‘yicha davlat arsenali kundaliklarining qismi hisoblanadi. Matnlarda misr va eron sanalari uchraydi, lekin birorta podshoning nomi tilga olinmagan, shuning uchun hujjatlarning yozilgan yilini aniqlash mushkul. Ehtimol ular V asrga taalluqlidir. 1913 va 1917yillardagi Sakkaradagi qazishlar chog‘ida papiruslardan bir nechasi Eme-Jiron tomonidan topilgan.

Doro I podsholigining 7yilida (517 y.) yerni ijaraga berish to‘g‘risidagi shartnomaga ahmoniylar davriga taalluqli hujjatlarning eng qadimgisidir. Bir papirusda bir kishining finikiya shahri Sidondan misr xodosi Osirisni ziyorat qilish uchun borayotganligi haqida oramiy papirusi hikoya qiladi.

Ahmoniylar davri oramiy yozushi bo‘laklari, hanuzgacha yetarli darajada nashr qilinmagan. Ularning nashri bilan A. Dyupon – Sommer shug‘ullangan. Bo‘laklarining bir qismi finikiya tilida yozilgan. Fors podsholari davri oramiy matnlari orasida diniy ma’nodagi oramiy yozuvlari muhim o‘rin tutadi.

### 3.7. Demotik matnlar

Ahmoniyalar hukmronlik qilgan davrdagi Misrda demotik hamda ravon yugurik iyeratik<sup>9</sup> usulda yozilgan hujjatlar ko‘plab topilgan. Bu matnlar orasida avvalo Sais podsholaridan Amasis va Psammetix III davridagi yirik amaldor bo‘lgan Udjagorrecept yozuvini eslatish mumkin. Sais podsholari Amasis va Psammetix III keyinchalik Kambiz va Doro I ga yaqin bo‘lgan. Kambizning misr ibodatxonalarining mol-mulkini cheklash to‘g‘risidagi dekreti – farmoni, mamlakatni eronliklar bosib olganigacha muomalada bo‘lgan misr qonunlarini kodlash to‘g‘risidagi Doro I ning farmoni katta ahamiyatga ega. Har ikkala matn asl hujjatdan nusxadir. Demotika xronikasi deb ataladigan nusxa asl matnning orqa tomoniga yozilgan. Matn mil.av. III asrda Janubiy Misrda yozilgan. Xronikaning boshi va oxiri yo‘qolgan. Matnda Misrni bosqinchilarining zulmlaridan ozod qiladigan qadimgi misrlik buyuk Fir‘avnning kelishi haqida mahdiylik bashorati yozilgan. Mazkur matn so‘nggi ahmoniyalar davrida Misrdagi shart-sharoit to‘g‘risida yorqin ma’lumot beradi.

Voqealar tafsili mil.av. 404yildan boshlanadi. XXVIII-XXX sulolalar hukmdorlarining nomlari aniq ketma-ketlikda berilgan.

Eronliklar davridagi ma’muriy va huquqiy tizim to‘g‘risidagi qimmatli axborotlar satrap Farndatga jo‘natilgan demotik xatlarda berilgan va boshqa bir papirus *Rylandsqa* kohinlar tomonidan Petesining mol-mulki olib qo‘yilgani to‘g‘risidagi shikoyati bayon qilingan. Ahmoniy podsholarining misr ibodatxonalariga qimmatbaho hadyalar to‘g‘risida, ayrim shaxslarning va fors podsholariga qarshi mahalliy hokimlarning qo‘zg‘olon ko‘targanlari haqidagi yozuv saqlanib qolgan.

J.Pozdner Kambiz, Doro I, Kserks va Artakserks I larning davri bilan sanalangan 117 ta misr matnkarini nashr qilgan. Ularning bir qismi nomlari zikr qilingan podsholar tomonidan, qolganlari fors amaldorlari tomonidan tuzilgan. 12 ta yozuv Vadi-xammamatdagi tosh yo‘nuvchilar boshlig‘i bo‘lgan fors amaldorlari tomonidan tuzilgan. Shu bilan birga Fayyum, Memfis va boshqa joylardagi

---

<sup>9</sup> *Demotik* va *iyeratik* atamalari Misr iyeroglyphlarining tez yozuvga moslangan kursiv variantiga nisbatan ishlataladi.

toshlarda Doro I ning yozuvlari topilgan. Ularning ko‘pchiligi misr xudolariga yoki ilohiyashtirilgan ob’ektlarga murojaatlardan iborat.

Misr-oramiy yozuvlari ham ma’lum. Ba’zi matnlar mixxat yozuvlari bilan birga uchraydi. Bir qancha shaxsiy huquqiy hujjatlar ham saqlanib qolgan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** ahamoniylar sulolasi, qoyalardagi yodnomalar, Avesta matnlari, Elam hujjatlari, mixxat yozuvlari, Persepol arxiv, akkad matnlari, oramiy matnlari, demotik matnlar.

### Nazorat uchun savollar:

1. Qadimgi Eronning ahmoniylar davri yozma manbalari?
2. Ahmoniylar davrida yozuvlar va ularning amaliyoti?
3. Ahmoniylar hukmronligi davriga taalluqli arxiv hujjatlari?
4. Behistun yozuvi?
5. Naqshi Rustam yozma yodgorligi?
6. Avestaning eng qadimiy qo‘lyozma nusxalari?
7. Avesta materiallari bu hujjatmi?
8. Elam hujjatlari arxiv ish yuritilishining na’munasi sifatida.
9. Akkad matnlari sizga tanishmi?
10. Persepol arxivini to‘g‘risida ma’lumot bering?
11. Demotik matnlar haqida ma’lumot bering?

### Mustaqil ish topshiriqlari:

1. *Ahmoniylar davrida hujjatchilik an’analarining paydo bo‘lishi.*
2. *Oramiy matnlari tarixni o‘rganishda muhim manba.*
3. *Oramiy yozuvlarining Markaziy Osiyoga kirib kelishi.*

### Adabiyotlar

1. Is’hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. –T., 2017.
2. Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой писменной культуры (древность и раннее средневековье). –Т., 2008.
3. Дьяконов И.М. Люди города Ура. –М., 1990.

4. Дьяконов И.М., Лившиц В.А. Документы из Нисы. –М., 1960.

#### **4 - §. Yunon-Baqtriya, Parfiya va Kushonlar davrida davlat ish yuritish an'analari va arxivlar**

##### **4.1. Yunon-Baqtriyada davlat ish yuritish an'analari va arxivlar**

Baqtriya, antik mualliflar ta'biri bilan aytganda, Baktriana Markaziy Osiyo janubidagi qadimgi madaniy viloyatlardan biri hisoblanadi. Baqtriya – Amudaryoning yuqori oqimi, Vaxsh, Kofirnigon va Surxondaryoning o'ng tomonida, shimolda Hisor tog'lari bilan o'ralgan, janubda esa Hinduqush tog'lari bilan tugagan (hozirgi Shimoliy Afg'oniston, Janubiy Tojikiston va Janubiy O'zbekiston) katta hudud hisoblanadi. Bu mamlakat Qadimgi Sharqda ikki o'rkachli tuyalari, otlari va feruza toshlari bilan mashhur bo'lgan.

Mil.av. I ming yillik o'rtalarida Baqtriya Ahmoniylar sultanatining eng oxirgi sharqiy satrapi hisoblangan. Mil av. 329-327yillarda Baqtriyani Aleksandr Makedonskiy bosib oladi. Uning sultanati parchalangandan so'ng bu yerlar Salavkiylar mulkiga aylanib qoladi.

Salavkaning Hindistondagi mag'lubiyati salavkiylarning O'rta Osiyodagi noiblari ahvoliga sezilarni darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu holat bu yerda salavkiylarga qarshi kurash kuchayishiga sabab bo'ldi. O'rta Osyo viloyatlari mulklaridan mahrum bo'lishidan qo'rqib ketgan Salavka I o'z vorisi Antiox I boshchiligidagi Sharqiy noiblik (satraplik)larni ta'sis etgan edi. Mil. avv. 293 yilda Salavka o'g'li Antioxni Sharqiy satrapliklarga, ya'ni O'rta Osyo viloyatlariga o'zining noibi etib tayinlaydi. Antiox vayron etilgan qal'alarni tikladi, Quyi Murg'ob vohasini o'rab olgan yirik va qalin mudofaa devor (Marg'iyona devori) bunyod etdi, qo'zg'ololnlarni bostirdi. U salavkiylar qudratini namoyish etish maqsadida atrof o'troq va ko'chmanchi aholi ustiga harbiy yurishlar uyushtirdi. Antiox tomonidan o'tkazilgan bir qancha harbiy-siyosiy va diplomatik tadbirlar tufayli O'rta Osiyodagi salavkiylarga qarshi harakatlar bostirildi.

Biroq Antiox G‘arbgan qilgan ko‘pgina yurishlari bilan mashg‘ul bo‘lib, o‘z davlatining sharqiga, jumladan O‘rta Osiyo yerlariga kam e’tibor qaratdi. Natijada O‘rta Osiyoning iqtisodiy hayotda o‘zgarishlar yuz berib, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiqlar anchagini rivojlanadi. O‘rta Osiyo harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, salavkiylar bu hudud bo‘ylab o‘tgan savdo yo‘llari bo‘yida shaharlar va tayanch harbiy istehkomlar qurdirgan.

Salavkiylar davrida O‘rta Osiyodagi ahvol birmuncha murakkabroq vaziyatda bo‘lib, bu hudud markazdan ancha uzoqda joylashgan hamda davlatning shimoliy-sharqiy chegaralaridagi ko‘chmanchilarning doimiy xavfi mavjud edi. Ayniqsa, mil.avv. III asrdan boshlab ko‘chmanchilarning ko‘chishlari boshlanishi natijasida chegaralardagi bu xavf yanada ortdi.

Ko‘plab viloyatlarni birlashtirgan Salavkiylar davlatining ichki siyosiy boshqaruv masalalari ancha murakkab edi. Davlatning nihoyatda katta hududlarni qamrab olganligi ayrim hollarda ma’muriy nazoratning susayib ketishiga olib kelgan.

Salavkiylar davlati ma’lum bir xalq yoki elatlardan iborat bo‘lmay, ko‘pdan ko‘p etnik guruhlarni harbiy yo‘l bilan birlashtirishdan tashkil topgan uyushma edi. Salavkiylar davlatida ish yuritish an’analari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, davlat ishlarini olib boruvchi devonxona mavjud bo‘lgan.

Mil.avv. III asrning 60–50-yillariga kelib Kichik Osiyo va Bolqon yarim orolida Salavkiy hukmdorlari o‘rtasida hokimiyat uchun kurashlar avj oldi. Natijada salavkiylar davlatining sharqiy viloyatlarida siyosiy vaziyat o‘zgarib markazdan qochuvchi kuchlarning harakatlari faollashdi. Mil.avv. 250 yilga kelib Parfiya va Yunon-Baqtriya davlatlari salavkiylar davlatidan ajralib chiqib o‘zlarini mustaqil deb e’lon qiladilar.

Shunday qilib, miloddan avvalgi III asrning o‘rtalaridan e’tiboran O‘rta Osiyoda Yunon-Baqtriya davlati hukmronligi boshlanadi. Bu davrga taalluqli arxiv hujjatlari O‘rta Osiyo hududlarida topilib o‘rganilgan. Arxiv hujjatlari O‘rta Osiyoda davlat ish yuritish ishining juda erta vujudga kelganligi va shakllanganligidan dalolat beradi.

Mazkur davlat o‘rnida miloddan avvalgi I va milodiy IV asrlar oralig‘ida Kushonlar sultanati hukmronlik qilgan. Baqtriya mil.av. III asr o‘rtasidan boshlab Yunon-Baqtriya davlatining markaziga aylanadi.

#### **4.2. Parfiya arxivi**

Mil.avv. III asr o‘ralarida hozirgi Turkmanistonning janubi g‘arbida dah qabilalarning Arshakiylar xonadoni hukmronligida Parfiya (Parhava) davlati qad ko‘targan. Parfiya davlatining poytaxti Mihrdatkirt (Mihrdatkirt), keyinchalik o‘rta aslada Niso deb atalgan shahar edi. Parfiya davlati va uning xo‘jaligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti to‘g‘risida parfiyoniy tilli hujjatlar arxivi topilgan.

Parfiyoniy hujjatlar Eski Niso xaobalari – Ashigabad yaqinidagi Bagir tepaligidan topib o‘rganilgan. 1948yilda M.E.Masson rahbarligidagi Janubiy Turkmaniston arxeologik ekspeditsiyasi vakillari Eski Nisodan bir necha oramiy yozuvli sopol bo‘laklarini topishgan. Ish davomida arxeolog tadqiqotchilar Eski Nisodagi musallas omboridan yozuvlar bitilgan 3000 dan ortiq sopol parchalari topilishiga erishdilar. Fanga Eski Niso arxivi nomi bilan kirgan parfiya arxiv hujjatlari qadimgi tariximizni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Parfiya arxivi hujjatlari dastlab M.M.Dyakonov tomonidan o‘qilgan. Keyinchalik I.M.Dyakonov, M.M.Dyakonov, V.A.Livshis, I.N.Vinnikov, Y.Xarmatta kabi olimlar Eski Niso hujjatlarini o‘qib nash qilishgan. Parfiya davlatining poytaxti Mehrdatkirtning qadimgi xarobalari yaqinida o‘rta asr Niso shahri barpo bo‘lgan. O‘z navbatida, bu shahar mo‘g‘ul istilosi davrida vayron etilgan. Bu shahar xarobalari Niso nomi bilan ma’lum bo‘lgani holda qadimiy nomi unitilgan. Mihrdatkirt vayronalari fanda shartli ravishda Eski Niso deb atalgan.

Eski Niso - Parfiya hujjatlari may(vino) ombori hisob-kitoblari mazmunida bo‘lib, sopol parchalariga qora siyoh bilan yozilgan. Ularda may omboriga uzumlarning olib kelinganligi haqidagi yozuvlari bor. Ombordan vino solinadigan katta xumlar topilgan. Xumlar ustiga sopol parchalariga qora siyoh bilan yozuv bitilgan. Yozuvlarda vino kimning qaysi uzumzoridan olib kelingan uzumdan tayyorlanganligi va kim tomonidan may tayyorlanganligi, mayning navi, saqlanish

holati kabi ma'lumotlar bitilgan. Lekin bizgacha yetib kelgan ma'lumotlar unchalik to'liq emas. May solingan xumlarning ustiga "eski may", "sirka" deb yozilgan yozuvlar ham uchraydi. Ba'zi sopol parchalariga avvalgi yozuv o'chirilib, qayta yozilgan. Demak, ba'zi holatlarda sopol parchalaridan avvalgi ma'lumot ahamiyatini yo'qotganda, undagi yozuv yuvib tashlab, yangi ma'lumot uchun bir necha marta foydalanylган. Yangi may deb yozilganlardan tashqari, uning miqdori, uzumning nomi, uzum keltirilgan qishloqning nomi, yetkazuvchi kishining ismi, mayni tayyorlash sanasi, uning navi, tayyorlash joyi va kimga yetkazish kerakligi ko'rsatilgan. Vaqt o'tib, bu hujjatlarda yangi yozuvlar paydo bo'lgan. Yangi mayning boshqa xumga bo'shatilganligi, mayning eskirganligi haqidagi ma'lumotlar ham bor. Eski Niso arxivi yozuvlarida xronologik ma'lumotlar ham ko'rsatilgan, ularda arshak erasi bo'yicha 160yildan 230yilgacha sanalar uchraydi. Ombordan shu yillarga tegishli 338 ta hujjat topilgan.

Bizgacha yetib kelgan hujjatlar asosida yil mobaynida qancha may tayyorlanganligini aniqlash qiyin, ya'ni ularning aniq miqdorini hisoblab bo'lmaydi. Barcha vino podsholik omboriga yetib kelgan. Hujjatlardan 160-230yillarda eng ko'p may Friyapatikan qishlog'idan keltirilganligi aniqlandi.

Niso hujjatlariga qaraganda vinolarni har xil hajmdagi xumlarda saqlashgan. Niso arxivi hujjatlariga asosan vino tayyorlash jarayoni to'g'risida ma'lumotga ham ega bo'lish mumkin. Xususan, omborlarga uzum keltirilib, achitishga qo'yilgan. Uzum kerakli darajada achib yetilgach, siqib sharbati ajratilgan. Sharbat tindirilgan. So'ng qaytadan xumga solinib, ajratilgan uzum topposi bilan birga yana bir muddat saqlashga qo'yilgan. Shu kabi uch marta qayta ishlovdan o'tgan uzum sharbatida spirtlashuv o'z me'yoriga yetib may tayyor bo'lgan. Vinolar xumlarga quyilgan, ba'zi holatlarda xumlardagi vinolar achib, sirkaga aylangan. Vino solingan xumlarga qachon, qancha vino solinganligi, uning navi, qaysi bog'ning uzumidan tayyorlanganligi, vinoning qanchalik sirkalanganligi haqidagi ma'lumotlar hujjatlarda to'liq saqlanib qolgan. Omborlarda vinolarga to'ldirilgan xumlarning sig'imi asosan 180-220 litr bo'lgan.

Eski Niso arxivi Parfiya davlatining ijtimoiy-xo‘jalik hayoti, ma’muriy-soliq tizimini chuqur anglashga imkon beradi.

Hujjatlardan Parfiya davlatining shimoli-sharqiy qismidagi mahalliy boshqaruv mexanizmlari haqida qimmatli dalillarni topish mumkin. Boshlang‘ich ma’muriy birlik diz – mustahkam qishloq (qal’a) bo‘lib, uning boshlig‘i dispot deb atalgan. Dizpatlar satrapga bo‘ysingan. Soliqlar asosan natura bilan to‘langan. Soliqlarni yig‘ish va ularni saqlashda bir qator amaldorlar ishtirok etgan. Masalan;, vino omboriga uzumlarni keltirishda “vino keltiruvchi”, “muhr bosuvchi”, “mirzo”, “hisobchi” kabi amaldorlar unvonlari tilga olinadi.

Demak, Eski Niso arxivi hujjatlari Parfiya davlatining ijtimoiy-xo‘jalik tizimi, soliq tizimi, mahalliy boshqaruv tizimi, joy nomlari, uzumzorlar va ularning egalarining ismlari, amaldorlar unvonlari, yil hisoblari, o‘lchov birliklari, Shimoli-Sharqiy Parfiyaning ma’naviy madaniyati haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Hujjatlar oramiy yozuvining mahalliy parfiyoniy tiliga moslashgan variantida yozilgan. Hujjatlarni o‘qib tahlil qilish bilan shug‘ullangan olimlar, M.M.Dyakonov, I.M.Dyakonov va V.A.Livshitslar o‘z tadqiqotlarining boshlaridayoq ko‘plab muammolar va qiyinchiliklarga duch kelishdi. Chunki so‘zlardan bir qismi oramiy tilida, bir qismi esa parfiya tilida yozilgan, hatto bitta tushunchaning o‘zi bir joyda oramiy tilida ifodalangan bo‘lsa, boshqa joyda parfiya tilidagi ekvivalent ishlatilgan. Ba’zida oramiy tilidagi o‘z ma’nosida emas, parfiya tilidagi boshqa ma’noni anglatib kelgan. Bundan shunday xulosaga kelinganki, oramiycha so‘zlar bu davrga kelib maxsus shifrlar vazifasini bajargan. Ular o‘zining oramiy tilidagi ma’nosini yo‘qotgan bo‘lib, muayyan belgilar ketma-ketligini ko‘rganda parfiyaliklar bu oramiycha so‘zni o‘z tillaridagi so‘z bilan almashtirib o‘qishgan. Bu kabi ideogliflarning jumla ichida boshqa so‘zlar bilan parfiyoniy qo‘sishchalar orqali bog‘lanishi ularning geterografik<sup>10</sup> yozuv ekanini bildiradi. Xattotlarni ko‘p vaqt mashq qildirishgan. Ko‘plab sopol parchalarida xattotlik mashq yozuvlari topilishi shundan dalolat beradi.

---

<sup>10</sup> Geteogafiya so‘zi “o‘zgacha yozish” degani. Bu o‘rinda parfiyoniy o‘qilishi kerak bolgan so‘zlar oramiycha yozilgani ma’nosida. Geterogrammalar asosan ko‘p

Niso hujjatlari qadimgi Parfiyada din haqida ham qiziqarli ma'lumotlar berdi. Parfiyaliklar Mitra va davlat asoschisi Arshakka sig'inishdan tashqari, yunon xudolariga ham e'tiqod qilishgan. Zardushtiylikning yetakchi o'rinda ekani hujjatlardagi kishi ismlarining Avesta panteoniga xosligida yaqqol ko'rindi. Niso hujjatlarida tilga olingan 200 ta ismning aksariyati zardushtiylik dini ismlari bo'lib, hatto hujjatdagi xronologik qaydlar zardushtiylik taqvimiga asoslangan. Shuningdek, Fraata, Nanan va boshqa ko'plab nomlar keltirilgan. Ibodatxonalarning qurilishi haqida yozib qoldirilgan. Niso arxiv hujjatlarida eng avval tilga olingan yil bu miloddan avvalgi 247yilga to'g'ri keladigan bo'lib, undagi sanalar zardushtiylik taqvimiga mos keladi. Hujjatlarda oy va kunlar terminlari ham uchraydi. Shuni aytish mumkinki, zardushtiylik taqvimining tarixiy ildizlari mustaqil va qadimiy asoslarga ega.

Demak, Eski Niso arxivi hujjatlari Parfiya davlatidagi moddiy va ma'naviy madaniyat to'g'risida to'liq ma'lumot olishga ham xizmat qilishi mumkin.

#### **4.3. Baqtriya yozuvi yodgorliklari**

Kushon podsholigining gullab-yashnagan davri Kanishka va uning vorislari bo'lmish Xuvishka va Vasudeva davrlariga to'g'ri keladi. Kanishkaning tangalarida birinchi marta yunoncha yozuvlar o'rnida baqtriya tilidagi yozuvlar paydo bo'la boshlaydi.

V.B.Xenningning fikricha, eron tillari oilasiga mansub baqtriya tili – kushon shohlarining ona tili hisoblangan. Bu holatni nafaqat tangalardagi yozuvlar va epigrafikalar, hattoki podsholarning nomlari ham isbotlaydi<sup>11</sup>.

Undan so'ng Baqtriyaga xioniylar va eftaliylar kirib kela boshlaydilar. Eftaliylar podsholarining tangalarida baqtriya tilidagi yozuvlar saqlanib qolgan. Biroq endi baqtriya yozuvi kursivlashib tez va ravon, harflar o'zaro ulanadigan shaklga kirgan. Shu asosda eftaliylarning Toxariston viloyatlarida eftaliy yozuvli o'rtal bosqich eroniylahjasiga xos til tarqala boshlagan. Bu taxminni VII asrning 30yillarida Toharistonga kelgan xitoy ziyyoratchisi Syuan Szyanning ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Bu

<sup>11</sup>Hozir bu masalada muqobil fikr bor: kushonlar davrida davlat mahkama ishlari Baqtriya mahalliy tilida olib borilgan. Podsholar sulolasini etnik jihatdan prototurkiy qabilalardan bo 'lgan (M.Is'hoqov.).

ma'lumotni baqtriya tili va yozuvi haqida yozgan barcha olimlar (V.V.Bartold, V.A.Livshis) ham ma'qullaydilar. Toxariston tili tarkibiga ko'ra, boshqa podsholiklarning tillaridan biroz farq qiladi. Toxariston yozividagi harflar soni 25 ta bo'lib, gorizontal chapdan o'ngga qarab yozilgan. Bu tilda adabiy asarlar sug'd tiliga nisbatan ancha ko'p yozilgan. Toxariston yozuvi alifbosi yunonlardan kelib chiqqan bo'lishi mumkin hamda bu yozuv Toxaristondan tashqari Bomiyon, Shug'non, Chitro'l va boshqa qo'shni viloyatlarda ham qo'llanilgan. Syuan Szyan xabarlari ham shuni ko'rsatadi.

Baqtriya yozuvining va shu bilan birga Baqtriyadagi sharqiy eroniylarining fors-tojik, dariy va turkiy tillar ta'sirida Baqtriya hududidan siqib chiqarilishi arablar bosqinidan so'ng kuchayib ketgan. Oqibatda qadimgi baqtriya tiliga yaqin bo'lgan sharqiy eroniylar faqat Baqtriyaning sharqiy viloyatlarida – uzoq va umumiylar vaziyatidan chetda qolgan tog'li Munjan vodiysida, Hindiqush va Pomir tog'laridagi kichik vodiylardagina saqlanib qoldi.

Tangalardagi yozuvlarga asoslanib aytish mumkinki, Kanishka davrida yunon alifbosi baqtriya tiliga moslashtirilgan. Tangalarning yuzasiga yunon tilidagi yozuvlar o'rniiga baqtriya tilidagi yozuvlar yozdirilgan. Yunon alifbosi asosida baqtriya yozuvining shakllanishi Kanishka davridan avvalroq Vima Kadfiz davrida paydo bo'lgan deyish hanuzgacha o'z tasdig'ini topgani yo'q.

Baqtriya tilidagi so'zlarni yozishda yunon alifbosining tanlanishi eramizning birinchi asrlarida Baqtriyada ellistik an'analarning, yunon madaniyati va tilining mustahkam o'rin topganligidan dalolat beradi. Baqtriya nomlarini yunon harflari orqali aks ettirishga bo'lgan urinish Kanishkagacha bo'lgan davrdayoq boshlangan. Yunon harflaridan nafaqat nomlarni va mansablarni yozishda, balki yunon tilida bo'limgan so'zlarni yozishda foydalanila boshlangan. Natijada yunon harflari orqali yunon tilida bo'limgan tovushlarni aks ettiradigan belgilar tizimi – baqtriya alifbosi yaratilgan.

X.Yunker, E.Xersfeld va R.Kyuriel asarlarida baqtriya yozuvi yunon kursiv yozuvlaridan kelib chiqqan deb e'tirof qilingan edi. Baqtriya yozuvi

paleografiyasiga R.Kyuriel, A.Marik, X.Xumbax, R.Gyobl, I.Gershevich va V.A.Livshislarning asarlarida maxsus bo'limlar ajratilgan. Baqtriya yozuvining ikki turi – monumental va kursiv turlari ajratib ko'rsatiladi. Monumental yozuvlarga belgilarning o'zaro ulanmasligi, harflarning burchakli (qirrali) va dumaloq shaklda yozilishi xos bo'lib, bu so'zlarni o'qishda yengillik tug'diradi. Kursiv yozuv so'zdagi harflar biri ikkinchisiga ulanib yozilish uslubidir. Bunda o'qish ancha mushkullik tug'diradi. Monumental yozuv kushonlar davri yodgorliklari uchun xosdir. Bu yozuv namunalarini Surx-ko'tal va Dilberjindan topilgan matnlarda ko'rish mumkin. Kursiv usulda yozish tendensiyasi monumental yozuvlarga nisbatan kuchayib boradi. Va nihoyat, Eftaliylar davriga kelib, kursiv yozuv uslubi tamoman g'alaba qiladi. Ba'zi muhrlarda ham kursiv, ham qirrali yozuv shakli qo'llanilgan. Rivojlangan baqtriya kursiv yozuvi Eski Termez - Qora-tepa budda monastir devorlarida, kushon-sosoniy va eftaliy tangalarda, Uruzgandagi devor yozuvlarida va Tochi vodiysidan topilgan bitiklarda uchraydi.

Buyuk Kushonlardan keyingi davr tangalardagi yozuvlarda kursiv usulga o'ta boshlagan. Bu yozuvlarni o'qish nihoyatda qiyin edi. Kushon-sosoniy skifat<sup>12</sup> tangalaridagi, kidariy va eftaliylar tangalaridagi, sosoniy tangalaridagi eftalit va arab-eftalit tangalaridagi yunon alifbosiga borib taqaluvchi kursiv yozuvli yozuvlar turlicha talqin qilinadi. Tangalardagi unvonlar va shaxs nomlari o'rta eroniy til holatini aks ettiradi, boshqalari esa hind va turk tilidan kelib chiqqan. Mavjud yozuvlar orqali eftaliylar tili to'g'risida aniq fikr aytish qiyin, lekin shunga qaramasdan tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, baqtriya tili eftaliylarga qarashli bo'lган Toxariston viloyatida ham ma'muriy boshqaruv doirasida amal qilgan. Toxariston esa turkiy yobg'ular tomonidan boshqarilgan.

Kushon-sosoniy tangalari Cunningham 1893, Herzfeld 1930, Lukonin 1967), A.Bivar (Bivar 1968) kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Keyingi paytda o'zbek olimlaridan G'aybullaga Boboyorov bu sohada ish olib bormoqda.

---

<sup>12</sup>Skifat so 'zi tanga yuzasida maxsus yumaloq muhra yordamida hosil qilingan botiqlik ma' nosidagi atama.

Muhrlarda va gemmalarda<sup>13</sup> baqtriya yozuvlari saqlanib qolgan. Bularning na'munalari Angliya, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston va boshqa mamlakatlarning muzeylarida va kolleksiyalarida saqlanmoqda. Mazkur matnlarni Bivar "Korpus ironayazichnix nadpisey" kitobining jildlaridan birida nashr qildirgan (Bivar 1968). Leningraddagi Ermitajda saqlanayotgan gemma-muhrda bitilgan baqtriya yozuvlarini B.Ya.Staviskiy 1961, 1962yillarda nashr qildirgan edi. Aksariyat yozuvlar kursivda bitilgan, lapidar yozuvlari juda kam. Quyida baqtriya yozuvli gemma na'munalaridan bir nechtasida o'qilgan ismlarni va mansablarni keltiramiz:

Asbarobido - "kavaleriya boshlig'i", ahmoniyarlarning ma'muriy boshqaruv tilidagi asbar tarixan aspabara "otda yuruvchi", "suvoriy" so'zidan olingan.

Borsogoigo – "Burzgo o'g'li" atamasi V.A.Livshisning fikriga ko'ra kushonshoh Varaxran davriga taalluqli.

Findofarris – "zabt etuvchi, g'olib farr". Farr tushunchasi farraxlik, baxtlilik demakdir. Zero, Farr samoviy, ilohiy baxt ma'nosidagi farishtaning nomidir.

Freixoadeo (freya-xvatavea – fdtcn. Frey- azizam, yoqimtoyginam, dr.ir. xvatava- hukmdor).

Gemmalardagi ba'zi unvonlar g'arbiy erondan olinganligi aniqlangan.

Baqtriya yozuvli muhr va gemmalarni A.Bivar bilan X.Xumbax to'plagan. Unga qadimgi Panjikent xarobalaridan topilgan kursiv yozuvdagi oltita bulla parchalaridagi yozuvni ham qo'shish mumkin.

Syuan Szyan va XII asr arab muallifi as-Sama'nining ma'lumotlariga ko'ra, baqtriya tilida juda ko'p adabiyotlar va yozma manbalar bo'lgan. Bu qo'lyozma boyliklardan faqat bir nechta bo'laklargina, hammasi bo'lib 50 qatorcha yozuv saqlanib qolgan, lekin u ham bo'lsa to'liq emas. Paleografik va arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, eng qadimgi yozuv bu IV asrga taalluqli "London parchasi" yoki "Lou-Landan topilgan fragment" deb nomlanib, u A.Steyn tomonidan Sharqiy Turkistondagi Lou-Lan xarobalaridan topilgan va F.Tomas nashr qildirgan. Bu bo'lak o'n qator yozuvdan iborat, uning na boshi va na oxiri bor.

---

<sup>13</sup> Qimmatbaho toshlardan zargarlik buyumlariga? Jumladan uzuklarga ko'zlar o'matilib, ularga o'yib tushirilgan yozuvlar va tasvirlar ishlangan. Muhr sifatida foydalanilgan bunday buyumlar **gemma** deyiladi.

1905yilda A. Fon Le-Kok Sharqiy Turkistonning Turfan vodiysidagi Tuyok daryosi vohasidagi ibodatxona xarobalaridan qog‘oz, beresta va pal’ma barglariga yozilgan manixey, xristian va budda qo‘lyozmalarini topgan<sup>14</sup>. Ular orasida yetta “oq xunlar” yoki eftaliylarning yozuvlari ham bo‘lgan<sup>15</sup>. O‘sha joyda topilgan VIII-IX asrlar qo‘lyozmalari va boshqa ashyoviy materiallar, baqtriya yozuvlari “Berlin (eftalit) fragmentlari” yoki Berlin muzeyi hind san’ati obidalari nomi ostida saqlanmoqda.

Baqtriya hududidan baqtar yozuvidagi birinchi topilma 50yillarning boshiga to‘g‘ri keladi. Bu davr Amudaryoning o‘ng sohilida (Tojikiston va O‘zbekistonning janubida) olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bilan bog‘liq. Birinchilar qatoriga 1951yilda Dushanbedan topilgan xumning og‘ziga yozilgan bitik parchasini kiritish mumkin. Unda yagona so‘z – harflari o‘zaro ulanmagan holda (*lapidar usulda*) “zado” so‘zi bitilgan. Buning ma’nosи “daraxt yelimi” demakdir.

1952yilda Ko‘lob viloyatining Dashtijum tumanidan bronza qo‘ng‘iroqcha topilgan. Unda yunon harfiga o‘xhash bo‘lgan 17 (yoki 18) belgidan iborat yozuv o‘yilgan edi. Bu yozuv hanuzgacha o‘qilmagan. Shuni ta’kidlamoq kerakki, Baqtriya hududidan shunga o‘xhash bir qator yozuвлар topilgan bo‘lib, hanuzgacha o‘qilmaganlari mavjud. B.I.Marshak Varaxsha devoridagi rasmga e’tiborni jalb qilgan. Rasmda olim filga tashlanayotgan afsonaviy qush - grifonning qanotlari patlarida yunon harflariga o‘xhash belgilarni ko‘rgan, lekin hanuzgacha uni tushunib yetilmagan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Markaziy Afg‘onistondan baqtriya epigrafik yodgorliklari hamda Qandahorning shimoliy-g‘arbidagi Uruzganda qoya yozuvlari ham topilgan. Bu yozuvlar 1954- yilda nashr qilingan. Noshirlar bir-biridan uzoq bo‘lماqan toshga o‘yilgan ikkita kursiv xatini topishgan. Matnlarning boshidagi birinchi belgilari bir xil bo‘lgan, lekin oxiri bir-biridan farq qilgan. Ikkinci yozuvni

<sup>14</sup>Ilk o‘rta asrlarda Sharqiy Turkistonda qog ‘oz ishlab chiqarish keng yo ‘Iga qo ‘yilgan; beresta – qayin yoki terak po ‘stiga yozilgan matn; palma daraxti bargidan yozuv materiali sifatida foydalanish keng tarqagan. Bunday yozuv materiallari potxi deb atalgan.

<sup>15</sup>Oq xunlar yoki eftaliylar yozushi tushunchasi yunon-boxtar yozuvining kursiv davriga nisbatan shartli ravishda ishlataladi.

A.Bivar quyidagicha tarjima qilgan: “Ilohiyvor va shuhratli Zabul shohi Mixira (qul)” va hujjatning sanasini eramizning 500yili bilan belgilagan. Sanaga oid ba’zi so‘zlar hali aniqlanmagan. Mauo “oy” so‘zi aniqroq o‘qilgan. Birinchi yozuvni quyidagicha miurod (o) mafuo zinigo – Quyosh va oy himoyasida deb o‘qish tavsiya qilingan.

Baqtriya yozuvi bo‘yicha dastlabki nashr Surx-Ko‘tal tepaligidan qazib topilgan Kushon davriga oid ibodatxona majmui asosida yaratildi. Uni fransuz arxeologiya missiyasi boshlig‘i Daniel Shlyumberje rahbarligida Raul Kyuriel e’lon qildi. “Palameda yozuvi”ning birinchi ikki qatori sharqiy Eron yoki shartli ravishda “toxar” tiliga mansub deb aytadi. Va nihoyat, 1957yilda “Katta Surx-Ko‘tal yozuvi” ochildi. Topilgan yozuv to‘liq saqlangan. Matn 25 qatordan iborat bo‘lib toshtaxtaga o‘yib tushirilgan. 1958 yildayoq A.Marik ushbu yodgorlik haqida maqola e’lon qildi. U yodgorlik yozuvini “Baqtriya tili”da ekanligini aniqladi, lekin uni “eteo-toxar” deb nomlashni taklif qildi. Toshtaxtadagi yozuv mazmunini V.B.Xenning to‘g‘ri va ravon tarjima qilib, tushuntirib berdi. Barcha grammatik paradigmalar, bog‘lovchilar, yordamchi so‘zlar, so‘z turkumlari, sintaksis qurilmalarini o‘rganib, V.B.Xenning Surx-Ko‘tal yozuvi “qurilish” xotiranomasi ekanligini angladi. Milodiy 31 yilda Surx-Ko‘tal ibodatxonasi hovlisida qurilgan va ta’mirlangan suv inshooti quduq bilan bog‘liq ekan. Bu tarjimalarning to‘g‘riligini esa arxeologik topilmalar isbotlagan.

A.Marik va V.B.Xenningdan keyin X.Xumbax o‘z tarjimalarini kitob shaklida chop ettirgan. Lekin uning farazlari ilmiy jihatdan asosli emas edi. Ya’ni X.Xumbaxning fikricha, yozuv – Qadimgi Eron tilida zardushtiyalar ilohi Mitraga bag‘ishlangan madhiyalar emish.

1958-1959yillarda Surx-Ko‘talda oldingi topilgan yodgorlikning ikki nusxasi topildi. Avvalgidan farqli ravishda nusxalarning xulosa qismi va so‘zlari alohida yozilgan. Dastlab bu nusxalar E.Benvenist tomonidan o‘rganilgan. Surxko‘tal yodgorligidan topilgan barcha toshtaxta yozuvlar paleografiyasi bo‘yicha R.Gyobl maxsus izlanishlar olib borgan. Izlanishlar natijasi unchalik ishonchli emas edi. R.Gyobl va X.Xumbaxning noto‘g‘ri tarjimasi bo‘yicha Gershevich tanqidiy maqola e’lon qildi.

Katta Surxko‘tal yozuvining uchta nusxasidan tashqari, Surxko‘tal ibodatxonasidan “Tugatilmagan yozuv”, “Devoriy yozuv”, “Palameda yozuvi” bo‘laklari (unda faqat so‘nggi uch qator yozuvlar saqlanib qolgan) ham topilgan.

Baqtriya tilidagi yodgorliklarning yomon saqlanganligi, uni o‘qish va tarjima qilish bilan bog‘liq bir qancha muammolarni o‘rtaga qo‘ygan. “Katta Surxko‘tal yozuvlari” yaqingacha yagona manba hisoblanar edi<sup>16</sup>. Quyida yozuvning lotin harflarga o‘girilgan transliteratsiyasini va olimlar guruhlari V.B.Xenning, I.Gershovich, V.A.Livshis, N.Sims-Villiams, Yan Xarmattalar tomonidan amalga oshirilgan tarjimani keltiramiz:

### **Matn (Versiya M)**

1. eido ma lizo mo kaneško oanindo bagolaggo sido i bago sao kaneski namobargo kirdo.
2. tadioo kedo fordamso ma lizo frogirdo tadeio mandaro abo nisto xoto asido ma liso ababgo stado.
3. odo kaldo aso lrono minano ieiro stado tado I bage aso i nosalmo froxortindo tado abo lrafo oastindo abo andezo oto ma lizo pidorigdo.
4. ta kaldo nokonzoko i karalraggo i freixodeogo kido freistaro abo sao i bagopouro i loixobosaro i sizogfrgo i alosxalo kido faro oispoano mo oadobargano osogdomaggo pido i iogo odo uirso xsono neisan mao malo ogado f mo bogolaggo.
5. tadeio ma lizo porogato tadeio eijo sado kando oteio abo ozooasto oteio pido asagge ido oilirdo atano abo ma lizo faro karano abo ma gaoeio.
6. odo kaldano aso lrouro minano ieiro booeio tadano i bage aso i nosalmo ma froxoasondeio otano ma lizo ma pidorixseio.
7. oteio asasko mo sado exstrigo kirdo albargo ostado ido ato pideino sado pideino axstrigo uarougo ma liso xouso porooato.

---

<sup>16</sup>Hozir baqtriya yozuvi yodgorliklari favqulodda ko ‘payib qoldi: Ayritom bitigi; Ravatak baqtriya arxivni kabilar tadqiqot maydonini kengaytirib yubordi.

8. otoeiiomo sado odo masto xirgomano kirdo amo borzomiuro amo kozgaskipouro amo astiloganseigi amo nokonziki karalraggo marego pido i xoadeo fromano/
9. oto eijo mano nobixto amo miuramano amoborzomiuro pouro {tamg‘a} amiura mano {tamg‘a}

### **Tarjimasi**

1. Bu ibodatxona – g‘olib muqaddas Kanishkaning ibodatxonasi, janobi hukmdor Kanishkaga bag‘ishlangan.
2. Bu ibodatxona dastlab qurilgan vaqtidan keyin ichki suvlar qochib, ibodatxona suvsiz qolgan.
3. Issiq kunlarning birida, u yerda yashayotgan xudolar<sup>17\*</sup> olib ketilgan va ibodatxona bo‘shab qolgan.
4. Nokonzokning hokimi, Frixvadevaning o‘g‘li, podshoning sevimlisi, Xudoning o‘g‘li, barcha jonli narsalarning beg‘araz yordamchisi, o‘ttiz birinchi yilning nisan oyida bu muqaddas joyga kelgan.
5. Ibodatxona devor bilan o‘rab olinganda quduq qazilib suv chiqazilgan, toshlar terilgan-ki, toki odamlar suvga tanqislik sezmasin.
6. Issiq kunlar boshlanib qurg‘oqchilik boshlanganda xudolarni bu ibodatxonadan olib ketishmagan va u kimsasiz bo‘lib qolmagan bo‘lardi.
7. Quduqdan suv olish uchun suv ko‘targich o‘rnatilgan, hovuz qurilgan, shu quduq va suv ko‘targich tufayli obod va farovon bo‘lar edi.
8. Bu quduq va narvonni Janob Kozgashkinning o‘g‘li, hokim Nokonzokning quli Buramixra qurdirgan.
9. Bu...Buramixraning o‘g‘li Mixraman yozgan {tamg‘a}, {yozilgan} Mixraman {tamg‘a}.

XX asrning 80yillarida Qadimgi Baqtriya hududlarida, hozirgi Afg‘onistonning Ravatak qishlog‘ida Kushonlar sultanati davriga oid qadimgi hujjatlar arxivni topildi. Unda yuzdan ortiq hujjatning barchasi yunon-boxtar

---

<sup>17</sup> xudolar – ma’ budlarning haykallari, tasvirlari ma’ nosida.

alifbosida yozilgan. Ularning tili kushonlar davridagi boxtariy til bo‘lib, keyinchalik pushtu tilining shakllanishida muhim rol o‘ynagan.

Kushonlar davrida shakllangan yunon-boxtar yozuvi o‘lkamiz madaniyati tarixida muhim rol o‘ynaydi. Bu yozuv ijtimoiy va madaniy hayotning hamma sohalarida keng qo‘llangan. Mazkur yozuv orqali bizgacha ko‘plab noyob hujjatlar yetib kelgan. Shunisi diqqatga sazavorki, Kushonlar sultanati davriga qadar davlat mahkamachiligidagi yunon alifbosidan foydalanilgan bo‘lsa, Kanishka davrida islohot ro‘y berib, yunon alifbosi boxtar tiliga moslashtirilgan. Kanishka davri tangalaridagi yozuvlar boxtar tilida yozila boshlangan. Monumental yodgorliklarda ham yunon-boxtar yozuvi namunalari uchraydi, jumladan, Ayritomdan topilgan buddaviy haykallar guruhi tag kursisidagi hamda Surx Ko‘tal ibodatxonasi dagi toshga o‘yilgan xotirot bitigi ham shu tilda yozilgan.

Ravatak arxividagi hujjatlar teri, mato va taxtachalarga yozilgan. Ingliz olimi Nikolas Sims Vilyams mazkur hujjatlarni 4 turkumga ajratgan: 1. huquqiy hujjatlar; 2. analogik, sanasi aniq bo‘lmagan hujjatlar; 3. ro‘yxatlar va hisobotlar; 4. yog‘ochdagi yozuvlar.

Baqtriya arxiv hujjatlari Nikolas Sims Vilyams tomonidan Oksford universitetida nashr qilingan. Kitobda birinchi turkumga kiruvchi huquqiy hujjatlar xronologik tartibda “A” dan “Y” gacha alifbe harflari asosida shartli ravishda belgilangan. Bir yilda yozilgan ikkita hujjat “I” va “Ii” tartibida joylashtirilgan. Birinchi va ikkinchi turkumga taalluqli hujjatlar bir xil bichimli teriga yozilgan. “1a” turkumdagagi hujjatlar bir bo‘lak matoga ikki nusxadan yozilgan.

Ravatak arxivi hujjatlari asosan oldi-sotdi dalolatnomalari, yer mulkini meros qoldirish, soliq to‘lash, qul savdosi dalolatnomasi va tilxatlar, sarf-xarajat hisobotlari hamda yagona namuna sifatida saqlangan nikoh shartnomasidan iborat. Hujjatlarning aksariyatida Kanishka erasi asosida sanalari belgilangan, ya’ni hujjat tuzilgan yil, oy va kuni ko‘rsatilgan. Ba’zi hujjatlarda esa kuni ko‘rsatilgan, ammo yili va oyi yozilmagan. Hujjatlarda 110 yidan to 549 yilgacha sanalar qo‘yilgan. Arxiv hujjatlarining e’tiborli tomonlaridan biri shulki, dalolatnomani tuzish

chog‘ida ikki taraf vakillari bilan birga guvohlar ham qatnashgan. Albatta tuzilgan hujjatda ikki tomon vakillari, guvohlarning ismi, sharifi albatta ko‘rsatilgan va ular dalolatnomada o‘z roziliginini bildirgan. Dalolatnomalar ip bilan bog‘lanib, surguch surtilib, muhrlangan.

Ravatak arxivi hujjatlari orqali Kushonlar davrida mahkamachilik an’analari ancha taraqqiy qilganligini kuzatish mumkin. Yunon-boxtar yozuvida bitilgan Ravatak arxivi hujjatlari orasida ijtimoiy-xo‘jalik munosabatlarini o‘zida aks ettirgan turkum materiallar mavjud. Shulardan biri, 379 yilning Ab oyida Varnu shahrida tuzilgan shartnama bo‘lib, ingliz olimi Nikolas Sims-Vilyamsning kitobiga shartli “L” harfi bilan kiritilgan. Bu davrda Kushonlar mahkamachilik ishlarida ahmoniyalar davridan yetib kelgan mahkamachilik an’analaridan keng foydalanimaganligi ko‘zga tashlanadi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Baqtriya yozuvlari, Niso, Parfiya arxivi, Arshakiylar, Mixrdatkirt, M.V.Masson, YuTAKE, V.B.Xenning, monumental yozuv, kursiv yozuv, Surx-ko‘tal, bronza qo‘ng‘iroqcha, Ayrитом, Ravatak, Kanishka, shartnomalar, nikoh bitimi, Shodiya, Nokonzak.

Nazorat uchun savollar:

1. Baqtriyada mavjud bo‘lgan davlatlar?
2. Niso arxiv hujjatlari yozilgan materiallar?
3. Parfiyoniy hujjatlар Eski Niso arxivining topilishi va o‘rganilishi?
4. Baqtriya yozuvi yodgorliklari?
5. Baqtriya yozuvi yodgorliklarini tadqiqot qilgan olimlar?
6. Surx-Ko‘tal yodgorligi?
7. Ravatak arxivi Kushonlar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha muhim manba.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. *Eski Niso arxivni hujjatlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bo‘yicha muhim manba.*

2. *Surxko ‘tal yozuvining topilishi Markaziy Osiyo tarixida muhim hodisa.*

### **Adabiyotlar**

1. Is’hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. –Т., 2017.
2. Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры (древность и раннее средневековье). –Т., 2008.
3. Лившиц В.А. Парфянская ономастика. Санкт-Петербург., 2010.
4. Nicolas Sims Williams. Bactrian documents. Oksford. 2000.
5. Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. –М., Гл.ред. Восточной литературы. “Наука”, 1980.
6. Дьяконов И.М. Люди города Ура. –М., 1990.
7. Дьяконов И.М., Лившиц В.А. Документы из Нисы. –М., 1960.
8. Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. –М., 1980.

## **II-BO'LIM. MARKAZIY OSIYONING ILK VA RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR ARXIVLARI**

### **§ 6. Afrig'iylar davriga oid Tuproqqa'l'a arxiv hujjatlari**

#### **6.1. Tuproqqa'l'a hujjatlarining topilishi va o'rganilishi**

Qadimgi Xorazm vohasi Markaziy Osiyo mintaqasida sivilizatsion jarayonlarning o'ziga xos o'choqlaridan biri bo'lgan. Olib borilgan ko'p yillik arxeologik tadqiqotlar buni yaqqol isbotladi. Amudaryo va Sirdaryoning del'talari bo'yab yuksak o'troq dehqonchilik, shaharsozlik va shaharchilik ijtimoiy munosabatlari mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmidayoq yuksak darajada shakllangan edi. Bu o'rinda Suvyorgan, Amirobod va Tozabog'yob tarixiy-madaniy bosqichlarining bevosita davomiga Xurosandan Janubiy Xorazm orqali kelib qo'shilgan xorasmiyalar migratsiyasining passionar ta'sirini alohida qayd etish lozim. Zero, mil.avv. II ming yillik oxiri – I ming yillikning 1-choragi davomida Xorazm vohasining tarixiy taqdirida katta rolb o'ynagan, voha nomining paydo bo'lishiga ham sabab bo'lgan ushbu hodisani chuqur tahlil etib, ilmiy asoslangan xulosalar haligacha chiqarilgan emas. Bu masalada ilmiy dalil va isbotli gaplardan ko'ra ko'proq, I. Markvant tomonidan yunon manbalaridagi "xorasmiyalar Parfiya bilan Marg'iyona orasida yashaganlar" degan xabardan kelib chiqib, kiritilgan "Katta Xorazm" shartli tushunchasiga shunchaki yuzaki yodoshish va bu orqali Xorazm yetakchiligida qandaydir ulkan, xatto, Kanghani (Kangyuyni) ham birlashtirgan (S.P. Tolstov va uning izdoshlari), janubda Elbrus, Paropamis, Safedko'h tog'lari va Xurosongacha tutash konfederatsiya bo'lganligi haqidagi da'volar bot-bot uchrab turadi. O'z navbatida bu masala maxsus tadqiqotlarni talab qiladi. Ayniqsa, hozirgi Xorazm olimchilik an'anasiga oid ko'plab ilmiy-ommabop nashrlarda "Katta Xorazm" tushunchasi mahalliy g'urur manbai sifatida keng tarqalib ketgan. Bu masalaga muayyan oydinlik kiritish yo'lidagi ilmiy fikrlar ham e'tiborga loyiq.

Xorazm vohasidagi sivilizatsiyaning tarixiy mohiyati, vujudga kelishi va rivojining bosh omili buyuk Amudaryo bilan bog'liq ekani Abu Rayhon Beruniy tomonidan qayd etilgan. Bunda Sirdaryonig ham rolini albatta e'tirof etish kerak. Chunki million yillar davomida bu ikki daryoning bir-biri bilan tutash tarmoqlari bo'lgan va quyi oqimlarida paydo bo'lgan yuksak madaniyat o'chog'ida har ikkovining ham hissasi teng bo'lgan, desak xato bo'lmaydi.

Ikki buyuk daryoning, ayniqsa, Amudaryo o'zanlarining beqarorligi vohada sug'orma dehqonchilikni tashkil qilishda jiddiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirar edi. Shu sababli suv ta'minoti masalasida voha aholisining ijtimoiy uyushqoqligi va buning ma'muriy boshqaruvda alohida e'tiborda tutilgani diqqatga loyiq. Bundan

muhim xulosa tomon bir qadam qoladi. Ya’ni, Xorazm vohasida davlatchilik, boshqaruv funktsiyalarining turli mexanizmlari ancha barvaqt paydo bo’lgan.

Ma’umki, ijtimoiy, siyosiy boshqaruv, boshqacha aytsak, davlatchilikning asosiy funktsiyalaridan biri huquqiy va me’yoriy munosabatlardir. Buni esa yozuvsiz tasavvur etish qiyin. Shu munosabat bilan Xorazm tarixiga nazar solsak, bu vohada yozuv yaratishga ilk qadam sifatida S.P.Tolstov “Qadimgi Xorazm” asarida keltirgan, lekin o’qilishi haqida fikr aytilmagan bitiklarni eslash o’rinli. Masalan, Sulton Vays tog’ining g’arbiy yonbag’ri bo’ylab Amudaryoning qadimgi o’zanlaridan birining yoqasida joylashgan Chilpiq nomli yodgorlik bor. 1940 yilda S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan o’rganilgan. Chilpiq tabiiy cho’qqi ustiga doiraviy tarx asosida paxsadan qurilgan devor bilan o’ralgan ochiq hvoli. Unda yashash uchun mo’ljallangan qurilmalar yo’q. Yodgorlik sahni o’rtasida tabiiy qoya bo’lib, uning sirti turli-tuman o’yma va chizma belgilar bilan qoplangan. Shu xususiyati tufayli Chilpiq haqida zardushtiylik an’anasiga ko’ra mayitlarni etdan poklash uchun ochiq holda qo’yiladigan dahma deb tahmin bildirilgan. Qoya sirtidagi chizgilar bir qarashda betartib, tasodifiy chiziqlar, ularning turlicha kombinatsiyalariga o’xshaydi. Biroq, diqqat bilan qaralsa, ularni xillarga. Masalan X ko’rinishidagi belgidan to’rttasini sanash mumkin. Lekin ularning ikkitasi tik, bittasi yonboshga yotiq, bittasi tik va gorizontal chiziq kesishmasi shaklida. Chilpiq yaqinidagi Qorato’ba nomli cho’qqida mazkur shakllrl bilan bir qatorda murakkab chizmalar to’pi ham topilgpn. Bunda romb, trapetsiya, o’tkir qirrali burchakchap tomonga soat milining 11 ga to’g’ri keluvchi parallel chiziqlar ketma-ketligi, o’ng tomonga soat milining 1 raqami qiyaligida o’tgan ikki chiziqning pastki uchi bir-biriga tirkalgan uchburchak va romb shakllarining ichidan o’tgan. Quyiroqdan ko’ndalang to’lqinsimon qalin chiziq o’tgan. Undan quyiroqda ikki vator katak, birida katak soni o’nta, ikkinchisida – un bitta. Kataklar qatorining ikki boshi o’ng tomonga qiya ikki chiziq bilan berkitilgan. Chapdagi qiya chiziqning pastki uchi oldidan chap tomionga P simon shakl ulangan. Undan o’ngroqda X simon belgi. Bu chizgilar to’pi bizningcha ramziy ma’no jamoasi turarjoyining shartli tasviri, deb qabul qilinsa, chiziq ostida shu jamoa foydalanadiga yer maydoni ma’nosiga ega deyish mumkin. Qorato’bada yuqoridagi kabi kataklarning to’rt, besh qatorliklari ham borki, buni aniq o’lchamli dehqonchilik jamoa maydoniga yoki uy ho’jalik birligiga ishorat deyish mumkin. S.P.Tolstov ushbu panjarasimon kataklarni piktografik belgi, ya’ni “uy” deb tahmin bildirgan. Olimning fikricha, Qorato’ba chizgilaridagi bir qator belgilarni Xarappa madaniyatiga davriga xos protoxind yozuvi belgilari bilan qiyos qilish mumkin. Bundan tashqari S.P.Tolstov Qorato’ba qoyatosh chizgilarining ayrim analoglarini Old Osiyo, O’rta

sharq(protoelam), ilk xett ierogliflari, Uzoq Sharqda ilk xitoy yozuvi bosqichlarida ham uchratish mumkin deb qayd etadi.

Qorato'ba qoyasidagi chizmalar orasida harfli yozuvga o'xhash yettita belgi ajralib turadi. Buni Finikiya(Kan'on) yozuvividan oramiy yozuvi ajralib chiqqan dastlabki davrlardagi lapidar, ya'ni harf birliklari ulanmaydigan epigrafik bitik deb hisoblash mumkin. Aftidan, bu harfiy belgilar chizmalar orasida xronologik ma'noda umumiy majmuaga nisbatan keyingiroq davrga xos. Bizningcha, bu harfiy belgilar qatorida oramiy harflari tizimidagi gimal, yet, kof yoki ro, tau, nun kabilarni tanish mumkin.

Ular, bizningcha, muayyan shartli belgilardir. Orada takrorlanuvchi belgilar ham uchrashi bitiklarni dastlabki yozuv deb hisoblashga asos bergandek tuyuladi. Qolaversa, ushbu bitik belgilarining ayrimlari Qozog'istonning Almati shahri yaqinida ochilgan, "Issiq" deb nom berilgan qo'rg'on tipidagi qabrdan topilgan kumush idish sirtidagi bitik belgilariga o'xhash chizgilarga ham ega.

Xorazmda yozuvning alifbeli harf-tovush, fonetik bosqichi mil. avv. IV-III asrlardan boshlangan. Oybuyirqala nomli arxeologik yodgorlikdan topilgan sopol parchasidagi yozuv hozircha xorazmiy alifbeli yozuvning eng qadimgi namunasi deb hisoblanadi. Fonetik yozuv bosqichiga kirish avvalgi yozuv yaratishga qaratilgan urinishlarga chek qo'yib, mazkur ilk bosqichning yozuv chizmalari unutilishiga olib kelgan. Chunki yangi alifbe, har bir harf muayyan bir nutq tovushiga to'g'ri kelishiga asoslangan edi. Binobarin, yozuv inson nutqining eng birinchi unsurini, ya'ni nutq tovushini tushunish kabi muhim empirik va nazariy xulosaga tayangan buyuk kashfiyotdir.

Bevosita Xorazm vohasi hududlaridan Qo'yqirilgan qala, Qalali qir 2, Govur qala 3, Burli qala, Xumbuz tepa, Yakka Porson, Misdahkan kabi arxeologik yodgorliklarni qazib o'rganish davomida topilgan xorazmiy yozuvningko'plab yodgoliklari bu vohaning qadimiy yozuv madaniyati haqida aniq tasavvur beradi.

Arab istilosigacha yozuv madaniyati sohasida erishilgan yuksak daraja haqida, arablar tomonidan uning yo'q qilingani haqida Abu Rayhon Beruniy achinish bilan bunday so'zlarni yozib qoldirgan: "Qutayba xrazmliklarning yozuvini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan, bilimini o'zgalarga o'rgata oladigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilgan edi. Shu sababli ... haqiqat bilib bo'lmas darajada yashirin qoldi". Shu fikrning davomida Beruniy yana bunday deb yozadi: "Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy xrazmliklarning kotiblarini halok etib, bilimdonlarini o'ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgani sababli ular savodsiz qoldilar. O'z ehtiyojlarida xotira quvvatiga suyanadigan bo'ldilar...". Chindan ham qadimgi xorazmiy yozuvida butun holda yetib kelgan birorta kitobat yodgorligi yo'q. Ma'lum yodgorliklar esa,

yoog'och taxtachalar, tayoqchalar, teri, sopol buyumlar yoki ularning siniq parchalari, mayitlarning etdan tozalangan ustixonlari solib qo'yiladigan astodonlar sirtiga bitilgan epigrafik bitiklar, qadimiy imoratlarning devorlarida saqlangan yozuvlardan iborat.

Xorazmiy yozuvning qadimiy tangalarda yetib kelgan shakli paleografik ma'noda maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lmosg'i lozim. Chunki bu yozuvlar tanga matritsalariga ko'zgudagi aks usuli bilan o'yib tushirilgan. Natijada harf belgilarining shakli qo'lyozma yoki epigrafik chizgilardan farqli ko'rinish kasb etadi. Bu yozuvlarning axboriy ahamiyati ham katta. Ulardagi sulolaviy siyosiy ma'lumotlar, onomastik xabarlar tarix uchun muhimdir.

Mizdahkan, To'qqala kabi yodgrliklardan topilgpn ko'plab astodonlarning sirtlarida xorazmiy yozuvining o'ziga xos epitafiy bitiklari yetib kelgan. Ularda asosan antroponimlarni o'qish mumkin. Yozuvning xususiyati arxaik. Xususan, Tuproqqala hujjatlaridagi kabi ravon xat usulida emas. Mizdahkan astodonlaridagi yozuv nisbatan ravon va yuguruk tusliki, bu majmu To'qqaladan xronologik jihatdan yoshroq deb baholanishi mumkin.

Xorazmiy yozuv yodgorliklarining eng yirik guruhi Tuproqqala arxivi nomi bilan mashhur. Arxiv tarkibidan 8ta charmga bitilgan hujjat parchalari saqlagan. Bulardan tashqari bir qancha charm yuzasidagi hujjatlar o'ramlar shaklida xumda saqlangan ekan. Xum esa imorat vayron bo'lgan paytda tuproq bilan to'lgan. O'ramlar orasiga kirgan tuproq namlik ta'sirida loyga aylangan. Charm esa chiriy boshlagan. Uning yuzasidagi yozuv izlari loy qabati yuzasiga singgigan holda saqlangan. Tuproqqala qazishmalari davomida shartli ravishda 90-raqam bilan belgilangan xonada shu kabi yozuv aksi singib qolgan kesak bo'laklaridan 18 tasi , 93-xona xarobalridan 17 ta yozuv qoldiqlari singib qolgan kesak parchalari topilgan. Bu kabi yirik parchalardan tashqari mingga yaqin mayda kesak parchalarida bitta-ikkita, ba'zan uchta harf qoldig'i saqlangan hollar ham bor. Ularni ko'zgu orqali o'nglab o'qishga harakat qilingan. Kesak parchalari yuzasidagi ushbu yozuvlar shartli ravishda "G"(ya'ni, glina "loy") turkumi deb belgilangan. Kesak parchalaridagi yozuvlardan ma'no bog'liklidagi parchalarni bir-biri bilan bog'lab yig'ish murakkab va, umuman arxeologiya hamda paleografiya tarixida ilgari uchramagan noyob operatsiyaga aylangan. Buning usitiga, kesak parchalarida yozuv ikki yoqlama bo'lib chiqqanki, bu chirib bitgan charm o'ramining bir-biri bilan bog'liq bo'limgan satrlarini aks ettirgan. Natijada yozuv qoldig'i o'qilgan taqdirda ham hujjat mazmunini tiklashda murakkablik maqlanaveradi. Shu sababli loy(kesak) parchalaridagi yozuv qoldiqlari asosida tugal ma'noli hujjat matnlarini tiklash deyarli mumkin bo'lmadi. Shu sababli

loy(kesak) parchalarida izlari qolgan charm hujjatlar soni aslida qancha bo'lganini aniq aytish qiyin.

Yuqorida qayd etilgan 8 dona charm yuzasidagi hujjat parchalari matni nisbatan saqlanib qolgani tufayli qimmatli yodgorlik sifatida alohida o'rganilgan. Charm parchalaridagi hujjatlar shartli ravishda K harfi bilan K-1, K-2, K-3...K-8 deb belgilangan. Ulardagi yozuvlarni ilk bora o'qishga S.P.Tolstov harakat qilgan. Dastlab o'qilgan so'zlardan biri BŠNT bo'lib[20], bu oramiycha geterogramma deb topilgan. Ya'ni "yil", falon yili degan ma'noni bildirib, muhim bir yo'lni ochib bergen. BŠNT so'zi charmdagi hujjatlarning sanasi haqida ma'lumotdastagini tadqiqotchi qo'liga tutqazgandek bo'lgan. Shu kabi BŠNT so'zi bilan boshlanuvchi hujjatlarda raqam bilan ko'rsatilgan sanalardan 188, 204, 207 yoki 209, 223, 231, 252 kabi yillar Qadimda Xorazmda amal qilgan mahalliy yil hisobiga, ya'ni xorazm erasiga tegishli sanalar bo'lib chiqdi. V.A.Livshitsning fikricha, Xorazm erasining birinchi yili hozirgi amaldagi milodiy eraning 10-30 yillari orasdagi bir yildan boshlangan. Shundan kelib chiqib charm parchalaridagi xorazmiy hujjatlarning sanasi milodiy III asra to'g'ri keladi.

Charm parchalaridagi hujjatlardan K-1 ayrim shaxslar tomonidan davlat omborxonasiga topshirilgan maxsulotlar ro'yxati deb tushunilgan. Hujjatning saqlanish holati o'ta nochor. Msalan, 1-qatorda MN "dan" so'zi, 2-qatorda X III SMYD "un", 3-qatorda yana MN ... br [...] "dan ...keltirdi" va hokazo. Keyingi qatorlarda shu kabi "Falon kuni, faloncha shuncha miqdorda un keltirdi" kabi ma'lumotlar jami bo'lib 20 qatordan joy olgan. Parchadagi SMYD so'zi Parfiyaning Nisa xarobalaridan topilgan arxiv hujjatlarida ham oramiycha "un" ma'nosida uchragan.

Bu hujjatda Kundaka, Marg'va, Abg'uparn, Nersa, Riximak va boshqa bir qancha shaxs ismlari qayd etilgan. Bular tarixiy onomastika, xususan antroponomika uchun qiziqarli manba bo'lishi mumkin.

K-2 raqamli hujjatning boshlanishidan 4 qatori saqlangan. Undagi tarixiy sana 231 yil deb ko'rsatilgan. "231 yilda Druk Parg'artav (o'g'li)ga Shirartavdan 10 (dona) g'ildirak(?) [etkazib berildi]. Bu kabi talqin bir qator tahminga asoslangan. Chunki Druk so'zi avavestada "yog'och, daraxt" ma'nosiga ega. Shaxsning ismi balki laqab ismdir? G'ildirak masalasi Xorazm uchun tasodifiy emas. Ma'lumki, hozirga qadar, Xorazm gujum, qayrag'och daraxti bilan mashhur. Bu daraxt qattiq va chidamli yog'och beradi. Ayni shu daraxt yog'ochidan arava va uning g'ildiraklarini i yasash qadimdan xorazm uchun an'ana hisoblanadi. Shu tufayli g'ildirak yasovchi ustaga soliq hisobidan davlatga g'ildirak yatpshirish majburiyati yuklangan bo'lsa kerak.

Charmdag'i hujatlarda turli mahsulotlar qatorida yog', may, sopol buyumlar kabilar qayd etilgan. Parmtar atamasi nazoratchi, xo'jalik boshlig'i ma'nosini bildirgan. Bu atama sug'd hujatlarida pramandar shaklida uchraydi.

Yog'och taxtachalar, tayoqchalarga yozilgan hujatlarning aksariyati oilaviy ro'yxatlar. Ularda qadimgi Xorazmning ijtimoiy holatiga bevosita dahldor ma'lumotlar aks etgan. Oramiycha 'BD "qul", BYT "uy, xonodon", 'NTTYH "xotin", BRY "o'g'il", BRTYH "qiz" va boshqalar ro'yxatlarda ularga tegishli qullarning nomlari bilan birga berilgan. Ro'yxatlarda 'g'd atamasi ro'yxatga birinchi bora kiritilgan oila a'zosi ma'nosida ishlatilgan. Demak, yog'och va taxtachalardagi ro'yxatlar aholining yillik ro'yxatlari bo'lib, ijtimoiy mehnat majburiyatlarini tashkil qilishda muhim rolb o'ynagan.

Nochor ahvolda yetib kelganiga qaramay, xorazmiy yozuv yodgorliklari XX asrning qariyb 70 yili davomida va XXI asrning bugungi kunigacha tadqiqotchilar diqqatini tortib kelmoqda. O'nlab Yevropa va Rossiya olimlari xorazmiy yozuv yodgorliklarining tili, paleografik xususiyatlari, leksikasi, tarixiy manba sifatidagi ahamiyati kabi masalalar bilan bog'liq tadqiqotlar olib borganlar Tolstov S.P., Livshits V.A., Xenning V.B., Makkenzi D., Isxakov M.M.:

Xorazmiy yozuvi tarixini piktografik ilk davrdan tashqari ikki bosqichga bo'lib qarash lozim. Birinchi bosqich mil. avv. IV-II asrlardan mil. VI

IV-II asrlardan mil. VIII-IX asr boshlarigacha ilk xorazmiy alifbeli yozuv bosqichidir. Ikkinci bosqich IX-X asr dan XIV asr boshlarigacha davrni o'z ichiga olgan arab alifbesi grafikasidan o'zlashtirilgan yozuvdir.

Xorazmiy harf-tovush yozuv belgilarining birinchi bosqichi genetik jihatdan oramiy yozuvi zaminida paydo bo'lgan. Uning alifbesi oramiy prototip alifbedagi kabi 22 harf asosiga qurilgan. Lekin oramiy alifbesining sadde harfi xorazmiy alifbesida yo'q. Oramiycha 'ayn, qof, tet (itqi) harflari xorazmiy matnlarida faqat oramiycha so'z signal vazifasini o'tovchi geterogrammalarda ishlatilgan. Matnni o'qishda bu kabi geterogrammalar xorazmiy tildgi so'z bilan almashadirib o'qilgan. Harflar asosan undosh tovushlarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Qisqa unlilar yozuvda ifodalanmagan. Cho'ziq unlilar vov, yot, alif harflari yordamida berilgan. Shin harfi ikki vazifada, goh sh uchun, goh ch uchun ishlatilgan. Bu amalda so'zning ma'nosiga qarab aniqlangan.

Ahmoniyalar sulolasи hukmronlik qilgan qadimgi Eron sultanati (mil. avv. 559-330 yy.) Markaziy Osiyoning katta qismini o'ziga tobe qilgan. O'sha davrda ulkan sultanatning yozuvga bo'lgan ehtiyojini Mesopotamiyadan o'zlashtirilgan ponasimon belgilarning turli kombinatsiyalari shaklidagi, faqat xotirot (monumental) maqsaddagi bitiklarga xizmat qilgan murakkab yozuv bilan qanoatlantirish qiyin edi. Shu sababli Eron sultanating ma'muriy ish boshqaruvi

somiylardan bo'lmish oramiylarning 22 harfdan iborat yozuvini rasmiy yozuv sifatida joriy etish yo'lidan bordi. Qolaversa, oramiy xalqi ham Kurush(Kir) va Kambujya (Kambiz) podsholik qilgan davrda Eronga tobe qilingan edi.

Davlat mahkamalarida dastlab barcha hujjatchilik ishlari oramiy kotiblari tomonidan oramiy tilida olib borilgan. Tuzilgan hujjatlar Eron ma'murlariga og'zaki tarjima orqali tasdiqlattirilgan. Bu kabi ish usuli Eron sultanating barcha satrapliklarida amal qilgan. Vaqt o'tgani sari oramiy xattotlar kamayib, ularning o'rmini mahalliy kotiblar egallay boshlagan. Ularning aksariyati endi oramiy tilini bilmaydiganlar edi. Natijada mahalliy kotiblar oramiy yozuvi harflari bilan o'z tillarida hujjat tuzish amaliyotini yo'lga qo'ya boshlaganlar. Shu yo'l bilan Markaziy Osiyoda parfiyoniy, xorazmiy, sug'diy, boxtariy, o'rtal fors – pahlaviy, keyinroq esa moniyviy, suryoniy, kxaroshtxi yozuvlari paydo bo'lgan. Sug'diy yozuvning yugurik varianti asosida turkiy(uyg'ur), mo'g'ul va boshqa yozuvlar yaratilgan. O'rxun-Enisey, ya'ni qadimgi turkiy yozuv alifbesining ham genezisi oramiy yozuviga sug'diy, xorazmiy, parfiyoniy yozuvlari tajribalari orqali bog'lanib ketgan [Kloson, Livshits, Isxakov].

XX asrning 30-yillaridan boshlangan arxeologik va etnografik tadqiqotlar qadimgi xorazmiy yozuvning ko'plab yodgorliklarini topib, tadqiqotlar doirasiga olib kirgan. Bulardan tashqari Xorazm vohasidan chetda turli arxeologik ob'ektlarda bir qator kumush va boshqa metall buyumlarda saqlangan xorazmiy yozuvning epigrafik yodgorliklari ham mavjud va ular ilmiy nashrlar orqali fanda ma'lum.

Xorazmiy alifbeli yozuvning harflar qatori alif, a'yn, be, g'ayn, dol, ho, vov, zayn, xet, tet, yoy, kof, lom, mim, nun, sin, pe, qof, resh, shin, tau lardan iborat. Bulardan a'yn va qof harflari xorazmiy matnlarida faqat oramiycha ideogrammalarda ishlatilgan Harflarning chizma shakllari, individual xatning turlitumanligidan qat'iy nazar, parfyoniy, sug'diy alifbe shakllaridan ko'ra mustaqil rivojlangan. Bunga Xorazm mintaqasining geografik o'rni boshqa vohalardan ajralib turgani sabab bo'lsa kerak.

Xorazmiy yozuvning ikkinchi bosqichi arab alifbesi asosida shakllangan va quyidagi harflar qatoridan iborat bo'lган:

اب پ ت ج چ ح خ ذ ر ز س ص ش ض ظ ع ف ق ك م ن و ه ي

Bu qatorda sof arabiylarning bir nechasi diakritik qo'shimchalar bilan o'zgartirilgan va o'z navbatida bu xorazmiy yozuvning arab grafikasi jiddiy ravishda xorazmiy til fonetik tizimining talablaridan kelib chiqqan tarzda ijodiy yondoshuv natijasidir.

Xorazmiy tili talablariga yuqoridagi belgilar tizimi yetarli bo'lмаган. Shuning natijasida dol va resh harflarining tagiga nuqta qo'yilgan [ ڏ ڙ ]

variantlari, sin harfining tagida uchta nuqtali shakli [پ], Yumshoq H [ح] harfining ustida uchta nuqtali xili [خ], F [ف] harfining uchta nuqtaligi [ڦ] kabi harflar transformatsiyasi, ularning funksional xususiyatlarini chuqur tushunish orqali yozuv madaniyati hodisasi sifatida qaralishi mumkin. Ushbu diakretik vositalarning fonetik mazmuni haqidagi fikrlar baxsli bo'lib kelgan. Shunga qaramay, xorazmiy tilning qiyosiy tarixiy fonetik va fonologik tadqiqotlari natijasida mazkur qo'shimcha belgilarning tovush ifodalari haqida nisbatan ishonchli yangi fikrlar paydo bo'lmoqda. Masalan, ostida nuqtali dol harfi sof d tovushini emas uning pozitsion variantini, ya'ni th [ð], ostida nuqtali resh esa, r tovushining gorizontal orqaga surilgan talaffuzli variantini ifodalagan. [خ] harfi qorishiq s tovushini yoki uning jarangli dz allofonini, [ڦ] harfi lab-lab [ڻ] tovushini, ba'zan lab-lab f ni ifodalagan. Bulardan tashqar xorazmiy yozuvi unli tovushlarning cho'ziq va qisqalik qarama-qarshiligi asosida a/ā, i/ī, ī/ē/e/ə, o/ū, y/o', cho'ziqlari uchun alef, vav, uoy harflaridan foydalanish amaliyotidan ham to'la xabardor. Masalaning bu tomoni qadimgi xorazmiy yozuv amaliyotining chuqur an'anasi bo'lgani va orfografik me'yorlarining filologik zamini yaxshi rivojlanganidan dalolatdir.

1938-1950 yillarda arxeolog S.P.Tolstov rahbarligidagi ekspeditsiya tomonidan Amudaryoning quyi oqimida, hozirgi Qoraqalpog'istonning Ellikqala tumanida joylashgan madaniyatimizning durdonasi sanalmish Tuproqqal`a shahar xarobasi o'rganilgan. Bu erda olib borilgan arxeologik tadqiqot izlanishlari natijalari uning bir qancha ilmiy asarlarida o'z ifodasini topgan. Tuproqqal`adagi qazish ishlari Germaniya fashizmi boshlagan urush tufayli bir muddat to'xtab qolgan edi. S.P.Tolstov 1945yil Xorazmga qaytib kelib, 1950 yilgacha Tuproqqal`ada tadqiqotlarni davom ettirgan. Uning vafotidan keyin E.Nerezkin rahbarligidagi ekspeditsiya 1965yil shahar mavzelerida qazish ishlarini qayta boshlangan. 1984yilda 1945-1950-hamda 1965-1972yillarda Tuproqqal`adagi arxeologik tadqiqot ishlari natijalari sifatida "To'prakkala dvorets" kitobi nashr qilindi.

Tuproqqal`aning shoh saroyi joylashgan Markaziy massivning janubiy-sharqiyl tomonidagi pastki qavatning to'rtta xonasida xorazm hujjatlari topilgan. Bu xonalar shartli ravishda 89 (232), 90 (231), 93 (239), 91 (YUR) raqamlari bilan belgilangan. Bu hujjatlar afrik'iy Xorazmshohlar davriga oid bo'lib, charm va yogochga – taxtacha va tayoqqa yozilgan. Ularning umumiyl soni 140 ta bo'lib,

shundan 122 tasi charmga, qolganlari yog‘och taxtacha va cho‘plarga yozilgan. Yozuvlar tush (qora siyoh) bilan ilk xorazm kursiv usulida yozilgan. Ularning ko‘pchiliginı Freyman o‘rgangan.

Topilmalar joyi ularni yuqori qavatdagi hujjatlar bilan aralashib ketgan degan xulosani beradi.

Bu yozuvlarning yozilish shakli Xorazm yozuvi kelib chiqqan oramiy yozuvi va eng qadimgi Xorazm yozuvlaridan ancha farq qiladi. Bu farqlar ayniqsa (aleph) m, s, p, t harflarida yaqqol seziladi.

Oramiy prototipidagi 22 harfdan faqat 20 tasi Tuproqqal`a hujjatlarida ishlatilgan, ulardan I (‘ayin) va q faqatgina oramiy ideogrammalarida keltirilgan. Qolgan 2 ta harf “t”(tēth) va “ş”(şādē) ham faqat geterogrammalarda (matnlarda jravbecha yozilib, xorazmiycha o‘qiladigan so‘zlar geterogramma deyiladi) qo‘llanilgan.

Xorazm yozuvida /č/ tovushini ifodalash uchun “š” harfi ishlatilgan. Milodiy III asrda Xorazm yozuvida jarangli “ž” tovushi “š” (yoki, xorazmcha /č/ qadimiyl eroniyl tillardagi t tovushini aks ettirsa, u holda t) bilan ifodalangan bo‘lishi mumkin.

## **5.2. Teriga yozilgan va loy(kesak) parchalariga singib qolgan hujjatlar<sup>18</sup>**

Tuproqqal`adan teriga yozilgan hujjatlardan 8 ta parchasi saqlanib qolgan. Bu hujjatlar K-1 – K-8 raqamlari bilan belgilangan. K harfi “koja”, ya’ni “teri” ma’nosini bildiradi. Teriga yozilgan hujjatlarning ko‘plari chirib, teshilib ketgan bo‘lib, kuya egan joylaridagi harflar zarar ko‘rgan, harflarning xira izlari qolgan. Bu hujjatlarning parchalari 91- xonadagi xum ichidan chiqqan. Yozilgan terilar o‘ram holida xumga solib saqlangan. Saroy vayron bo‘lgan paytda xum tuproq bilan to‘lgan. Namlik tegib teri qatlamlari orasidagi tuproq loyga aylangan.

<sup>18</sup> Hujjatlar loyga yozilmagan. Yozuvli terilar o‘ram holida saqlash uchun xumga solingan. Tuproqqala vayron bo‘lgan paytda xum tuproq bilan to‘lgan. Namlik tegib teri qatlamlari orasidagi tuproq loyga aylangan. Ulardagi yozuvlarning teskari tasviri ko‘zgu orqali o‘qilgan. Loy bo‘laklari G-1, G-2... kabi belgilangan.

Teridagi yozuvlar nam ta'sirida loy (qurugan kesak) yuzasida aks tasvir qoldirgan. Loyda hosil bo'lgan izlar 90 va 93-xonalardan topilgan. Qazish paytida 90-xonadan 20 ta kesak parchalari topilgan. Loy bo'laklari G-II, G-IIIa, G-IIIb, G-V, G-VIII, G-VIIIa, G-IX, G-X, G-XI, G-XII, G-XIII, G-XIV, G-XV, G-Xva, G-XVb, G-XVI, G-XVII, G-XVIII, G-XIX, G-XX (G-II, "G" belgisi "glina" so'zining bosh harfidan olingan) kabi belgilangan. 93-xonadan 13 ta kesak parchasi topilgan bo'lib, ular G-3, G-4, G-5, G-7, G-8, G-9, G-10, G-11, G-12, G-13, G-15, G-16, G-17 kabi belgilangan.

B.A. Livshits bu kesak bo'laklarini joylashtirib, matn izlarini o'qishga muvaffaq bo'lgan. Kesak sinib, mayda-mayda bo'laklarga bo'linib ketgan. Kesak bo'laklari alohida hujjat sifatida raqamlangan. Ammo kesak parchalarini har doim ham o'qishning iloji bo'lмаган. Chunki yozuvning izlari ba'zan xira, yoki umuman uning aksi bo'lishi mumkin. Kesak bo'laklarini bir-biriga ulab o'qish mushkul bo'lgan. 90 va 93-xonadan topilgan matn izlari qolgan kesak parchalari va teri parchalari soni mingta atrofida, ammo teriga yozilgan matnlarning qanchasi kesak izlarida saqlanib qolganini aniqlash qiyin.

Teriga yozilgan hujjatlar naycha qilib o'rالган va muxrlangan. Xo'jalik hujjatlarining bir qismida ularning yozilgan sanalari saqlangan, ya'ni yili Xorazmda amal qilgan qadimiylar hisobi-era asosida ko'rsatilgan. Sana hujjatlarning boshida, o'rtasida va ayrim hollarda oxirida ham qo'yilgan. "Yil" so'zi 3 ta terida (K-1, K-2, K-6 hujjatlarida) va 11 ta loy parchasida uchragan. Ammo yil faqat 6 ta holdagina aniq saqlanib qolgan: 188 (G-XVIII/1-4), 204 (G-12/4-1), 207 (yoki 208, 209 – G-G-15/2), 223 (G-XVIII/2), 231 (K-2, stk.1), 252 (GK-1, stk.18).

Bu yil sanalari Xorazm erasiga tegishlidir. V.A. Livshits bergen ma'lumotlarga qaraganda, Xorazm erasi eramizning 20- yillardan boshlangan. Tuproqqa'l'a hujjatlari eramizning III-asrlariga to'g'ri keladi. Sanasi ko'rsatilmagan hujjatlarning yoshini aniqlash qiyin. Bunda matnning yozuv xususiyatlariga e'tibor berish kerak. Chunki hujjatlarni 10 dan ortiq kishi turli vaqtda yozgan.

S.P.Tolstov teriga yozilgan K-1, K-2 raqamli ikki hujjatning foto suratini va uning o‘qilishini nashr qilgan. Ularda oramiy ideogrammasi va sonli belgilarning mavjudligi bu hujjatni ma’muriy xo‘jalik ro‘yxati yoki qandaydir narsalarni yetkazib berish uchun tuzilgan ro‘yxat ekanini aniqlash imkonini berdi. Bu taxmin uni yanada chuqurroq o‘rganishda o‘z asosini topdi. Hujjatlar omborga mahsulotlarni “olib kelinish”, “yetkazib berish” haqidagi ro‘yxatlardan iborat. Shu bilan birga ro‘yxatda musallas-vinoning o‘lchov birligi ham berilgan. K-1, K-3, K-6 va K-8 hujjatlarida un so‘zi eslatiladi. K-5, K-6 hujjatlarida keltirilgan un va uning sarflangan haqida ro‘yxat aks etgan..

1948yilda 89-xonadan uzunligi 16,5 sm eni 3-6 sm keladigan hujjat topilgan. Unda 20 qator yozuvning bir qismi saqlanib qolgan. Hujjatlar tahlil qilinganda shaxs ismlari aniqlangan. Bu o‘z navbatida, o‘sha vaqtida Xorazm onomastikasi tarixini o‘rganishda yordam beradi. Hujjatlar saroyga alohida shaxslardan keltirilgan un, may (vino) ro‘yxatidan iborat. Ro‘yxatda un va vinolarning o‘lchov birliklari berilgan bo‘lib, olimlar bu o‘lchov birliklari Old Osiyo, Eron va Xorazmdagi o‘lchov birliklari bilan solishtirish imkonini beradi.

Tuproqqal'a hujjatlarida kam bolsa-da sanalar saqlanib qolgan. Hujjatlardagi eng so‘nggi sana Xorazm erasi bo‘yicha 252 y belgilangan. Hujjatlar orasida Tuproqqal'a saroyi xo‘jalik hujjatlari arxivida faqat olib kelingan yoki berilgan narsalarning ro‘yxatlaridan tashqari Podsho xazinasida saqlanayotgan mol-mulklar ro‘yxati ham saqlanib qolgan.

Charm matnlarining qatqaloq loy-kesak parchalaridagi izlarida amaldorlarning unvonlari va kasblar nomi juda kam saqlanib qolgan. Masalan: “bosh iqtisodchi”, “boshqaruvchi” yoki “nazoratchi”, “nazorat qiluvchi”, “etikdo‘z” kabi so‘zlar. Umuman olganda, hujjatlarning kesaklardagi izlarida 40 ga yaqin ismlar saqlangan. Masalan; Abdak, Andak, Atrosarak va boshqalar.

Bizgacha etib kelgan charm parchalari va loy izlarida hujjat sanasini aniqlash mushkul. Faqat olib kelingan va tarqatib sarflangan reni va oyi ko‘rsatilgan 2 ta ro‘yxat saqlanib qolgan.

### 5.3. Yog‘och va tayoqlarga yozilgan hujjatlar

Tuproqqal'a hujjatlari charmdan tashqari yog‘och taxtachalar va tayoqlarga yozilgan. Yog‘ochga yozilgan hujjatlarni uch guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga katta oilalar tarkibiga kirgan ozod va qul erkaklar ro‘yxati kiradi Bu hujjatlar “uylar ro‘yxati” nomi bilan yuritiladi. Bunday to‘liq ro‘yxatlar 5 ta (I-V hujjatlar) va bular Tuproqqal'a hujjatlari orasida butun holatda saqlanib qolgan yagona hujjatdir. Bundan tashqari uy ro‘yxatlarining 10 ta bo‘lagi (VI-XV hujjatlar) ham topilgan.

Ikkinci guruhga yog‘ochga yozilgan xo‘jalik hujjatlari kiradi. Bu g‘ildirak, chorva va boshqa narsalarning kirim va chiqim ro‘yxatlaridan iborat. Bu guruh 4 dona (XVI-XIX hujjatlar) kichik taxtachadan iborat.

Uchinchi guruhdan 7 ta tayoqchadagi hujjatlar o‘rin oladi. Ular P-1-P-7. “P” belgisi ruscha “palochka” so‘zining bosh harfidan olingan.

“Uylar ro‘yxati” hujjatlarini birinchilardan bo‘lib, S.P.Tolstov o‘qigan hamda I va II hujjatlarni e’lon qilgan. Keyinchalik B.V.Xenning bir nechta ismlarni aniqlashtirgan.

Beshta to‘liq saqlanib qolgan “uylar ro‘yxati”dan to‘rttasida katta oilalar, ularning tarkibiga kirgan erkaklar hamda uy quillari sanab o‘tilgan. X raqamli uy hujjatining birinchi qatorida oila boshlig‘I, y’ani uy egasining ismi yozilgan. I, II va IV hujjatlarda uy egasining uylanmagan, yoki oiladan ajralib chiqmagan o‘g‘illarning ismlari keltiriladi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, aholini ro‘yxatga olish davrida oiladan ajralib chiqqan va ro‘yxatga olish yoshiga etmagan o‘g‘illarning ismlari “uylar ro‘yxati”ga kiritilmagan. Shuning uchun bolsa kerak, III hujjatda uy egasining ismidan so‘ng kuyovning ismi yozilgan. I hujjatda esa o‘g‘illarning ismlaridan keyin kuyovning ismi yozilgan. Faqat bitta kuyovining ismi yozilishi udumga ko‘ra turmushga chiqqan qiz kuyovning uyiga o‘tib yashashi kerakligidan dalolat beradi.

Hujjatlarda ismlardan so‘ng abzas, belgi turibdi. Undan so‘ng BDn sarlavhasi quillar ro‘yxatini boshlab beradi. I, II va IV hujjatlarda uy egasi xotinining quillari va nevaralarining quillari ham ko‘rsatilgan.

I hujjatda jami 21 ta erkakning ismi yozilgan; bular: uy egasi, ikki o‘g‘li, kuyovi va 17 ta qul, shu jumladan, uy egasi, uning o‘g‘illari va kuyovining 12 ta quli, uy egasi xotinining 2 ta quli, nevaralarining 2 ta mashuqasi, o‘g‘lining 1 ta quli bo‘lgan. II hujjatda 15 ta erkakning ismi yozilgan bo‘lib, bular uy egasi, ikki o‘g‘li va 12 ta qulning ismidan iborat. Ulardan 10 ta qul uy egasi va uning o‘g‘illariga, 2 ta qul xotiniga tegishli bo‘lgan. III hujjatda 17 ta erkakning ismi bitilgan bo‘lib, bular; uy egasi, kuyovi va 15 ta qul ismidir, shu jumladan, uy egasi va kuyoviga tegishli 12 ta qul va K’SBKUN ga tegishli 3 ta qul ismidan iborat. IV hujjatda 15 ta erkakning ismi keltirilgan. Bular uy egasi, ikki o‘g‘li va 12 ta qulning ismi bo‘lib, qullarning 8 tasi uy egasi va uning o‘g‘illariga va 4 tasi esa xotinlariga tegishli qullardir. Shuni ta’kidlash joizki, hujjatlarda qullar sonining ko‘pligi, o‘sha vaqtida Xorazmda o‘ziga to‘q oilalarning ko‘pligidan dalolat beradi. Tuproqqa`a arxivida uy egasi ismlari yonida unvonlarning eslatilmaganligi, bu oilalarning qaysi aslzodalar toifasiga mansubligini aniqlashga imkon bermaydi. Kitob muallifining ta’kidlashicha, “uy ro‘yxati”da eslatilgan oilalar shahar aholisimi yoki qishloq aholisimi bilib bo‘lmaydi.

V hujjat o‘ziga xos bo‘lib, unda 4 ta kishining ismi yozilgan: uy egasi va uning 3 ta quli. Ulardan 1 tasi uy egasining, ikkinchisi xotinining va uchinchisi onasining quli bo‘lgan. Bu ro‘yxat kichik oilaning katta erkaklari ro‘yxatidir.

Uylar ro‘yxatidagi qullar ismlari etimologiyasi ko‘proq xorazmcha bo‘lib, uylarning ozod a’zolari ismlaridan farq qilmaydi. Hujjatlarning birortasida xorazmlik bo‘lman qullarning ismi uchramaydi. Demak, qullar xorazmlik bo‘lib, ular patriarchal oilalarga qaram bo‘lib, uy egasiga itoat qilgan. Qullar ozod kishilardan farqlangan. Bu esa 3-asrda Xorazmda qulchilik patriarchal xarakterda bo‘lganligidan dalolat beradi. Uy ro‘yxatlari armiya va ko‘ngilli qo‘shinlarni kuch bilan ta’minalash maqsadida katta yoshli va voyaga yetgan erkaklarni ro‘yxatga olish asosida tuzilgan bo‘lishi kerak. Bu kichkina tayoqlarni bir yoki har ikkala tomonida nozik o‘yma naqshlar ishlangan. Bu narsa ular yorliq bo‘lishi mumkinligi haqida taxminni beradi. Tayoqchalardagi yozuvlar rangi ancha o‘chib ketgan va tayoqdagi yozuv bir so‘zdan iborat bo‘lib, bu haqiqiy ismlar bo‘lishi kerak.

Tayoqlarda uchragan ismlar S.P.Tolstov, keyinchalik V.B.Xanning tomonidan o‘rganilgan. Bu olim bir necha ismlarni va tez-tez uchrab turadigan so‘zlarni o‘qishga muyassar bo‘lgan. Beshta to‘liq saqlangan uylar ro‘yxatidan to‘rttasida katta oilali uylar tarkibiga kiruvchi o‘zida uch avlodni ajdodlarini birlashtiruvchi erkaklar va uy qullari ro‘yxati berilgan. Bosh oilani uy egasi ismi bilan berilgan. Uy egasi hujjatning birinchi qatorida ro‘yxatning boshida yozilgan. So‘ng 1, 2 va 4 hujjatlarning har birida ikkitadan ism uchraydi. Bular uy egasining o‘g‘illari bo‘lishi mumkin. Ular uylanmagan, yoki otasining oilasidan ajralib chiqmagan bo‘lishi mumkin.

Demak, Tuproqqala arxivi Afrig‘iyalar davrida Xorazmda ish yuritish an’anasining yo‘lga qo‘yilganligi, hujjarlarda mamlakarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha muhim ma’lumotlar saqlanib qolganligi bilan o‘z qimmatini yo‘qotgan emas, degan xulosaga kelish ucnun asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Tuproqqal’a arxivi, S.P.Tolstov, teriga yozilgan hujjatlar, loyga yozilgan hujjatlar, yog‘ochga yozilgan hujjatlar, “uylar ro‘yxati”.

Nazorat uchun savollar:

1. Tuproqqal`a hujjatlarining topilishi va o‘rganilishi?
2. Teriga yozilgan hujjatlar haqida nimalarni bilasiz?
3. Yog‘ochga yozilgan hujjatlar haqida ma’lumot bering.
4. Tuproqqal`a hujjatlariga qo‘yilgan “K”, “G”, “P” shartli belgilarining ma’nosи.
5. Tuproqqal`a hujjatlari shaxs ismlari bo‘yicha muhim manba.
6. “Uylar ro‘yxati” nomi bilan yuritilgan hujjatlar haqida ma’lumot bering.
7. Tuproqqal`a arxivi hujjatlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalari.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. *Tuproqqal`a arxivi Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha muhim manba.*
2. *Tuproqqal`a arxivi hujjatlarida xo‘jalik hayotning aks etishi.*

**Adabiyotlar**

1. Is’hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. –T., 2017.

2. Толстов С.П. Древнекорезмийская память. 1939.
3. Топраккала. Дворец. –М., 1984.
4. Толстов С.П. Хорезмийская археологическая экспедиция. 1940 г.КСИИМК. 1946 . 12.
5. Толстов С.П. По следам древнекорезмийской цивилизации. –М., 1948. Датированные документы из дворца Топраккала проблемы эры Шака I эры Канишка. –П-Б., 1961. –С. 54-71.
6. Marquart I. Wehrut und Arang. Leyden. 1938. S. 9-10.
7. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.: 1948. –С. 40-41.
8. Хоразм тарихи. Тошкент-Ургенч. “Наврӯз”, 2019. –Б. 19-25.
9. Хорезм в истории государственности Узбекистана. Тошкент.Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. –2013. –С.30-44.
10. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. I жилд. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Тошкент, 1967. –Б. 215.
11. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.: 1948. –С.71-76.
12. Ўша асар. –Б.71.
15. Яна шу асар. –Б.73.
16. Грозный Б. Протоиндийские письмена и их расшифровка// Вестник древней истории. 1940. №2. –С.26-27.
17. Толстов С.П. Древний Хорезм... С.73.
18. Акишев К. Курган Иссык. М.: 1977. –С.71-73.
19. Мамбетуллаев М. Хум с городища Большая Айбуйиркала с древнейшей надписью в Средней Азии// Вестник Каракалпакского филиала АН УЗ, 1979. № 1(75). –С.46-48. Яна қаранг: Лившиц В.А., Мамбетуллаев М.М. Памятники истории и культуры Востока. М.: 1986. –С 42-43.
20. Фридрих И. История письма. М: 1979.
21. Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. Ташкент. УМЭД. 2008.

22. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. I жилд. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Тошкент, 1967. –Б. 215-216/
- 23.. Ягодин В.Н., Ходжаёв Т.К. Миздахкан. Ташкент.1977. Приложение: В.А.Лившиц. Надписи на оссуариях.
- 24.. Ягодин В.Н., Ходжаёв Т.К. Миздахкан. Ташкент.1977. Приложение: В.А.Лившиц. Надписи на оссуариях.
25. Лившиц В.А. Глава шестая. Документы. В книге: Топрак-кала. Дворец. М.: 1984. –С.251-252.
26. Ўша асар. – Б.253-265.
27. Ўша асар. – Б.253.
28. Livshits V.A. The Khwarezmian calendar and the eras of Ancient Chorasmia. Fcta Antiqua Academiae scientiarum Hungaricae. 1968, t. XVI. –PP. 440.
29. Лившиц В.А. Глава шестая. Документы. В книге: Топрак-кала. Дворец. М.: 1984. –С.255-256.
30. Лившиц В.А. Глава шестая. Документы. В книге: Топрак-кала. Дворец. М.: 1984. –С.253-254.
31. Ўша асар. –Б.265-267.
32. Henning W.B. The Choresmian documents. Asia Major. Neu series. London. 1965, v. XI, part 2. –P. 168-170; MacKenzie D.N. The Khorezmian Glossary// BSOAS (Bulletin of the School of Oriental and African Studies)/ London. 1970; 1971, volumns XXXIII; XXXIV.
33. Исхаков М.М. Центральная Азия в системе.... –Б.70-76.
- 34Дьяконов И.М. О гетерограммах. Переднеазиатский сборник.
35. Ўша асар.
36. Clauson D. The origin of the Turkish “runikc” alphabet// Acta orientalia. – 1970. –P. 70-78 ; Лившиц В.А. К вопросу о происхождении древнетюркского рунического алфавита. Советская тюркология. 1978. № 3.

37. Фрейман А.А. Хорезмийский язык. М.: 1951; Лившиц В.А., Луконин В.Г. Среднеперсидские и согдийские надписи на серебряных сосудах// Вестник древней истории, 1964. № 3.
38. Фрейман А.А. Хорезмийский язык. М.: 1951; Эдельман Дж. И. Хорезмийский язык. В книге: Основы иранского языкоznания. Древнеиранские и среднеиранские языки. М.: 2011. –С.

## 6-§. Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlari

### 6.1. Sug‘diy yozuv yodgorliklarining topilishi va o‘rganilishi

Sug‘diy<sup>19</sup> yozuv miloddan avvalgi III-II asrlarda shakllangan do‘lib, o’lkamiz madaniyati tarixida muhim rol o‘ynadi. Bu yozuv ijtimoiy va madaniy hayotning hamma sohalarida keng qo’llangan. Muhimi shundaki, sug‘diy yozuv orqali bizgacha eramiz boshlaridan to X-XI asrlarga qadar yozilgan ko’plab noyob yodgorliklar etib kelgan. Ular orasida turli davr va hududlarga oid ko’plab numizmatik materiallar (tanga yozuvlari), metall, sopol, yog’och, charm, qog’oz va boshqa buyumlarga bitilgan matnlar, shaxsiy maktublar, diiny, axloqiy-falsafiy matnlarning parchalari, xo’jalik, huquqiy va diplomatik hujjatlar bor.

Sug‘d yozuvlari namunalari Markaziy Osiyo mintaqasidan, jumladan, Afrosiyob, Panjikent, Mug‘ tog‘i, Yerqo‘rg‘on, Sharqiy Turkiston, Turkmaniston, Pokiston, Mo‘g‘uliston, Janubiy Qozog‘iston va boshqa joylardan topilgan. Bu esa, sug‘d yozuvining mintaqalar bo‘ylab keng tarqalganligining isbotidir.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, sug‘d yozuvi dastlab mil.avv. III-II asrlarda paydo bo‘lgan. Sug‘d yozuvlari dastlab Zarafshon vohasidan topilgan kumush tangalarda uchragan. Bu tangalar mil.av. II-I asrlarga taalluqli edi. Tangalarda sug‘d yozuvlari keng tarqalgan davr mil.av. I asrdan to milodiy IV asrlargacha to‘g‘ri keladi, deyish mumkin. II-VIII asrlarga taalluqli bullalar ham topilgan

---

<sup>19</sup> O‘zbek tilli adabiyotlarda ko‘p hollarda “sug‘d” yoki “so‘g‘d” atamasasi ham etnik nom, ham muayyan geografik hudud yoki hukmdorlik nomi uchun qo‘llanilayotgani ko‘zga tashlanadi. Bu holat ba’zi o‘rinlarda aynan xalq yoki tarixiy o‘lka haqida borayotganligi masalasida chalkashliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, muayyan etnos nomi sifatida “sug‘diy”, tarixiy-geografik o‘lka nomi sifatida esa “Sug‘d” atamasini ishlatishni ma’qul topdik.

bo‘lib, ularda ham sug‘d yozuvlari bitilgan. Bullalarning biri Kalkutta muzeyida, ikkinchisi Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Sug‘d yozuvlari namunalari ro‘zg‘or buyumlarida ham uchragan. Masalan, Uraldagi Kopchik qishlog‘idan sug‘d yozuvli kumush tavoq, Perm viloyatidan esa kumush ko‘zacha topilgan. Ular hozirda Sankt-Peterburgdagi Ermitajda saqlanmoqda.

1906-yilda A.Steyn boshchiligidagi ingliz ekspeditsiyasi Sharqiy Turkistonning Dunxuan yaqinidan sug‘d yozuvida yozilgan “Eski xatlar” matnlarini topgan. “Eski xatlar” to‘plamida 9 ta xat joy olgan bo‘lib, ular Sharqiy Turkistondagi savdo faktoriyalarida yashagan sug‘dliklarning Samarqand, Dunxuan va boshqa joylardagi o‘z yaqinlariga va qarindoshlariga yozgan maktublaridir. Matnlar tarixiy-filologik nuqtai nazardan tahlil qilinib, IV asrda yozilgan degan xulosaga keltingan.

1956-yilda mongol arxeologi S.Dorjsuren Mongoliyaning Bug‘ut qishlog‘idagi IV-VIII asrlarga taalluqli qabrlarni kovlayotganda to‘rtburchak toshga sug‘d yozuvi bitilgan yodgorlikni topgan. Tosh yodgorligining balandligi 1,98 sm, eni 70 sm, qalinligi 20 sm bo‘lgan. Topilmaning uch tomonida sug‘d tilidagi sug‘d yozuvi, orqa tomonida esa braxma yozuvi yozilgan edi. Bu topilma tarixda Bugut yozuvi nomi bilan ma’lum. Bugut yozuvi epitafiya - qabr toshiga yozilgan matn bo‘lib, uni Muxan xoqon (553-572 yy.) akasi Maxan tekin vafoti munosabati bilan yozdirgan. Mazkur bitik Birinchi Turk xoqonligi davriga tegishli yagona yozma yodgorlik sanaladi.

Sug‘d yozuvi va sug‘d tili Farg‘ona vodiysida ham keng qo‘llanilgan. Bu haqida Quvadan topilgan xumdagagi birgina so‘z xabar beradi.

Sug‘d yozuvi va sug‘d tili hududiy jihatdan Sug‘diyonada keng amal qilgan. 1961-yilda M.N.Fedorov Afrosiyobning sharqiy tomonini kovlayotgan mahalda chuqurlikdan sug‘d yozuvi bitilgan sopol bo‘lagini topadi. Topilma V-VI asrlarga oid bo‘lib, kulol ustaxona egasiga tegishli xo‘jalik hujjati ekanligi aniqlangan. Sopol parchasining bo‘rtib turgan tomonida 5, ichiga kirgan tomonida 6 yoki 7 qator yozuv bo‘lgan. Yozuvning saqlanib qolgan qismidan hujjat kiyim-kechak,

yog‘ va uy-ro‘zg‘or buyumlarining kirim-chiqimlari ro‘yxati bo‘lishi mumkin, degan xulosaga kelingan.

1975-yilda G.V.Shishkina rahbarligidagi arxeologlar tomonidan Afrosiyobdan yog‘och matn topilgan. Tayoqning uzunligi 16 sm, eni 2,5 sm. Tayoqning bo‘rtgan tomonida 5 qator yozuv yozilgan. Tayoqning o‘ng tomoni singan bo‘lib, o‘sha joy harflari shikastlangan. Shuning uchun tayoqning singan joyidagi to‘rt qator yozuvlarning boshlang‘ich harflari yo‘q. Tayoqning singan joyi yonida teshik bo‘lib, u maxsus arqon o‘tkazish uchun mo‘ljallangan. Arqon orqali yog‘och belga bog‘langan. V.A.Livshits hujjatni o‘rganib, VI asrga oid deb hisoblaydi. Olim matnni o‘qib, u sher sotib olish to‘g‘risidagi hujjat ekanligini aniqlagan.

Afrosiyobdan sug‘d yozuvidagi talaygina hujjatlar topilgan. Masalan: shahar xarobasidan haykalcha bo‘lagidagi yozuv, keramika idish sinig‘idagi yozuv, silindr shaklidagi sopol idishdagi yozuvarlar.

1965-yilda arxeologlar Afrosiyobning shimoliy qismida sug‘d podsholarining saroy xarobalarini ochdilar. Saroy mehmonxonasining devorlari turli mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan bo‘lib, ular orasida oq kiyim kiygan Chag‘oniyon elchisining surati ham bor. Uning etagiga su‘gd tilida o‘n olti satrdan iborat elchilik ishonch yorlig‘i yozib qo‘yilgan edi. Bu yozuvarlar VII asr o‘rtalaridagi xalqaro munosabatlar tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1947-yilda qadimgi Panjikent xarobalaridan moddiy madaniyat yodgorliklari qatorida 25 ta sug‘d yozuvining namunalari topilgan. Yozuvarlar sopol bo‘laklarida, qovurg‘a suyaklarida uchragan. 1952-yilda bu yerdan sug‘d yozuvi bitilgan torozi toshi topilgan.

Sug‘d yozuvlari mashqlari Turkmanistonda Gaur-Qaladan topilgan.

1974-yilda Qarshi yaqinida Yerqo‘rg‘ondan sug‘d yozuvli bulla topilgan. Bulla loydan konussimon muhr ko‘rinishida yasalgan. Unda “o‘lmas” so‘zi o‘qiladi.

1979-yilda Pokistonda Hind daryosi yuqori qismida Shatial degan joyda qoya yozuvlarini topishgan. Yozuvlarning katta qismini sug‘d yozuvlari tashkil qilgan. Yozuvlar xronologiyasi V-VII asrlar bilan belgilangan.

1906-1907yillarda A.Steyn rahbarligidagi ekspeditsiya Sharqiy Turkistonda “Buddaning ming g‘ori”dan xitoy, hind yozuvlari qatorida sug‘d tilidagi sug‘d yozuvlarini aniqlagan. Keyinchalik bu yerda P.Pelo rahbarligida fransuz ekspeditsiyasi, S.F.Oldenburg boshchiligidagi Rossiya ekspeditsiyasi ish olib bordi. Tadqiqotlar natijasida sug‘d matnlari kolleksiyasi paydo bo‘ldi va u hozirda Londondagi Britaniya kutubxonasida, Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Leningrad bo‘limida, Turfon vohasidan topilgan sug‘d yozuvlari yodgorliklari esa Berlinda saqlanmoqda.

## 6.2. Mug‘ tog‘i sug‘d arxivi

Sug‘d yozma yodgorliklari orasida 1932-1933yillarda Panjikentdan sharqda 60 km uzoqlikda Qal’ai Mug‘dan topilgan Mug‘ tog‘i hujjatlari katta ahamiyat kasb etadi. Mug‘ tog‘i sug‘d arxivi xatlar, xarajatlar yozilgan hujjatlar va hisobotlar, tilxatlar, farmoyishlar, Panj hokimlarining diplomatik yozishmalaridan tashkil topgan.

Mug‘ tog‘i sug‘diy arxivi deb yuritiluvchi bu majmua VII asr oxiri – VIII asr boshlariga oid 80 ga yaqin noyob hujjatni o‘z ichiga oladi. Ular Sug‘d konfederatsiyasiga<sup>20</sup> tobe Panch hukmdorligi (Panjikent) saroyi hamda turli viloyat hokimlari va amaldor a’yonlarga tegishli hujjatlar yig‘indisidan iborat. Arab istilosи kunlarida, xususan, 722 yilda Panch hukmdori, bir muddat Sug‘d hukmdori

<sup>20</sup> Sug‘d konfederatsiyasiga – “Sug‘d ittifoqi” mazmunidagi ushbu nisbiy atama ostida ilk o‘rtalarda Zarafshon daryosi havzasidagi Samarqand, Panjikent, Maymurg‘, Ishtixon, Kabudon, Kushoniya hukmdorliklarini hamda Qashqadaryo daryosi havzasidagi Kesh va Naxshab hukmdorliklarini o‘z ichiga olgan muayyan siyosiy uyushma tushunilib, uning tarkibidagi mazkur hukmdorliklar o‘z ichki boshqaruvida mustaqil bo‘lishgan. Ularning har biri o‘z boshqaruv markazi – poytaxti, hukmdor sulolasi, hokimiyat ramzlari (tanga, tamg‘a va h.k.), qo‘smini kabi hokimiyat xususiyatlariga ega bo‘lishgan. O‘z navbatida, ularning bitta siyosiy ittifoq – konfederatsiyaga birikishlari asosida mazkur hukmdorliklarning o‘zaro yetakchi hukmdorlik (yoki sulola)ga bo‘ysunishlari, hukmdor sulolalar kelib chiqishi jihatidan yagona xonadonga borib taqalishlari yoki ayrim ijtimoiy-siyosiy va madaniy-mafkuraviy majburiyatlarini bajarishlari kabi omillar yotgan. Jumladan, Samarqandda Chjaovu (Jamuk) xonadoni hukm surib, qolgan hukmdorliklardan aksariyatini ushbu xonadonga mansub sulolalar boshqarishgan va ular orasida Samarqanddagi sulola yetakchilik qilgan. Tashqi dushmanlarga birqalikda kurashish majburiyatida bo‘lgan hukmdorliklar vakillari yilning muayyan vaqtlarida bitta joyga yig‘ilgan holda diniy amallarni, xususan, zardushtiyalar udumlarini hamkorlikda bajarishgan.

taxtiga da'vogar sifatida ish ko'rgan Devashtich boshliq guruh Mug' tog'ida joylashgan tik qoyalar bilan o'ralgan mudofaa qasriga chekingan. Shunda saroy hujjatlari ham qasrga keltirilgan. 722 yili arablar qasrni hujum bilan olgach, uni vayron qilganlar, Devashtichni esa xalifalikning Xurosondagi noibi hukmiga jo'natganlar. Devashtich Xuroson noibi tomonidan qo'yilgan shartlarni qabul qilgach, Sug'dga qaytarib yuborilgan. Lekin xufya buyruq asosida u Rabinjon (hozirgi Kattaqo'rg'on shahri yaqinida joylashgan ilk o'rta asr shahri xarobasi) qabristonida qatl qilingan.

1932yil bahorida Tojikiston SSR Zahmatobod tumani Xayrabod qishlog'i aholisi Mug' qal'asi qo'rg'onining xarobalaridan to'qima savat va hujjatlarni topishgan. Hujjatlar tushunarsiz yozuvda ipak qog'oziga yozilgan bo'lган. Bir necha oylar mobaynida hujjatlar yuqori Zarafshon qishloqlarida qo'ldan-qo'lga o'tib yurgan. Hujjatlar respublika poytaxti Dushanbega olib kelingan. Bu yerda hujjatlar sug'd tilida yozilganligi aniqlangan. Hujjatlardan fotonusxa olinib, Leningradga professor A.A.Freymanga jo'natilgan. 1933yil dekabrida 91 ta Mug' tog'i hujjatlari Leningradga olib kelingan. A.A.Freyman hujjatlar ro'yxatini "Sug'd to'plami"da e'lon qilgan. Chuqur tahlildan so'ng, 76 ta hujjat aniqlangan, jumladan, 72 ta su'g'd tilida, bitta arab, uchta xitoy va bitta turk tilidagi hujjatlar topilgan. Hujjatlar to'planib A, B, V belgilari bilan shifrlashtirilgan, ya'ni, A.I.Vasil'yev topganlari A-hujjatlar, A.A.Freyman topganlari B-hujjatlar, A.Pulotiy topganlari V-hujjatlarga ajratilgan. Bularga asl nusxasi yo'qolgan I-1 hujjatning fotonusxasi, A.Pulotiyda qolgan A-19 va pergamentga yozilgan hujjat kirmagan. Mug' tog'i hujjatlari turli materiallarga – charmga, taxtaga va qog'ozga yozilgan. Sug'd hujjatlarining 36 tasi charmga, 23 tasi yog'ochga, atigi 15 tasi qog'ozga yozilgan. Vaholanki, bu davrda Sharqiy Turkistondan topilgan sug'd hujjatlarining aksariyati qog'ozlarga yozilgan bo'lган. Mug' hujjatlari uchun xitoy qog'ozi ishlatilgan. Ba'zi hollarda xitoy matnlarining orqa tomoni yozuv materiali sifatida ishlatilgan (B-27). Charm va pergamentdagi ba'zi hujjatlar avval ishlatilgan materiallarga yozilganligi ko'rinish turibdi. Buning uchun avvalgi keraksiz matn o'chirilgan va yangi matn yozilgan. Yangi yozuv ko'p

hollarda materialning orqa tomoniga yozilar edi. Ba'zan materiallar ikkinchi marta ishlatilganda, avvalgi matn izi ko'rinish qolar edi; A-9 V (2 qator), B-9 V (8 qator).

1934yilda A.A.Freyman topilgan hujjatilarning batafsil paleografik tasnifini yozgan. Ma'lumotlar Mug‘ tog‘i topilmalariga bag‘ishlangan maxsus “Mug‘ tog‘ sug‘d hujjatlari” to‘plamida e’lon qilingan<sup>21</sup>. Shu to‘plamda hujjatlarning topilishi bilan bog‘liq jarayonlar<sup>22</sup>, Mug‘ tog‘i bo‘yicha arxeologik tadqiqotlarning hisoboti ham nashr qilingan<sup>23</sup>. Akad. I.Yu.Krachkovskiy arab xatidagi hujjatni o‘qib, uning sanasini va shu hujjat orqali Mug‘ tog‘i qo‘rg‘onining buzib tashlanishi haqidagi tarixiy jarayonni aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ldi<sup>24</sup>. Tadqiqotlar natijasida topilgan barcha hujjatlar VII asr oxiri - VIII asrning I choragi (722 yilgacha)ga xosligi aniqlandi.

A.A.Freyman su‘g‘d hujjatlarini mazmuniga ko‘ra ikki guruhg‘a – xatlar va xo‘jalik hujjatlariga ajratadi. Keyinchalik V.A.Livshis yana bir guruh hujjatlarini aniqlagan bo‘lib, bular yuridik hujjatlar edi. Hujjatlarning aksariyati Panjikent hokimi Divashtich nomi bilan bog‘liq bo‘lgan.

1934yilda A.A.Freyman xo‘jalik hujjatlarining ayrimlarini tarjima qilib, nashrini e’lon qilgan. U jami Mug‘ hujjatlarining 13 tasini chop qilgan bo‘lib, ular “Sug‘d to‘plami”ning birinchi kitobiga kiritilgan.

### 6.3. Yuridik hujjatlar va xatlar

1957yil oxirlarida V.A.Livshits Dushanbeda A.A.Semenov va B.A.Litvinskiylar sharofati bilan charm va qog‘ozga yozilgan hujjatlarning nusxasi bilan tanishgan. U 1958yilning kuzida Osiyo xalqlari instituti Leningrad bo‘limida saqlanayotgan sug‘d hujjatlarining asl nusxasi bilan tanishishga muyassar bo‘lgan. Hujjatlar bilan ishlash jarayonida u birinchi marta yuridik matnlarni topib ajratadi, bu hujjatlar shartnomalar edi. Yuridik hujjatlar haqida hali “Sug‘d to‘plami”da

<sup>21</sup> Фрейман А.А. Опись рукописных документов, извлеченных из развалин здания на горе Муг в Захматабадском районе Таджикской ССР около селения Хайрабад и собранных Таджикистанской базой Академии наук СССР. //Согдийский сборник. –Л.: Изд. АН СССР, 1934. –С.33-51.

<sup>22</sup> Фрейман А.А. Нахodka sogдийских рукописей и памятников материальной культуры в Таджикистане. (Предварительное сообщение). //Согдийский сборник. –С.7-17.

<sup>23</sup> Васильев А.И. Согдийский замок на горе Муг. (Предварительный отчет). //Согдийский сборник. –С.18-32.

<sup>24</sup> Крачковский В.А. и акад. Крачковский И.Ю. Древнейший арабский документ из Средней Азии. //Согдийский сборник. –С.52-90.

hech qanday xabar berilmagan edi. Mug‘ xatlari 711 va 722- yillarda Sug‘ddagi va qo‘shni viloyatlardagi siyosiy va harbiy holat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgan edi. Hujjatlar sug‘d va shu atrofdagi ijtimoiy hayot va iqtisodiy taraqqiyot to‘g‘risida ma’lumot olishga ham xizmat qilgan. Tadqiqotlarning dastlabki natijalari V.A.Livshits tomonidan 1959-1960yillarda (jami 15 ta hujjat) nashriyotda e’lon qilingan.

1962yil Moskvada V.A.Livshits yuridik matnlar (shartnomalar va tilxatlar), xatlar, moliyaviy mazmundagi jami 45 ta hujjatni “Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlari” to‘plamining “Yuridik hujjatlar va xatlar” deb nomlangan ikkinchi kitobida e’lon qilgan<sup>25</sup>.

Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlarining foto nusxalari Rossiya FA Sharqshunoslik Instituti Leningrad bo‘limida saqlanmoqda. Rasmlar alohida albom holatida, “Eroniy tillar yozuvlari korpusi” (“Corpus inscriptorum iranicarum”) seriyasida nashr qilingan. Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlari taxminan 20 xil husnixatda yozilganligi aniqlangan. Matnlarning aniqmasligi, yomon saqlanganligi, noma’lum lahjalarda bitilganligi, o‘ziga xos uslubistik xususiyatlari, shaxs ismlarining ko‘pligi, unvonlar va toponimik nomlarning ko‘pligi sababli hujjatlarni o‘qish, tarjima va tahlil qilish qiyin kechgan.

Mug‘ tog‘i Sug‘d hujjatlari M.N.Bogolyubov, V.A.Livshits, O.I.Smirnova, M.Is’hoqovlar tomonidan o‘rganilgan. Bir turkum sug‘d hujjatlarining o‘zbek tiliga tarjimasi va izohlari professor M.M.Is’hoqov tomonidan “Unutilgan podsholikdan xatlar” nomli risolada e’lon qilingan<sup>26</sup>.

Hujjatlar Sug‘d dehqoni, katta yer egasi, podshohi Divashtich (708-722) va yirik mansabdorlar – framandarning, shuningdek, Xoxsar hamda Kshtut dehqonlarining shaxsiy arxiviga tegishli bo‘lib, Sug‘dning VIII asrning birinchi choragidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotini o‘rganishda muhim manba ro’lini o‘ynaydi.

<sup>25</sup> Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии Лившица В.А. //Современные документы с горы Муг. Чтение, перевод, комментарий. Выпуск II. Москва. «Издательство Восточной литературы». 1962.

<sup>26</sup> Исхоков М.М. Унитилган подшоликдан хатлар. –Т.: Фан, 1992.

Mug' tog'i sug'diy hujjatlarning tarixiy jihatdan ahamiyati beqiyos. Chunonchi, ularda Choch, Farg'ona, Ustrushona, Xo'jand, Panch (Panjikent), Samarqand kabi voha hukmdorliklariga aloqador voqeliklar, mintaqada arab istilosи va unga qarshi mazkur hukmdorliklarning ittifoqchilikdagi harbiy harakatlarni tashkil etishga undovchi yozishmalar, xususan, ushbu harakatlarning tashabbuskori bo'lган turk xoqonlariga Panch hukmdori Devashtichning murojaati va hokazolar o'rın olgan. Ma'lumki bu davrda Amudaryo-Sirdaryo oralig'i va unga tutash hududlarda Choch, Farg'ona, Ustrushona, Sug'd (Samarqand, Panch, Maymurg', Ishtixon, Kushoniya /Kattaqo'rg'on, Kesh, Naxshab va h.k.), Buxoro, To'xoriston va Xorazm kabi o'nlab kichik voha hukmdorliklari mavjud bo'lib, o'z ichki boshqaruvarlida deyarli mustaqil bo'lган mazkur siyosiy uyushmalar mintaqadagi yirik saltanat – G'arbiy Turk hoqonligi (568-740) tarkibida edi.

Darvoqe, Mug' tog'i hujjatlaridan bir nechasida xoqonlikka aloqali ravishda bir necha bor "*xun(=turk) hukmdori*", "*xoqondan kelgan mansab /yorliq*" kabi iboralar bilan birgalikda, *xoqon, tudun, eltabar, tarxon* kabi unvonlar va *Chakin Cho'r Bilga, O't-tegin* singari xoqonlikka xos ism va epitetlar o'rın olgan. Ushbu tildagi manbalarning xoqonlik tarixini yoritishdagi ahamiyati shuki, sug'diy mualliflar xoqonlik ichki hayotidan yaxshi xabardor bo'lishgan. Shu sababli, ularda o'rın olgan xoqonlikka xos boshqaruvtizimi va davlatchilik an'analariga oid ma'lumotlarni original dalillar sifatida baholash mumkin. Darvoqe, sug'diyalar Turk xoqonligi aholisining sezilarli qismini tashkil etgan va turkiylar bilan yonmayon, aralash yashagan etnos sifatida xoqonlik boshqaruvida ham faol ishtirok etganini e'tiborga olish zarur. Shuningdek, Sug'd vohasidagi bir qator hukmdorliklarda sug'diy-turkiy an'analar o'zaro sintezlashgan bo'lib, bu ularning ish yuritish tizimida ham o'z ifodasini topgan.

Bu holat ayniqsa Panch hukmdorligi hayotida yaqqol ko'zga tashlanib, boshqaruvsida sug'diy va turkiy etnos vakillari baravar ishtirok etishganida o'z ifodasiga ega. Xususan, taxminman VII asrning ikkinchi yarmida Panchda turkiy-sug'diy aralash sulola tashkil topib, uni dastlab Bichut, keyinchalik uning o'g'li

Chakin Cho'r Bilga (693-708), keyinchalik uning qizlari vositasida kuyovi, sug'diy amaldor Devashtich (709-722) boshqarganlar.

Bu paytda butun Sug'd konfederatsiyasida bo'lganidek, Panchning ma'muriy-siyosiy boshqaruvida ham nisbiy bo'lsa-da, konfederatsiya shaklidagi o'ziga xos ichki tuzilishga ega boshqaruv mavjud edi. Ilk o'rta asrlarga taalluqli yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, Yuqori Zarafshon vohasidagi hozirgi tuman (rayon) yoki kattaroq qishloqlarga to'g'ri keluvchi qator ma'muriy birliklar – rustoqlar Panch hukmdorligi tarkibiga kirgan. Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida Panchga tegishli bo'lgan quyidagi mulk (mayda hokimlik)larning nomlari keltiriladi: Maxiyon, Parg'ar, Kshtut, Martushkat, Madm, Kum, Zarovat, Iskadar, Xshikand, Varz, Krut, Fatmiv, Paxut, Eftmaut, Shavkat, Yag'nob vodiysi, Anzab, Buttaman va hokazolar<sup>27</sup>.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, aslida hududiy jihatdan muayyan bir qishloq darajasida bo'lgan mazkur ma'muriy birliklar ham o'z avtonom boshqaruviga ega bo'lganligi bois, ularni ma'lum ma'noda "mayda hokimliklar" deb atash ham mumkin. Panch hukmdorligiga qarashli mazkur kichik mulklar o'sha davrdagi arab-fors tarixiy asarlarida k o'proq "rustoq"<sup>28</sup>lar shaklida qayd etilgan. Ulardan ayon bo'lishicha, har bir rustoq o'z boshqaruvchisiga ega bo'lib o'z navbatida ular Panchning bosh hukmdoriga bo'ysunishgan. Umuman olganda, arab-fors manbalarida qayd etilishicha, Movarounnahrdagi Buxoro, Samarqand, Ustrushona kabi nisbatan yirik hukmdorliklarda ham Panchdagiga o'xshab rustoqlar bo'lgan.

Ahamiyatlisi shuki, tuman yoki kattaroq qishloq shaklidagi mazkur mayda hokimlik (mulk)lardan aksariyatining nomi sug'diy hujjatlarda qay shaklda uchrasa, hozirda ham qariyb o'sha ko'rinishda saqlanib qolgan.

<sup>27</sup> Смирнова О.И. Вопросы исторической топографии и топонимики верхнего Зарафшана // МИА. М., 1953. №15. С. 317-318.

<sup>28</sup> Rustoq- forscha "qishloq" ma'nosiga to'g'ri kelib, O'rta Osiyo, Eron va qisman arab mamlakatlarida qo'llanilgan tarixiy-geografik tushuncha. Ushbu so'z qishloq, shahar, ovul, bozor, o'zlashtirilgan o'lka, o'troq aholi yashaydigan joy, ekin maydoni, obodonlashtirilgan shahar kabi ma'nolarga ega. O'rta Osiyo va Eron mo'g'ullar tomonidan istilo etilgach, rustoq o'rniqa "tuman" atamasi qo'llanila boshlagan. (Qаранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: ЎзМЭ, 2004. Б. 395).

Quyida bazi mug' hujjatlarining o'zbek tiliga izohli tarjimasini berishga harakat qilindi<sup>29</sup>.

#### **A-9 (QO'SHNI HOKIMLIKLARDAGI AHVOL TO'G'RISIDA DEVASHTICHGA UNING AYG'OQCHISI YOZGAN MAK'TUB) HAQIDA**

A-9 raqamli hujjat. 19,5-11 sm yuzali charmning o'ngi va teskarisiga o'ziga xos individual xat uslubi bilan bitilgan sug'diycha matndir. O'ng beti charmning eni bo'ylab, orqa beti esa bo'yiga to'ldirilgan. Hammasi bo'lib o'ng betida 15, orqa betida esa 26 qator yozuv bor. 25-26-qatorlar orqa betdag'i matn yo'nalishiga teskari holda yozilgan. "Va yozildi Aspanak Devg'un tomonidan Aspanning buyrug'iga binoan" deb ta'kidlanadi unda. Shunday qilib, A-9 hujjatini yozgan sug'diy xattot yoki mirzaning ismi Aspanak Devg'un ekan deb o'ylash mumkin. Lekin asosiy matn kotibining xat uslubida so'z boshidagi *p* harfi, so'z o'rtasidagi *k* va y belgilari o'ziga hosligi bilan ajralib turadi. Teskari yo'nalishdagi ikki satr xati esa boshqacha. Xat o'ralgach, bu satrlar boshqa kishi tomonidan yozib qo'yilgan bo'lsa kerak. Xususan, bu xatning belgilari o'ziga xos. Umuman, oxirgi 2 satr xati A-12, B-2, B-3 kabi qator hujjatlar xatiga o'xshaydi. Hujjat noshiri V.A.Livshitsning fikricha, A-9 hujjati uchun avval yozuv bitilgan charmni yuvib tozalashgan. Shunda eski matn qisman o'chmay, qolib ketgan. Demak, Aspanak Devg'un o'g'li yuvib tashlagan matnning kotibi bo'lган, deyish ham mumkin. Bu hujjat VII-VIII asrlarda Romtish Vg'ashfarn, Venonok kabi kotiblar bilan bir qatorda Aspanak Devg'un o'g'li ismli sug'diy kotib ham bo'lганligi haqida ma'lumot beradi.

A-9 raqamli hujjat xat janriga mansubdir. Lekin unda sug'diy maktublarga xos kirish va yakunlovchi formulalar yo'q. Shuning uchun maktubning kimga yozilgani noma'lum. Lekin undagi xabar va ma'lumotlarning Sug'd hukmdorligi (konfederatsiyasi) siyosiy-harbiy ahvoliga bevosita aloqadorligi hisobga olinsa, xat adresati hukmdor Devashtich bo'lган deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari,

---

<sup>29</sup> Tarjimalarni professorlar M.M.Is'hoqov va G'.Boboyorovlar amalga oshirishgan.

maktub matnida “maray” unvoni uchraydiki, bu “afshin(hukmdor)” ma’nosida bo’lib bir necha hujjatlarda Devashtichga nisbatan qo’llangan.

A-9 hujjatning adresati juda bo’lmaganda muhim amaldor ekanligi xat mazmunidan yaqqol ko’rinib turadi. Masalan, muallif Ustrushana, Parg’ar, Xo’jand kabi qator shahar va viloyatlardagi ahvolni bayon etadi. Aftidan, u arablar bilan tuzilishi mumkin bo’lgan bitim haqida gapirodi. Parg’ar erlarini tashlab ketmaslik lozimligini ta’kidlaydi. Chunki bu erlarda yaqin kelajakda muayyan xavf-xatar yo’q. A-9 hujjatining 1-2-satrlarida qiziq bir ma’lumot berilgan.

Hujjat 722 yil avgust oyining haftasida yozilgan deb taxmin qilinadi<sup>30</sup>.

## **A-9 (QO’SHNI HOKIMLIKlardagi AHVOL TO’G’RISIDA DEVASHTICHGA UNING AYG’OQCHISI YOZGAN MAKtUB MATNI)**

- (1) Va shunday xabar bor: “Xo’janddagi (voqealar) tugadi, va barcha xalq
- (2) amirning diniga (yoki “himoyasiga”) o’tdi – zodagonlar (“ozodlar”) ham, savdogarlar va
- (3) xizmatkorlar ham (jami) 14 ming (bo’lib) chekindilar<sup>31</sup>. Va biz chopar yo’lladik.
- (4) Lekin eshitdikki, u Xuttalga<sup>32</sup> qaytib kelibdi.
- (5) Axshevarro’ch kunida esa lashkarboshi Shavkatda<sup>33</sup> to’xtadi. Bor bo’lgan barcha piyoda askarlarni

<sup>30</sup> Grenet, Vaissiere, 2002: 179.

<sup>31</sup> Hujjatning dastlabki nashrlarida 1-2-satrlar quyidagicha o’girilgan edi: “(1) Va shunday ovozlar bor: “Kuchaliklar (?) ..... va barcha xalq (2) braxman diniga o’tishdi (“chiqishdi”). Bular zodagonlar (“ozodlar”), savdogarlar va oddiy (3) xalq hamda 14 000 ruhoni ustozlar. Va biz chopar yo’lladik” (СДГМ, II:95). Bu esa hujjatdagi ma’lumotlar talqinida yanglish xulosalar bildirilishiga olib kelgan, kuchaliklar, ya’ni Sharqiy Turkistondagi voha hukmdorliklardan biri – Kucha aholisi va ular e’tiqod qiluvchi braxman dini haqida gap boradi, mazmunida fikrlarga yo’l ochgan edi. Aslida esa bu yerda hujjat yaratilgan muhit – Panchga nisbatan yaqin joylashgan viloyat bo’lmish Xo’janddagi ahvol bayon qilinadi. Yuqoridagi tuzatishlar O.I. Smirnova hamda F. Grene va E. De la Vessierlar taklifi asosidadir (Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. –М., 1970. С. 16, 254; ) Grenet, Vaissiere, 2002: 172-173).

<sup>32</sup> Xuttal - adabiyotlarda Xuttalon, Xatlon shakllarida ham uchraydigan Chag’oniyon (hoz. Denov/ Surxxondaryo viloyati)ning sharqida joylashgan tarixiy viloyat. Uning hududi Tojikistondagi hozirgi Ko’lob viloyatiga to’g’ri keladi.

<sup>33</sup> Shavkat – lug‘aviy jihatdan sug‘diysha shav “qora” va kat “qishloq/shahar” (“Qoraqishloq/shahar”) ma’nolarini anglatgan ushbu aholi manzilini ayrim tadqiqotchilar Zarafshon daryosining o’ng havzasida, hozirgi Ayniy tumani markazining biroz shimoli-sharqida joylashgan Shavkati poyon qishlog‘i bilan tenglashtiradilar. Ayrim tadqiqotchilar esa uni arab geograflari tomonidan Shimoliy Ustrushonada Samarqanddan Xo’jandga eltuvchi yo’l bo’yidagi muhim rustoq (tuman) sifatida tilga olingan joy bilan bitta deb qarashadi. Shuningdek, mazkur geograflar Iloq (Choch) viloyatidagi shaharlardan birining nomini ham Shavkat shaklida qayd etishgan.

- (6) Buttaman<sup>34</sup> orqali u sari jo'natdim. Parg'ardagi<sup>35</sup> erlarni esa, ya'ni eng keng (yaxshi)
- (7) bo'lganlarini, unga tashlab ketmagan, (chunki) ushbu lashkarboshi
- (8) sengacha etib bormaydi. Hokim janoblari, (sizdan) shunday buyruq bo'lgan edi: "Dishttach bilan birga
- (9) otlarni tayyorla! Murtatro'ch kuni ishonchli kishilar
- (10) Ramanga<sup>36</sup> kelishadi" – lekin bu haqda menda hali xabar yo'q. Agar
- (11) sen sulh tuzsang, na sen va na sening xalqing adolatli (tinchlik, amniyatga) erisholmaysan.
- (12) Men yana bir choparni yubordim. Qanday yangi xabarlar bo'lsa, senga etkazurman.
- (13) Va men ishonchli choparni ham jo'nata man. Ustrushanlik odamlardan ham
- (14) biroz kelishadi. (Hozircha) tashvish yuzlanmadni,
- (15) shuning uchun g'am chekmagan".

Izoh:

A-9 hujjati mazmuniga ko'ra podsho Devashtichning Parg'ar, Ustrushona, Xo'jand viloyatlarida yashirin ish ko'rgan kuzatuvchisi (ayg'oqchisi) tomonidan yozilgan maxfiy ma'lumotnomadir. Hujjatda adresat va maktub yo'llovchi kishi nomlari ko'rsatilgan emas. Unda odatdagidek matbuot janriga xos kirish va xotima formulalari ham yo'q. Xat muallifi to'g'ridan-to'g'ri o'zi kutgan voqealarga kirishadi. Bunday extiyotkorlik arablar istilosiga jarayonida ehtimol zarur bo'lgandir. Bu haqda A-9 noshiri V.A. Livshits uch xil taxmin

<sup>34</sup> Buttaman - arab manbalarida Buttam shaklida qayd etilgan. Zarafshon daryosining yuqori havzasida, Panjikentning shimoli-sharqida, Zomin tog'lari yaqinida, undan janubi-sharqda joylashgan tog'lik tarixiy viloyat. U ba'zan alohida hukmdorlik, ba'zan Ustrushona tarkibidagi viloyat sifatida bo'lgan.

<sup>35</sup> Parg'ar – sug'diy tilda "Tog‘usti / Tog‘lik joy", "Tog‘ning yuqorisi" ma'nosini anglatgan bo'lib, Yuqori Zarafshonda, Zarafshon daryosining chap havzasidagi tog'lar va tarixiy viloyatning nomi. Hozirgi kunda Zarafshonga quyluvchi Kshtut va Fondaryo irmoqlari oralig'idagi hudud Falg'ar shaklida saqlanib qolgan. Panch xo'jalik hayotida Parg'arning alohida o'rni bo'lgan ko'rindi. Parg'ar xo'jalik va ma'muriy jihatdan Panchga bo'ysunib, ko'pgina masalalarni u markaz Samarqand bilan emas, balki bevosita Panch hukmdorligi doirasida hal qilgan (СДГМ, III:8).

<sup>36</sup> Raman – Ram ilohi nomidan shakllangan toponim (Grenet, Vaissiere, 2002: 174-175). Ustrushona va Parg'ar oralig'ida joylashgan aholi manzili deb taxmin qilinadigan mazkur toponim hujjatning ilk nashrlarida Ramush (Romush) shaklida o'qilgan bo'lib, bu borada bir qator munozaralari talqinlar bildirilgan edi (СДГМ, II:94-95).

bildirgan: 1) maktubning etib kelgan qismining bir bo’lagi, bosh qismi yo’qolgan; 2) A-9 matni xatning asosiy mazmuning qora nusxada tayyorlangan ko’rinishi. Shu matn asosida tegishli kirish va xotima formulalari bilan oqqa ko’chirilgan matn etib kelmagan; 3) kirish va xotima formulalarida ismlar ta’kidlanishi lozim edi. Lekin harbiy-siyosiy vaziyat taqozosi bilan ataylab tushib qoldirilgan. Bu o’rinda uchinchi taxminni ko’proq asosga ega deb hisoblash mumkin. Aftidan, Devashtich o’z kishilarini qo’shni erlarga yuborar ekan, ularning maqsad va vazifalari hamda sharoit maktub va ma’lumotlardagi rasmiy an’anaviy uslub formulalaridan ataylab foydalanmasligi tabiiy edi. Maktub Devashtichga shaxsan yo’llanganligi haqida faqat taxmin qilish mumkin. Buni asoslash uchun hujjatning 8-qatorida muallif tomonidan adresatga murojaat qilib *rti maray* “va hokim (janoblari)” deb yozilganini ko’rsatish kifoya. Ko’proq sug’diycha *afshin* unvonini ifodalash uchun qo’llanilgan *maray* oramiycha ideogramma bo’lib, Mug’ tog’i sug’diy matnlarida faqat adres formulalarida uchrar va Devashtichga nisbatan qo’llanar edi. Boshqa viloyat hokimlariga nisbatan doimo sug’diycha xuvu – “hokim”, “hukmdor” so’zidan foydalanishgan. Ko’rinib turibdiki, bu o’rinda Devashtichning o’ziga xat konteksti ichida murojaat qilish uchun *maray* so’zi qo’llangan. V.A. Livshitsning fikricha, xat muallifi hozirgi O’ratepa, Mastcho, Xo’jand erlarida ish ko’rgan. U bergen ma’lumotlar geografiyasi shundan dalolat beradi. Buttaman – Panjikentdan yuqoridagi tog’li o’lka; Parg’ar – Sug’d bilan chegaradosh shimoliy erlar; Ustrushan – Mastcho, O’ratepa atrofidagi erlar va hokazo.

#### **A-14 (SUG’D ELCHISI FATUFARNNING CHOCHDAN JO’NATGAN MAKTUBI)**

- (1) Janobi hukmdorga, buyuk tayanchimiz, Sug’d podshosi, Samarqand hukmdori
- (2) Devashtichga uning eng e’tiborsiz (“millioninchi” darajali)
- (3) quli Fatufarndan murojaatnomasi.

- (4) Janobi hukmdor, (senga) buyuk shon-sharaf (egasiga) ko'pdan-ko'p ta'zim yo'llayman ("murojaat qilaman")
- (5) Va janob, men bu erga, Choch hukmdori<sup>37</sup> huzuriga keldim. Janob,
- (6) xatlarni ham topshirdim, og'zaki ("til bilan") (aytilishi) lozim bo'lgan
- (7) murojaatnomani ham to'liq, oqizmay-tomizmay ("qoldiqsiz") bayon ettim.
- (8) Tudunga<sup>38</sup> ham, uning yordamchisiga<sup>39</sup> ham. Va janob,
- (9) Xoqonga<sup>40</sup>(mo'ljallangan) xatni ham, Farg'ona podshosiga<sup>41</sup> mo'ljallangan xatni
- 

<sup>37</sup> *Choch hukmdori* – tadqiqodchilar orasida ushbu hukmdorning kimligi masalasi ilmiy bahslarga sabab bo'lgan. V. A. Livshis, bu yerda ikkita shaxs haqida gap borishini olg'a surib, hujjatda "Choch hukmdori" va "Choch tuduni" tilga olinganini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, elchi Fatufarn Chochning har ikkala boshqaruvchisi huzurida bo'lgan (СДГМ, II:82-88). S.G.Klyashtorniy fikricha esa xatning mazmuni bunday xulosa chiqarishga imkon bermaydi va aksincha gap bitta shaxs haqida borayotganidan darak beradi, ya'ni; Choch hukmdorini Fatufarn dastlab maqomiga ko'ra – "Choch hukmdori", so'ngra esa unvoniga ko'ra – "tudun" deb nomlaydi. Tadqiqodchi o'z fikrining tasdig'i sifatida Tabariy ayni shu hukmdorni "Shosh podshohi" va "tudun" deb atashini misol qilib keltiradi (Кляшторный С.Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. –М., 1964. С. 160). Biroq yozma manbalar (xitoy) va numizmatik materiallar har ikkala olimming ham fikrlari munozarali ekanligi ko'rsatadi. Aynan ushbu hujjat yozilgan paytda vohada 2 ta turkiy sulola yetakchilik qilib, *Choch teginlari* (605-750) – bosh, *Choch tudunlari* (640-750)- ikkinchi darajali sulola edi. Faqat hokimiyat *Tudunlar* qo'lida bo'lib, *Teginlar* esa ko'p yillardan beri qonunan Chochning boshqaruvchilari sifatida bosh sulola hisoblanar, hokimiyatga da'vogarlik esa nomiga edi (Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавҳалар (Илк ўрта асрлар). –Т., 2008. Б.50).

<sup>38</sup> *Tudun* – asosiy vazifasi tobe hukmdorliklardan soliq yig'ini tashkil etish va mahalliy hukmdorlarni nazorat qilish bo'lgan G'arbiy Turk xoqonligi – noib. Hujjat mazmunidan ko'rindiki, *Tudun* – Choch hukmdorlaridan biri sifatida voha siyosiy hayotida yetakchi rol o'ynagan. Xitoy yilnomalarida 640 yildan to 750- yilgacha bo'lgan davr oralig'ida 4 nafar Choch hukmdorining ismi *tutun* unvoni bilan tilga olinishi, Tabariy ("Tudun malik ash-Shosh") va Beruniy Shoshning qadim hukmdorlari unvoni tariqasida ko'rsatishi vohada *Tudunlar* sulolasini mavjud bo'lganidan darak beradi (Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – М.-Л., 1950. Т. II. С. 313-314; История ат-Табари. Избранные отрывки (Пер. с арабского В.И.Беляева. Доп. к пер. О.Г.Болшакова и А.Б. Халидова). –Т., 1987. С. 268; Абу Райхан Бируни. Избранные произведения. –Т., 1957. Т. I.C. 111). VII-VIII asrlarga taalluqli tangalarda *tbwn c'cynk ywB-* "Choch hukmdori Tudun" iborasining uchrashining o'ziyoq, bu fikrni tasdiqlaydi (Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI-VIII вв. н.э.). –Т., 2007. С. 47, 55-60). Yilnomalardan ma'lum bo'lishicha, 713-740- yillarda Chochni *Moxedu tutun* (Bahodir tudun) boshqargan. Hujjatdagi mazkur shaxs Bahodir tudun bilan tenglashtiriladi (Лившиц, 2008: 91).

<sup>39</sup> *Naztg'riv* – lug'aviy ma'nosi "yordamchi" (hukmdor yordamchisi) bo'lgan ushbu atamani dastlabki nashrlarida V.A. Livshis aynan shu ma'noda bergen bo'lib (СДГМ, II:79, 83), keyinchalik uni Azatg'riv shaklida shaxs ismi o'laroq talqin qilgan (Лившиц, 2008:87). Biroq ham ushbu atamaning paleografik shakli, ham hujjat mazmuni Livshisning dastlabki talqini to'g'ri ekanligini ko'rsatadi.

<sup>40</sup> *Xoqon* - Mug' hujjatlaridagi xoqonning aynan kim ekanligi masalasi bahsli. Ayrim tadqiqodchilar uni Sharqiy turk hukmdori Inal xoqon (716 y.) bilan (СДГМ, II:84), ayrimlar esa arablarga qarshi mahalliy hukmdorlarga bosh bo'lgan Turgash xoqoni Sulu (717-738) bilan tenglashtiradilar (Grenet, Vaissiere, 2002:156). Ehtimol, u G'arbiy Turk xoqonlari Ashina Xyan yoki Ashina Sinlardan biri bo'lishi ham mumkin. Quyida ko'rib o'tiladiganidek, V-18 hujjatda arablarga qarshi Sug'dga o'z ittifloqchi qo'shinlarini yuborgan "xun(turk)" va chin "chitoy""lar haqida gap boradi. Bu paytda Sharqiy turk hoqonlari ham, turgash hoqonlari ham Xitoydag'i Tan sulolasini bilan asosan o'zarо dashman kayfiyatda bo'lib G'arbiy Turk hoqonlarining aksariyati esa Xitoy tomonidan tayinlanuvchi yoki qo'llab-quvvatlannuvchi hukmdorlar edi.

<sup>41</sup> *Farg'ona podshosi* - bu davrda Farg'onaning bosh hukmdorlari sug'diycha *ixshid* unvoniga ega bo'lishgan. Xitoy yilnomalaridagi ma'lumotlar va numizmatik materiallar VII-VIII asrlarda Farg'onada bosh sulola sifatida Turk hoqonligining asoschi sulolasini – Ashina xonodonining bir tarmog'i hukm surganini ko'rsatadi. "Tan shu"ga ko'ra, Chjen-guan' davrida(627-649) G'arbiy turklardan *Gan Moxedu* (\*To'n Bahodur) tomonidan *Boxanna* (Farg'ona)

- (10) ham Farg’ona tutug’i<sup>42</sup> qo’li bilan (orqali) Farg’ona
- (11) podshosi tomon jo’natdim. Janob, men shu tufayli “Yuqori”ga<sup>43</sup>
- (12) tomon (yana yo’l) yura olmadimki. Xabarlargal ko’ra, Hoqon
- (13) (hech) ko’rinmas emish. Janob, Tudundan va uning
- (14) yordamchisidan xat va og’zaki javoblarni oldim va janob, (yo’lga chiqib)
- (15) Appartakanga<sup>44</sup> (etib) kelganimda, janob, Chadrchik<sup>45</sup>
- (16) haqida yaxshi xabarlar eshitmadim. Ustrushan
- (17) viloyati hammasi (dushmanga) topshirilgan. Janob, men yoppa yolg’iz,
- (18) behamroh holda (yo’limda davom etib) yurishga jur’at qilolmayapman.
- Janob,
- (19) ikkinchi bora Choch tomon qaytib keldim. Buning uchun (sen) hukmdorimdan
- (20) juda yomon (qattiq) qo’rqayapman. Janob, Tudun
- (21) toziklar (arablar) bilan bitimga binoan chekindi. Bitimga ko’ra
- (22) Jamravaz va Bars (?) chabish (chovush)<sup>46</sup> quiy tomonga ketdilar.
- (23) xabarlar borki tovon undirib olish va

hukmdori *Kibi* o’ldirilgani va hokimiyat *Ashena* (*Ashina*) *Shuni* ismli shaxs qo’liga o’tgan (Бичурин, II: 319). Xitoy sayyohi Xoy Chao (726) Farg’onada 2 ta hokimiyat mavjudligi, biri Sirdaryoning shimalida (markazi Koson?) *Tukyue* (turk)lar, janubida esa *Dashi* (arab)larning boshqaruvi borligini yozadi (Бернштам А.Н. Тюрки и Средняя Азия в описание Хой ЧАО (726) //ВДИ, I. M., 1952. C.193). Tabariy 712-723 yillar voqealari bayonida Farg’ona hukmdorlarining nomini ham keltirib o’tgan: Farg’ona podshosi at-To’r (СДГМ. II: 84). VII-VIII asrlarga taalluqli Farg’ona tangalarida “hoqon” unvoni bilan birga, Turk xoqonligi tamg‘asiga o’xhash arxar shaklli tamg‘a joy olganki, har holda bu vodiyya *Ashina* xonodonining bir tarmog’i hukm surgani bilan aloqadordir.

<sup>42</sup> *Farg’ona tutug’i* – Turk xoqonligi tomonidan Farg’onaga tayinlangan harbiy noib. Hujjat mazmunidan u xoqonning ishonchli vakili bo’lgani anglashiladi. VII-VIII asrlarga taalluqli Farg’ona tangalarida “Alp xoqon tutug’i” iboralari uchraydi. *Tutuq* – qadimgi turkcha unvon, lavozim nomi sifatida “lashkarboshi, bo’ysundirilgan biror o’lkaning harbiy voliysi”ma’nosini bildirgan. Xitoycha *du-du* – “harbiy voliy” so’zidan o’zlashgan deb hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar uni qadimgi turkcha “tutmoq” (tutib turmoq, ushlab turmoq) fe’lidan shakllangan deb talqin qiladilar.

<sup>43</sup> “*Yuqori*” - G‘arbiy turk xoqonliginинг марказий нудуди – Еттисув бо‘лса керак. Суг‘дий елчи Чочга tashrif бууирганда хоон “*Yuqori*”га – Еттисувга кетган бо‘лиши мумкин.

<sup>44</sup> *Apartakan* – hujjat noshirlari dastlab mazkur atamani joy nomi hisoblagan bo’lsalar-da, aynan qaysi hududda joylashganligi masalsini ochiq qoldirishgan. E.V.Rtveladze uni Ohangaron vodiyisidagi hozirgi Apartak qishlog’i bilan tenglashtirgan bo’lib, tadqiqotchilarning aksariyati bu fikrga qo’shilishgan va uni hozirgi Angren (o’rta asrlardagi Ohangaron) shahrining qadimgi nomi bo’lsa kerak deb taxmin qilishgan (Grenet, Vaissiere, 2002:169: Лившиц, 2008:94).

<sup>45</sup> *Chadrchik* – ushbu atamani tadqiqotchilar “Quiyi viloyatlar” shaklida o’girib, Choch vohasidagi joy nazarda utilgan deb talqin qilishadi. V.A.Livshis uni so’roq ishorati ostida “*Chirchiq*” (daryosi viloyati) bo’lishi mumkin deb yozadi (Лившиц, 2006:87).

<sup>46</sup> *Chabish* – o’rta asrlarda turkiy sulolalar boshqaruvidagi harbiy unvon “chovush”ga to‘g‘ri keladi. Mazkur hujjatda Chochdagisi siyosiy voqealarga aloqador ravishda uchraydigan

- (24) kuchlarni arablardan nariga olib ketish (ularning maqsadidir). Janob, xabarlargal binoan xun (turk)lar<sup>47</sup> hech
- (25) ko'rinxmaydi. Chunki ular yuqoriga qarab ketishdi va haligacha hech kim
- (26) qaytib kelgani yo'q. Janob, Tudun Tarband<sup>48</sup> bilan
- (27) bitim tuzgan edi. U erdag'i hamma joylarni oldi. Janob,
- (28) Chadirchikda (tuzilgan) sulk munosabati bilan, eshitishimcha yordamchi juda g'amgin,
- (29) anduhnok bo'lmoqda va yana yoningga borolmagani uchun sendan ("hukmdordan") qo'rmoqda.
- (30) Janob, so'ngra sen tomondan ("hukmdordan") xabarlar kelmay qoldi.
- (31) Janob, mana bu xatlarni men Marvon (ismli kishi) qo'li orqali Kand<sup>49</sup> tomondagi (aylana) yo'l bilan jo'natdim.
- (32) Janobi hukmdor buyuk tayanchimiz Sug'd podshosi, Samarqand hukmdori
- (33) Devashtichga uning eng e'tiborsiz ("millioninchi" darajali) quli Fatufarndan maktub.

So'nggi yillardagi arxeologik izlanishlar natijasida Tojikiston Respublikasining Sug'd viloyati O'ratepa tumanidagi Shahriston qishlog'idan 2,5 km uzoqlikda ilk o'rtal asr Chilxujra qo'rg'onida ikki qavatli saroy va binolar ochilgan. Qo'rg'on paxsa devordan qurilgan. Bu yerda topilmalar orasida uchta sug'd hujjati ham aniqlangan. Hujjatlar kursiv usulida siyoh bilan archa daraxti yog'ochi yuzasiga bitilgan.

---

<sup>47</sup> Xwn – matndagi to'la shakli xwn'nk. Turk xoqonligi va uning asosiy aholisini tashkil qiluvchi etnos – qadimgi turklar mug' tog'i sug'diy hujjatlarida doimo ushbu etnonim ostida qayd etiladi. Sug'diy yodgorliklarda ushbu etnonim ilk bor Dunxuan (Shimoliy-G'arbiy Xitoy)dan topilgan milodiy III-IV asrlarga oid "Eski xatlarda" Xun (Syun-nu) imperiyasi va unga asos solgan etnos vakillariga nisbatan ishlatalgan (Лившиц, 2008 (2):173). Mug' hujjatlarining bir nechasida ko'rlik qo'shimchasi bilan xwnt, tegishlilik, xoslik bildirish ma'nosida qo'shimchalar bilan xwn'nk shaklida joy olgan etnonimni hujjatlarning ilk noshirlari yw''nk shakldida berganlar. Jumladan, xwn shaklini ayrim hollarda (mas. V-17 da) "Sharqiyl turklar" (sharqiyl turk xoqonligi)ma'nosida bergen bo'lsalar (СДГМ, II:117, 120), ayrim hollarda esa Samarqand hukmdori G'urak (710-738) uchun Devashtich tomonidan yw''nk- gunohkor shaklida tahqirlash ma'nosida (A-14 va) qo'llanilgan epitet (laqab) deb talqin qilganlar (СДГМ. II:79, 89, 121) bergenlar.

<sup>48</sup> Tarband – ilk o'rtal asrlarda Forob, keyinroq esa O'tror shaklida qayd etilgan Sirdaryoning o'rtal havzasi (janubiy Qozog'istondagi Turkiston shahri atroflari)da tarixiy viloyat. Arab manbalarida (Balazuriy, Tabariy) Tarband Shosh hukmdorining qarorgohi sifatida qayd etilgan. Qadimgi turk bitiktoshlarida Kangu-Tarban Chu va Talas daryolaridan g'arbdagi o'lka sifatida tilga olinib, tadqiqotchilar fikricha, u Tarbandga to'g'ri keladi (Лившиц, 2008:90).

<sup>49</sup> Kand – tadqiqotchilar ushbu joyni o'rtal asr arab geograflari Kand-i-Bodom shaklida qayd etgan Tojikistondagi hoziргi Konibodomga to'g'ri keladi (Лившиц, 2008:97).

Yog‘ochlarning ikki uchi chiqarilgan. 1 raqamli hujjat to‘liq saqlangan, yuzasiga uch qator, orqa tomoniga ikki qator so‘z yozilgan. Bu hujjat 1963yil saroyning ikkinchi qavati yo‘lagidan topilgan. 1964yilda mehmonxona yo‘lagi tozalanayotgan mahalda ko‘mirga aylanib qolgan taxtacha topilgan. Bu hujjatlar shartli 2 va 3 raqami bilan belgilangan<sup>50</sup>.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, sug‘d yozuvi hududi juda kengayib ketgan. Buning sababi sug‘diylarning xalqaro savdoda faol ishtirok qilganlari, ularning boshqa yurtlarga borib o‘zlarining savdo ishlarini yo‘lga qo‘yanlaridan darak beradi. Qolaversa, sug‘d yozuvi yodgorliklari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlar tarixini, madaniy aloqalar, ma’naviy hayot tarzini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma’noda Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlari alohida o‘rin tutadi. Xatlar, xo‘jalik va yuridik hujjatlar turkumiga ajratilgan arxiv Sug‘ddagi ijtimoiy hayot, iqtisodiy taraqqiyot, viloyat hokimlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni, Mug‘ tog‘i qo‘rg‘onining buzib tashlanishi bilan bog‘liq tarixiy jarayonni aniqlashga imkon beradi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Sug‘d yozuvi, Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlari, A.A.Freyman, V.A.Livshis, Sug‘d to‘plami, A hujjatlar, B hujjatlar, V hujjatlar.

Nazorat uchun savollar:

1. Sug‘d yozuvlari namunalarining Markaziy Osiyo mintaqasidan topilishi.
2. Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlarining topilishi va o‘rganilishi.
3. Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlarini tahlil qilib bering.
4. Xo‘jalik hujjatlari?
5. Yuridik hujjatlarning aniqlanishi?
6. “A” hujjatlar bo‘yicha ma’lumot bering?
7. “B” hujjatlar bo‘yicha ma’lumot bering?
8. “V” hujjatlar bo‘yicha ma’lumot bering?
9. Chilxujra qo‘rg‘onidan sug‘d hujjatining topilishi.

<sup>50</sup> Лившиц В.А. Согдийские документы из замка Чилхуджра. <http://www.orientalstudies.ru/> 77-88. Yana qarang: Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. СПб., – 2008.

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. *Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlari arablar bosqini arafasida O‘rta Osiyoning siyosiy hayoti bo‘yicha muhim manba.*
2. *Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlarida xo‘jalik masalalari.*

### **Adabiyotlar**

1. Is’hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. –T., 2017.
2. Исҳоқов М. Унитилган подшоликдан хатлар. –Т., 1992.
3. Лившиц И.А. Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии В.А Лившиц. //Согдийские документы с горы Муг. Чтение, перевод, комментарии. Вип ИИ. Изд-во Восточной литературы. –М., 1962.

## **7-§. Markaziy Osiyoda o‘rta asrlar (IX-XVI asr boshi)**

### **davlat ish yuritish va arxiv ishlaringin holati**

#### **7.1. IX-XIV asr boshlarida arxiv ishi**

Hujjatchilik an’anasi o‘rta asrlarda yanada takomillashib borgan. Mahkamalarda ish yuritish bilan bog‘liq ishlar qonuniy tus ola boshlangan. Hujjatlarni saqlashga alohida e’tibor berila boshlangan. Ayniqsa, vaqf mulklari bilan bog‘liq vaqfnomalarni yozish va uni saqlash an’anasi rivojlanib borgan. Afsuski, somoniylar, o‘rta asrlar davlat mahkamachiligi bilan bog‘liq arxiv hujjatlari bugungi kungacha hali aniqlangani yo‘q. Ammo mulklarni vaqfga o‘tkazish bilan bog‘liq hujjatlarning talayginasi bizgacha yetib kelgan. Otabobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan nodir qo‘lyozmalarni jiddiy o‘rganish davri keldi. Chunki o‘zingizga ma’lum, sho‘ro’lar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag‘batlantirilmas edi, hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko‘zidan iloji boricha yiroq saqlanardi.<sup>51</sup>

---

<sup>51</sup> Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. //Karimov I.A. Asarlar, 7-jild. –Toshkent: O‘zbekiston, 1999. –B. 133.

Vaqf deb hukmdor yoki boshqa shaxslar tomonidan ko‘char va ko‘chmas mulklar (ekin yerkari, tegirmonlar, ariqlar va boshqa sug‘orish inshootlari, karvonsaroy, ustaxonalar)ning diniy muassasalari, masjidlar, madrasalar, shifoxonalar va boshqa shu kabi joylar uchun xayriya qilinishi tushunilgan.

Vaqf mulklari rasmiylashtirilgan hujjat vaqfnoma deb atalgan hamda qozining muhrlari bilan bu hujjat qonuniylashtirilgan.

Ma’lumki, Somoniylar sulolasiga vakili Ismoil Somoni markazlashgan davlatga asos solgan, o‘ziga xos boshqaruvin tizimini vujudga keltirgan. Uning davrida mahkamachilik an’analari ham rivojlangan va mulklarni vaqf qilish an’anasi boshlangan. Vaqf hujjatlarida mulklarni biror tashkilotga xayriya qilishgina emas, balki tarixiy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, somoniylarning kelib chiqishi, somoniylar tarixi kabi masalalar ham o‘z ifodasini topgan. Ismoil Somoni vaqfnomasi Markaziy Osiyoda o‘rtalarda huquqiy hujjat yuritish ishlari qay tartibda amalgalashganligini bilish uchun ham asos bo‘ladi.

Vaqfnoma asosan Ollohga hamd va payg‘ambar Muhammad (s.a.v) salovat so‘zlarini bilan boshlanadi. Shundan so‘ng vaqf ta’sis etilishi sabablari bayon etiladi; vaqfdan keladigan daromad kimlarga va qanchadan taqsimlanishi bildiriladi. Vaqfnomada vaqf yeri kim uchun yoki qaysi muassasa foydasiga joriy etilayotgani aytiladi. Vaqf yeri chegaralari, uning qaysi yerlar bilan chegaradosh ekanligi ham hujjatda qayd etiladi.

Vaqf yerlarining boshqaruvchisi mutavalli deb yuritilgan. Mutavalli vakolatiga vaqf yerlarining ishlarini yuritish, ularni tartibga solish kirgan. Mutavalli vaqf mulki boshqaruvchisi bo‘lgani bois vaqf yerini xohlagan odamiga xohlagan shartlar asosida ijaraga berishi mumkin bo‘lgan.

Ismoil Somoni vaqfnomasi orqali Ismoil Somoniyning nima sababdan o‘z avlodlari foydasiga Buxoro viloyati atrofidagi bir qator qishloqlar va boshqa yerkari vaqf sifatida ta’sis etganligini, joy nomlarini, ayniqsa qishloqlarning toponimikasini, somoniylar sulolasiga shajarasini, somoniylarning kelib chiqishini, Markaziy Osiyo va Xuroson o‘lkalarida joylashgan davlat, viloyat va shaharlar

toponimlarini, o'sha davr qozilarining ish yuritish uslublarini, umuman o'rta asr sud-huquq ishlari faoliyatini, Buxoroda qozilik ishlari qanday yo'liga qo'yilganligini, Somoniylar sulolasini inqirozining sabablarini, Buxoroning iqtisodiy – siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayotini, somoniylar sulolasining Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tutgan o'rnini va uning ahamiyatini aniqlash mumkin.

Vaqf hujjatlarini dastlab 1950- yilda taniqli sharqshunos olima O.D. Chexovich ilmiy muomalaga olib kirgan. 1951yilda u O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 527 "a" raqamli hujjat bo'yicha maqola e'lon qiladi. "XIII asr Buxoro vaqfi" kitobida ham Ismoil Somoni vaqfnomasi haqida to'xtalib o'tilib, bu vaqfnomada uchragan joy nomlari boshqa vaqfnomalardagi toponimlar bilan qiyoslanib, ular haqida birmuncha ma'lumotlar keltirib o'tiladi.

1995yilda M.Usanova o'zining "Ismoil Somoni vaqfnomasi" nomli maqolasida O'zRFA Sharqshunoslik instituti va O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxividagi Ismoil Somoni vaqfnomalari haqida ma'lumot berib o'tadi: hujjatlarning hajmi, qog'ozi, ulardagi satrlar, siyohlarining rangi haqida ma'lumot keltiradi hamda bu ikkala hujjatni o'zaro taqqoslaydi, 527 "a" raqamli hujjatdagi somoniylar tarixi yoritilgan lavhalarni boshqa manbalar orqali qiyosiy tahlil qiladi.

O'zRFA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan hujjat bir-biriga yopishtirilgan 8 ta qog'oz bo'laklarining o'ramidan iborat, uning uzunligi 6 m 60 sm, eni 19-20 sm, bu hujjatda Ismoil Somoni o'z avlodlariga vaqf qilib qoldirgan Buxoro viloyati atrofidagi qishloqlar hamda somoniylar sulolasining shajaraviy tarixi haqida so'z yuritiladi. Hujjatda Ismoil Somoni vaqf yerlari birma-bir sanab keltirish bilan kifoyalangan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivining Buxoro vaqfnomalari ro'yxati olingan 323-asosiy fondida 758/6 va 758/7 raqamlari bilan Ismoil Somoni avlodlari foydasiga vaqf qilingan hujjatning bir nusxasi saqlanadi. Vaqfnomaning bu nusxasi katta bir butun qog'oz o'ramidan iborat bo'lib, "Podshoh Ismoil Somoni avlodlari vaqfnomasi" deb ataladi. Bu hujjat ham bir-biriga yopishtirilgan 7 ta qog'oz

bo‘laklarining o‘ramidan iborat. Hujjatning haqiqiyligini tasdiqlash uchun qog‘oz bo‘laklarining bir-birlariga yopishtirilgan joylarining har ikki tomoniga muhr bosingan, muhrlarning hammasi 13 ta.

Madaniy Meros ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish boshqarmasida 3499-3510 raqamlari ostida saqlanayotgan hujjat fotonusxa ko‘rinishida bo‘lib, bu hujjatning asl nusxasi bizning kunimizgacha saqlanib qolmagan. Bu hujjat 758/6 va 758/7 raqamli hujjat bilan bir xil mazmunga ega.

Fotosuratga ko‘ra, hujjat bir-biriga yopishtirilgan 8 ta qog‘oz bo‘laklarining o‘ramidan iborat, uning umumiy uzunligi 3-4 m, eni esa taxminan 25-30 sm. Bu hujjat o‘ram shaklida saqlangan.

Shuni ta’kidlash mumkinki, ushbu hujjat nafaqat Ismoil Somoniylarini o‘rganishda, balki shuningdek somoniylar tarixini ham o‘rganishda manba bo‘lib xizmat qiladi, chunki uning asosiy qismi somoniylar sulolasiga tarixidan iborat.

Shuningdek, vaqfnoma atamalarga boy bo‘lib, ular o‘sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’muriy boshqaruvi tizimi, soliq tizimi, hunarmandchilik, somoniylar saroyidagi urf-odat, madaniyat va boshqa masalalarni yoritishda katta ahamiyatga ega. Hujjat Buxoro va uning atrofidagi katta va kichik qishloqlarning tarixiy toponimikasini o‘rganishda ham qo‘sishma ma’lumotlar beradi.

O‘rtalarda sulolaviy yoki oilaviy vaqf yerlari ham mavjud bo‘lib, bu vaqfi avlod deyilgan. Faqat sayyidlar va xo‘jalargina o‘z vaqflarini vaqfi avlod sifatida rasmiylashtirish huquqiga ega bo‘lganlar. Vasiyatning bu turi yer egasi mulkinining bo‘linmasligini nazarda tutgan. Shuning uchun hukmdorlar, din peshvolari, sayyidlar, xo‘jalar va katta mulk egalari masjid, madrasa va xonaqolar qurib, bu yerkarni abadiy vaqf sifatida ta’sis etganlar. Xayriyaning bunday turida vaqf ta’sischisining o‘zi umrbod mutavalli bo‘lar, uning vafotidan keyin esa bu lavozim uning farzandlariga o‘tar edi. Shu tariqa vaqf mulklari boshqaruvchisi lavozimi nasldan-naslga o‘tgan. Xo‘ja Axror va Jo‘ybor shayxlarining vasiyatlari ham vaqfi avlodga misol bo‘la oladi.

Vaqfi avlodning ikki turi mavjud bo‘lgan: sayyidlarning avlodlari foydalanadigan vaqfi avlod va ikkinchisi oilaviy. Uning birinchisidan farqi shuki, bu vaqf ma’lum oila vakillarining mulki hisoblangan. Ismoil Somoniyning vaqf yerlari vaqfi avlodning birinchi turiga misol bo‘la oladi.

O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomli sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondidagi 527“A” raqamli Ismoil Somoni vaqfnomasining 24-50-satrlarida Ismoil Somoni vaqf yerlari va uning vaqfnomasi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Hujjatda Ismoil Somoni faqat o‘zining avlodlari foydasiga vaqf qilib qoldirgan yerlari sifatida Naxri Navkand, Parkat, Xo‘ja O‘bon, Mazrai Alishoh, Arbobi Kata, Talli Garmoba qishloqlari, Hazorbog‘, Sobuq va Bosondiq yerlari keltirilgan bo‘lsa, Jo‘yi Mo‘liyon va Buxoro Registoni o‘z avlodlari bilan birga mavlolar va kambag‘al musulmonlar uchun ham vaqf sifatida qoldirilgan. Fuqaro’lar, ulamolar va musofirlar uchun esa Varaxsha yeri vaqf sifatida ta’sis etilganligi qayd etilgan.

Hujjatning 51-satridan oxirgi 460-satrigacha bo‘lgan asosiy qismi somoniylar sulolasi tarixi yoritilgan, jumladan, vaqfnomaning 51-54-satrlarida somoniylar sulolasi shajarasi, ya’ni Ismoil Somoniyning ajdodlari sulolasi Erondagi Sosoniylar davlati lashkarboshisi bo‘lgan Bahrom Chubinga borib taqalishi<sup>52</sup>, 55-62-satrlarida Bahrom Chubin va Eron shohi Husrav Parviz (590-627) o‘rtasida bo‘lib o‘tgan voqealar bayoni, 85-179-satrlarida Ismoil Somoni hukmronligi davri, uning mustaqil ravishda Movarounnahr davlatini boshqarishdaadolat va insof tamoyillariga amal qilishi, 180-229-satrlarida Amir Ahmad ibn Ismoil Somoni hukmronligi davri, 300-321-satrlarida Amir Nuh ibn Nasr ibn Ahmad Somoni hukmronligi davrida ro‘y bergen voqealar, 329-359-satrlarida Mansur ibn Nuh ibn Nasr hukmronligi davri, 358-412-satrlarida Amir Nuh ibn Mansur hukmronligi davrida ro‘y bergen voqealar bayon qilingan.

Yuqorida eslatib o‘tilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivining 323-asosiy fondida 758/6 va 758/7 raqamlari bilan Ismoil Somoni avlodlari foydasiga vaqf qilingan hujjatning bir nusxasi saqlanadi. Vaqfnomada

<sup>52</sup> Somoniylar shajarasining boshi Bahrom Ch’bin genealogiyasi turkiy ekanini haqida qarang: Sh.Kamoliddin. K вопросу о происхождении Саманидов // Мозийдат садо, 2006, 4(32) –С. 15-18.

Somjan kanali atrofidagi yerlarni Ismoil Somoniylar o‘z avlodlari foydasiga vasiyat qilganligi haqida so‘z boradi. 1920yillarga qadar Buxoroda bir mahalla bo‘lib, unda Ismoil Somoniylar avlodlari vaqfdan kelgan daromadga yashaganlar. Shuningdek, hujjat qadimdan saqlanib qolgan nusxadan qayta tiklanib, ko‘chirib yozilgan yoki ba’zi tarixiy manbalar asosida tuzilgan bo‘lishi ham mumkin. 758/6 va 758/7 raqamli hujjatda Ismoil Somoniylar tomonidan vaqf qilingan qishloq va joylar keltirilib, ular bilan chegaradosh joylarning nomlari aniq ko‘rsatib o‘tilgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Madaniy Meros ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish boshqarmasida 3499-3510 raqamlari ostida saqlanayotgan hujjat fotonusxa ko‘rinishida bo‘lib, hujjat 131 satrdan iborat bo‘lgan matn 7 xil mazmundagi hujjatni aks ettiruvchi 7 qismga ajralgan. Butun matn yagona husnixat bilan, ehtimol bir vaqtning o‘zida yozilgan. Xat turi O‘rta Osiyo nasta’liq xati bo‘lib, hujjat paleografik belgilariga ko‘ra, XVII asrdan oldinroq yozilmagan, chunki bu xat turi XIX asrgacha keng tarqalgan bo‘lgan. Bu fikrlar muhrlar orqali ham o‘z tasdig‘ini topmoqda: 17 ta joyga bosilgan dumaloq shakldagi muhrda 1800-1825yillarda Buxoroda hukmronlik qilgan “Sulton Amir Haydar” so‘zlarini o‘qish mumkin. 6 marta bosilgan yana bir aylana shaklidagi muhrdagisi oliy qozi Mirza Muhammad Fozil ibn Mirza Muhammad Amin ismini o‘qishimiz mumkin. Bu qozi boshqa hujjatlar, masalan; 1796yilga oid Buxoro muzevida saqlanayotgan 464 raqamli hujjat va O‘z FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 1809-1810- yilga oid 30-24 raqamli hujjatlar orqali ham ma’lum.

Shunday qilib, vaqfnomadagi xat va muhrlar hujjatni XIX asrda yozilgan deyishga asos bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivida 758/6 va 758/7 raqamlari ostida saqlanayotgan “Podshoh Ismoil Somoniylar avlodlari vaqfnomasi” va Madaniy Meros ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish boshqarmasida 3499-3510 raqamlari ostida saqlanayotgan Ismoil Somoniylar vaqfnomasi fotonusxalari, yuqorida aytilganidek, bir xil mazmunga ega bo‘lib, bir-birlarini to‘ldirish xususiyatiga ega. Fotonusxa ko‘rinishidagi hujjatning bosh qismida asl hujjatning yaroqsiz holga kelgani bois, vaqfnomani qayta tiklash

to‘g‘risidagi bayonnomaga joy olgan. Bu bayonnomaga hech bir sarlavhalarsiz boshlangan. 10ta qatordan iborat bo‘lgan bu bayonnomaga 758/6 va 758/7 raqamli hujjatda uchramaydi. Bayonnomada aytishicha, Mir Saqnaxiy nomi bilan tanilgan Sayyid Muhammad ibn Amir Sulton Husayn Buxoro shahridagi Qozilik mahkamasiga tashrif buyuradi va Ismoil Somoniyning vaqf mulklari borasidagi vaqfnomaga ro‘yxatini ko‘rsatadi; uning qog‘ozi vaqt o‘tishi bilan yaroqsiz holga kelgani tufayli vaqfnomani qayta tiklashni iltimos qiladi. Amir Sayyid Muhammad ibn Amir Sulton Husayn Ismoil Somoniya vaqf mulklari mutavallisi bo‘lgan. Uning iltimosi qondirilib, vaqfnomaga qayta tiklab beriladi. Bayonnomadan ko‘rinib turibdiki, vaqfnomani qayta tiklash uchun Amir Sayyid Muhammad ibn Amir Sulton Husayn qoziga Ismoil Somoniya avlodlaridan biri ekanligini tasdiqlovchi qozining muhri bosilgan guvohnoma ko‘rsatgan.

Bayonnomaga bitilgan ushbu qog‘oz bo‘lagi ostidan yana bir qog‘oz yopishtirilgan va uning dastlabki qatorlari Olloohni ulug‘lovchi so‘zlar, Qur’oni Karimdan keltirilgan ba’zi oyatlar, payg‘ambarlarga va Muhammad payg‘ambar sollalohu alayhi vasallamga salovatlardan iborat. Shundan so‘ng, Ismoil Somoniyning o‘z avlodlari foydasiga vaqf mulklari ta’sis etishi sabablari bayon qilingan. Keyin esa vaqf qishloqlari, ularning chegaralari, joylashgan o‘rni birma-bir sanab o‘tiladi. Hujjatning ikki yon chetida Amir Haydar muhrlari bosilgan. 758/6 va 758/7 raqamli hujjat esa Ismoil Somoniyning o‘z avlodlari uchun vaqf mulklarini ta’sis etish sabablarini bayon qilish bilan boshlangan. Hujjat qog‘oz bo‘laklarining bir-biriga yopishtirilgan joylarining har ikki tomoniga Amir Shohmurod muhrlari bosilgan. Vaqfnomada vaqf mulklarining qonuniy vaqf yer ekanligi ta’kidlanadi.

Har ikkala hujjatda Ismoil Somoniya vaqf mulklari sifatida Parkat, Garmoba, Xo‘ja O‘bon, Nahri Navkanda, Mazrai Alishoh, Arbobi Kata va Asbobi Ayniddin qishloqlari sanab o‘tilgan, so‘nggida somoniylar maqbarasi joylashgan yer tasvirlangan. Hujjatda Parkat, Garmoba va Hoja O‘bon qishloqlari Buxoro viloyatining Somjan tumanida joylashgani aytilsada, Mazrai Alishoh, Arbobi Kata va Asbobi Ayniddin qishloqlari Buxoro viloyatining Xutfar tumanida joylashgani

aytiladi; Nahri Navkanda qishlog‘i Poyi Rud tumanida joylashgani ma’lum bo‘ladi. Vaqfnomada Buxoro viloyatining Poyi Rud tumanida joylashgan yana bir katta yerning bayoni ham keltirilgan, ammo bu yerning nomi keltirilmagan. Barcha qishloqlarning sharqdan, g‘arbdan, shimoldan va janubdan qaysi yerlarga borib tutashishlari va chegaralari bayon etiladi. Har bir qishloqning chegaralari haqida atroflicha to‘xtalib bo‘linganidan so‘ng “Barcha chegaraviy belgilari va oraliqlari aniqdir” deb qo‘sib qo‘yilgan.

758/6 va 758/7 raqamli hujjatda uchragan Parkat, Garmoba, Hoja O‘bon, Nahri Navkanda, Mazrai Alishoh va Arbobi Kata qishloqlari nomlari O‘z FA Abu Rayhon nomli Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 527 “A” raqamli hujjatda ham uchraydi. Faqatgina Asbobi Ayniddin qishlog‘i nomi, 527 “A” raqamli hujjatda uchramaydi. O‘z navbatida 527 “A” raqamli hujjatdagi Jo‘yi Mo‘liyon, Buxoro Registoni, Sobuq, Bosondiq, Hazor Bog‘, Kata Chorvog‘ va Varaxsha singari vaqf yerlari nomlari 758/6 va 758/7 va fotosurat ko‘rinishidagi vaqfnomalarda uchramaydi. Buning sabablaridan biri XIX asrga kelib bu joy nomlarining o‘zgarib ketganligi ham bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 527 “a” raqamli hujjatning asosiy qismi somoniylar tarixidan iborat bo‘lsada, 24-qatordan 50-qatorgacha bo‘lgan qismida Ismoil Somoni vaqf yerlari va uning vaqfnomasi haqida to‘xtalib o‘tilgan:

Onhazratlarining (24) vaqf mulklari ko‘p bo‘lib, shulardan ba’zilari onhazratning (25) abadiy tarzda avlod tarqatadigan va ko‘payadigan avlodlari va avlodlarining avlodlari va avlodlarining avlodlarining avlodlari va oxir-oqibat kambag‘al musulmonlar uchun vaqf mulki hisoblanar va boshqalarning (26) u vaqf mulklaridan biror narsa olishlari qonun bilan ta’qiqlangan edi. Agar biror kimsa zo‘ravonlik va bosqinchilik bilan (27) (onhazratning) o‘z avlodlari va o‘z avlodlarining avlodlari va o‘z avlodlarining avlodlarining avlodlarining (28) avlodlari uchun vaqf mulkiga aylantirgan yerlardan biror narsa olsa, noqonuniy va mutloq harom hisoblangan. (29) Vaqf ta’sischisining shartisiz vaqf mulklaridan

olinadigan har bir narsa haromdir. (30) Vaqfi avlod hisoblanadigan yerlardan boshqa odamlarning biror narsa olishi qonunan jinoyat hisoblanadi.

Dastlabki qishloq Nahri Navkand bo‘lib, (31) ulug‘ Buxoroga tutash joylashgan, yuqorida zikr qilingan shaharning g‘arbiy tarafida bo‘lib, To‘rt gumbazlar (ko‘chasi) (32) ana shu 700 tanobga ega qishloqdadir. Yana bir qishloq Parkat bo‘lib, (33) mashhur va ma’lumdir. Yana bir qishloq Xo’ja O‘bon va Mazrai Alishoh qishlog‘i, (34) yana bir boshqa qishloq Arbobi Kata va yana bir qishloq Talli Garmobadir. Ammo yerlar avlodlar o‘rtasida umumiyligi (mushtarak) edi. (35) Shuningdek, Hazarbog‘, Sobuq va Bosondiq yerlari, Jo‘yi Mo‘liyon va Buxoro Registonini (36) hazrat podshoh Ismoil Somoni Hasan ibn Muhammad ibn Tolutdan (37) uch ming tilla evaziga sotib olib, ularni ham o‘z avlodlari, mavlolari va kambag‘allar (38) uchun umumiyligi (mushtarak) vaqfga aylantirdi.

Fuqaho va ulamolar uchun maxsus atalgan yerlar bu - Varaxsha yeri bo‘lib, (39) qadimda o‘n ikki sug‘orma ariqlar bilan sug‘oriladigan yerlar hisoblangan, bulardan uchtasi ulamo va fuqaholar foydasiga vaqf qilingan yerlar bo‘lgan. (40) Boshqa uchtasi ham vaqf bo‘lib, bu vaqf yerlari hosilidan keladigan foya “keluvchilar” va “ketuvchilar” uchun bo‘lgan. (41) Shu vaqf yerlarining har biri uchun tasarruf etish yuzasidan alohida vaqfnoma mavjud.

(48) Onhazrat yana buyurdiki, har bir hokim (49) vaqflarni to‘g‘ri tasarruf qilsin yoki unga tegmasin va ularning vaqfnomasini qonunga muvofiq (Ismoil Somoni) avlodlariga topshirsin. (50) Ularni rozi qilganning joyi jannatda oboddir.

Shuni ta’kidlash mumkinki, ushbu hujjat nafaqat Ismoil Somoni vaqf yerlarini o‘rganishda, shuningdek, somoniylar tarixini ham o‘rganishda manba bo‘lib xizmat qiladi, chunki uning asosiy qismi somoniylar sulolasini tarixidan iborat.

Yuqorida vaqfnomalarda bayon etilgan vaqf yerlarini tahlil qilib, shuni aytish mumkinki, Ismoil Somoni asosan Buxoro viloyatida joylashgan qishloqlarni o‘z avlodlariga vaqf sifatida ta’sis etgan. Ismoil Samoni yuqorida sanab o‘tilgan

yerlarni nafaqat o‘z avlodlariga, balki shu jumladan, mavlolari, kambag‘al musulmonlar, ulamo va fuqaro’lar uchun ham vaqfga aylantirgan<sup>53</sup>.

Avlodlari uchun vaqf qilingan yerlar faqat o‘sha sulola vakillari tasarrufi ostida bo‘lgan va bu yerlardan boshqa maqsadlar uchun soliq olish mutloq ta’qiqlanganini ko‘rish mumkin. Vaqfnomada qishloqlarning chegaralari aniq ko‘rsatib o‘tilgan. Vaqf mulklari Buxoro shahri yaqinida, Somjan, Xutfar va Poyi Rud tumanlarda joylashgan.

Shuningdek, vaqfnomalar atamalarga boy bo‘lib, ular o‘sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, soliq usuli, hunarmandchilik, somoniylar davridagi urf-odat, madaniyat, ularning ma’muriy tuzumi va boshqa masalalarini yoritishda katta ahamiyatga ega. Hujjatlар Buxoro va uning atrofidagi katta va kichik qishloqlarning tarixiy toponimikasi va topografiyasni o‘rganishda ham qo‘srimcha ma’lumotlar beradi.

Mulklarni vaqf mulklariga aylantirish an’anasi O‘rta Osiyoda keyingi davrlarda ham kuzatiladi. Hatto boshqa dinga e’tiqod qiluvchi mo‘g‘ullar davrida ham tuzilgan vaqf hujjatlari buning yaqqol dalilidir. Biz muhokama qilmoqchi bo‘lgan Buxoro hujjatlari Markaziy Osiyo tarixidagi og‘ir davrga, ya’ni mo‘g‘ul bosqinchiligining og‘ir oqibatlari davriga to‘g‘ri keladi. Mo‘g‘ul bosqinidan so‘ng 100 yildan ortiq vaqt o‘tsa ham o‘zaro urushlar so‘nmagan edi. Mo‘g‘ullar katta shaharlar, qishloqlar, bog‘lar, ekinzorlar, chorva va tub yerli aholini qirib vayron qilib kelardi. Ayniqsa, Buxoro shahri va uning atrofi ko‘p marotaba talon-taroj qilindi. Masalan;: 1273-1276 yy. Buxoro talon-taroj qilingan<sup>54</sup>.

Mo‘g‘ullarning madaniy jihatdan o‘zlari bo‘ysindirgan xalqlardan orqada edi. V.V.Bartold ta’biri bilan aytganda, mo‘g‘ullar hattoki german varvarlaridan ham qoloq edi. O‘rta Osiyoda mo‘g‘ul bosqinchiligi oqibatlari V.V.Bartold, M.E.Masson va I.P.Petrushevskiylar tomonidan o‘rganilgan. Shulardan I.P.Petrushevskiy mo‘g‘ullar bosqini oqibatlari O‘rta Osiyoda Eronga nisbatan anchagina og‘ir kechganligini e’tirof qiladi.

<sup>53</sup> Ushbu mavzuni yozishda qisman B.Musametovning magistrlik dissertatsiyasidan foydalanildi.

<sup>54</sup> Петрушевский И.П. Из истории Бухары в XIII в. //Ученые записки ЛГУ. Серия восточных наук. Вып. I. 1949. –С.103-108.

Mo‘g‘ul bosqini bilan bog‘liq bir qancha manbalar bo‘lib, ular qatoriga Muhammad Nisoviyning “Siyrat as-Sulton Jaloliddin Mangburniy”, Juvayniyning “Tarixi jahongushoy” (“Jahongir (Chingizzon) tarixi”), Rashiduddinning “Jome atavorix” (“Tarixlar majmuasi”) kabi asarlarni kiritish mumkin. Mazkur manbalarda Buxoroning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Bu kabi ko‘plab ma’lumotlar XIII-XIV asrlarga taalluqli rasmiy hujjatlar - vaqfnomalarni o‘rganish jarayonida qo‘lga kiritilgan. Shuning uchun XIII-XIV asrlarda yozilgan vaqfnomalar O‘rta Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar masalasini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Quyida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan ayrim vaqf hujjatlari haqida ma’lumot beramiz.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi Buxoro hujjatlari fondini tartibga keltirayotgan paytida shu arxivning katta xodimi K.Ubaydullaev ro‘yxatlarda tilga olinmagan 638/1298yilga oid bo‘lgan vaqf yorlig‘ini qo‘lga kiritadi. Bu hujjat O‘rta Osiyoda hozirgacha ma’lum bo‘lgan eng muhim vaqfnomalardan biridir.

Mazkur vaqf yorlig‘i o‘ram holida bo‘lib, matni ancha qorayib, ko‘p joylarini o‘qish qiyin holda. O‘lchamlari 19 x 297 sm. Hozirda bu hujjat O‘zbekiston Markaziy davlat arxivining I-323 fondida saqlanadi<sup>55</sup>.

Vaqf yorlig‘ining sanasi bayon qismida yozilgan (100 qator). Hujjatda 33 ta kishining ismi qayd etilgan bo‘lib, ularning guvohligi muhr va imzolar bilan tasdiqlangan.

XIII asrda biror mulk vaqfga berilayotgan vaqtida bu haqdagi hujjat bir necha nusxada yozilgan va nusxalari turli shaharlarda saqlangan. Bundan maqsad vaqf berilganligini tasdiqlovchi hujjatning saqlanishini ta’minalashdan iborat edi. Toshkentdan topilgan 1298yilga taalluqli Buxoro hujjati nusxasi aynan uning saqlanishini ta’minalash maqsadida ko‘chirilgan bo‘lishi mumkin.

Hujjatning ilmiy qimmati shundaki, u hujjat Buxoro vohasidagi ijtimoiy va iqtisodiy hayot manzarasini ochib berishga yordam beradi.

---

<sup>55</sup> O‘zbekiston MDA, f. I-323, Ro‘yxat 1, № 1429.

Topilgan hujjatda birinchi marta Buxoro tumanida to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi, irrigatsiya, yer egaligi va yerdan foydalanish bilan bog‘liq masalalar o‘z aksini topgan. Vaholanki, bu hujjat topilgan davrgacha, faqat siyosiy masalalarni, ya’ni Chingizzon bosqini, mo‘g‘ullarning talonchiliklari, shaharlarning talon-taroj qilinishi, aholining qirg‘in qilinishi kabi ma’lumotlarga gagina ega edik.

Mazkur vaqf yorlig‘i arab tilida bo‘lib, mazkur fonddan uning fors-tojik tiliga tarjimasi ham topilgan. Bu tarjima arab tilidagi nusxasiga nisbatan ancha yaxshi saqlangan bo‘lib, matni 189 qator nastaliq xatida 37 x 635 sm hajmda o‘ram holida bo‘lgan. Arab tilidagi va tarjima nusxalarining har ikkoveda hujjatlarning boshi saqlanmagan. Lekin tarjimasida asl nusxasiga nisbatan kamroq qismi yo‘qolgan. Har ikkala hujjat aslida o‘chib ketgan satrlarni to‘ldirishga yordam beradi.

1298yilgi vaqfning ta’sischisi sadr, amir va imom, shayx Abdulloh al-Isfidjobiyning o‘g‘li Abdurahim Muhammad bo‘lib, u Jaloliddin al Bamruniy (yoki Bakiruniy?) taxallusi bilan atalgan.<sup>56</sup> Ko‘rinib turibdiki, u Isfijobdan – Turkistonning Aris daryosi vodiysi Zaryom (Sayram)lik bo‘lgan.

Hujjatda ko‘rsatilishicha, vaqfning ta’sischisi Samdjon deb atalgan Buxoro tumanidagi Dex-i Xamane nomli qishloqni sotib olgan. Sotib olingan qishloqqa Samjan bosh kanalidan maxsus qazilgan ariq orqali suv chiqarilgan. Undan tashqari bu kanalga Nufaj, Parkat, Nuxuddize, Margasun, Mansha, Fag‘ona va Fag‘aniya qishloqlariga suv yetkazib beradigan kanallardan ham suv kelib quyilgan. Ko‘rinib turibdiki, sotib olingan qishloq sug‘orish tizimlariga boyligi sababli uning narxi ham baland bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Hujjatda ma’muriy-hududiy nom sifatida tuman atamasi uchraydi. Bu esa, Movarounnaxrning Kebekxongacha tumanlarga bo‘lingan ekanligini tasdiqlaydi. Holbuki tuman ma’muriy birligini Kebekxon joriy etgan deb hisoblashar edi.

1298yilda vaqfga o‘tkazilgan qishloq Buxorodan 30 km shimolda joylashgan. Vaqf hujjatida tilga olingan XIII asr qishloqlari – Samjan, Parkad, Mugkan, Margasun kabilar IX-XIII asr arab sayyoohlarining asarlarida ham eslatilgan.

<sup>56</sup> Bu shaxsga ta’rif berilganda “Qilich va qalamning eng oliynasab vakili”, “Shoh va Sultonlarning tayanchi” kabi maqtovlar ishlatalgan.

Demak, hujjat Buxoro toponimikasini o‘rganishda ham qimmatli manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari vaqf yorlig‘ida mol-mulk kabi terminlar uchraydi. Vaqf ta’sischisi Abdurahmon Muhammad yangi qishloqda uy, ikkita yozgi va qishki masjid, xizmatchilar uchun turar joy, molxona, pichanxona, un tegirmoni va bir nechta to‘quv korxonasini qurdirib, ularni vaqf qilib bergan. Demak, chig‘atoy shahzodalari Buxoroda XIII asrda kichik to‘quv korxonalari tashkil qilishgan.

Vaqf qilingan mulklar huquqiy jihatdan sotilishi, sovg‘a qilinishi, meros qoldirilishi man qilingan. Butun qishloq vaqf qilingan, shu bilan birga aholi yashayotgan uy-joylar ham vaqfga berilgan, ularning egalari vaqf mulki xizmatidagi odamlarga aylangan. Oddiy aholi uchun bu hol qulay bo‘lib, ularning xo‘jaligi ham vaqf tarkibida soliqlardan ozod bo‘lgan.

Hamma vaqf mulklari Abdurahim Muhammad o‘limigacha uning tasarrufida qolgan. Bu mulklar uning o‘limidan so‘ng o‘g‘li Qutbiddin Yusufga o‘tishi hujjatda ta’kidlangan.

Mashhur O‘rta Osiyo vaqf hujjatlaridan farqli, bu hujjatda imom va muazzinga maosh tariqasida, masjid va mozorlar ta’minoti uchun vaqf mulkidan tushadigan daromaddan to‘lanmagan, balki ular uchun alohida yer bo‘ltagi ajratilgan: imomga 10 tanob yer, muazzinga 4 tanob, Xoji Xaman qabristonini ta’minalash uchun 10 tanob, yangi qishloqdagi masjidni ta’mirlash uchun 2 tanob, ikki masjid maorifi uchun 2 tanob, ziyoratchilar uchun 10 tanob yer ajratilgan. Hujjatda bu mulkning chegaralari ko‘rsatilgan. Hujjatda og‘irlik va hajm o‘lchov birliklari nomlari uchraydi (masalan: man, misqol).

Vaqf ta’sischisi barcha yer-mulklari va qo‘rg‘onlari bilan birga sotib olgan Xaman qishlog‘i hududida joylashgan ba’zi bog‘larni va yerkarni vaqfdan xoli ekanligini vaqf yorlig‘ida ko‘rsatgan. O.D.Chexovichning fikricha, aftidan vaqfdan xoli deb ko‘rsatilgan mulklar feodallar sinfiga, ruhoniylarga (shayxlarga), hunarmand-savdogarlarga tegishli bo‘lgan. Xaman hududida joylashgan dehqon ahолиси vaqfdan holi deb atalgan turkum kishilariga kirmagan. Hujjatdan ko‘rinib

turibdiki, vaqf ta'sischisi juda boy kishi bo'lib, u o'z qishlog'idagi na faqat dehqon aholini, hattoki hunarmandlarning ham mehnatini tashkil etishga rahnamo bo'lган.

Vaqf yorlig'i arab matnining oxirida rasmiy shaxslar – qozi (notarius vazifasini o'tagan) va boshqa guvohlar imzo chekishgan.

Xulosa shulkim, mazkur XIII asr vaqf yorlig'i o'rtalarda mol-mulkarni vaqf qilish tartibi, vaqf qilingan mulklardan foyda olmaslik, uni sotish va sovg'a qilish mumkin emasligi, Buxoro vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, dehqonchilik, korxonalar, aholi tabaqalari, og'irlilik va hajm o'lchov birliklari, xullaski, tariximizni boyita oladigan ko'plab ma'lumotlar beradi.

Vaqf hujjatlari bilimdoni O.D.Chexovich XIV asrga taalluqli vaqf hujjatlarini ham o'rgangan. 1326-1333yillarda Buxoroda yozilgan Buxoroning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti to'g'risidagi vaqf hujjatlari O.D.Chexovich tomonidan e'lon qilingan<sup>57</sup>. O.D.Chexovich "XIV asr Buxoro hujjatlari" asarida Buxoroda yozilgan XIV asrga taalluqli vaqfnomalarini o'rganib, ularni tahlil qilib bergen.

Hujjatlar asosan yer, joy, mulk va vaqf yerkari haqida bo'lib, ushbu ma'lumotlar o'sha davrda yashagan Sayfiddin Boxarziy nomi bilan bog'liqdir. Shu ma'noda Sayfiddin Boxarziy haqida to'xtalib o'tish joiz.

"Shayx ul-olam" degan yuksak e'tiborga loyiq bo'lган ushbu Buxoro shayxi Sayfiddin Boxarziy XII asrning ikkinchi yarmida Xurosonning Boxarz viloyatida tavallud topganligi haqida Hamdullo Kazviniy xabar beradi. Hirot va Nishapur shaharlarida dastlabki diniy-huquqiy bilim oladi va sufiy bo'ladi. Keyinchalik o'zining ilmiga chanqoqligi va ma'rifatparvarligi tufayli ilm istab Xorazmga keladi va shu davrda o'zining diniy ilmi va tasavvufdagi tariqati javonmardiya tufayli butun sharq mamlakatlarida tanilgan va mashhur bo'lган Najmiddin Kubroga murid tushadi. Boxarziy undan diniy-falsafiy bilimlarni chuqur o'rganib shayx bo'lib yetishadi. Keyinchalik Abdurahmon Jomiyning ma'lumotiga ko'ra,

<sup>57</sup> Чехович О.Д. Новый источник по истории Бухары начала XIV в. // Проблемы востоковедения. –М., 1959. № 5, - С. 148-161; О 'sha muallif. К истории крестьян Бухары XIV в. //Известия АН УзССР. Сер. Общественных наук, 1959, № 1. -С. 71-76; О 'sha muallif. Бухарские документы XIV в. –Т., 1965.

Sayfiddin Boxarziy ustozi Najmuddin Kubroning tavsiyasi bilan Buxoroga jo'naydi. U Buxoroda 40 yilga yaqin yashagan.

Chingizzon va uning avlodlari bosib olingan hudud aholisini ruhoniylar yordamida o'zlariga itoat qildirishga harakat qilgan. Ulardan ba'zilari ruhoniylar bilan yaqin aloqalar o'rnatib olganlar. Ular orqali xalq ichiga kirib borganlar. Masalan;: Botuning ukasi Berkaxon Buxoroga Sayfiddin Boxarziy oldiga kelgan. Boxarziy mo'g'ul hukmdorlari tomonidan izzat-hurmat qilingan. Undan foydalangan Sayfiddin Boxarziy Chig'atoyxonning amiri Xabash Amidga yozgan maktubida, ruhoniylar ishiga aralashayotgan amaldorni va nodon yoshlarni rahbarlik lavozimlariga tayin etayotganini tanqid qilgan. Mo'g'ul xonlari u bilan kelishishga intilganlar. Sayfiddin Boxarziy Buxoroda shayxlarning mavqeini oshirmoqchi bo'lgan va bunga erishgan ham. Berkaxon hukmronligi davrida Sayfiddin Boxarziy shayx sifatida ulug'lanib "shayxul-olam", ya'ni "olamlar shayxi" unvoniga erishgan. Yana uni "din va dunyo yordamchisi" deb ham ataganlar.

Mo'g'ul xonlari undan foydalanib qolmoqchi bo'lishgan. Shu maqsadda Mangu, Xulagu va Xubilaylarning onasi Suyurkukteni-beka Buxoro viloyatida madrasa va xonaqoh qurilishi uchun 1000 bolish kumush beradi va Sayfiddin Boxarziyni vaqf mulklari mutasaddiysi qilib tayinlaydi.

Bizga o'sha vaqtida vaqfning maxsus hujjat bilan tasdiqlanganligi noma'lum. Ammo Sayfiddin Boxarziyning vafotidan 65 yil o'tgach, ya'ni 1326-1335yillar bilan vaqf qilingan mulklarning hujjatlari yetib kelgan. Bu hujjatlar O.D.Chevovich tomonidan "XIV asr Buxoro hujjatlari" asarida e'lon qilingan.

Sayfiddin Boxarziyning maqbara va xonaqosi hisobiga o'tkazilgan vaqfning asoschilaridan biri uning nevarasi Abdulmufohir Yaxyo ekanligi vaqf hujjatlarida ko'rsatilgan. U Said al-Boxarziyning o'g'li Ahmadning o'g'lidir. XVI asr yozuvchisi Ahmad shayx (Abulmufohir) Kermondan Buxoroga 1312-1313yillarda kelgan va 1335-1336- yillarda vafot etganligini e'tirof qiladi. Ahmad ibn

Muhammadning fikriga ko‘ra, u vaqfni Fathobodda “bechora miskinlarga kiyim-bosh va boshpана uchun xudo yo‘lida tashkil etgan”.

Shayx Yaxyoning zamondoshi arab sayyohi Ibn Battuta, Buxoroda bo‘lib, Sayfiddin Boxarziy xonaqosida to‘xtagan va u haqida quyidagicha yozadi: “Biz Buxoro shahri tevaragidagi so‘lim go‘shalardan birida to‘xtadik. Bu yerni Fatxabod deb atar ekanlar. U yerda shayx darvesh Sayfiddin al-Boxarziyning qabri bor edi. Sayfiddin Boxarziy bosh avliyolardan bo‘lgan. Vaqf egasiga juda katta mulk qarashli bo‘lib, undan keladigan foydadan ziyoratchilar boqilgan. Uning shayxi Boxarziyning nabirasi Yaxyo al-Boxarziy (Ibn Batutuni-R.A.) kutib oldi. U bizlarni o‘z qadrdonidek qarshi oldi. Tunni kunga ulab suhbat qurdik. U shaharning obro‘li kishilarini chaqirib, u yerda kitobxonlik qilindi, kitobni chiroyli ovoz (qiroat) bilan o‘qidilar. Ular turkcha va forschcha o‘qidilar. Biz u yerda tunni mo‘jiza bilan o‘tkazdik. Men u yerda “shariat sadri unvoni bilan ataluvchi olim-huquqshunosni ko‘rdim”<sup>58</sup>.

O.D.Chexovich nashr qilgan vaqf hujjalarda 10 ta qishloq va Buxoroning janubi-sharqida joylashgan 1 ta qasaba (katta qishloq), haydaladigan yerlar, bog‘lar, sug‘orish inshootlari va boshqa qurilishlar 1326-1334yillarda Sayfiddin Boxarziy maqbarasi va xonaqosi vaqfiga berilgani eslatilgan. Nazarimizda, uning tarkibiga Siyurkuktenibeka farmoni bilan sotib olingan va madrasaga vaqf qilib berilgan yerlar ham kirgan bo‘lishi mumkin. Bu madrasa Xoniya nomi bilan mashhur bo‘lgan 1273-1276yillarda Chingizzon avlodlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan navbatdagi to‘qnashuv chog‘ida buzib tashlangan. Fatxobod qasabasi haqidagi yozuvda “Maqbaraning eski vaqfi eslatiladi. Uning yozishicha, Fatxobod Shayx Sayfiddin Boxarziy tomonidan qurilgan va uning vaqfi tarkibiga Fatxobod yaqinidagi “Shahri Zudi nomi bilan mashhur bo‘lgan yerlar” ham kirgan. Ammo Siyurkukteni xanshi farmoni bilan sotib olingan qishloq “Sag‘anaming eski vaqfiga kirganmi, yo‘qmi noma’lum.”

---

<sup>58</sup> Ибн Баттута. Саёҳатнома. Масъул мухаррир ва муқаддима муаллифи Н.Иброҳимов. Тошкент: Шарқ. – 2012. –В. 366-367.

O.D.Chexovichning mazkur kitobiga Sayfiddin Boxarziy madrasasi va xonaqosi foydasiga o‘tkazilgan mulklarning vaqf hujjatlari kiritilgan. Quyida shu hujjatlar to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz.

Kitobga kiritilgan 1-raqam bilan belgilangan asosiy hujjat 726/ 1326yilda tuzilgan bo‘lib, matnning 0,9 qismini tashkil etadi. Unga ikkita tasdiqlovchi, ya’ni 1326yil (№ 2 va 3) va 734/1333- yilda yozilgan (№ 4) qo‘sishimcha vaqf yorliqlari tirkab qo‘yilgan. O.D.Chexovich asarga 1744yilda tuzilgan (№ 5) vaqfnomani va restavratorlarning 1879 yildagi (№ 6) qo‘sishimcha yozuvlarini ham kiritgan.

1-hujjat boshqalariga nisbatan eng kattasi bo‘lib, uni quyidagi qismlarga bo‘lish mumkin.

1) Kirish qismida Ollohga, payg‘ambarga, vaqf ta’sischisi nomiga hamdu sanolar o‘qilgan, tuzilayotgan vaqfnomaning ma’nosi va uning huquqiy jihatlari tushuntiriladi.

2) Vaqf ob’yektlari va ularning chegaralari ko‘rsatilgan. Vaqf yerlari (ko‘chmas mulk) hamda ularga qo‘shti bo‘lgan boshqa vaqflarning yerlari yoki davlat va shaxslarga tegishli bo‘lgan vaqflar ham sanab o‘tilgan.

3) Vaqfga berilgan harakatdagi narsalar, maqbara va xonaqolarning asbob- uskunalarini, vaqf yerlariga biriktirib qo‘yilgan sotib olingan va ozod qilingan qullar, ular vaqf yerlarida, maqbara va xonaqolarda, yerga ishlov va boshqa xizmatlar uchun qoldirilgan.

4) Vaqf daromadlarini taqsimlash shartlari va vaqf xo‘jaligini boshqarish uchun mas’ul shaxslarni tayinlash va ularning maoshlarini pul yoki natura bilan to‘lash haqidagi shartlar. Bayram kunlari dasturxon sarf-xarajatlari uchun farmoyishlar, kambag‘al-ziyoratchilarni boqish uchun farmoyishlar, vaqf yerlarini ishslash shartlari, hosilning 1/3 qismini dehqonlarga berish va yerlarga tajovuzlarning oldini olish bo‘yicha choralar to‘g‘risidagi farmoyishlar.

Hujjatning asosiy maqsad va mazmuni shundaki, unda mulklar vaqfga berilgach ulardan foydalanish tartib-qoidalari belgilab berilgan, ya’ni vaqf qilingan mulklar sotilmasligi, meros qoldirilmasligi, biror kimsaning mulkiga

aylantirilmasligi hamda vaqfda ko'rsatilgan maqsadlardan tashqari sarflar qilinmasligi ko'rsatilgan.

Sayfiddin Boxarziy maqbarasida undan tashqari, uning ikki o'g'li – Jaloliddin Muhammad va Mazzariddin Mutahhar va nabirasi Abu Mufoxir Yaxyo va evaralari – Xovand Burxoniddin va Ruxiddin shayx Dovud, Sayfiddin Boxarziy o'g'illarining qabri Sayfiddin Boxarziy qabridan g'arbda, nevara va evaralari sharqda joylashgan.

Nashr qilinayotgan hujjatlarda Buxoro tumani topografiyasi bo'yicha muhim ma'lumotlar mavjud.

Hujjatda vaqfga o'tkazilgan quyidagi qishloqlar - Forakan, Ushmiyun, Ibodi, Bidjugi, Margzorcha, Zaxanjiza, Xavzi Arusoni, Fatxobod kasabasi, Farishun, Razina, Kovokdiza, Kosara, Kushki Osiyo Vobkand nomlari tilga olingan.

Hujjatda sanab o'tilgan mulklardan tashqari Sayfiddin Boxarziy vaqf yerlariga qo'shni bo'lgan, u bilan chegaradosh o'nlab qishloqlar va kanallar eslatilgan. XIV asrda keltirilgan geografik nomlar orasida bizning davrimizgacha saqlanib qolganlari ko'p. 1893 va 1896- yillardagi xaritalarda va N.F.Sitnyakovskiyning "Zarafshon vohasidagi Buxoro ariqlari va aholi joylari ro'yxati" nomli asarida ko'plab qishloq va sug'orish kanallarining nomlarini uchratamiz. Bulardan Boxarzi vaqfi mulk va yerlari to'g'risida to'liq ma'lumot olish mumkin.

Buxoroga yaqin joylarda, Qarshi darvozasidan janubi-sharqda 1,5 km masofada Fatxobod joylashgan bo'lib, bu qishloqqa XIII asrda Sayfiddin Boxarziy asos solgan.

1326-1333yillarda bu vaqflarga Buxorodan shimolda 20 km masofada joylashgan, Vobkentdaryodan suv oladigan Komi Akka arig'i bo'ylaridagi Kushki Osiyo (Qasri Osiyo) va Kosari yerlari qo'shib berilgan.

Hujjatlarda 1326yilda Buxoro atroflarida juda ko'p xarobalar, buzilgan qal'alar, masjidlar, turar joylar, payxon qilingan bog'lar, uzumzorlar bo'lganligi eslatiladi. Har bir qishloqning ta'rifi uning o'rtasida baland tepalik borligini

yozishdan boshlanadi. Unda mo‘g‘ullarning talonchiligi va mo‘g‘ul xonlari o‘rtasidagi urushlar oqibatida buzilgan binolar, bo‘sh maydon, uning o‘rnida avval katta saroylar va kadivarlar hamda muzoriylar yashashi uchun mo‘ljallangan honaqolar bo‘lganligi eslatilgan. Ma’lumki, Buxoro oxirgi marta 1316yil mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilingan bo‘lib, bu voqeа hujjat yozilishidan 10 yil avval sodir bo‘lgan edi.

Hujjatlarda vayronagarchiliklar bilan bir qatorda yangi bog‘lar yaratilganligi, yangi irrigatsiya shaxobchalari - kanallar qazilganligi ko‘zga tashlanadi. Masalan;, bir hujjatda Ushmiyun qishlog‘iga Forakandan yangi ariq qazilganligi, yangi uylar qad ko‘tarilganligi, yangi bog‘ yaratilganligi eslatiladi. Vaqf yerlarida bu yaratuvchanlik yangidan jonlanish sari harakat boshlanganidan dalolatdir.

Vaqfdan chiqarilgan, lekin vaqf yerida joylashgan hududda 24 bog‘, yer maydonlari, 1 ta tegirmon shayx Yaxyo Boxarziyning xususiy mulki bo‘lgan.

O.D.Chexovich asarida tilga olingan 2-hujjatga keladigan bo‘lsak, u Buxoro qozikaloni Abu-l-Hamid Muhammad, ibn Abul Fazl Muhammad, ibn Muhammad Umar, ibn Mahmud al-Buxoriy tomonidan Sayfiddin Boxarziy maqbarasi va xonaqohi foydasiga berilayotgan vaqfning to‘g‘riliqi va haqqoniyligini tasdiqlovchi hujjat bo‘lib, 1326yil 3 avgust kuni yozilgan. Matn shakl va mazmun jihatidan qisqacha bitilgan.

Muallifning asaridagi 3-hujjat Abu-l-Hamid Muhammad, ibn Abul Fazl Muhammad, ibn Muhammad Umar, ibn Mahmud al-Buxoriy tomonidan asl hujjatning to‘g‘ri tuzilganligini tasdiqlab 1326yili 3 avgustda yozilgan.

4-hujjat Sayfiddin Boxarziyning nabirasi shayx Yaxyo tomonidan Qasri Osiyo Vobkan qishlog‘ining yarmini vaqf qilganligi va mulkning mutavalliga topshirganligi haqidagi bo‘lib, 1333yil 6 oktyabrda tuzilgan.

5-hujjat xo‘ja Majnun ibn mulla Abdullaning Sayfiddin Boxarziy maqbarasi uchun Buxoroning Poirud tumani joylashgan ikkita yer mulkini vaqfga bergenligi haqidagi vaqfnoma bo‘lib, 1745yil 23 yanvar – 21 mart kunlari yozilgan.

Demak, ko'rib chiqilgan vaqf hujjatlari XIV asr Buxoroning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy hayoti haqida qimmatli ma'lumot beradigan muhim manbalardir. Hujjatlarda joy va qishloqlarning nomlari, kanallar nomi tilga olinib u tariximizni o'rghanishda qo'l keladi.

### **3.6. XIV-XVI asr boshlarida arxiv ishi**

Rivojlangan o'rta asrlarda O'rta Osiyoda arxiv ishining qay tarzda yo'lga qo'yilganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Biroq mavjud qo'lyozma asarlardagi daliliy materiallar asosida arxiv ishining tashkil qilinishi xususida bazi tasavvurlarga kelish mumkin. Ma'lumki, Temur va temuriylar davri davlatchiligi o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Davlat boshqaruvi tizimi va ish yuritish jarayoniga katta e'tibor qaratilgan. Bu davrda ilm-fan yuksak darajada rivojlangan. Arxiv hujjatlarining bizning davrimizgacha saqlanib qolmaganligi bois u to'g'rida to'liq ma'lumotga ega bo'lish qiyin. Ammo O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondlarida hujjatlar to'plami saqlanayotgan bo'lib, ularni arxiv ishi yuritilishining bir ko'rinishi deyish mumkin. Masalan;, Amir Temur va temuriy hukmdorlarning qo'shni davlat hukmdorlari bilan yozishmalari jamlanib to'plam holiga keltirilgan va u "Maktuboti Temuriya" deb nomланади.

"Maktuboti Temuriya" hozirgi kunda mazkur institut qo'lyozmalar fondida 2278 raqam ostida saqlanayotgan maktublar majmuasining nomidir. Majmua 191 varaqdan iborat bo'lib, XVI asrda kitobat qilingan.

Eronlik olim Abulhusayn Navoyiy mazkur majmuaga Eron, Turkiya, Ozarbayjon va Fors hukmdorlarining xatlarini ham qo'shib, 1991yili "Isnod va maktuboti tarixi Eron (az Temur to shoh Ismoil)" nomi bilan nashr etgan. To'plamga Temur va temuriylar (Shohrux, Sulton Husayn Boyqaro va boshqalar)ning Fors, Ozarbayjon, Iroq va Turkiya hukmdorlari bilan yozishmalari jamlangan.

To'plamga kiritilgan maktublar Amir Temur va temuriylarning mazkur mamlakatlar bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari tarixini o'rghanishga, jumladan,

Amir Temurning 1381-1404- yillari Eron, Iroq, Ozarbayjon, Suriya va Turkiya ustiga qilgan harbiy yurishlarining saboqlarini to‘g‘ri anglashga yordam beradi.

“Maktuboti Temuriya” xurosonlik mashhur shayx, Amir Temurning pirlaridan biri Zayniddin Abubakr Tayobodiy (1395 yili vafot etgan)ning o‘z muridi Amir Temurga yo‘llagan bir tarixiy maktubi bilan boshlanadi. Amir Temur bu maktubni “Temur tuzuklari”ning “Tadbirlar va kengashlar”deb atalgan birinchi maqolasida keltirgan. “Tuzuklar”da keltirilgan mazkur maktub haqida, xususan, mana bularni o‘qiymiz: “Pirim Zayniddin Abubakr Tayobodiy menga yozmishlar-ki, “Abulmansur Temur saltanat yumushlarida to‘rt ishni qo‘llasin, ya’ni 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) hushyorligu mulohazakorlik; 4) ehtiyotkorlik. Chunki, kengash va mashvaratsiz sultanatning barcha qilgan ishlari va (podshohning) aytgan gaplari xato bo‘lgan. Unday podshohni johil odamga qiyoslash mumkin. Uning so‘zlari va qilmishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgan. Shunday ekan, sultanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbir bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo‘lmagaysan. Yana shuni ham bilginkim, sultanat ishlarining bir qismi esa bilib bilmaslikka, ko‘rib-ko‘rmaslikka solish bilan bitur. (Xullas) tadbirlardan ogoh qilingandan keyin shuni ham aytish joizdirkim, qat’iylik, sabr-toqat, chidamlilik, hushyorlik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilgay. Vassalom”. Amir Temur pirining bu o‘gitlariga umr bo‘yi, butun faoliyati davomida amal qildi. “Bu maktub, - deb yozadi hazrat sohibqiron, - menga yo‘l boshlovchi yang‘lig‘ rahnomalik qildi. U menga sultanat ishlarining to‘qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash bilan, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirilishni anglatadi”.

“Maktuboti Temuriya”da Amir Temurning Eron, Ozarbayjon va Turkiya davlatlariga nisbatan 1381-1404- yillarda olib borgan siyosatini va yuqorida nomlari zikr etilgan mamlakat hukmdorlarining Amir Temurga qarshi harbiy ittifoq tuzish xususida olib borgan siyosatini tushunishda yordam beradi. Quyida to‘plamga kiritilgan maktublardan bir nechtasini misol keltiramiz:

Iraq hukmdori Sulton Ahmad Jaloir (1382-1410)ning Fors hukmdori Muzaffariy Shoh Shujo‘ (1359-1384)ga yozgan maktubi;

Ozarbayjon hukmdori Qora Yusuf (1389-1420)ning Yildirim Boyazid I (1389-1402)ga yo‘llagan maktubi;

Yildirim Boyazid I ning Qora Yusufga javob maktubi;

Amir Temur ko‘ragonning Gilon hokimi Mir Said Aliga maktubi;

Sulton A’zam Amir Temur ko‘ragonning Sayyid Ali Qiyo buzurgga (Gilon) yuborgan xati.

Amir Temur ko‘ragonning Bog‘dod podshosi Sulton Ahmad Jaloirga yo‘llagan maktubi;

Bag‘dod podshosi Sulton Ahmad Jaloirning hazrat Amir Temurga javob maktubi;

Qora Yusuf Qoraqo‘yunluning Yildirim Boyazid I ga yo‘llagan nomasi; Amir Temurning Yildirim Boyazid I ga yo‘llagan birinchi maktubi;

Sulton Boyazid I ning Amir Temurga do‘stona javob xati; Amir Temurning Rum qaysariga yozgan ikkinchi maktubi; Rum podshosi Yildirim Boyazid I ning Amir Temurga yozgan javob xati

Amir Temurning Rum qaysari Yildirim Boyazid I ga yo‘llagan uchinchi maktubi;

Yildirim Boyazid I ning Amir Temurga javob maktubi;

Amir Temurning Sulton Boyazidga yo‘llagan to‘rtinchi maktubi;

Sulton Yildirim Boyazid I ning hazrat Amir Temurga yo‘llagan javob maktubi;

Amir Temurning Yildirim Boyazid I ga sulk taklif qilib Marog‘adan jo‘natgan maktubi;

Sulton Boyazidning Amir Temurga yuborgan javob xati;

“Maktuboti Allomiy” – “Maktuboti Abulfazl”, “Inshoyi Abulfazl” (“Abulfazl (Allomiy) tarafidan bitilgan va (ko‘chirilgan) maktublar”) deb ham ataladi. Maktublarning asosiy qismi Boburiylar saltanati (1526-1858)ning atoqli

podshohlaridan Jaloliddin Akbar (1556-1605) nomidan, bir qismi vazir va yirik tarixchi olim Abulfazl ibn Muborak Allomiyning shaxsiy mazmundagi maktublaridan iborat. To‘plam uch qismga bo‘lingan. Undan bizga uchdan ikki qismi, ya’ni ikkita daftar yetib kelgan, xolos. U Allomiyning qarindoshi Abdusamad ibn Afzal Muhammad tomonidan tuzilgan.

“Maktuboti Allomiy”da 1586-1596yillarda Buxoro va Balx xonliklari bilan Boburiylar davlati (Hindiston) o‘rtasidagi siyosiy munosabatlар haqida o‘ta qimmatli ma’lumotlarni uchratamiz. Ma’lumki, o‘sha yillari Hindistonning nafaqat Buxoro va Balx xonliklari, balki Eron bilan ham munosabatlari jiddiy tus olgan edi. Agar Boburiylar bilan Shayboniylar davlatlari o‘rtasidagi siyosiy munosabatlар Badaxshon tufayli, to‘g‘risi Badaxshonni o‘z hukmronligiga kiritib olish xususida bir qadar buzilgan bo‘lsa, Safaviylar Eroni bilan Hindiston o‘rtasidagi munosabatlар katta siyosiy-strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Qandahor xususida birmuncha buzilib qolgan edi.

To‘plamdagи maktublarda mana shu chigal masalalarining mohiyatini tushuntirib bera oladigan daliliy ma’lumotlar ko‘p. Bu jihatdan Akbarning Abdullaxonga yo‘llagan uchta maktubi va Abdullaxonning mavlono Mir Quraysh, Ahmad otaliq boshchiligida Hindistonga yuborgan elchiligi va Buxoro elchisi olib borgan maktub va Akbarning Balx bilan Buxoroga xo‘ja Afzal, Hakim Humom va Mir Sadrijahon boshchiligida yo‘llagan elchiliklari xususida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Maktublarning birida kelgusida tutiladigan siyosat xususida ikki davlat – Boburiylar davlati va Buxoro xonligi hukumdarlarining maxsus uchrashuvini uyushtirish masalasi ko‘tariladi.

“Maktuboti Allomiy” majmuasining yaxshi bir qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida № 290 raqam bilan saqlanmoqda. Majmua 154 varaqdan iborat.

Yana shunday to‘plamlardan biri “Muraqqayi Mir Alisher” yoki “Majmua”yi murosilot (“Maktublar to‘plami”)” bo‘lib, u o‘z davrining nufuzli ruhoniylari –

Abdurahmon Jomiy (1414-1492), xo'ja Ubaydulla Axror (1404-1492), xo'ja Axrorning o'g'li xo'ja Muhammad Yaxyo (1500 yili o'ldirilgan), xo'ja Axrorning safdoshi va kuyovi Mir Abdulavval Nishopuriy (1495yili vafot etgan) va boshqalarning Sulton Abu Said Mirzo (1451-1469), Sulton Husayn Mirzo va Alisher Navoiyga yo'llagan maktublarini o'z ichiga oladi.

Mazkur to'plam Alisher Navoiy tomonidan tuzilgani uchun "Muraqqayı Mir Alisher" yoki "Navoiy albomi" nomi bilan ham ataladi. To'plam XIX asrning yirik ziyyolilaridan biri Buxoro qozi kaloni Sharifjon Mahdum sadri Ziyo kutubxonasida saqlangan va undan Alisher Navoiy nomidagi Xalq kutubxonasining Sharq qo'lyozmalari bo'limiga va undan keyin 1943yili O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondiga o'tkazilgan. U 2178 tartib raqami bilan saqlanmoqda.

To'plamga Abdurahmon Jomiyning 334 ta xatlari kiritilgan bo'lib, ular shaxsiy mazmunda bitilgan xatlar hisoblanadi. Ularning ko'pchiligi har xil iltimosnomalardan iborat. Ularda soliq va jarimalarning og'irligi va soliq yig'uvchilarning zulmu bedodligi, Temuriyzodalarning o'zaro nizosi tufayli mamlakat va xalq ahvolining og'irlashgani, shuningdek madrasa talabalariga yordam berish to'g'risidagi Alisher Navoiy, Sulton Husaynga iltimosnomalardan iborat.

Xo'ja Ahrorning maktublariga kelsak, ular 128 ta bo'lib, mazmunan Abdurahmon Jomiy xatlariga o'xshashdir. Ularda Movarounnahr va Xurosonning XV asrning II yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Samarcand hokimi Sulton Abu Said Mirzo va Xuroson podshosi Sulton Husayn Mirzo (1469-1506) o'rtasidagi og'ir munosabatlar, soliq va jarimalar, xususan tamg'a solig'inining og'irligi va uni imkonni bo'lsa, bekor qilish masalalari ko'tariladi. Tinimsiz harbiy yurishlar va o'zaro urushlarning pirovardida fojeaga olib kelishini Temuriylarga uqtirishga harakat qilinadi. Masalan; Xo'ja Axror Sulton Abu Said yo'llagan bir maktubida uni Ozarbayjon ustiga, uning hukmdori Qora Yusuf ustiga qilmoqchi bo'lgan yurishiga qarshi chiqadi. Maktubda, "Hargiz az Marv maguzarid" ("Hargiz Marvdan nariqa

o‘tmasinlar”) deb ochiq ogohlantirgani yozilgan. Ma’lumki, o‘scha yurish natijasi Sulton Abu Said uchun fojea bilan tugadi. 1469 yilgi jangda u halok bo‘ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Temur va temuriylar davrida davlat mahkama ishini yuritishi yuqori darajada tashkil qilingan. Afsuski, bu davr arxivni bizning kunimizgacha yetib kelmagan<sup>59</sup>.

**Tayanch so‘z va iboralar:** somoniylar vaqf hujjatlari, Buxoro, vaqf yorliqlari, vaqfi avlod, O.D.Chexovich, Sayfiddin Boxarziy, “shayx ul - olam”, “Maktuboti Temuriya”, “Maktuboti Allomiy”, “Muraqqayi Mir Alisher”.

#### Nazorat uchun savollar:

1. IX-XIII asrlarda O‘rta Osiyo davlatlarida arxiv ishining yo‘lga qo‘yilishi.
2. XIII-XIV asrlarga oid arxiv hujjatlari. Sayfiddin Boxarziy.
3. О.Д.Чеховичнинг “Бухарский вакф XIII века» ва «Бухарские документы XIV века» asarlarida vaqf hujjatlari tahlili.
4. XIV-XVI asr boshlarida arxiv ishi.
5. “Maktuboti Temuriya” haqida ma’lumot bering.?
6. “Maktuboti Allomiy” haqida ma’lumot bering?
7. “Muraqqiyi Mir Alisher” to‘plami haqida ma’lumot bering?

#### Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Somoniylar davri vaqf hujjatlari.
2. XIV asr Buxoro vaqf hujjatlari tariximizni o‘rganishning muhim manbasi.

#### Adabiyotlar

1. Is’hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. –T., 2017.
2. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (Қадимги замон ва ўрта асрлар). –Т.: Ўқитувчи, 2001.

---

<sup>59</sup> Ushbu mavzu B.Ahmedov asari asosida yozilgan.

3. Мадраимов А. Фузаилова Г. Манбашунослик. Бакалавриат таълим йўналиши талабалари учун дарслик. –Тошкент, 2008.
4. “Мактуботи Темурия”. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. № 2278.
5. “Мактуботи Алломий”. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. № 290.
6. “Мураққаи Мир Алишер”. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. № 2178.
1. Абдураззоқ Самарқандий. Матла ус-саъдайн ва мажма ул-баҳрайн. –Т.: Фан, 1960, 1969.
2. Тарихий манбашунослик. –Т.: Фан, 2006.
7. Усанова М. Исмоил Сомоний вақфномаси //Шарқшунослик, № 6. – Тошкент, 1995. 24 – 31- бб.
8. Ўринбоев А. Ёзишмалар. –Т., 1998.
9. Абдураимов М.А. “О малоизвестном источнике по истории аграрных отношений в Средней Азии в XVI в. //Журнал “Народы Азии и Африки”. –М., 1968. № 3.
10. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Т. И. –М., 1965.
11. Петрушевский И.П. Из истории Бухары XIII в. Ученые записки ЛГУ, Серия востоковедческих наук. Вып. I, –Л., 1949.
12. Ростиславов М.Н. Несколько слов о важности вакуфных документов в историческом отношении //Туркестанские ведомости, 1873, №42.
3. Чехович О.Д. Бухарские документы XIV века. –Т., 1965.
13. Чехович О.Д. Вакуфный документ времени Тимура из коллекции Самаркандинского музея. Эпиграфика Востока. ИВ, –М., –Л., 1951. Рудельсон К.И., Долгих В.И. Теория и практика архивного дела. – М., 1980.

14. Семенов А.А. К вопросу о происхождении Саманидов //Труды ИИАЕ АН ТаджССР. Т.27. Сборник статей, посвященных истории и культуре периода формирования таджикского народа и его государственности (IX – X вв. н.э.). – Сталинабад, 1955. –С.3-11.
15. Ибн Баттута Саёхатнома. Масъул муҳаррир ва муқаддимма муаллифи Н.Иброҳимов. Тошкент: Шарқ, 2012.
16. Бухарский вакф XIII в. Факсимиле, издание текста, перевод с арабского и персидского, введение и комментарий А.К Арендса, А.Б.Халидова, О.Д.Чехович. –М., 1979 (ППВ – 52).
17. Камалиддинов Ш. С. “Китаб аль-Ансаб” Абу Саъда Абд аль-Карима ибн Мухаммада ас-Самъани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. –Т.: Фан, 1993.
18. Камолиддин Ш.С. Происхождение Саманидов. –Ташкент: IFEAC, 2008.
19. Чехович О.Д. Бухарские акты XIV в. –Ташкент, 1965.
20. Чехович О.Д. Бухарский вакф XIII в. Журнал «Народы Азии и Африки». 1967, № 3, –С.74-82.
21. Чехович О.Д. Крестьянские обязательства 1914 г. на основании мнимой грамоты Исмаила Самани //ИЗ, т. 33. –М., 1950. –С.260-270.  
Чехович О.Д. Новая коллекция документов по истории Узбекистана //ИЗ, т. 36, –М.: Изд-во АН СССР, 1951. –С.266-268.

**8-§. So‘nggi o‘rta asrlarda davlat devonxonalarida ish yuritish:  
Jo‘ybor xo‘jalari arxivi, Buxoro amirligi Qushbegi arxivi, Xiva va  
Qo‘qon xonliklari arxivlari**

**8.1. Jo‘ybor xo‘jalari arxivi**

Mustaqillik davriga kelib, tarixni yangicha talqin, yangicha mushohada qilishga zarurat aniq va ravshan ko‘zga tashlanib qoldi. Prezident I.A.Karimovning bir guruh yetakchi tarixchilar va ijodkorlar bilan uchrashuvida bu narsa yanada ochiq bayon qilinib, mamlakatimizda tarix fanini rivojlantirishning asosiy

yo‘nalishlari belgilab berildi. Natijada, O‘rta Osiyo xalqlarining feodal davri tarixini, madaniyatini, ijtimoiy-siyosiy hayotini yangicha nuqtai nazardan, haqqoniy, tarixiylik, ilmiylik, xolislik tamoyillari asosida o‘rganish dolzarb masalaga aylandi. Bu holat avval bor qo‘lyozma manbalar, arxiv hujjatlarini talqin qilish va ulardan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotni o‘rganishda unumli foydalanish lozimligini belgiladi. O‘rta asrlar tarixini, ayniqsa, XVI-XVII asrlar ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy hayotini qo‘lyozma manbalarsiz o‘rganishni tasavvur etish mushkul. Shuni alohida ta’kidlamoq zarurki, Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy hayotida jo‘ybor xo‘jalar alohida o‘rin tutgan. Movarounnahrda hukmronlik qilgan ikki sulola – shayboniylar va ashtarxoniyalar davrida bu xonodon vakillari mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdilar. Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida din namoyandalarining o‘rni beqiyos bo‘lgan, ular markaziy hokimiyatga o‘z ta’sirini o‘tkazib turgan.

Jo‘ybor xo‘jalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bir qancha manbalarda uchraydi. Bular Hofiz Tanish Buxoriyning “Sharafnama-yi shohiy” (“Abdullanoma” XVI asr), Badriddin Kashmiriyuning “Ravzat ar-rizvon” (XVI asr), Abu Abbos Muhammad Tolibning “Matlab at-tolibin” (XVII asr), Muhammad Yusuf Munshiyuning “Tarixi Muqimxoniy” (XVII asr), Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” (XVIII asr), Abdurahmon Davlat Tolening “Tarixi Abulfayzxon” (XVIII asr), Muhammad Yoqubning “Gulshan ul-muluk” (XIX asr), Mulla Abdullatif Xo‘janing “Majmua” (XIX asr), Sayyid Muhammad Nasriddinning “Tuhfat az-zoyirin” (XX asr boshlari) va boshqa asarlardir.

Shayboniylardan Abdullaxon II (1557-1598)ga Movarounnahrni Buxoro atrofida markazlashtirish va mamlakat yaxlitligini saqlab qolishda Jo‘ybor xo‘jalari yaqindan ko‘mak bergen. Mashhur sharqshunos tarixchilar Jo‘ybor xo‘jalarining ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o‘rni masalasiga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Masalan; Ye.E.Bertel’s (“Из архива шейхов джуй-бари”, –М., –Л., 1938), P.P.Ivanov (“Хозяйство джуйберских шейхов”. –М., –

L., 1954), M.Y.Yo'ldoshev ("Новые данные о хозяйстве джуйберских шейхов" //Jurnal ONU, 1963, № 5, 36-42 -б.), M.A.Abduraimov ("О малоизвестном источнике по истории аграрных отношений в Средней Азии XVI в. // Журнал "Народы Азии и Африки". -1968, № 3, -С. 302-306"), L.Rahmonova ("Из истории хозяйства шейхов джуйбари. Автореф. дисс. канд.ист.наук" – Ташкент: Институт Востоковедения АН УзССР, 1969.), B.A.Ahmedov ("Роль джуйберских ходжей в общественно–политической жизни Средней Азии XVI-XVII веков.// Духовенство и политическая жизнь. Сборник статей. –М., 1985. 16-31 б."), I.Saidahmedov («Письма шейбанидов – важный исторический источник. Автореф. на соис. канд.ист.наук. –Т.: 1994»).

Ye.E.Bertel'sning asarida asosiy e'tibor jo'ybor xo'jalarining xo'jalik faoliyatiga qaratilgan. Asarda arxiv hujjatlarida o'z aksini topgan xonadon vakillari tomonidan sotib olingan mulklar, do'konlar, qishloqlar va hokazolar qayd etilgan. P.P.Ivanov o'z asarida jo'ybor xo'jalari xonadonining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini batafsil yoritadi. U Jo'ybor xo'jalarining uch vakili – Xo'ja Islom (1493-1563), Xo'ja Sa'd (1531-1589) va Xo'ja Tojiddinning (1574-1646) iqtisodiy-xo'jalik faoliyati to'g'risida ma'lumot beradi. P.P.Ivanov Xo'ja Islomning Buxoro xoni Abdullaxonga bo'lgan ta'sirining moddiy va ma'naviy sabablarini ochib berish jarayonida xonadonga tegishli yerlarning miqdori to'g'risida ma'lumot beradi. Asarda Xo'ja Sa'd qaramog'idagi yerlar va ularning hajmi, joylashgan o'rni, yirik mulklarni boshqarish maqsadida Xo'ja Sa'd tomonidan joriy etilgan tizim to'g'risida xabar beriladi. P.P.Ivanov Xo'ja Tojiddinning harbiy-feodal doiralarning Jo'ybor xo'jalari mulklariga daxl qilishga intilishiga qarshi chiqqanligini e'tirof qiladi. Muallif ashtarxoniy Ubaydullaxon (1702-1711) zamonida Jo'ybor xo'jalari davlat boshqaruvi ishlarida faol qatnashganligini alohida ta'kidlaydi. Jumladan, Jo'ybor xo'jalaridan Muhammad Boqi, Hoshim Xo'jalar shayxulislom lavozimini, Abulfayzxon (1711-1747) davrida Yaxyo Xo'ja shayx ul-islom lavozimini egallaganlar. Bundan tashqari Muhammad Rahimxon (1753-1758) hamda Amir Muzaffar (1860-1885) davrlarida Jo'ybor

xo‘jalari o‘z ijtimoiy mavqelarini saqlab qolganligi P.P.Ivanov tomonidan eslatib o‘tilgan edi<sup>60</sup>.

Tarixchilar jo‘ybor xo‘jalari vaqf hujjatlari asosida ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’sirini o‘rganishga alohida ahamiyat qaratdilar. Tadqiqotlarda vaqf hujjatlari chuqur tahlil qilinib jo‘ybor xo‘jalariga tegishli mulklarning umumiy tavsifi berildi. B.A.Ahmedov o‘z tadqiqotlarida Jo‘ybor xo‘jalari xo‘jaligi iqtisodiy poydevorining barpo etilishi, xo‘jalarning shayboniy va ashtarxoniy xonlari, Hindiston, Qashg‘ar, Eron hukmdorlari bilan munosabatlari, xonodon mulki yaxlitligini saqlab qolish maqsadida o‘zaro quda-andachilik iplarini bog‘lash kabi masalalarni batafsil yoritdi. B.Ahmedov “Ravzat ar-rizvon” asaridagi jo‘ybor xo‘jalariga yozilgan turli mavzudagi maktublarni, Abdullaxon farmonlarini birinchi bo‘lib ilmiy muomalaga tortgan, jo‘ybor xo‘jalarining ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o‘rnini batafsil yoritgan. Badriddin Kashmiriyning “Ravzat ar-rizvon” asari orqali jo‘ybor xo‘jalarining ijtimoiy-siyosiy hayotdagagi o‘rnini ochib berish I.Saidahmedov tadqiqotining markazida turgan. U shayboniylarning jo‘ybor xo‘jalariga yozgan ko‘plab maktub va yorliqlarini tahlil qiladi va ularning ilmiy-ma’rifiy va tarixiy ahamiyatini ochib beradi.

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan me’moriy yodgorliklarni o‘rganishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Prezident I.A.Karimov 2003 yil 31 iyulda Buxoroda bo‘lganida olimlar zimmasiga Chorbakr me’moriy yodgorligi va u bilan bevosita bog‘liq ulug‘ zotlar tarixini ilmiy o‘rganish, shu asosda alohida ilmiy to‘plam tuzish, ilmiy ishlar yozish vazifasini yukladi<sup>61</sup>.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, Jo‘ybor xo‘jalari tarixini aks ettiruvchi qator asarlar mavjud. Shu asarlar qatorida Badriddin Kashmiriyning “Ravzat ar-rizvon” asari alohida o‘ringa ega. Mazkur asar Jo‘ybor xo‘jalari ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, xo‘jalik faoliyatini qamrab olgan daliliy materiallarga boy asardir. Muallif kashmirlik shoir va tarixchi Badriddin Kashmiriy taxminan 1553- yilda Buxoroga kelib, shu davrda ma’naviy-siyosiy obro‘yi ortib borayotgan Xo‘ja

<sup>60</sup> Иванов П.П. Хозуайство джуйберских шейхов. –М., –Л., 1954, -С.82-83.

<sup>61</sup> “Xalq so‘zi” gazetasi, 2003yil 1-avgust.

Islomga murid tushadi. U dastlab Xo‘ja Islomga, uning vafotidan so‘ng Xo‘ja Sa’dga xizmat qiladi, jo‘ybor xo‘jalarining shaxsiy kotibiga aylanadi. U xonadonga qilgan xizmatlari evaziga Xo‘ja Islom tarafidan 500 tanga, Xo‘ja Sa’d tomonidan 500 tanga bilan mukofotlangan.

“Ravzat ar-rizvon” asarida Jo‘ybor xo‘jalari vakillaridan Xo‘ja Islom va Xo‘ja Sa’dlarning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ruhiy faoliyati to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar beriladi. Asar tarixiy voqealarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Tarixiy voqealar muallifning o‘zi guvohi bo‘lgan, o‘zi ko‘rgan, eshitgan ma’lumotlari asosida yozilgan. Asarda Ubaydulloxon (1533-1539) vafotidan so‘ng yuz bergen siyosiy vaziyat, Buxoroning Turkiston va Samarqand sultonlari tomonidan qamal etilishi va muzokara yo‘li bilan sulhga erishish kabi masalalar bayon etilgan. “Ravzat ar-rizvon”da shayboniy sultonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, XVI asr o‘rtalarida Buxoro taxtini egallahash masalasidagi o‘zaro tortishuvlar, shayboniy sultonlar o‘rtasidagi ixtiloflarga Xo‘ja Islomning aralashuvi va bu aralashuvlarning aksariyat hollarda ijobiy natija bilan yakun topishi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar uchraydi.

Ma’lumki, tarix darsliklarida Abdullaxonning Buxoro taxtini egallahida Jo‘ybor xo‘jalarining alohida o‘rni borligi ta’kidlangan. “Ravzat ar-rizvon”da Buxoro taxtining Abdullaxon tomonidan egallanishi, Xo‘ja Islom tomonidan Abdullaxonning qo‘llab-quvvatlanishi haqida muhim ma’lumotlar beriladi. Asarda keltirilishicha, Xo‘ja Islom Marvda bo‘lgan paytida Mirzo Valijon degan shaxs Abdullaxon bilan Xo‘ja Islom o‘rtasida vositachilik qilgan. Abdullaxonning Buxoroni birinchi bor egallagani to‘g‘risidagi xabarni ham Mirzo Valijon Xo‘ja Islomga yetkazadi va uni Buxoroga kelishga da’vat etadi.

Xusayn as-Saraxsiyning “Manoqibi sa’diya” asarida XVI asr ijtimoiy-ma’naviy, ayniqsa, jo‘ybor xo‘jalarining yirik vakili Xo‘ja Islomning ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi faoliyati to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Asarning qo‘lyozma nusxasi O‘zRFA sharqshunoslik institutida 1439 raqam ostida saqlanadi. B.A.Ahmedov Balx xonligi tarixini o‘rganishda asardan unumli foydalangan. Asar muqaddima va olti bobdan iborat. Asar Xo‘jagon tariqati, Xo‘ja

Islomning ajdodlari, uning shajarasи, Xo‘ja Islomning tavallud topishi, bolalik yillari, Xo‘ja Islomning qozoqlar yurtiga safari, Xo‘ja Islom hayotining intihosi va uning farzandlari to‘g‘risida yozilgan. Asarni o‘rganish orqali Xo‘ja Islomning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotda tutgan o‘rni, mavqeи, shayboniy sultonlari bilan munosabati, Naqshbandiya tariqati shayxi sifatidagi ma’naviy-ruhiy faoliyati, ahloqiy kamolot pog‘onalarini zabit etishdagi sa’y-harakatlari, XVI asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.

“Jo‘ybor xo‘jalarining arxivi” XVI asrga doir, Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar to‘plamidir<sup>62</sup>. Aniqrog‘i, yirik yer-suv va mol-mulk egasi bo‘lgan Xo‘ja Muhammad Islom va Xo‘ja Sa’d (ko‘pincha Xo‘jai Kalon nomi bilan mashhur)larning katta yerkari va xo‘jaligi va uning jamiyatda egallagan o‘rni va ro‘lini ko‘rsatib beruvchi hujjatlar to‘plami hisoblanadi. To‘plamga kirgan hujjatlarning forscha matni, ruscha tarjimasi bilan qo‘sib, O‘zbekiston tarixining katta bilimdonlaridan P.P.Ivanov (1893-1942)ning tadqiqotlari bilan 1938-1954 yillarda ikki jild qilib Sankt-Peterburgda nashr qilingan.

To‘plam Jo‘yboriy xo‘jalardan Xo‘ja Sa’d (1531/32-1589)ning mol-mulkiga oid 288 hujjatni (yer-suv, do‘kon, hammom, karvonsaroy, tegirmon, oshxonalar va boshqa daromad keltiruvchi mulkning oldi-sottisiga oid vasiqalar)ni o‘z ichiga oladi.

Ma’lumki, Jo‘ybor xo‘jalari o‘z davrida katta mol-mulkka ega bo‘lgan boy-badavlat kishilardan edilar. Masalan, Xo‘ja Muhammad Sa’dning 2 ming juftgov<sup>63</sup> (100 ming tanob) yeri, 25 ming qo‘yi, 1000 bosh tuyasi, 1,5 ming oti, yirik shaharlarda ko‘pdan-ko‘p do‘konlari, timlari, tegirmon, hammom, moyjuvoz va boshqa turdagи ishlab chiqarish va savdo korxonalari hisobiga daromadi juda katta bo‘lgan.

<sup>62</sup> Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. (Qadimgi zamon va o‘rta asrlar). –T.: O‘qituvchi, 2001. Keyingi o‘rinlarda ushbu asarda tarjima qilib keltirilgan vaqfnomalardan namunalar beriladi.

<sup>63</sup> Ikki ho‘kiz qo‘silgan so‘qa bilan bir kunda haydaladigan yer maydoni juftgov deyilgan.

“Matlab ut-tolibin”da aytilishicha, hazrat eshonning yillik daromadi 1 million 600 ming tangaga barobar bo‘lgan. Xo’ja Kalonning mol-mulki, otasidan qolgan mol-mulk xonlar va boy-badavlat odamlarning xayr-ehsonlari, shuningdek, sotib olingan (zarxarid) mulklardan tashkil topgan.

Quyida “Jo‘ybor xo’jalarining arxiv”dan ba’zi hujjatlarni tarjima qilib keltiramiz.

### **VASIQA**

Hijriy 973yil rajab oyining 22-kuni (1566yil 14-fevral)da amirzoda Mirza Muhammad Sharif marhum Muhammad Latif Mirak o‘g‘li o‘z mulkini qonun bo‘yicha idora etishga haq-huquqli bo‘lgani uchun qonun-qoida bo‘yicha mana bu arzni bayon qildi: “Eski qal’a tashqarisida, Puli sarrafon yonida, mulla Ashraf masjidi ko‘chasida joylashgan...do‘konimni, do‘koncha va yonidagi oshxonasi bilan qo‘sib, shuningdek u bilan tutash bo‘lgan yerimni undagi binolar va narsalar bilan qo‘sib, uzil-kesil va qonun-qoida bilan xo’ja Kalonxo’ja xo’ja Muhammad Islom o‘g‘illariga sof kumushdan zarb qilingan 160 tanga badaliga sotdim.

Ushbu mulk g‘arb tomondan marhum xo’ja Yusuf Ali sabboh (bo‘yoqchi) ustod Sadriddin Sabboh o‘g‘liga tegishli do‘konga shimol tarafdan shahar nahriga, janubda bozor yonidan o‘tadigan katta jamoat yo‘liga tutashgandir.

(Mazkur) vasiqa quyidagi guvohlar ishtirokida tuzildi:

Mavlono Sodiq;

Ustod Turdi me’mor;

Xofiz Paxsa;

Mir Qalanda;

Mavlono Abdulvohid;

Mavlono Husaynning birodari sayyid Muhammad;

Muhammad Latif Hofiz Paxsa o‘g‘li;

Shayx Xasan Qorako‘liy”<sup>64</sup>

### **VASIQA**

---

<sup>64</sup> Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Б. 79-80.

Hijriy 960yil shavvol oyining 19-kuni (1553yil 29-sentabr).

Xo'ja Mir Hoshim Malik Buxoriy o'g'li, o'ziga qarashli mulkni qonuniy ravishda tasarruf etishga haq-huquqli bo'lgani uchun, o'z ixtiyori bilan va qonuniy ravishda quyidagi arzni bayon qildi: "O'zimga tegishli bo'lgan va Buxoroning eski qal'asi tashqarisida, marhum Abdulazizzon masjidi yonida joylashgan, otxonasi va somonxonasi, tosh va yog'och asboblari bo'lgan tegirmonimni xo'ja Muhammad Islom xo'ja Ahmad o'g'illariga sof kumushdan zarb qilingan vazni bir misqollik 170 kumush tangaga sotdim.

{Ushbu} mulk g'arb tarafdan {nomi yuqorida zikr etilgan} xaridorning uyi bilan sharq tarafdan naxr bo'yi va janub tarafdan Mir Toyyibxo'ja Malik o'g'lining hovlisi bilan tutashdir.

### **Guvohlar:**

Xo'ja Sayid Hasan;

Mir Muhtasib;

Mavlono Ali imom;

Mir Tayyib<sup>65</sup>.

### **VASIQA**

Hijriy 966yil zulqa'da oyining 21-kuni (1559yil 25-sentabr)da xo'ja Zinda Ali Arbob xo'ja Yusuf o'g'li...o'ziga tegishli mol-mulk xususida qonuniy tarzda va quyidagi mazmunda arz qildi: "Buxoroning Eski qal'asi tashqarisida, mahsidzlar bozorida, qalqon yasovchilar timida joylashgan to'rt nafar do'konimni, uzil-kesil va qat'iy savdo bilan xo'ja Muhammad Islom xo'ja Ahmad o'g'liga sof kumushdan zarb etilgan 120 tangaga uzil-kesil savdo bilan sotdim.

Uning bir tarafi mamlakayi podshohiyga<sup>66</sup>, ikkinchi tarafi shahar xandaqiga<sup>67</sup>, uchinchi tarafi nomi zikr etilgan olg'uvchiga tegishli tegirmonning ayvoniga tutashdir. Do'konga kirish yo'li ham o'sha tarafdan.

{Ushbu vasiqa} quyidagi odamlar ishtirokida tuzildi:

<sup>65</sup> O'sha asar. –Б.78-79.

<sup>66</sup> Mamlaki podshohiy – podshoh (xon) devoniga tegishli yer-suv.

<sup>67</sup> Xandak – qal'a devori uchun olingan loy o'rnidan hosil bo'lgan chohshqarisiga qazib suv to'latib qo'yilgan zavur; maxsus mudofaa inshooti.

Jo‘ra Muhammad xo‘ja Kalon shayx o‘g‘li;  
Abdulmuhammad;  
Muhammad Amin Abdi Kalonxo‘ja o‘g‘li;  
Mir Fazlulla;  
Mavlono Mahmud xatib Kalotiy<sup>68</sup>.

### VASIQA

Hijriy 966yil shavval oyining 20-kuni (1559yil 27-iyul)da mol-mulkini tasarruf qilishga haq-huquqli bo‘lgan Nasaf xotin shayx Muhammad qizi, o‘z ixtiyori bilan, {quyidagi} qonuniy va rad qilib bo‘lmaydigan arzini bayon qildi: “Buxoroning Eski qal’asi tashqarisida, Gavkashon ko‘prigi yonida joylashgan o‘zimga tegishli hovli-joyimni, dahlizi va 32 gazli sahni va ichidagi barcha narsalari bilan qo‘sib, xo‘ja Muhammad Qomixo‘ja(?) xo‘ja Muhammad Islom o‘g‘liga, uzil-kesil savdo bilan qonuniy narxda har biri biri misqol vaznidagi 160 tangaga sotdim.

Mazkur uy shimol tarafdan marhum Mavlono Umar Buxoriydan qolgan uy bilan, sharq tarafi naxr bo‘yi va janub tarafdan Mir Tayyibxo‘ja uyi bilan tutash...

Guvohlik berdilar:

Mavlono Yor Aziz;  
Mavlono Sulton Aziz qog‘ozfurush;  
Do‘st me’mor.”<sup>69</sup>

### VASIQA

Hijriy 967yil rajab oyining 4-kuni (1560yil 2-aprel kuni)da Mirza Muqimning o‘g‘li Mirza aka o‘z nomi va otasi nomidan o‘ziga tegishli mulkni tasarrqf qilishga haq-huquqli bo‘lgani uchun, qonun asosida, quyidagilarni arz qildi: “O‘z ixtiyorim va (menga) berilagn ishonchnoma asosida, uzil-kesil va buzish mumkin bo‘lmagan savdo bilan Buxoroning Rudi shahar tumanida, Qishloqi arus degan joyda joylashgan bir bo‘lak o‘zimga tegishli va (bir bo‘lak) otamga tegishli ekin eksa

<sup>68</sup> Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Б. 79-80.

<sup>69</sup> О‘sha asar. –Б. 80.

bo‘ladigan yerni xo‘ja Sa‘d xo‘ja Muhammad Islom o‘g‘liga sof kumushdan zarb qilingan 500 kumush tangaga sotdim.

Savdo-sotiq ishonchli kishilar ishtirokida amalga oshirildi.”<sup>70</sup>

## VASIQA

Hijriy 968- yil zulqa‘da oyining 12-kuni (1561- yil 26- iyul kuni) Mirza Muhammadyor xo‘ja al-haramayn Xudoyor o‘g‘li, qonun bo‘yicha, o‘z mulkini tasarruf qilishga haq-huquqli bo‘lgani holda o‘z ixtiyori bilan quyidagi yo‘sinda arz qildi: “Buxoroning Ko‘hna qal’asi tashqarsida, G‘aznon mahallasida joylashgan merosiy yerimni uchta uyi, dahlizi, ikkita boloxonasi bilan qo‘sib, xo‘ja Sa‘d xo‘ja Muhammad Islom o‘g‘liga uzil-kesil, qonuniy, buzib bo‘lmas savdo bilan, sof kumushdan zarb qildingan bir misqollik 160 tangaga sotdim.

Ushbu mulk g‘arb tarafidan (nomi yuqorida tilga olingan) xaridorning uyiga shimol va sharq tarafidan katta jamoa yo‘liga va yana bir tarafi Og‘ajon kavshdo‘z sabboning, qisman Jon Muhammad dehqonning uylari bilan tutash.

Guvoхlar:

Mavlono Boboquli;

Mavlono Sayfiddin;

Mavlono Muso;

Mavlono Ali”<sup>71</sup>.

**Turli fondlardan yig‘ib olingan hujjatlar.** O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy tarix arxivida, Buxoro o‘lkashunoslik muzeyi va Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro kutubxonasida saqlanayotgan hujjatlar: farmonlar, hukmnomalar, inoyatnomalar, vasiqalar, oldi-sotdi haqidagi hujjatlar va ajrimlardan iborat hujjatlarni yuqorida nomi tilga olingan O.D.Chexovich tarafidan 51 nafarini tanlab olingan va rus tiliga tarjima qilib, matni bilan qo‘sib, 1954yili “Документы к истории аграрных отношений в Бухарском ханстве XVII-XIX вв.” nomi bilan alohida kitob qilib chop etilgan.

<sup>70</sup> Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Б.80-81.

<sup>71</sup> O‘sha asar. –Б. 81.

Kitobda keltirilgan hujjatlar ashtarxoniy hukmdorlardan Imomqulixon (1611-1642) bilan Ubaydullaxon II (1702-1711), mang‘it amirlaridan Haydar, Amir Muzaffar va Nasrullaxonlarning farmonlari (hukmnomalari) XVII asrda o‘tgan yirik yer va mulk egalari bo‘lmish Yalangto‘sibiy, Olloyor devonbegi, Odina Muhammadjonlarga tegishlidir.

Hujjatlar yer-suvni soliqlar va jarimalardan ozod qilish, yerni sotish, garovga qo‘yish (vasiqai joiz), yerni sotib olish va uni imtiyozli mulkka aylantirish (vasiqai mubodila), yerni in’om qilish (vasiqai baxshish), tanhoh, mulkni ijaraga berish (vasiqai ijara), ma’lumot yetkazish (ariza) va boshqa masalalar haqidadir. Ularning alohida xiroj olinadigan va davlat yerlarini mulki hurri-xolisga aylantirish ya’ni soliqlardan xolis etish hollari ham uchraydi.

XVII-XIX asrlarda “Buxoro xonligidagi agrar munosabatlar tarixiga doir hujjatlar” deb atalgan ushbu to‘plam o‘sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o‘rganishda muhim manba vazifasini o‘taydi.

Quyida mazkur to‘plamdan misollar keltiramiz.

## **U (XUDO) G‘ANIYDIR!**

### **ABULG‘OZI IMOMQULI BAHODIRXON SO‘ZIMIZ!**

Baxtiyor birodorlar, saodatli farzandlar, zuliqtidor<sup>72</sup> amirlar, kifoyat asar vazirlar, Samarqand viloyatining ayonlari, arboblari va kalontorlari<sup>73</sup> bilsinlarki, shu kunlarda baxtiyor hoqonning arziga yetdikim, amirlar suyanchig‘i, Yalanto‘sibiyning zikr etilgan viloyatning (Samarqandning – B.A.) tumanlarida sotib olingan yerlari bor. Shariat qoidalariga ko‘ra uning bir qismini davlat hisobiga o‘tkazganlar, ikki qismini esa mulki xurri xolisga<sup>74</sup> aylantirgan va bu haqda uning qonuniy hujjati (cheki) bor. Binobarin, biz mazkur amlokni<sup>75</sup>, yuqorida tilga olingan hujjatlarga asosan, unga inoyat qildik.

<sup>72</sup> Zuliqtidor – iqtidor (kuch qudrat) egasi.

<sup>73</sup> Kalontor – qishloq, daha oqsoqoli.

<sup>74</sup> Mulki xurri xolis – soliq va boshqa to‘lovlardan ozod etilgan yer-suv.

<sup>75</sup> Amlok – mulkning ko‘pligi, nufuzli va boy-badavlat shaxs qo‘lida to‘plangan katta yer-suv. Bir qismi alohida xizmatlari uchun hukumat tarafidan in’om qilingan bo‘lishi ham mumkin.

Mazkur amlokni uning mulki xurri xolis deb hisoblasinlar va hech kim unga daxl qilmasin, undan biron narsa talab qilmasin. Moli jihot, ixrojot<sup>76</sup> va boshqa oliq-soliq talab qilmasin<sup>77</sup>.

## **U (XUDO), YaGONADIR!**

Hukmi oliy sodir bo‘ldiki, Tobon degan yerdagi lahyak yer Muhammad Zamon xo‘janing mulki va o‘g‘li Changakning meros mulki bo‘lganligi, shu kunlarda Chakchak vafot etganligini e’tiborga olib, yuqorida zikr etilgan yerni yuqorida ismi sharifi tilga olingan shaxsga (Muhammad Zamon xo‘jaga – B.A.) in’om qildik.

Devon xizmatchilar ushbu yerni daftarga, Muhammad Zamon xo‘ja nomiga yozib qo‘ysinlar va mazkur inoyatnomaga hurmatsizlik qilmasinlar.

Imomquli Bahodirxon

Hijriy 1036 yil<sup>78</sup>

## **(HUKMNOMA)**

### **Hu, Olloh al-musta’in!**

Abulmuzaffar va-l-Mansur Ubaydulla Baxodirxon so‘zimiz!

Buxoroning Poyariq (tumani) hokimlari, omillari<sup>79</sup>, kadxudolari<sup>80</sup>, ellikboshilari, o‘nboshilari shuningdek Shohmuhammad qishlog‘ining kadxudolariga ma’lum bo‘lsinki, Rabotag qishlog‘idagi 46 tanob yer mulla Mir Shofe’ga taalluqli ekanligi haqida berilgan sha’riy chekka asosan uch qismga bo‘lingan edi. Shu kunlarda u vafot etgan. (Shuning uchun) mazkur yerlar meros sifatida uning o‘g‘li O‘zbekxo‘jaga taalluqli deb topilgan va uning tarafidan tasarruf qilinmoqda va hamma soliqlardan ozod etilgan. Shuning uchun biron vajh bilan dirham, yoki dinor to‘lamagan.

<sup>76</sup> Ixrojot – saroyning kundalik xarajatlari uchun raiyatdan to‘planadigan maxsus yig‘im.

<sup>77</sup> Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари.

<sup>78</sup> Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Б.87-88.

<sup>79</sup> Omil – qishloq oqsoqoli.

<sup>80</sup> Kadxudo – oila boshlig‘i.

Shu sababdan buyuramiz. Ushbu yerlarni qadimdan mulki xurri xolis hisoblab, undan tanobana, avarizot va boshqa oliq-soliq talab qilinmasin. Aytilganlardan tashqariga chiqilmasinlar va undan yangi hujjat talab qilmasinlar<sup>81</sup>.

## U, OLLOH!

(Hijriy) 1131- yil safar oyining (1718- yil dekabr oyining...) oliyjanob va shuhrat topgan Yormuhammad qorovulbegi marhum Tilovbiy o‘g‘li mana bu e’tiborli (hujjat)ni taqdim etdi:

“Unda bunday deyilgan: Kesh viloyatiga qarashli Ulug‘ o‘g‘il degan joydag‘i davlatga qarashli yobisalarni<sup>82</sup> o‘z ichiga olgan yerlarni, bu yerlar g‘arb tomondan qisman qora batqoq bilan va qisman Tug‘i degan yer bilan, shimol tarafdan Qashqadaryo bilan, sharq tarafdan qisman Xosiyor va qisman Balxiyon bilan, janub tarafdan Xo‘jakent bilan tutash, (oralaridagi) masofa har tarafdan aniqlangan yobisa yerlarni yobisa sifatida oliyjanob, g‘oziylik rutbasi bilan sharaflagan va Olloh tarafidan mag‘firatlangan G‘ozi Chuxra oqosi<sup>83</sup> Sher chuxro oqosi o‘g‘liga, u yerdagi barcha chorpolar<sup>84</sup> va uch g‘aram qilingan bichan bilan, uning mulki deb hisoblanadi.

Bundan buyon ushbu yobisaga bizning dahlimiz yo‘qdir. O‘sha kuni va o‘shal soatda buni yuqorida tilga olingan G‘ozi chuxra oqosi ham ishonchli guvohlar huzurida tasdiqladi.

Ushbu kelishuvda ishtirok etgan guvohlar:

Oliyjanob oxund mulla Muhammad o‘g‘li;

Qodirberdi udaychi<sup>85</sup>;

Tursunxo‘ja sadr<sup>86</sup>;

Mirza Abdulla chuhra boshi;

Niyoz arbob va b.q.

Hammasi 16 kishi”<sup>87</sup>.

<sup>81</sup> Ахмедов Б. О‘ша асар. –Б. 88.

<sup>82</sup> Yobisa – qo‘riq yer.

<sup>83</sup> Chuhra oqosi – xon qo‘riqchilari boshlig‘i.

<sup>84</sup> Chorpo – to‘rt oyoqli jonvorlar

<sup>85</sup> Udaychi – urush paytida navkar va qo‘shinning to‘g‘ri taqsimlanishi bilan shug‘ullangan

<sup>86</sup> Sadr – Buxoroi sharifning ichkari qismida joylashgan vaqflarning hisob-kitobi bilavn shug‘ullanuvchi mansabdor.

## HU, OLLOH AL-MUSTA'IN!

### **Abulmuzaffar va-l-Mansur sayyid Ubaydulla Bahodirxon so‘zimiz!**

Buxoroga qarashli Poyirud (tumani)ning hokimlari, a’mollari, arboblari, kadxudolari, elliboshilari va o‘nboshilari hamda Shohmuxammad qishlog‘ining kadxudolari bilsinlarki, Rabotak qishlog‘idagi qonuniy hujjat asosida qadimdan mulki hurri xolisga aylantirilgan 46 tanob yer eshonimiz mulla Mir Shofe’ga tegishli bo‘lgan. U hozir vafot etgan. Bu yer meros tariqasida uning o‘g‘li O‘zbekxo‘jaga o‘tgan. U hozirda shu yerga egalik qiladi va soliqlardan ozod qilingan, biron dirham yoki dinor to‘lamaydi.

Shu vajdan buyuraman. Bu yerlar bundan keyin ham mulki xurri-xolis va soliqlardan ozod etilgan deb hisoblansin; tanobona, avarizod, taklifot va qora xat hamda mardikor berish majburiyatlari xususida undan biron dirxam yoki dinor talab qilmasinlar. Bundan buyon bu yerlarda karvon to‘xtamasin. Farmonni buzmasinlar va har yili yangi hujjat talab qilmasinlar<sup>88</sup>.

### **AMIR NASRULLO<sup>89</sup> HUKMNOMASI**

Hukmi oliy sodir bo‘ldiki, Qorako‘l viloyatidagi Ziyorat arig‘i bo‘ylarida joylashgan va Abdurahim mirobga tegishli taxminan 100 tanobdan iborat daxyak yer yuqorida ismi-sharifi zikr etilgan Abduraxim mirobga tegishli deb bilsinlar va oliy hukmga binoan uning mulki del bilsinlar. Soliq yig‘uvchilar va dorug‘alar<sup>90</sup> unga daxl qilmasinlar va oliq-soliq xususida aralashmasinlar; mazkur oliy hukm asosida ish yuritsinlar.

*Hijriy 1212 yil xzulhijja oyida  
(1798- yilning may oyida yozildi.)<sup>91</sup>*

### **(IJARA AKTI)**

<sup>87</sup> Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Б.89-90.

<sup>88</sup> Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Б. 90.

<sup>89</sup> Amir Nasrullo – mang‘hitlar sulolasidan chiqqan hukmdor (1826-1860).

<sup>90</sup> Dorug‘a – shaharning harbiy boshlig‘i

<sup>91</sup> Аҳмедов Б. О‘sha asar. –Б. 91.

Ushbu hodisa hijriy zulqa'da oyida (1856- yil iyul oyida) sodirbo'ldi. Buxoroning Somjin tumanida Hokim mullo Mirza degan joydagi va mulla Mir xanoqosiga vaqf qilingan Muhammad Yusuf hoji mahramga yozilgan taxminan 5 tanob dahyaki yerning o'ndan bir qismiga beriladigan daromaddan ajratib mulla Abdurahim mullo Abdurahmon o'g'liga (bir yil muddatga) ijaraga berildi.

Mazkur hujjat quyidagi guvohlar ishtirokida tuzildi:

Mulla Avaz;

Boqiyxo'ja;

Arbob Abduzohir;

Arbob Yo'ldosh;

Oollohberdiboy;

Hojiboy;

Hakimboy va boshqalar<sup>92</sup>.

## 8.2. Buxoro amirligi Qushbegi arxivni

O'tmish ajdodlardan qolgan tarixiy yozma manbalar qatoridan haqli ravishda o'rin olgan hujjatlardan biri Buxoro amiri Qushbegi arxiv hujjatlaridir. Ushbu arxiv hujjatlari XIX asr **uchinchi choragi** – XX asr boshlarida Buxoro amirligi tarixini o'rghanish uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. **Arxivning Buxoro-Rossiya diplomatik va savdo munosabatlariga doir bir qismi o'sha vaqtida Moskvadagi "Qadimgi hujjatlar Markaziy Davlat arxiv"ga, yana bir qismi "O'zbekiston markaziy Davlat tarix arxiv"ga topshirilgan. Moskvada saqlanayotgan hujjatlar Buxoro, Xiva va Balx xonliklarining Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan siyosiy va iqtisodiy aloqalari tarixini o'rghanishda muhim ahamiyat kasb etadi.**

Mazkur Qushbegi arxivni hozirda O'zbekiston Respublikasi Markaziy **Davlat arxivining tarixiy fondida (№ I-126)** saqlanadi. Fondning 2 ta ro'yxati bo'lib, 1-ro'yxatda 2008 ta, 2- ro'yxatda 7437 ta saqlov birligidagi hujjatlar mavjud. Ushbu arxiv xonlikning ijtimoiy-siyosiy tarixi, iqtisodiyoti va boshqa masalalarni o'rghanishda

---

<sup>92</sup> Ахмедов Б. О'sha asar. –Б. 91.

muhim manba ro'lini o'ynaydi. Lekin bu fond hali yaxshi o'rganilmagan. Fondning ayrim hujjatlaridan P.P.Ivanov, A.A.Semyonov, M.A.Abduraimov, K.M.Mirzoyev va Halim To'raev foydalanganlar. Hozirda Qushbegi arxivining A.Muhammadjonov tayyorlagan nashri Buxoro amirligining ma'muriy hududiy tuzilishi haqida muhim ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Shu nashr asosida M.Abduvahobova maxsus risola chop ettirdi. Unda amirlik tarixiy toponomikasi bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar tahlil etilgan.

Mazkur Qushbegi arxiv hujjatlarining 1931 yilda topilishi "O'rta Osiyoda hech qanday arxiv bo'lмаган" deyilgan da'volarga o'rin qoldirmadi. Ayniqsa, 1930yildan keyin Xiva va Qo'qon xonligi arxivlarining ochilishi O'rta Osiyo xonliklarida XIX-XX asr boshlaridagi davlatchilik tarixida muhim voqeа bo'ldi. Ushbu arxiv hujjatlari xonliklar tarixidagi ayrim voqealarga aniqlik kiritish, ma'lumotlarni to'ldirish imkoniyatini tug'dirdi.

Arxiv hujjatlarining tarkibi har xil hujjatlardan iborat bo'lib, ular orasida turli mulkiy munosabatlar, huquqiy masalalar, ijtimoiy, ma'naviy sohalarga oid minglab hujjatlar bor. Bularning hammasi birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy tarix, ichki ma'muriy boshqaruv tizimi kabi qator tarixiy muammolarni yaxlit hal qilishga xizmat qiladi. Qushbegi arxivida Buxoro amirligining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti va tarixiy geografiyasi to'g'risida boy daliliy materiallar mavjud. Qushbegi arxivi sohalar bo'yicha turli tarixiy muammolarni – aholi demografiyasi, soliq tizimi, etnik joylashuvi, etnik tarkibi, ma'muriy tizim tarixi va shu kabi boshqa masalalarni hal qilish uchun qimmatli ma'lumotlar beradi. Mamlakatimiz tarixini to'laqonli o'rganishda manbaviy asos bo'lib xizmat qiladigan Qushbegi arxiv hujjatlarining ro'li nihoyatda muhimdir. Tariximizning hujjatli yodgorliklarining ahamiyati shu qadar muhimki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 yildagi XIV sessiyasida "Arxivlar to'g'risida"gi Qonunda bu o'z aksini topdi. Bu qonunda arxivlarning ahamiyati alohida e'tirof etildi. Qonun ijtimoiy fanlarni rivojlantirishda arxiv hujjatlaridan foydalanishni yanada jadallashtirdi.

1999 yildagi Oliy Majlisning XIV sessiyasida **O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov chet el fondlarida saqlanayotgan minglab arxiv hujjatlarini O‘zbekistonga qaytarish zarurati to‘g‘risida gapirdi.**

“Buxoro amirligi Qushbegi” fondi daliliy materiallarga boy hujjatlar to‘plamidan iborat. Bu fond materiallari hali to‘liq o‘rganilgan emas. Uning ayrim hujjatlaridan A.R.Muhammadjonov o‘zining Buxoro amirligidagi aholi punktlari kitobini yozishda foydalangan. Muallif kitobda o‘n~~lab~~ viloyatlar, tumanlar, amloklar, mavzelar, bekliklar, qishloqlar haqida ma’lumotlar beradi. Ro‘yxatlarda ko‘p hollarda nafaqat joylarning geografik nomlari, hatto aholi tarkibi, unga qarashli bo‘lgan chorva mollari to‘g‘risida, hududda istiqomat qiluvchi qabilalar to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Mazkur fonddagi hujjatlarda Buxoro amirligiga qarashli mulklardagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayot, etnografik ma’lumotlar berilgan. Shuning uchun Buxoro amiri Qushbegi arxivi nafaqat O‘zbekiston tarixi, balki Tojikiston va Turkmaniston aholisi tarixi to‘g‘risida ham qimmatli ma’lumotlarga boy fond hisoblanadi. Chunki Buxoro amirligi hududi hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston va qisman Turkmaniston hududlarini qamrab olgan edi. Buxoro amirligi tarixini o‘rganishda arxiv hujjatlarida uchragan joy nomlarining ba’zilari hozirgi kunlarda ham ba’zan to‘liq, yoki qisman o‘zgargan formada saqlanib qolganligini kuzatishimiz mumkin. Hujjatlar uzoq yillar davomida til sohasidagi sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni ham kuzatishlari mumkin. Hujjatlar Buxoro amirligi aholisining etnik tarkibini o‘rganishda ham qo‘l keladi. Ammo, turli xil tillarning bir hududda amal qilinishi natijasida ularning aralashib ketishi oqibatida aholining etnik tarkibini o‘rganishda ba’zi qiyinchiliklarni tug‘dirishini ham ta’kidlab o‘tmoq zarur. Shuning uchun jug‘rofik nomlarni tilshunoslik va tarixiylik nuqtai nazaridan ham ilmiy tahlil qilish lozimdir.

Ma’lumki, 1868yilda Buxoro amirligining Ziyoddingga bo‘lgan qismi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan. 1873yilda tuzilgan shartnomaga binoan Buxoro amirligi Rossiyaning vassaliga aylangan. Rossiya albatta Buxoroda o‘zining boshqaruv tizimini – viloyat, tuman, qishloq, guzar va boshqa ma’muriy

pog‘onalarni joriy qildi. Rossiya imperiyasi Buxoro amirligini yanada ko‘proq va har tomonlama tobe’ qilish yo‘llarini izladi. Shulardan biri XX asr boshlarida Rossiya tomonidan Buxoro amirligining aholi resurslarini, xo‘jalik iqtisodiy salohiyatini imkon qadar chuqurroq o‘rganishga qaratilgan sa’y-harakati edi.

Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligi amirlikdagi mamlakat aholisi ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini va ma’muriy tizimini o‘rganishga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni to‘plashga kirishdi. Unga binoan 1914-1915yillarda Buxoro amirligining Qushbegi mahkamasi tomonidan barcha viloyatlar, tumanlar, qishloqlar, guzarlar, rabotlar, mavzelar, daha va boshqalar batafsil ro‘yxatga olinib, agentlikka taqdim qilingan. Shunday qilib, Buxoro amirligidagi Rossiya siyosiy agentligida boshqaruв jarayoni uchun zarur bo‘lgan muhim statistik axborot tizimi yaratilgan. Qushbegi mahkamasi tomonidan taqdim qilingan ushbu ro‘yxat bugungi kunda o‘ta noyob tarixiy manba sifatida baholanadi. Ushbu Qushbegi arxiv hujjatlarining topilishiga kelsa, 1931yilda Buxoro muzeyi xodimlari tomonidan Ark yerto‘lasidan “Qushbegi arxivi xazinasi” topilgan. Xazina 1933yilda Toshkentga, Respublika Markaziy arxiviga olib kelingan. 1964 va 1968yillarda shu hujjatlarning qisqa ilmiy tavsif kitoblari qo‘lyozma shaklida tuzilgan.

“Qushbegi arxivi”ning oxirgi tavsif kitobiga ko‘ra, fonddagi yuz mingdan ortiq hujjatlar 2656 **ta** papkaga joylashtirilib, mazmuniga ko‘ra o‘n bir guruhga ajratilgan. Ular:

- ma’muriy
- siyosiy
- tashqi aloqalar
- iqtisodiy
- sud
- harbiy
- madaniyat va urf-odat
- sog‘lijni saqlash
- oqartuv va din

- turli masalalar hamda
- daftar va jurnallar bo‘limlari tartib raqamlar bilan keltirilgan.

Birinchi guruhdagi hujjatlar 9 mingga yaqin va ular 238 ta papkaga joylashtirilgan. Ular Buxoro davlat tizimi, ma’muriy bo‘linishi, XIX va XX asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan idora va mansablar ko‘rsatkichlari, nazorat-boshqaruv usullarini qamrab olgan ma’lumotlardan iborat.

Ikkinci bo‘limdagi manbalar 504 ta papkada jamlangan bo‘lib, o‘n uch yarim mingga yaqin hujjatlar majmuidan iborat. Bu guruhdagi ma’lumotlar mamlakat tashqi va ichki siyosiy ahvoliga doir masalalarni va shu soha atrofidagi hayotiy jabhalarni qamrab, ularning tarixiy yechimiga xizmat qiluvchi asosiy materiallardan iborat.

Uchinchi bo‘lim tashqi diplomatik munosabatlarni aks ettiruvchi o‘n ikki mingdan ortiq hujjatlarni tashkil etib, ular 307 ta papkada joylashtirilgan. Ularda Buxoro-Rossiya munosabatlari, davlatlararo shartnomalar, mansabdorlar, amaldorlar, chet ellik muhojirlar, ishbilarmonlarning faoliyatları, tashqi savdo munosabatlari, temir yo‘l, telegraf, rus harbiy qo‘shinlarining amirlikda joylashtirilishi bilan bog‘liq masalalarni aks ettiruvchi ma’lumotlardan iborat.

To‘rtinchi bo‘limdagi hujjatlar asosan Buxoro amirligining XIX-XX asr boshlaridagi iqtisodiy-moliyaviy hayotini qamrab oladi. Ularda zavod, fabrikalar, bojxonalar, yer-suv egaligi, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, hunarmandchilik masalalarini aks ettiruvchi 27 mingdan ortiq hujjatlar 854 ta **papkaga** joylashtirilgan

Beshinchi bo‘limdagi sud mahkamasi ishlariga doir qozixonalarda bitilgan vasiqalar, xatlar, vaqfnomalar, shajaralar, cheklar, rivoyatlar, ya’ni jami 8,5 minga yaqin yozma manbalar, XIX-XX asr boshlaridagi Buxoro davlat boshqaruvidagi adliya va yurisprudentsiya ahvoli haqida aniq ma’lumotlarni, boshqaruv tizimi tarixini o‘rganish uchun asosiy dalillardir.

Oltinchi bo‘limda sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq 256 ta hujjat 25 ta papkaga joylashgan. Bu hujjatlarda 1809-1918 yillarda Buxoro amirligida vaqtiga vaqtiga bilan

tarqalgan vabo va o'latlar, tabiiy ofatlar va ularni bartaraf qilish maqsadida davlat tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar bilan bog'liq masalalar o'z ifodasini topgan.

Yettinchi bo'limda Navro'z, Ramazon va Qurbon hayitlari bilan bog'liq, "Guli surx" nomi bilan o'tkazilgan xalq sayillari, 1915 yilda amirlikning Abu Lays mavzesidan topilgan arxeologik topilmalar, tanga va ziynat bezaklari, Buxoro amirlari tomonidan rus harbiylariga, joylardan markazga jo'natilgan turli xil arizalardan tashkil topgan 6 mingga yaqin hujjatlar 135 papkadan tashkil topgan "Ma'daniyat bo'limi" guruhini tashkil qiladi.

"Maorif va din" guruhiga mansub bo'limdagi 5 mingga yaqin hujjatlar 87 ta papkadan joy olgan. Ularda amirlikdagi mактаб, madrasa, maqbara, masjid, xonaqohlar ishi bilan bog'liq barcha masalalar o'rин olgan.

"Turli hujjatlar" bo'limidagi materiallar keyingi 30-50 yil davomida yangi to'plangan va fondga kiritilgan 745 hujjatdan iborat 72 papkani tashkil etadi. Bundagi manbalar o'zidan oldingi 9 ta guruhga mansub masalalarni o'zida ifodalaydi. Davr jihatidan ular 1881-1918yillarga oiddir.

Demak, Qushbegi arxivi XIX-XX asr boshlari Buxoro amirligidagi hayotning turli qirralarini qamrab olgan muhim hujjatlar to'plamidir. Bevosita materiallar tahliliga kelsak, Qushbegi arxivida 1915- yil holatida Buxoro amirligida 27 viloyat va 11 tuman bo'lgan. Bularning hammasi markaz Buxoro atrofida birlashgan. Hujjatlarda viloyatlar va tumanlardan yig'ib olinadigan soliqlar to'g'risida, kimlar soliq yig'ib olganliklari haqida ma'lumotlar bor. Tumanlardagi hokimiyat qozilarga tegishli bo'lib, ular Qozikalonga bo'ysunganligi aks etgan. Ba'zi tumanlar ikkita nomga ega bo'lgan, bular asosan tuman markazidagi qishloqlar nomi bilan atalgan.

Buxoro amiri Qushbegi hujjatlari asosan tojik, ba'zan o'zbek tilida bitilgan. ularni o'rganish uchun tojik-fors va eski o'zbek tillarini bilish talab qilinadi.

1914yil 28-yanvar va 2-fevral kunlarida Qushbegi devoni viloyat hokimlariga, tuman hokimlariga va amlokadorlarga hudud to'g'risida ro'yxat tuzishni topshirgan. A.Muhammadjonovning yozishicha, bu ro'yxatlar Buxoro amirining Qushbegi

devonxonasiga kelib tushganmi, yoki yo‘qmi aniqlash qiyin. Buxoro amirining Qushbegi devonxona fondida oldin saqlanib kelayotgan ro‘yxatlar ichida 7 ta viloyatning ro‘yxati yo‘q. Bular: Dihinau, Ziyaddin, Kabodiyon, Qorategin, Kelif, Qo‘rg‘on tepa,, Shahrisabz va Buxoroning chekka tumanlaridagi Shimoliy Rud va Janubiy Rud. Bu ro‘yxatlarda har bir viloyat, tuman va qishloqlarda qancha aholi yashashi va qancha uy borligi yozilgan.

1916yilning 21-yanvarida tuzilgan ro‘yxatlarda shunday deb yozilgan: “Oqsoqol va aminlardan so‘rab surishtirilsin, qancha amlok to‘langan(?) va berilgan va har bir qishloqning nomi va amlokleri bor yoki yo‘qligi haqida bizga yozib yuborilsin”.

Ko‘pgina viloyatlardagi qishloqlarning ro‘yxatlari devonxonalarda saqlangan. Masalan;: Qorategin viloyatining ro‘yxati 1913yildan boshlab yuritiladi va bu ro‘yxatda har bir qishloqning uylari soni yozilgan.

Demak, Buxoro amiri Qushbegi arxivni amirlikdagi viloyatlar, amlokdlar, qishloqlar va ularda yashaydigan aholi soni va etnik tarkibi hamda u yerdan yig‘ib olinadigan soliqlar miqdorini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Buxora amiri Qushbegi arxivni hujjatlari orasida Xo‘ja Axrorga tegishli vasiqalar va vaqfnomalar ham mavjud<sup>93</sup>. Bu turdagil hujjatlari ko‘p va ularni arxiv va muzeylarning fondlaridan, shuningdek qo‘lyozmalar saqlanayotgan kutubxonalardan topish mumkin.

Mashhur sharqshunos olma Ol’ga Dimitrevna Chexovich (1912-1982 yy.) O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti va O‘zbekiston Respublikasi Davlat tarix arxivni fondlarida saqlanayotgan vasiqalar va vaqfnomalar fondini ko‘p yillar davomida qunt bilan o‘rgandi va ular ichidan Xo‘ja Ubaydulla Axrorga tegishlilarini ajratib olib, matni va ruscha tarjimasini maxsus tadqiqot bilan birga qo‘sib 1974 yili “Самарканские документы XV-XVI вв.” nomi bilan nashr etdi.

---

<sup>93</sup> Quyidagi B.Ahmedov tadqiqotidan foydalilanilgan matn beriladi. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: О‘qituvchi, 2001.-Б. 72-75.

Ma'lumki, Xo'ja Axror o'z davrining badavlat, boobro' kishisi bo'lib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta nufuzga ega bo'lgan. Uni shu darajaga yetkazgan narsa, birinchi navbatda uning qo'lida to'plangan katta yer-suv va mol-mulk bo'ldi. Tarixiy manbalarining guvohlik berishicha, uning 300 juftigov yeri, shaharlarda timlari (usti yopiq bozorlari), do'konlari, hammomlari, karvonsaroylari, tegirmonlari, moyjuvozlari bo'lgan. Lekin u ma'rifatli va raiyat-parvar kishi edi. Daromadning bir qismini xayrli ishlarga sarflagan, xalq manfaatini himoya qilgan. Masalan;, 1463yili temuriyzoda Umarshayx mirzo Toshkent xalqidan katta miqdorda xiroj talab qilganda, Xo'ja Axror uni o'z hisobidan to'lab bergen; hunarmandlar va bozor ahlidan olinadigan tamg'a solig'iga qarshi chiqqan. Hazrat Eshon barcha soliqlardan ozod qilinganiga qaramay, ayrim yillari hamma qatori xiroj, ushr va boshqa soliqlarni (ma'unoti devoniya va navoibi sultoniy) to'lab turgan. Xo'ja Axror har yili Sulton Ahmad mirzo (1458-1494 yillarda Movarounnahr hukmdori)ning devoniga 80 ming man<sup>94</sup> g'allani xiroj o'mida yuborib turgan; yiliga unga xirojning bir qismini – 10 ming kumush tanga berib turgan.

O.D.Chexovichning yuqorida nomi zikr qilingan asaridagi hujjatlardan birini misol keltiramiz.

### VASIQA

Olloh jumlayi jahon egasidir, uning shon-shavkati yuqori bo'lsin! (Hijriy) 859yil jumodi ul-oxir oyining 12-kuni.

Bayramxo'ja o'g'li Hasan, mulkiga mutasaddiy bo'lishga haq-huquqi bo'lgani holda, dedi: "Samarqandning So'zangaron ko'chasida joylashgan ikki xonalik uyimni, tahoratxona va ayvoni bilan Ubaydullaxo'ja Jaloliddin Mahmud o'g'liga sotdim.

Mazkur hovli-joyimning g'arb tarafga olajanob, hurmat-ehtiromga loyiq bo'lgan olg'uvchining do'konini bilan tutash, shimoliy tarafini podshohlik yerlari<sup>95</sup> va qisman amir Shermuhammad xo'janing uyi bilan, sharqi-janub tarafidan esa xalqa ko'chalar bilan tutashdir.

<sup>94</sup> Man – og'irlilik o'lchovi; 4,32 kg.ga teng bo'lgan o'lchov birligi.

<sup>95</sup> Podshohlik yerlari – hukumatga qarashli yer-suv, mulki podshohiy, mulki sultoniy va mamlaka deb ham ataladi.

Ushbu mulkni, barcha haq-huquqlari bilan, hozirda muomalada bo‘lgan 1500 dinori adliyaga<sup>96</sup> sotdim.

Mazkur savdo-sotiqning kafilligi o‘zimning zimmamda.

Savdo quyidagi shaxslarning guvohligida bo‘ldi:

Abu Mansur Muhammad;

Sa’dulla Muhammad al-Ispijobiy;

Ahmad Ali al-Xorazmiy;

Xo‘ja Sulton Jahongir o‘g‘li;

Bayramshoh Junayd Ramazon o‘g‘li.

Hammasi bo‘lib 26 guvoh”<sup>97</sup>.

## **BUXORO AMIRI HAYDARNING FARMONI**

U (Olloh) abadiy tirik!

Kattabek eshik og‘aga<sup>98</sup> ma’lum va ravshan bo‘lsin va (u) bilsinki, mulozimingiz Rahimqulibekbiy oljanob, qutlar qutbi janob xo‘ja Axrorning, qabri nurga to‘lsin, Kamongarondagi vaqf yerlariga qasd qilgan. Bu gapni (podshoh hazratlarining) oliy uzangisini o‘pish paytida sayyodat maob eshon Olamgirxo‘ja shayxulislom aytgan.

Shunga asoslanib, Siz janobga buyuramiz:

Agar (haqiqatan) shunday qilingan bo‘lsa, Ollohning la’natiga qolmaslik uchun bu ishni darhol to‘xtatsinlar, mazkur vaqf yerni, mazkur farmoni oliyga asoslanib, egasiga qaytarilsin, (Farmonga) aslo mone’lik qilmasinlar<sup>99</sup>.

### **8.3. Xiva xonligi qozilik arxiv**

Xiva xonligi tarixi so‘nggi vaqtlargacha juda kam o‘rganilgan edi. Xiva xonligining arxivni borligi fan olamiga ma’lum bo‘lgach, bu masalada jiddiy siljish yuz berdi. Rus sharqshunos olimi V.V. Bartol’d bu arxivni bevosita O‘rta Osiyoda, shuningdek Moskva va Leningrad arxivlaridan ko‘p marta qidirib ko‘rdi, biroq

<sup>96</sup> Dinori adliya – Mirzo Ulug‘bek davrida zarb etilgan oltin tanga pul; vazni 4,4 gr.ga teng.

<sup>97</sup> Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Б. 74-75.

<sup>98</sup> Eshik Og‘a (eshik og‘asi) – saroybon; podshoh (xon) saroyiga arz bilan keluvchilarni, shuningdek elchilarni kutib oluvchi mansabdor.

<sup>99</sup> Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Б. 76-77.

topa olmagan edi<sup>100</sup>. Bartol'dning o'zi ko'rsatib o'tganidek, bunday hujjatlar va materiallarning yo'qligi O'rta O'siyo tarixini o'rganishda katta to'siq edi. Bu olim "Musulmon Sharqi davlatlarida hujjatlarning saqlanishi" degan o'zining diqqatga sazovor maqolasida Sharqda, zotan hamma joyda ham, arxiv ishining rivojlanishi davlatning rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi, deb juda to'g'ri fikr aytib o'tgan edi. Shunday qilib, Bartol'd O'rta Osiyo xonliklarida XIX asrda mahkama ish yuritish va hujjatlarni saqlashga qaratilgan harakatni ko'rmagani sababli masalani o'rganish unga nasib etmagan.

Xiva arxiv hujjatlari topilmasdan oldin Xivaning bu davrdagi tarixi o'sha davr elchilarning, sayyohlarning qimmatli xotiralari, yozib qoldirgan daftarlari, aytib bergen so'zları orqali o'rganib kelingan edi.

Xiva xonlarining XIX asrga oid arxividagi ba'zi hujjatlarning sovet sharqshunos olimi P.P. Ivanov tomonidan birinchi marta e'lon qilinishi Xivaning tarixini to'laroq ochib berishga imkon berdi.

Ikkinci jahon urushi arafasida Leningraddan Xiva xonlarining XIX asrga doir arxivlari topilgan. Turkmanistonda ko'p miqdorda yozma yodgorliklar borligi aniqlangan. Biroq, yuqorida aytib o'tilgan arxiv hujjatlarining birontasi hali shu vaqtgacha ilmiy istifodaga kiritilmagan edi.

Xiva haqida yozilgan va turli mamlakatlarda bosirb chiqarilgan asarlarda Xivaning o'zida mavjud bo'lgan tarixiy hujjatlardan mutlaqo foydalanilmagan. Rus olimi professor N.I.Veselovskiyning 1877yilda bosilib chiqqan Xiva xonligining tarixiga oid mashhur asari ham asosan sayohatchilarining ta'rifiga asoslanib yozilgan<sup>101</sup>.

1873 yilda rus qo'shnulari Xivaga yurish qilib, uni ishg'ol qiladi. 1973 yil 12-avgustda Gandumiyonda Kaufman bilan Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz) o'rtasida tuzilgan sulh shartlariga ko'ra Xiva Rossiyaning vassaliga aylanadi. Shundan keyin Xiva xonligi hujjatlari Peterburgga olib ketilgan, biroq keyinchalik unutib yuborilgan edi. Ushbu hujjatlar olimlarning harakatlari tufayli O'zbekistonga

<sup>100</sup> Йўлдошев М.Й. XIX asr Xiva davlat xujjatlari. –Т.: Фан, 1960. –8.

<sup>101</sup> Йўлдошев М.Й. XIX asr Xiva davlat xujjatlari. –Т.: Фан, 1960. –Б. 9.

qaytarib olib kelingan bo‘lib, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining I-125 fondida saqlanmoqda. Xiva xoni arxiv hujjatlarining topilishi va ilmiy jamoatchilikka e’lon qilinishida sharqshunos P.P.Ivanovning xizmatlari katta. P.P.Ivanov 1936yilda Leningraddagi M.E.Saltikov-Shchedrin nomli kutubxonadagi qo‘lyozma bo‘limining ro‘yxatga olinmagan fondlaridan Xiva xoni arxiv hujjatlarini topib, Xiva tarixiga oid tadqiqotlarning manba doirasini kengaytirishga muvaffaq bo‘lgan. U birinchi bo‘lib olimlar e’tiborini arxivga jalb qildi va topilgan materiallarni tizimga soldi<sup>102</sup>. M.E.Saltikov-Shchedrin nomli ommaviy kutubxonada bu noyob arxivning faqat bir qismigina saqlanib qolgan. Ko‘pgina hujjatlar esa sobiq Osiyo muzeyi, hozirgi Rossiya FA Sankt-Peterburg qo‘lyozmalar instituti fondlaridan topilgan. P.P.Ivanov o‘z asarida daftarlarning mazmunini qisqacha bayon qilib bera olgan va sharqshunoslik ilmiga g‘oyat katta xizmat ko‘rsatgan. Lekin P.P.Ivanovning bevaqt vafoti natijasida bu ish to‘xtab qolgan. Undan keyin Xiva xonlari arxivi bilan M.Y.Yo‘ldashev shug‘ullangan va mehnatlari samarasi natijasida “XIX asr Xiva davlat hujjatlari” nomli asar yaratilgan<sup>103</sup>.

1948 yilda Xiva arxivining hech kimga ma’lum bo‘lmagan yana bir qancha noyob daftarlari topildi. Bular xalq kutubxonasida P.P.Ivanov tomonidan topilgan kolleksiyani ancha to‘ldirdi va uning ahamiyatini yanada oshirdi.

Shunday qilib, umumiylajmi 333 daftar, 11.000 varaqdan ortiq bo‘lgan qimmatli arxiv fan tasarrufiga kirib keldi.

Birinchi marta to‘la-to‘kis o‘rganilayotgan Xiva xonlarining arxivni Xivaning o‘tmishi haqida ko‘p yangi va muhim ma’lumotlar beradi. Bu arxiv xonlikning iqtisodini, ijtimoiy va davlat tuzilishini, harbiy kuchini, urf-odatlarini, madaniyatini va hokazolarni mukammal yoritib beradi. Arxivda uzoq vaqt davomida Xiva xonlari hokimiyati ostida bo‘lgan Turkmaniston, Qoraqalpog‘iston va Qozog‘istonning bir qismi tarixiga oid juda ko‘p materiallar bor. Arxiv hujjatlari O‘rta Osiyoning Rossiya bilangina emas, balki Eron, Hindiston va boshqa qo‘shni mamlakatar bilan qilgan aloqalarining ham muhim tomonlarini o‘z

<sup>102</sup> Алимов И. Архившунослик. –Т.: Шарқ, 1997. –Б. 14.

<sup>103</sup> Йўлдошев М.Й. XIX аср Хива давлат хужжатлар. –Т.: Фан, 1960. –Б. 10.

ichiga olgan. Arxiv materiallaridan ma'lum bo'lishicha, Xivada XIX asrning o'rtalarida agrar mulkchilik tizimi hukmron bo'lib, asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lган yerning 9/10 qismidan ko'prog'i yirik yer egalarining qo'lida bo'lган<sup>104</sup>. Asosiy dehqon omma zahkash, qurg'oq yerkarda dehqonchilik qilar edi. Yirik zamindorlar hosildor yerkarda, yaylovlarda, suv manbalariga egalik qilganlar, sug'orish shaxobchalari ham ularga qarashli bo'lган.

Arxiv daftarlari orasida saroy xarajatlarini ko'rsatuvchi juda ko'p hujjatlar bor. Bu hujjatlar xon byudjeti qanday sarflanganligini aniq qilib ko'rsatadi, chunki daftarga arzimagan mayda xarajatlar ham yozib borilgan; xuddi shu hol bu hujjatlarning ilmiy qimmatini oshirish bilan birga, ularni muhim tarixiy manbara aylantiradi. Saroy xarajatlariga doir materiallarini sinchiklab o'rghanish orqali saroy turmushini, xon boshliq hukmron qatlama axloqi va maishatini ko'rishimiz mumkin. Xarajat daftarlari ma'lumotlar tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida saroy va butun jamiyat hayotida yuz bergan o'zgarishlarni bilib olishga imkon beradi. Xonlik tarixida bo'lib o'tgan biror voqeanning yuz bergan vaqtini aniq aytib berish arxiv materiallarining asl nusxalari topilganiga qadar mumkin bo'lмаган edi. Mazkur arxiv hujjatlarining o'sha davrda tartib bilan yozib borilishi, to'planishi va saqlanishi ham O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati, jumladan, o'zbek xalqining boy va yuksak madaniyati va taraqqiyotidan dalolat beruvchi asosiy va ishonchli omillardan biri hisoblanadi.

Xon va uning a'yonlarining kayf-u safo bilan kechirgan hayoti va byurokratik davlat apparatini ta'min qilish uchun juda katta mablag'lar sarf qilinar edi. Arxiv hujjatlari bu mablag'lar ana shu maqsadlar uchun sarflanganini aniq ko'rsatib beruvchi oynadir<sup>105</sup>.

Daftarlardan biz yuqoridaagi xarajatlardan tashqari, boshqa maqsadlar uchun qilingan, o'ziga xos xarajatlar to'g'risida ham ma'lumotlar olamiz. Masalan;, Xivada o'sha vaqtda hukumat orden va medallari yo'q edi. O'zini ko'rsatgan harbiy va grajdani amaldorlarga mukofot tariqasida pul, yer-suv, chorva yoki qimmatbaho

<sup>104</sup> Йўлдошев М.Й. XIX аср Хива давлат хужжатлари. –Т.: Фан, 1960. –Б. 10.

<sup>105</sup> Йўлдошев М.Й. XIX аср Хива давлат хужжатлари. –Т.: Фан, 1960. –Б. 11.

buyumlar berilar edi, ayrim hollarda mukofot tariqasida pichoqlar ham berilar edi. Ayrim ko‘zga ko‘ringan amaldorlarga faxriy yorliq tariqasida oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kamarlar ham taqdim qilinar edi<sup>106</sup>.

Arxiv hujjatlaridan ma’lum bo‘lishicha, Xivada o‘ldirilgan har bir dushman uchun pul mukofoti berish odat bo‘lib qolgan edi. Lekin dalil sifatida o‘ldirilgan kishining boshini, shilib olingan terisini olib kelib ko‘rsatish shart edi. O‘ldirilgan kishining shilib olingan terisi uchun eng ko‘p mukofot berilgan. Harbiy yurish vaqtida askarlarga davlat tomonidan harbiy yordam ko‘rsatilmas edi. Yaralangan jangchilar o‘z hisoblaridan davolanishlari kerak edi.

Eron, Buxoro singari chet davlatlarga qilingan harbiy yurishlar vaqtida xon navkarlarga maosh to‘lamagan, har bir navkar yurish vaqtida o‘zini-o‘zi ta’minalashi va yurishda qo‘lga kiritgan o‘ljasining 1/5 qismini g‘on sifatida xonga berishi lozim edi.

Arxiv hujjatlaridan ko‘rish mumkinki, xonning davlat apparati tomonidan mehnatkash xalq ommasini talash orqali yig‘ib olingan pullar, xon va uning yaqin kishilari tomonidan faqat kayf-safo va aysh-ishrat qilish uchun sarflangan. Juda zarur jamiyat ehtiyojlariga nihoyatda kam pul sarflangan. Shunisi xarakterlik, xarajat daftarlarida bunday maqsadlar uchun qilingan xarajatlar deyarli uchramaydi<sup>107</sup>.

Xiva xonlarining 1910 yilda qilgan arxiv hujjatlaridan olingan xarajatlarini keltiramiz:

- 1) Saroy xarajatlari - 36.557. tillo.
- 2) Xon hazrati oliylari 945 tillo oldilar.
- 3) Xonning bank orqali qilgan xarajatlari – 4729 tillo.
- 4) Xonning idora (konselyareya)si orqali qilingan xarajatalari – 5000 tillo.
- 5) Ko‘hna Urganchda qilingan xarajatlar – 506 tillo.
- 6) Xonning qo‘sishimcha shaxsiy xarajatlari – 208 tillo.
- 7) Xon posbonlariga shaxsan berilgan pullar – 415 tillo.

<sup>106</sup> Йўлдошев М.Й. XIX аср Хива давлат хужжатлари. –Т.: Фан, 1960. –Б. 12-13.

<sup>107</sup> Йўлдошев М.Й. XIX аср Хива давлат хужжатлари. –Т.: Фан, 1960. –Б. 13.

- 8) Xon uchun Peterburgdan kolyaska olib kelgan ruslarni kutib olish uchun qilingan xarajatlar – 889 tillo.
- 9) Amaldorlarga berilgan pullar – 16 900 tillo.
- 10) Ayrim amaldorlarga berilgan pullar – 90 tillo.
- 11) Mehtar va qushbegining idora xarajatlari – 280 tillo.
- 12) Suv toshqini munosabati bilan qilingan xarajatlar – 1284 tillo.
- 13) Ko‘hna Urganchdagi kanalni qazuvchilarga to‘langan pullar – 1000 tillo<sup>108</sup>.

Ba’zi bir xarajat daftarlardan keltirilgan ayrim varaqalar shuni ko‘rsatadiki, bu daftarlar muhim moliyaviy ahamiyatiga ega bo‘lgan hujjatlardan iborat ekan va ularga bitilgan yozuvlar o‘sha davrdagi Xiva xonligi amaldorlarining qo‘lidan keladigan darajada o‘ziga xos e’tibor bilan olib borilar edi. Ba’zi yozuvlar, amaldorlarga qilingan xarajatlarning miqdori juda katta bo‘lganini, ularni daftarga tirkash mirzalarga man qilinganini ko‘rsatadi (fond 33,8-papkaning 9-varag‘idan)<sup>109</sup>. Arxiv hujjatlarida saroy hayoti va xonlikning ichki turmushi haqidagi ma’lumotlar, yuqori ma’muriy mansabdor shaxslarni almashtirish, yig‘ilishlar va oqsoqollar kengashi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan tashqari xonlikning tashqi siyosiy munosabatlari to‘g‘risida ham, urush harakatlari va boshqalar to‘g‘risida ham ko‘pgina ma’lumotlar bor. 33-fond, 2-papkada xonning oilasiga aloqador kishilarning xarajatlari yozilgan bir necha varaqalar bor. 33-fond, 3-papkada esa olingan zakot to‘g‘risidagi ma’lumotlar muqovasiz holda bog‘lam qilib qo‘yilgan<sup>110</sup>. Boshqa papkada o‘zbek tilida to‘ldirilgan bir necha yuz parcha-parcha qog‘ozlar bor. Bu qog‘ozlardagi ma’lumotlar juda qiziq: machitlarning nomlari, soliq to‘lovchilarning miqdori (har bir masjid bo‘yicha to‘langan umumiyligi soliq miqdori) ko‘rsatiladi. Navkarlar va imomlarning miqdori, ariq qazuvchilarning va boshqa davlat ishlarini bajaruvchilarning soni ko‘rsatilgan. Yana daftarlardan ko‘rish mumkinki, mamlakatda yer solig‘i sifatida xazinaga 40

<sup>108</sup> Йўлдошев М.Й. XIX asr Xiva давлат хужжатлари. –Т.: Фан, 1960. –Б. 14-15.

<sup>109</sup> Алимов И. Архившунослик. –Т.: Шарқ, 1997. –Б. 59.

<sup>110</sup> Алимов И. Архившунослик. –Т.: Шарқ, 1997. –Б. 60.

993 tilla to‘lagan 23 011 xonadon haqida hamda ariq tozalash va qazishga 21 079 kishi berilganligi haqida ham uchratish mumkin. Bu daftardan biz mehtar va qushbegi qancha soliq to‘laganini ko‘ramiz. Bu daftar yana Xiva xonligining ma’muriy tuzilishi to‘g‘risida ham mukammal tushuncha beradi. Butun mamlakat hududida soliq to‘plovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bu daftar muqovasiz, 20 varaqdan iborat, sanasi qo‘yilmagan.

Shunday qilib, Xiva arxiv hujjatlari saroyda yuz bergan voqealar to‘g‘risida, xalq ommasining hayoti to‘g‘risida va xonlikda amaldor tabaqalar haqida aniq bir tushuncha beradi. Bular orasida Xiva xonligida davlat va ma’muriy tuzilish to‘g‘risida, yer egaligi va yer solig‘i to‘g‘risida, zakot va harbiy tuzilish to‘g‘risida, boshqa yurtlarga urush safari qilish to‘g‘risida, hunarmandchilik va savdo-sotiq, qullarning ahvoli haqida, Xiva xonligining Rossiya bilan Buxoro va Qo‘qon xonligi bilan bo‘lgan munosabatlari to‘g‘risida ham materiallar bor. Bu materiallar orasidan biz xonlikda etnografiya, meditsina va boshqa fanlarning naqadar rivojlanganligi to‘g‘risida ma’lumotlarni ham uchratamiz.

Bu hujjatlar Xiva xonligining iqtisodi, ijtimoiy va davlat tuzilishi, harbiy qudrati, madaniyati, maishiy turmushi, axloqi va shu kabilarni aks ettiradi. Arxiv O‘rtta Osiyoning Rossiya bilan, shuningdek Eron , Hindiston va boshqa qo‘shni mamlakatlar bilan munosabatlariga doir muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi<sup>111</sup>.

Xiva xonlari arxivni quyidagi asosiy bo‘limlardan iborat:

- 1) Xiva xonligining davlat va ma’muriy tuzilishi;
- 2) Yer solig‘i va yer egaligi;
- 3) Harbiy tuzilish va harbiy safarlar;
- 4) Zakot to‘plash, hunarmandchilik va savdo-sotiq;
- 5) Dehqonchilik va sug‘orish ishlari;
- 6) Vaqflar va ruhoniylar;
- 7) Xiva xonligidagi qullar;
- 8) Turkmaniston va turkmanlar;

---

<sup>111</sup> Алимов И. Архившунослик. –Т.: Шарқ, 1997. –Б. 67.

- 9) Qoraqalpoqlar;
- 10) Qozoqlar;
- 11) Xivaning Rossiya bilan munosabatlari;
- 12) Xivaning Buxoro va Qo‘qon xonligi bilan munosabatlari to‘g‘risida;
- 13) Xivaning Eron bilan munosabatlari;
- 14) Xivaning Afg‘oniston va Hindiston bilan munosabatlari<sup>112</sup>.

Arxivda filologiya, geografiya, etnografiya, meditsina, gidro’logiya, agronomiya va boshqa bir qancha fanlarga doir ma’lumotlar bor.

Arxiv daftarlari dagi yozuvlarda yerdan olinadigan soliqlar miqdori to‘g‘risidagi daftarlар arxiv materiallarining anchagina qismini tashkil qiladi.

XIX asrning boshlarida Xiva xonligida hujjatlarni saqlash ancha yaxshi yo‘lga qo‘yilgan edi.

1830-1832yillarda Toshhovli saroyini qurgan Olloqulixon davlat arxiv daftarlariini saqlashga alohida e’tibor bergen. Toshhovlida hujjatlar saqlanadigan maxsus joylar qurilgan edi<sup>113</sup>.

Tarixchilarining bergan ma’lumotlariga qaraganda, saroydagi arxiv hujjatlari xazina bilan bir qatorda alohida binoda juda ehtiyyotkorlik bilan maxfiy holda saqlangan. Arxiv hujjatlarini nazorat qilib turish uchun alohida kishilar ajratilgan.

Xarajat daftarlaringin ayrim guruhlari o‘z muqovasining hajmi, rangi, formati jihatidan boshqa guruhdagi daftarlardan ajralib turgan. Masalan, soliq daftarlari charm muqovali bo‘lib, ularning hajmi oddiy yozuv qog‘ozining 1/8 qismiga to‘g‘ri keladi. Saroy xarajatlari yozilgan barcha daftarlari karton muqovali bo‘lib, formati yozuv qog‘oziga barobardir. Bir joydan ikkinchi joyga olib yuriladigan daftarlarga pishiq muqova qilingan. Xonlikning maxfiy xarajatlari yozilgan, faqat saroyning o‘zida saqlanadigan daftarlarning muqovalari oddiy kartondan qilingan. Shunday qilib, arxiv daftarlaringin tashqi ko‘rinishi muayyan maqsadga, xon saroysi ma’muriyatining amaliy talabiga muvofiq ravishda ishlangan<sup>114</sup>.

---

<sup>112</sup> Алимов И. Архившунослик. –Т.: Шарқ, 1997. –Б. 67.

<sup>113</sup> Йўлдошев М.Г. XIX аср Хива давлат хужжатлари. –Т.: Фан, 1960. –Б. 18.

<sup>114</sup> Йўлдошев М.Г. XIX аср Хива давлат хужжатлари. –Т.: Фан, 1960. –Б. 19.

Xulosa qilib aytganda, Xiva xonligi qozilik arxivining topilib, o‘rganilishi nafaqat Xiva tarixini, balki O‘rta Osiyo tarixini yoritishda ham katta ahamiyatga ega. Ushbu arxiv hujjatlar o‘sha davr Xiva tarixi, xo‘jaligi, davlat boshqaruv shakli, podshohlari, madaniyati haqida ma’lumot bera oladigan muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

#### **8.4. Qo‘qon xonligi arxivi**

1939yilda Sankt Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat ommaviy kutubxonasi yerto‘lasidan Qo‘qon xonlari arxivi hujjatlari topilgan. Bu hujjatlar Qo‘qon xonlarining XIX asr tarixiga taalluqli bo‘lgan. Mazkur hujjatlar Qo‘qon xonligi Rossiya tomonidan egallanganidan so‘ng 1876 yilda imperatorning Markaziy kutubxonasiga ko‘chirilgan edi.

Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman buyrug‘i bilan arxiv A.L.Kunga topshirilgan edi. Arxiv hujjarlari Sankt Peterburgga yuborilishidan oldin o‘sha vaqtda Qo‘qon va Toshkentda bo‘lgan N.N.Pantusov tanishib chiqqan edi. U Qoqon arxiv hijjatlari to‘g‘risidagi qisqacha xabarni “Qo‘qon xonlarining arxivi” nomli maqolasida e’lon qildi va bu nashr “Туркестанские ведомости” gazetasining 1876 yildagi 12-sonidan joy oldi.

N.N.Pantusovning yozishicha, arxivda muhim hisoblangan statistik ma’lumotlar, ya’ni masjid va madrasalarning vaqf yer egaligi, soliqqa tortish va soliq solish, soliqdan ozod qilingan shaxslar, harbiy ishlar (quro’l turlarining ro‘yxati, quro’l quyish xarajatlarining ro‘yxati, harbiy xizmatdan qochganlarning ro‘yxati), harbiylarning va boshliqlarning xarajatlari va daromadlarining ro‘yxati, xon qabul qilgan sovg‘alarning ro‘yxati va boshqalar mingga yaqin “daftarlar”da saqlanib qolgan. N.N.Pantusov yana shuni ta’kidlaydiki, 1875 yil Qo‘qon xonligida bo‘lib o‘tgan g‘alayon tufayli arxivning ko‘pgina qismi Qo‘qonning sobiq amaldorlari tomonidan o‘g‘irlangan, hujjatlar aralashib, ayrim qismlari shikastlangan, buzilgan, ko‘p o‘ramlarning boshi va oxiri yo‘qolgan. Markaziy davlat kutubxonasida bor yo‘g‘i 151 o‘ram bo‘lgan. Ehtimol o‘ramlar to‘liq Sankt Peterburgga yetib kelmagan. ularning ko‘p qismi muhim material sifatida Qo‘qon xonligida tuzilgan, (ma’muriy

tuzilma) Toshkentda qoldirilgan, unda xonlikning birinchi davrining soliqlari va ish beruvchilarning sistemasi bo‘lgan.

Qo‘qon xonlarining arxivi uzoq vaqtgacha tadqiqotchilarga ma’lum bo‘lmagan. Nihoyat, 1939 yil Qo‘qon xonlarining arxivini saralash paytida P.P.Ivanov hujjatlarning muhim miqdori tojik tilidagi, kelib chiqishi Qo‘qon arxividan bo‘lganligini eslatib o‘tadi. 1951 yilda esa M.Yu.Yuldashev ta’kidlaydiki: “Arxiv hujjatlarini saralash paytida Markaziy kutubxonada shuni aniqladikki, Xiva xonlarining arxivi qatorida Qo‘qon xonlarining mashhur arxivi ham bor edi...”<sup>115</sup>.

Qo‘qon xonlari arxivi 1962 yilda O‘z SSR arxiv boshqarmasiga jo‘natilgan, arxiv hujjatlarining mikrofilmlari Leningradda M.E.Saltikov-Shchedrin nomli davlat kutubxonasida va SSSR FA Osiyo xalqlari instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. A.L.Troitskaya tomonidan Qo‘qon xonlari arxivi katalogi tuzilgan va 1968 yilda nashr qilingan<sup>116</sup>. Katalogda 5 ming atrofidagi hujjatlar jamlangan. Hujjatlar asosan XIX asrning 40-70yillariga taalluqli bo‘lib, ularda xonlikning bu davrdagi xo‘jalik hayoti aks etgan. Katalog sistemali tartibda bo‘limlarga bo‘lingan, ismlar va geografik nomlar ko‘rsatkichlari hamda atamalar izohlari bilan ta’minlangan.

Arxivni saralash va qayta ishlash 1952 yilda boshlangan. Arxiv nihoyatda achinarli ahvolda edi. Faqat ayrim muhrlangan to‘plamlardan tashqari barcha hujjatlar aralashib ketgan, ehtimol hujjatlar holda xon xazinasida shunday saqlangan. Ayrim hujjatlar g‘ijim bo‘lgan, ayrimlari yirtilgan, ayrimlari esa zinch taxlanib ipdan o‘tkazilgan, (hujjat saqlashning bir turi) ayrimlari kir bo‘lib ketgan.

Hujjatlarni qayta tiklab, uni tozalash Markaziy kutubxonaning qayta tiklash bo‘limi xodimi Ye.X.Trey va uning yordamchisiga topshirilgan. Bu ish ikki yil davom etgan (5026 varaq). So‘ng ularni saralab, tartibga solish va tavsiflash kerak edi.

---

<sup>115</sup> М.Ю.Юлдашев, Новый архивный источник по истории Средней Азии. – Краткие сообщения института востоковедения АН СССР. № 1, 1951, –С. 37.

<sup>116</sup> Троицкая А.Л. Каталог архива кокандских ханов XIX века. М., Наука. 1968.

Arxiv hujjatlarini saralab tartibga solish paytida uning xronologik chegarasi aniqlangan. Hujjatlarning aksariyat qismi Xudoyorxon hukmronligining uchinchi davriga to‘g‘ri keladi, ya’ni 1866-1875yillar. (Xudoyorxon 1845-1858, 1862-1863, 1866-1875 yillarda davlatni uch marotaba qayta idora qilgan). Xuddi shu xronologik sanalarni N.N.Pantusov yuqorida ta’kidlab o‘tgan.

Arxiv hujjatlarini sinchiklab tekshirilgan paytda yana shu ma’lum bo‘ldiki, hujjatlarda Sheralixonning (1842-1845) hukmronlik yillari, Xudoyorxonning otasi, Mallaxonning (1858-1862) hukmronlik yillari va Xudoyorxonning tutingan akasi haqida ma’lumotlar topilgan. Hujjatlarning asosiy qismi 1860 yillar boshi va 70yillarni o‘z ichiga oladi. Hujjatlarning chorak qismi sanalashtirilmagan.

Qo‘qon xonligining ichki va tashqi siyosatini tilga olmagan holda (chunki kam o‘rganilgan) shuni aytish mumkinki, 1845-1875 yillar eng qiyin siyosiy davr bo‘lgan. Bu davrda Buxoro amirligi bilan urush olib borilgan, xonlik mustaqilligiga tahdid solgan Qo‘qon xonligi muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan O‘ratepani bo‘ysundirish uchun ko‘p urinishlar qilgan. Bu davr ichida xonlikni podsholik rus armiyasi egallagan va 1867 yil Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgan. Qo‘on xonligi ko‘pgina viloyatlardan mahrum bo‘ldi. Xonlikda amaldorlar o‘rtasida kuchli nizolar bo‘lgan, har kim xonlik taxtiga o‘z da’vogarligini qo‘yish istagida bo‘lgan, bu esa ikki marta Xudoyorxonning hukmronligiga xalaqit qilgan. Aholi kuchli ekspluatatsiyaga duchor bo‘lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi O‘rta Osiyo xonliklarida tovar-pul munosabatlari kuchaygan, mustaqillikni saqlash uchun Xudoyorxon Rossiya imperiyasining hamma shartlariga ko‘ngan. Rus savdogarlariga Qo‘qon xonligiga katta yo‘l ochib bergen. Bu esa tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga olib kelgan. Yerga xususiy egalik avj olishi va xon o‘z yerlarini kattalashtirishga urinishi kuzatilgan. Xon yerlarni “qo‘riqxona” deb e’lon qilgan va aholiga yerni ijaraga bergen edi. Xonlikning yoqilg‘i manbai hisoblangan cho‘ldagi yantoqlar ham xonning mulki hisoblangan va qo‘riqchilar tomonidan nazorat qilingan. Qishki yaylovlar ko‘chmanchi aholiga ijaraga berilgan. Xudoyorxon har xil yo‘llar bilan o‘z mulkini

ko‘paytirishga uringan, xonlikning qulashi paytida uning mulki 7 mln. rus rublini tashkil qilgan.

Xudoyorxon hukmronligining uchinchi davrida soliq tizimi qayta ishlab chiqilgan. Xon yangi soliqlar joriy qilgan, masalan, o‘rmon solig‘i, nikohdan tushadigan pul va h.k.

Qo‘qon xonlarining arxivi o‘zining mundarijasiga ko‘ra, xo‘jalik hujjatlari hisoblanadi. Unda Xudoyorxonning yer egaligi va yerdan foydalanish, ayniqsa udel qismlarida, xos yerlar yoki mirri xususiy yerlar – mulkiyat, ayniqsa qozilarning xonga yoki bekka yer mulkclarini hal qilish murojaatlari, ko‘chmas mulk egaligi va merosni bo‘lish haqida ko‘plab ma’lumotlar bor.

Yer hadyalari to‘g‘risida ham ma’lumotlar ko‘p. Xiroj solig‘i, uy atrofidagi yerkarda tanobona solig‘i va b. Arxiv materiallariga qarab shuni aniqlash mumkinki, xiroj solig‘ini to‘lashda soliqlardan ozod qilinish shartlari to‘g‘risida ma’lumotlar bor. Undan tashqari soliqlarni kim sarf qilganligi yozilgan (xon, beklar va Marg‘ilon beki Sulton Murod). Qolgan soliqlar va hukumat soliqlari faqatgina ayrim tasodify hujjatlarda saqlanib qolgan. Masalan;; zakot solig‘i shunday tasodify hujjatlarda saqlangan. Bozor soliqlari, merosni taqsimlashdan kelgan pullarni yig‘ish – tarokona yoki tarikana, nikoh shartnomasini tuzish haqida – nikoxona kabi hujjatlar kam saqlangan. Pantusovning aytishicha, bu kabi hujjatlar Qo‘qon xoni qozilik arxivda bo‘lgan, lekin ular muhim statistik material sifatida Toshkentda qoldirilgan.

Arxivda yana harbiy ishlar to‘g‘risida (qo‘shin yig‘ish, harbiylarni taqdirlash, quro’l ishlab chiqarish) ko‘pgina hujjatlar mavjud.

Hujjatlar orasida Xudoyorxonning xususiy xo‘jaligi va xon o‘rdasi to‘g‘risida, qo‘rg‘oshin buloqlar, neft ishlab chiqarish va undan kerosin tayyorlash, xonning g‘isht zavodlari va gugurt ishlab chiqarish to‘g‘risida materiallar bor.

Marg‘ilon beki Sulton Murod to‘g‘risida ham ko‘pgina hujjatlar saqlangan. Masalan, uning xo‘jaligi, uning qasri va qasrni qurish usuli, xizmat qiluvchi odamlari, O‘rda ahli va bekning shaxsiy hayoti. Hujjatlarda uning shaxsiy xo‘jaligi to‘g‘risida ma’lumot yo‘q. Ehtimol, bu nazorat qilinmagan.

Arxiv hujjatlarida Xudoyorxonning (udel yerlari) Qo‘qon yaqinidagi Yer masjid yoki Marg‘ilon bekligiga yaqin deb ataluvchi udel yerlari to‘g‘risida ma’lumot bor.

Arxiv hujjatlarida yana moddiy madaniyat, ya’ni kiyim, mato haqida ma’lumotlar uchraydi. Bu esa etnograflar uchun qiziqarli ma’lumot hisoblanadi. Va nihoyat arxivda deyarli hech kim o‘rganmagan va manbalarda berilmagan O‘rta Osiyoning diplomatik masalalari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar bor. Bu masala kam o‘rganilganligini hisobga olib, katalog tuzuvchilarining birinchi ishi arxivda bor bo‘lgan alohida hujjatlarga qisqacha xarakteristika berishdan iborat bo‘ldi. Bu masalani o‘rganishning qiyinligi shundaki, arxiv hujjatlarida ularning nomlari belgilanmagan va hujjat matnida kamdan kam tilga olingan terminlarni aniqlashga to‘g‘ri keladi. Ko‘pgina hujjatlar tipologik o‘xshashligi asosida analogiya bo‘yicha aniqlangan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Jo‘ybor xo’jalari, amirlik, xonlik, vasiqa, Buxoro Qushbegi arxivi, Xiva qozilik arxivi, P.P.Ivanov, Qo‘qon xonligi arxivi, Ubaydullaxon, Xudoyorxon, Kun, Pantusov, Troitskaya, Chexovich, Yo‘ldoshev, Ahmedov .

Nazorat uchun savollar:

1. Jo‘ybor xo’jalari haqidagi manbalar?
2. Qushbegi arxiv hujjatlarining tarixi va o‘rganilishi.
3. Qushbegi arxiv hujjatlarida Buxoro amirligining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ma’muriy, siyosiy-ijtimoiy ahvolining aks etishi.
4. Xiva xonligi qozilik arxivi?
5. Xiva xonligi qozilik arxivining Xiva hamda butun O‘rta Osiyo tarixini o‘rganishdagi ahamiyati.
6. Qo‘qon xonligi hujjatlari.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**

- Jo 'ybor xo 'jalari arxivi O'rta Osiyo tarixi bo 'yicha muhim manba.*
- Qushbegi arxivi hujjatlari Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy tarixi bo 'yicha muhim manba.*
- Xiva qozilik arxivi hujjatlarida xo 'jalik hayot masalalari.*
- Qo 'qon xonligi arxivi hujjatlari Qo 'qon tarixi bo 'yicha muhim manba.*

### **Adabiyotlar**

1. Is'hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. –Т., 2017.
4. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (Қадимги замон ва ўрта асрлар). –Т.: Ўқитувчи, 2001.
2. Абдуваҳобова М.Р. Қушбеги архивида тарихий топонимлар ва Бухоро амирлигининг маъмурӣ-ҳудудий тизими. Масъул муҳаррир М.Исҳоқов. Тошкент: – 2006.
3. Бобобеков Ҳ.Н. Кўқон тарихи. –Т.: “Фан”, 1996.
5. Йўлдошев М.Й. XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. –Т.: “Фан”, 1960.
4. Мадраимов А. Фузаилова Г. Манбашунослик. Бакалавриат таълим йўналиши талабалари учун дарслик. –Тошкент, 2008.
5. Исҳоқов М., Файзиев Ҳ. Марказий Осиё ҳалқлари тарихи тарихшунослиги ва манбашунослиги. Тошкент: 2017.
6. Йўлдошев М.Й. Хива давлат ҳужжатлари. I-II жиллар. –Т., 1960
6. Абдураимов М.А. “О малоизвестном источнике по истории аграрных отношений в Средней Азии в XVI в. //Журнал “Народы Азии и Африки”. –М., 1968. № 3.
7. Аҳмедов Б.А. “Роль джуйберских ходжей в общественно-политической жизни Средней Азии XVI-XVII веков // Духовенство и политическая жизнь. Сб.статьй. –М., 1985.
8. Бертельс Е.Е. Из архива шейхов джуйбари. –М., Л.: 1938.
9. Документы к истории аграрных отношений в Бухарском ханстве. Выпуск I. Акты феодальной собственности на землю XVII-XIX вв.

- Подбор документов, перевод, введение и примечания О.Д.Чеховича, под редакцией А.К.Арендса. –Т., 1954.
10. Иванов П.П. Хозяйство джуйберских шейхов. –М., –Л., 1954.
11. Мухамаджонов А.Р. Населенные пункты Бухарского эмирата. -Т., 2001.
12. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История. Составители Д.Ю.Юсупова, Р.П.Джалилова. –Т., 1998.
13. Троицкая Л.А. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. –М., 1968.
14. Чехович О.Д. Бухарские поземельные акты XVI-XIX вв. //Проблемы востоковедения, ИВ. –М., 1955.
7. ЦГА УзССР. Ф. И-323, оп. 1, № 1429.
8. Центральный государственный архив Узбекистана //Каталог. –Т., 1975.
15. Центральный государственный исторический архив УзССР. Путеводитель. –Т., 1948.
16. Юлдашев М.Й. “Новые данные о хозяйстве джуйберских шейхов” //Журнал ОНУ, 1963.

### **III BO‘LIM. XIX ASR SO’NGGI CHORAGI VA XXI ASR BOSHLARIDA**

#### **O‘ZBEKISTONDA ARXIV ISHI**

##### **§ 9. Turkiston o‘lkasi mustamlaka davri arxivisi**

**(XIX asr oxiri – XX asr boshlari)**

###### **9.1. O‘rta Osiyoda Rossiya bosqini davrigacha arxiv ishi**

Rossiya tomonidan O‘rta Osiyo hududi bosib olinmasdan avval xonliklarda davlat va shaxsiy arxivlar umuman bo‘lmagan, degan sayoz fikrlar mavjud edi. Hattoki bunday fikrlarni Rossianing yetuk tarixchilari V.V.Bartold, A.A.Semenov, V.A.Vyatkinlar ham targ‘ib qilishgan edilar.

Sovet hukumati O‘rta Osiyo xonliklarida shaxsiy va davlat arxivlari mavjud bo‘lganmi yoki yo‘qligi bilan qiziqqan. Shu kabi masalalarni aniqlash maqsadida o‘lkaga maktublar jo‘natgan. A.A.Semenov 1922-yilda RSFSR Markaziy Arxivi vakili, Turkiston Respublikasi Arxivlar boshqarmasining boshlig‘ining so‘roviga ko‘ra quyidagicha javob yozgan: “Sizning O‘rta Osiyoda eski arxivlar bor, yo‘qligi to‘g‘risidagi so‘rovingizga shuni ma’lum qilamanki, bu yerda bunday arxivlar bo‘lmagan. Umuman musulmon Sharqi va shu qatorda Turkiston bizning tushunchamiz bo‘yicha arxivlarni hech qachon bilmagan, chunki bu yerda devonxona qoidalari umuman o‘zgacha”. V.Vyatkin ham o‘scha so‘rovga quyidgilarni ma’lum qilgan: “Siz mendan xat orqali Turkistonni ruslar bosib olishi paytida bu yerda shaxsiy va boshqa arxivlar bor, yo‘qligini so‘rasangiz, men bu masala bilan ilgari ham shug‘ullanganman va ma’lumotlar to‘plaganman. Shu ma’lum bo‘ldiki, o‘lkada hech qanday shaxsiy arxivlar bo‘lmagan, bundan tashqari davlatga qarashli arxivlar va qog‘ozlar ombori ham bo‘lmagan. “Туркестанские ведомости” gazetasining 1873-yil 50-sonidagi musulmon xonliklarida “Davlat arxivlari yoki boshqa bu kabi omborlar yo‘qligi” ni ta’kidlaydi. Bu kabi fikrlar bilan kelishib bo‘lmaydi.

Ma’lumki, O‘rta Osiyo xonliklari Eron, Hindiston hukmdorlari bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan, ular o‘rtasida yozishmalar amalga oshirilgan. Hattoki xonlar, amirlar, beklar, amaldorlar o‘rtasida ham ko‘p masalalar bo‘yicha ma’muriy xat almashuvlar olib borilgan. Har bir rasmiy hujjat mansabdar

shaxsning mirzosi tomonidan tuzilib, muhr qo‘yilgan. Jo‘natilayotgan hujjatlarga chiqish raqami qo‘yilgan, ular hech qaerda ro‘yxatdan o‘tkazilmagan va nusxa olinmagan. Xat oluvchi xatni olib o‘sha vaqtdayoq farmoyish bergan. Yoki xatda unga javob qaytargan. Olingan hujjat uni unitishmaguncha saqlangan. Demak, o‘sha davr ish yuritishiga ko‘ra, devonxona hujjatlarni topshirish va qabul qilish bilan shug‘ullangan.

Ma’muriy-huquqiy hujjatlar ham yuritilgan. Bunday hujjatlardan faqatgina vaqf yorliqlari, xon va amir farmonlari, yer solig‘ini hisobga olish uchun kadastr yozuvlari saqlanib qolingan.

Sud ishlari og‘zaki hal qilingan, faqatgina ko‘chmas mulkni oldi-sotdi shartnomalari yozma holatda tuzilgan, lekin ulardan ham nusxa olinmagan, raqamlanmagan va sudlar (qozilarda) da saqlanib qolinmagan. Bundan tashqari, O‘rtta Osiyo xonliklari o‘rtasida sodir bo‘lib turadigan o‘zaro urushlar natijasida ko‘p hujjatlar yo‘qolib ketgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bunday hujjatlarni saqlash uchun hujjat omborxonalariga ehtiyoj sezilmagan ko‘rinadi. Xonlar saroylari devonxonalarida saqlanayotgan hujjatlar rus amaldorlari tomonidan tashib ketilgan, keyinchalik bu qimmatbaho, nodir hujjatlar kolleksiya sifatida, sovg‘a sifatida muzey va kutubxonalarga topshirilgan, hatto chet ellarga sotib yuborilgan.

Bizning kunimizga kelib, Rossiya tomonidan Xiva va Qo‘qon xonliklari va Buxoro amirligi tobe qilinishidan avval, ularning arxivlari to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlar bor.

Chor Rossiyasi Xivani bosib olgandan so‘ng xon saroyidagi moddiy va ma’naviy boyliklar musodara qilingan. Xon saroyini musodora qilishda ishtirok etgan sharqshunos A.L.Kun uch yuzga yaqin qo‘lyozma kitoblarni to‘plagan, har xil hujjatlarni Osiyo muzeyiga ajratdi, qolgan materiallarni general Kaufman Peterburgdagi imperator ommaviy kutubxonasiga sovg‘a qilgan. Ushbu kutubxona va arxivning keyingi taqdiri noma’lum bo‘lib ketgan edi, lekin 1936 yilda sharqshunos P.P.Ivanov Leningraddagi Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat

ommaviy kutubxonasining qo‘lyozmalar bo‘limida qo‘lyozmalar bilan ishlayotganida ro‘yxatga olinmagan hujjatlar ichida o‘zbek va tojik tilidagi hujjatlarni ko‘rib qoladi, hujjatlar Xiva xonligi arxivni ekanligi aniqlangan. Keyinchalik hujjatlarning ma’lum bir qismi Qo‘qon xoni arxiviga tegishli ekanligi aniqlandi. P.P.Ivanov tomonidan jami bo‘lib 120 dona daftar topilgan, bu hujjatlar 1822-1872yillarga taalluqli edi.

Qo‘qon xoni arxivni hujjatlari ozroq edi. Sababi, Xudoyorxon saroyi talon-taroj qilingan vaqtida hujjatlarning aksariyati o‘g‘irlangan, qolganlari Peterburg va Toshkent jamoat kutubxonasi o‘rtasida bo‘lingan.

1931yilda Buxoro arkining yerto‘lasidan tartibsiz yotgan 77764 dona o‘ram topilgan, bu o‘ramlar arab grafikasida tojik tilida yozilgan. Bu materiallar keyinchalik O‘zbekiston Markaziy davlat tarixi arxiviga topshirilgan. Buxoro Amirining Qushbegi arxivni hujjatlari XIX-XX asrning boshlariga tegishli bo‘lib, Rossiya siyosiy agentligi bilan ichki va tashqi siyosiy masalalar bo‘yicha xat almashuvlari, amirlik mansabdor shaxslar ustidan shikoyatlar, yer solig‘i hujjatlari, jinoyatlarni tergov qilish hujjatlari va boshqalardan iborat edi.

## 9.2. Turkiston general-gubernatorligida arxiv ishi

Chor Rossiyasi bosib olgan hududlari hisobidan Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilgan edi. Keyinchalik bu viloyatga beshta Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlari kirgan. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasida ko‘pgina hujjatlar to‘planib qolgan. Hozirda general-gubernatorlik hujjatlari O‘zbekiston Markaziy davlat arxivida I-1 fondida saqlanmoqda. O‘sha paytda Turkistonda davlat yoki tarix arxivlari bo‘lmaganligi sababli ushbu hujjatlar muassasalarning o‘zida saqlangan. Biroq ko‘pchilik tashkilotlarda hujjat saqlash uchun xonalar, maxsus ajratilgan binolar bo‘lmagan. Graf K.K.Palen Turkiston o‘lkasida 1908-1909yillarda taftish o‘tkazib, devonxonalar uchun qurilgan binolarda arxivlarga ajratilgan xonalar kichik ekanligini ta’kidlab o‘tadi, shuningdek ko‘p hujjatlar muassasa rahbarlarining buyrug‘iga asosan yo‘q qilinganligi ko‘rsatiladi.

Rossiya o'lkalarida arxiv hujjatlariga bee'tibor bo'lishgan. Oqibatda hujjatlarning kerakligigi muddati o'tgandan so'ng yo'q qilingan. Rossiya guberniyalarida arxiv hujjatlarini ommaviy ravishda yo'q qilinishiga qarshi kurash maqsadida N.V.Kalachev loyihasi asosida 1884yil guberniya rahbarligida arxiv komissiyasi tuziladi. Bu komissiyalarning asosiy vazifalari arxiv hujjatlarini toplash va saqlanish muddatini aniqlash, ularni shafqatsiz yo'q qilishdan saqlash va muassasalarda toplangan hujjatlarni ko'rib chiqib, ularning ilmiy qiymatini aniqlashdan iborat edi. Lekin komissiya o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajara olmadi, chunki komissiyaga arxivlarga kirish uchun ruxsat berilmagan, ularga faqat yo'q qilish uchun ajratilgan hujjatlarni ko'rib chiqish uchun ruxsat etilgan Mana bunday komissiyalar Turkistonda ham tuzilgan edi.

1899yil 1-aprelda Moskvadagi imperator arxeologlar jamiyatni professor D.N.Samokvasovni ma'rzasiga mulohaza bildirishlari va bir necha savollarga javob berishlarini so'rab barcha arxivlar, arxeograf va olimlar arxiv komissiyalariga murojaat qiladi. Turkistonda arxiv komissiyalari bo'lмагanligi uchun xat arxeologiya xavaskorlari to'garagiga yuborilar edi. Bu hujjatlarga to'garak raisi o'rribosari N.Ostromov: - "Javob uchun ajratilgan vaqt qisqa bo'lганligi sababli javobsiz qoldiradi", - deb yozadi. Demak, qissadan hissa shulki, Turkistonda arxiv ishiga talab darajasida ahamiyat berilmagan, va hattoki, arxivni so'rab qilingan murojaatlar ham javobsiz qoldirilgan.

### 9.3 Turkistonda arxiv ishining tashkil qilinishi

Turkistonda arxiv ishini tashkil qilish va tartibga keltirish uchun faqatgina bir marotaba K.P.Kaufman uringan, u Turkiston general-governatorligi devonxonasi boshlig'iga Toshkentda Markaziy arxiv uchun bino qurish haqida 1873yil oktyabrdan farmoyish bergen. Ma'lumki, Turkiston general-governatorligining siyosiy markazi hisoblangan Toshkentda barcha asosiy ma'muriy va harbiy idoralar joylashgan edi.

Bu markaziy arxivga barcha muassasa va idoralarning tugatilgan ishlari kelib tushishi kerak edi. Kaufman arxivga Toshkent jamoat kutubxonasini ham qo'shishini istar edi. Markaziy arxivni 4 bo'limga bo'lish ko'zda tutilgan:

1. Turkiston general-gubernatorligi bo‘limi hujjatlari;
2. Viloyat boshqaruvi, sud va Toshkent yarmarka komitetining hujjatlari;
3. Turk harbiy okrugining shtabi, Okrug harbiy soveti, topografiya bo‘limi va barcha harbiy bo‘limlar hujjatlari;
4. Sirdaryo viloyat shtati, komendant boshqaruvi, gospital ishlari kelib tushishi kerak edi. Lekin joydagi rahbarlarning bu ishga sovuqqonligi natijasida Kaufmanning bu harakatlari 18-avgust 1876yilda to‘xtatilgan.

Ma’muriy va harbiy hujjatlarga sovuqqonlik bilan munosabatda bo‘linishi, hujjatlarning saqlanish muddati, sharoiti inobatga olinmaganligi oqibatida ko‘pgina hujjatlar izsiz yo‘qolgan.

Shunday qilib aytish mumkinki, Turkiston general-gubernatorligida arxiv hujjatlarini saqlash, butlash va qimmatlilagini ekspertiza qilish hukumat rahbarlarining e’tiboridan chetda qolgan. Shuning uchun muassasalarning ko‘p hujjatlari izsiz yo‘q bo‘lib ketgan. Etib kelganlarini saqlash maqsadida qirilishi boshlangan bino ayrim rahbarlarning mas’uliyatsizligi tufayli to‘xtatilgan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** K.K.Palen, A.L.Kun, P.I.Ivanov, arxiv komissiyasi, Markaziy arxiv, tarixiy arxiv, 1873yil oktyabr farmoyishi,

Nazorat uchun savollar:

1. O‘rta Osiyoda Rossiya bosqini davrigacha arxiv ishi holati.
2. Turkiston general-gubernatorligida arxiv ishining tashkil qilinishi.
3. O‘rta Osiyoning Turkiston general-gubernatorligi davridagi arxivlar faoliyati.
4. Rossiyada N.V.Kalachev loyihasi asosida 1884yil guberniya rahbarligidagi arxiv komissiyasini tuzishdan maqsad.
5. Markaziy arxiv uchun bino qurish haqida 1873yil oktyabrdagi farmoyishda nima uchun Toshkent tanlandi.
6. Turkiston general-gubernatorligining Toshkentda qurilishi mo‘ljallangan Markaziy arxivi bo‘limlari.

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. *Rossiya bosqinidan so‘ng Turkiston o‘lkasida arxivlashtirish masalalari.*
2. *Turkiston general-gubernatorligi arxivi Turkiston o‘lkasi tarixi bo‘yicha muhim manba.*

### **Adabiyotlar**

1. Is’hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. –T., 2017.
2. Алимов И.А. Архившунослик. –Андижон, 2005.
3. Бобоқулов Б. Архив иши назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. – Т., 2011.
4. Раҳимов Ж. Ўзбекистон тарихини ўрганишда архив манбаларидан фойдаланиш. –Т.: “Ўқитувчи”, 1995.
5. Ҳужжатлар. Архив атамалари изоҳли луғати. –Т., 2000.
6. Административное устройство Бухарского эмирата в конце XIX – в начале XX века. –Т., 2001.
7. Справочник по фондам Государственного архива г. Ташкента. Под ред. Остроумовой Д.Г. –Т., 1992.
8. Справочник. Государственные архивы. Т.1,2. Под ред. Ваганова Х.М. и др. –М., 1989.
9. Центральный государственный архив Узбекистана //Каталог. –Т., 1975.
10. Центральный государственный исторический архив УзССР. Путеводитель. –Т., 1948.

## **10-§. O‘zbekistonda arxiv ishi (1917-1991)**

### **10.1. Turkistonda arxiv ishi**

1917yil oktyabr voqealariga qadar hujjatlar har bir idorada va tashkilotning o‘zida saqlangan. Arxivlar tarqoq holda bo‘lib, hujjatlar bir joyda yig‘ilmagan, markazlashmagan edi. Hujjatlarni yig‘ish va saqlash ishiga e’tiborsiz bo‘lingan. Oktyabr to‘ntarishidan keyin Turkiston RSFSR tarkibida avtonom respublika

sifatida faoliyat ko‘rsata boshladi. Rossiya hukumati chiqargan barcha qonunlar va qarorlar Turkiston uchun ham joriy qilingan edi<sup>117</sup>.

1918yil 1-iyunda RSFSR hukumati “Arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish to‘g‘risida” dekret qabul qildi. Dekretning qabul qilinishi barcha tarqoq arxivlarning markazlashishiga zamin yaratdi. Bir yildan so‘ng Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Komiteti (MIK 1919yil 5-noyabrda “Arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Bu qarorga asosan 1917yilga qadar bo‘lgan barcha idoraviy arxivlar tugatildi, arxiv hujjatlari Turkiston Respublikasining Yagona davlat arxiv fondi (YaDAF)ni tashkil qiladi, deb e’lon qilindi. YaDAFn ni boshqarish uchun Turkiston Respublikasi Arxiv ishi bosh boshqarmasi tashkil qilindi. YaDAFga 1917yil 25-oktyabrgacha bo‘lgan barcha hujjatlar topshirilishi kerak edi.

“Arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish to‘g‘risida”gi qarorda arxiv hujjatlarini yo‘q qilish tartibi o‘rnatildi. Davlat idoralari Arxiv ishi bosh boshqarmasi ruxsatisiz o‘z hujjatlarini yo‘q qilish huquqiga ega emas, deb ko‘rsatilgan.

Sovet idoralarida tashkil bo‘lgan hujjatlar YaDAFning tarkibiy qismi deb qayd qilingan. Bu hujjatlarni Arxiv ishi bosh boshqarmasiga nazorat qilib turish topshirilgan. Bu boshqarma Maorif xalq komissarligi huzurida tashkil qilingan.

1919yil 15-noyabrda Turkiston Respublikasi Maorif xalq komissarligi qaroriga binoan Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tuzildi va V.N.Kucherbaev boshqarma boshlig‘i etib tayinlandi.

Tez orada RSFSR Arxiv ishi bosh boshqarmasi (Bosharxiv)dan Toshkentga vakil qilib D.I.Nechkin yuborildi. Turkkomissiya uni Turkiston Respublikasi Arxiv ishi markaziy boshqarmasi boshlig‘i qilib tayinladi. D.I.Nechkin MIKning arxiv to‘g‘risidagi qaroriga o‘zgarishlar kiritdi. Muhim o‘zgarish shu bo‘ldiki, Turkiston Respublikasi arxiv ishi markaziy boshqarmasi boshlig‘i RSFSR Bosharxivi roziligi

---

<sup>117</sup> Ushbu mavzu I.A.Alimov asari asosida yozilgan.

bilan Turkiston Respublikasi Maorif xalq komissarligi qaroriga asosan tayinlanadi deb ko‘rsatildi. Bu bilan Turkiston Respublikasi huquqi, shubhasiz, cheklandi.

Arxiv ishi markaziy boshqarmasi quyidagi bo‘limlardan iborat edi: boshqarma boshlig‘i huzuridagi kengash, ish boshqarmasi, ilmiy statistika bo‘limi, inspeksiya, tahririyat kengashi, davlat arxivlari bo‘limi.

Kengash maslahat organi bo‘lib, bo‘limlar rejalari, hisobotlarini eshitgan, ularning faoliyatini yo‘naltirib turgan, ilmiy, metodik ishlarni tasdiqlagan va arxiv to‘g‘risidagi qonuniy hujjatlar loyihalarini ko‘rib chiqish bilan shug‘ullangan.

Inspeksiya davlat tashkilotlari ish yuritishini va arxivlari ishini nazorat qilgan.

Ilmiy statistika bo‘limi arxivlar haqidagi ma’lumotlar yig‘ish va metodik qo‘llanmalar tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘lgan.

YaDAF 8 ta **sektsiya** va 4 bo‘limdan iborat bo‘lgan. Bo‘limlar quyidagilardan iborat bo‘lgan:

1-bo‘lim – ma’muriy-diplomatik, yuridik sektsiyalarini birlashtirgan;

2-bo‘lim – harbiy sektsiya;

3-bo‘lim – maorif va iqtisodiyot sektsiyalar;

4-bo‘lim – tarixiy-inqilobi, sharq va matbuot sektsiyalaridan iborat bo‘lgan.

Davlat arxivi fondiga faqat 1917 yildan oldingi tashkilotlar arxiv hujjatlarigina emas, balki sovet tashkilotlari arxiv hujjatlari ham qabul qilingan. Tashkilotlarda hujjatlar 5 yil saqlanishi va keyin davlat arxiviga topshirilishi belgilangan. Bu qoida 1921 yil 30- sentyabrdan kuchga kirgan.

Joylarda viloyat arxiv bo‘limlari tashkil qilindi. Masalan; 1920 yil martida – Farg‘onada, 1920yil iyunda – Samarqandda, o‘sha yil noyabrda – Yettisuvda, 1921yil martda – Kaspiy orti viloyatida ana shunday arxiv bo‘limlari tashkil qilindi.

Mahalliy arxiv tashkilotlari Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti (XKS)ning 1921yil 25-yanvardagi “Viloyat arxiv fondlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan qonuniy jihatdan rasmiylashdi. Bu qarorga ko‘ra, viloyat hududidagi barcha

idoralarning ish yuritish hujjatlari viloyat davlat arxivining fondining tarkibiy qismi hisoblanadi, deb ko'rsatilgan.

Markaziy va mahalliy arxiv tashkilotlarining muhim vazifasi arxiv hujjatlarini qidirib topish va yig'ish edi. 1920-1921 yillari 500 dan ortiq fondlar hisobga olindi. 1921yil oxirigacha davlat arxiv fondlariga 157 ta harbiy va fuqaro tashkilotlari 305 mingdan ortiq yig'majildlarni topshirdilar. 1922 yili 83 ta tashkilot tomonidan 200 mingga yaqin yig'ma jild topshirildi.

Turkiston Respublikasi XKSning 1921yil 25-yanvardagi qaroriga binoan arxivlarda qo'lyozma hujjatlarga emas, balki nashr qilingan materiallar va foto hujjatlar ham yig'ila boshlandi (varaqlar, xitobnomalar, tarixiy kitoblar va risolalar). Arxiv hujjatlarini saqlash choralari ko'rildi. Hukumatning 1921 yil 23-iyundagi buyrug'i bilan hujjatlarni yo'q qilish man qilindi.

Arxiv tashkilotlari hujjatlarni qabul qilish bilan birga ularni tartibga keltirish ishlari hamda arxiv hujjatlaridan foydalanishni tashkil qilish, ularni bayon qilish bilan shug'ullanildilar. Arxiv hujjatlari ro'yxatini tuzishdan oldin bu hujjatlar kerak va keraksizlarga ajratilib, ilmiy, amaliy ahamiyati borlarini doimiy saqlash, bunday qimmatga ega bo'limganlarini yo'q qilish belgilandi, ya'ni arxiv materiallarining o'ziga xos ekspertizasi o'tkazildi. Bu masala bo'yicha Turkiston respublikasi XKSning 1923 yil 25-yanvardagi "Arxiv hujjatlarini saqlash va yo'q qilish to'g'risida"gi qarorida yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar berildi.

Ushbu qororda arxiv hujjatlarining yo'q qilishni quyidagi tartibi o'rnatilgan edi: arxiv hujjatlari tarkibidan yo'q qilinadigan hujjatlarni ajratish uchun Ajratish komissiyalari tuzilib, ularga Arxiv boshqarmasi va arxivi tekshirilayotgan idora vakillari kiritilishi belgilangan. Bu komissiya qororini Arxiv ishi Markaziy boshqarmasi huzuridagi Tekshirish komissiyasi ko'rib chiqib, o'z xulosasini Boshqarma boshlig'i tasdig'iga havola qilardi. Shunday qilib, tashkilotlar hujjatlarini yo'q qilish huquqi arxiv idorasiga – Arxiv ishi Bosh boshqarmasiga topshirildi. Davlat tashkilotlari uning ruxsatisiz arxiv hujjatlarini yo'q qilish

huquqiga ega emas edi. Arxiv xodimlari hujjatlarni yo‘q qilishga juda ehtiyotkorlik bilan yondashishardi.

YaDAF tarkibidagi arxiv hujjatlari ekspertiza qilinib, doimiy saqlash uchun ajratilgan hujjatlar tartibga solindi va ro‘yxatlashtirildi. 1920-1922yillarda YaDAFdagi 150 mingga yaqin hujjatlar ro‘yxatga olingan. 1924yilga kelib butun saqlanayotgan arxiv materiallarining uchdan bir qismi tartibga solingan edi.

Arxiv hujjatlarini tartibga solish ulardan ilmiy va amaliy maqsadda foydalanish imkonini berdi. Arxivning ilmiy xodimlari bir necha ilmiy ishlar tayyorlashdi. Masalan; A.A.Galperin “1918yil martda Kolesovning Buxoroga yurishi” asarini yozgan edi.

## **10.2. O‘zbekistonda arxiv ishining tashkil qilinishi (1925-1940 y.y.)**

1924 yilda O‘rta Osiyo respublikalari (Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalari)da milliy-hudidiy chegaralanishi o‘tkazilishi natijasida respublikalar tashkil qilindi. Arxiv hujjatlari yangi tuzilgan respublikalar o‘rtasida quyidagi tartibda bo‘lindi. O‘rta Osiyo va ittifoq ahamiyatiga ega bo‘lgan arxiv fondlari O‘rta Osiyo Markaziy davlat arxivida – Toshkentda saqlanadigan bo‘ldi. Har bir respublikaga oid arxiv fondlari shu respublikaga beriladigan bo‘ldi. Turkiston Respublikasining Yagona davlat arxivi fondi shu tarzda bo‘linib ketdi.

1924 yil 28-dekabrda maxsus qaror bilan O‘zSSR MITK huzurida O‘zSSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tashkil qilindi. O‘zbekiston hududida tashkil topgan barcha viloyat arxiv fondlari O‘zSSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasiga topshirildi. Shuningdek, O‘rta Osiyo ahamiyatiga ega bo‘lgan arxiv fondlari ham O‘rta Osiyo markaziy davlat arxivini tuzilmaganligi uchun O‘zbekiston arxiv boshqarmasiga topshirildi, chunki ushbu O‘rta Osiyo arxiv fondlari Toshkentda vujudga kelgan edi. Shunday qilib, O‘zSSR arxivida faqat respublika tarixiga oid hujjatlarga emas, balki butun O‘rta Osiyo tarixiga doir materiallar saqlana boshladi. O‘zSSR MIK va XKSning 1925 yil 22-iyul qarori bilan “O‘zSSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi. Bu nizomga ko‘ra, respublikada Yagona davlat arxiv fondi (YaDAF) tashkil qilindi. Bu fondga

hukumat, savdo, sanoat, kooperativ, kasaba uyushmalari tashkilotlari arxivlari, shuningdek diniy va shaxsiy arxivlar kiritildi, deb ko'rsatildi. Viloyatlarda viloyat arxiv byuro'lari (1925 yilda -Farg'ona, Samarqand, Toshkent, Zarafshon, 1926yilda – Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo) tashkil qilindi.

O'rta Osiyoda milliy hududiy chegaralanish o'tkazilishi natijasida va Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarining tugatilishi munosabati bilan bu respublikalar davlat idoralari arxiv materiallarini qabul qilish, ularni respublika poytaxti Samarqandga olib borib topshirdilar. 1925 yil yanvar oyining o'zida Arxiv ishi markaziy boshqarmasiga 50 mingga yaqin saqlov birligidagi arxiv materiallari topshirildi. Davlat arxivlarini arxiv materiallari bilan butlash ishlari olib borilishi barobarida 1925-1929 yillarda 134 ta arxiv fondi qabul qilindi. 1929 yili Arxiv ishi markaziy boshqarmasi 863 ta arxiv fondi va 764 ming yig'ma jild qabul qilgan. Viloyatlar arxivlarida 924 ta arxiv fondi va 994 ming yig'ma jild saqlangan.

1930 yil 9-apreldagi O'zSSR MIK Prezidiumi qarori bilan O'zSSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasi O'zSSR Markaziy arxiv boshqarmasi deb o'zgartirildi.

Sovet davri arxivlarining ko'payib borishi bilan SSSR MIK va XKS qarori asosida 1929 yil aprelda Davlat arxiv fondi kelib chiqishi bo'yicha inqilobgacha va sovet davri arxiv fondlariga hamda ahamiyati bo'yicha markaziy va mahalliy arxiv fondlariga bo'lindi.

1931 yil 20-mayda O'zSSR MIK O'zSSR Markaziy arxiv boshqarmasi va uning mahalliy idoralari to'g'risida nizom haqida qaror qabul qildi.

O'zSSR Markaziy arxiv boshqarmasi huzurida O'zSSR Oktyabr inqilobi markaziy davlat arxivisi va Markaziy davlat tarix arxivisi tashkil qilindi.

1934 yil iyulida SSSR MIK qarori bilan O'zbekiston Markaziy arxiv boshqarmasi tarkibida O'zbekiston harbiy arxivisi tashkil qilindi. 1945 yilda bu arxiv tugatildi va barcha arxiv fondlari Moskvadagi SSSR Qizil Armiya markaziy davlat arxiviga topshirildi.

1939 yili respublika arxiv tashkilotlari O'zSSR MIK huzuridan O'zSSR ichki ishlar xalq komissariati (IIXK - NKVD) qaramog'iga o'tkazildi. Shu munosabat bilan

O‘zSSR Markaziy arxiv boshqarmasi o‘rniga O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissariati Arxiv bo‘limi tashkil qilindi.

Arxiv ishlarini takomillashtirish sari qo‘yilgan qadamlar natijasida 1936 yilga kelib respublika arxivlarida 1534 ta arxiv fondlari va **1 mln 001 ming** 680 saqlov birligida hujjatlar saqlanardi. 1941 yilga kelib fondlar soni 4116 taga yetdi, hujjatlar esa, **1 mln 580 ming 450** saqlov birligidan oshib ketdi.

Urush yillarining og‘ir damlariga qaramay respublika hukumati arxiv ishini yaxshilash sohasida ancha ishlarni amalga oshirdi. O‘zSSR XKSning 1943yil 18-fevral qarori bilan O‘zSSR kino-foto-fono-hujjatlar markaziy davlat arxivni tashkil qilindi.

### 10.3. O‘zbekistonda arxiv ishi (1940-1990 y.y.)

Arxivlarni hujjatlar bilan butlash ishlari davom ettirildi. 1941-1942 yillarda respublika davlat arxivlariga 0,5 (yarim) million saqlov birligida hujjatlar qabul qilindi. 1944-1945 yillarda esa 48 ming saqlov birligida hujjatlar qabul qilindi. Lekin hujjatlarni tartibga solish ishlari ancha sust edi. Urushdan keyingi yillarda mavjud arxiv fondlarini tartibga solish sohasida anchagina ishlar qilindi. 1945-1951 yillarda 280 mingga yaqin saqlov birligi tartibga keltirildi. O‘zSSR Markaziy davlat tarix arxivining ko‘rsatkichi tayyorlandi va O‘zSSR Oktyabr inqilobi markaziy davlat arxivni ko‘rsatkichi ustida ish boshlandi. Bundan tashqari, 10 dan ortiq arxiv fondlarining sharhi-axborotnomasi tuzildi, tematik sharhlar yozildi.

1963 yil 14-oktyabrdagi O‘zSSR Ministrlar Soveti “O‘zSSRda arxiv ishini yaxshilash tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Bu qaror idoraviy arxivlar, ya’ni tashkilotlar arxivlari ishlarni yaxshilashda muhim ro’l o‘ynadi. Unga ko‘ra, idora arxivlarini 2-3 yil ichida tartibga solishni tugatish, doimiy saqlanadigan hujjatlarni davlat arxivlariga topshirish, arxivlarning o‘zini esa, hujjatlarini beshikast saqlashga yaraydigan binolarga joylashtirish va ularni malakali kadrlar bilan ta’minlash keng yo‘lga qo‘yildi. 1964 yili MDAga yangi bino qurilib foydalananishga topshirildi. 1970 yili O‘zSSR kino-foto-fono-hujjatlar MDAga maxsus bino qurib berildi.

Davlat arxivlariga hujjatlarni qabul qilish sohasida ham anchagina ishlar qilindi. 1946-1955yillarda 600 mingdan ortiq saqlov birligidagi hujjatlar vazirliklar, idoralar arxivlaridan qabul qilindi.

Ministrler Sovetining 1961 yil 9-maydagi qarori bilan O‘zbekiston Ichki ishlar ministrligining arxiv boshqarmasi O‘zbekiston Ministrler Soveti huzuridagi Arxiv boshqarmasi deb qayta tashkil qilindi. Shu qaror asosida mahalliy arxiv tashkilotlari Qaraqalpog‘iston ASSR Ministrler Soveti va viloyatlar ijroiya qo‘mitalari Arxiv bo‘limlari qilib qayta tashkil qilindi. Arxiv tashkilotlarini Ministrler Soveti va viloyatlar ijroiya qo‘mitalari ixtiyoriga o‘tkazilishi ularni davlat apparati tuzimidagi ro’lini orttirdi va arxiv ishi taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi.

Arxiv tashkilotlari hujjatlar qimmatdorligini ekspertiza qilishga va ular bilan davlat arxivlarini butlashga katta e’tibor qaratdi. Respublika davlat arxivlari hujjatlari qabul qilinadigan va qabul qilinmaydigan tashkilotlar, muassasalar, korxonalarning ro‘yxatlarini tuzib chiqdilar, endilikda shu ro‘yxat asosida davlat arxivlariga hujjatlarni qabul qiladigan bo‘ldilar. Davlat arxivlarining ekspert tekshiruv komissiya (ETK) lari vazifalari tubdan o‘zgardi.

1986-1990yillarda davlat arxivlarini butlash sohasida ancha ish amalga oshirildi. 1990 yilda arxivlarni butlash manbalari soni respublika bo‘yicha 9576 taga yetdi. 1986-1990 yillarda respublika davlat arxivlari saqlovida 635 ming doimiy saqlanadigan yig‘majildlar qabul qilindi.

1962 yilda Toshkentda O‘zbekiston meditsina hujjatlari markaziy davlat arxivi tashkil qilindi. 1990 yilda respublika arxiv tashkilotlari shaxobchalari O‘zSSR Ministrler Soveti huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ministrler Soveti huzuridagi Arxiv boshqarmasi, 11 viloyatlar ijroiya qo‘mitalari aroxiv bo‘limlari, 3 ta markaziy davlat arxivlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, 11 viloyatlar arxivlari, 40 dan ortiq viloyatlar davlat arxivlari filiallaridan iborat edi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** YaDAF, Bosharxiv, kino-foto-fono-hujjatlar, ekspert tekshiruv komissiya (ETK), “O‘zarxiv”, ilmiy-ma’lumot apparati (IMA).

Nazorat uchun savollar:

1. Turkiston Respublikasi Yagona davlat arxiv fondi (YaDAF)ning tashkil etilishi.
2. Arxiv ishi markaziy boshqarmasining tuzilishi.
3. Arxiv ishi markaziy boshqarmasi bo‘limlari.
4. 1924yilda O‘rta Osiyoda milliy-hudidiy chegaralanishning o‘tkazilishi va arxiv ishi.
5. O‘zbekistonda arxiv ishining tashkil qilinishi (1925-130 y.y.).
6. Markaziy va mahalliy arxiv fondlarining tashkil qilinishi.
7. O‘zSSR Oktyabr inqilobi markaziy davlat arxivni va Markaziy davlat tarix arxivining tashkil qilinishi.
8. O‘zbekistonda arxiv ishining tashkil qilinishi (1940-1990 y.y.).

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. *O‘zbekistonda arxiv ishi sohasida amalga oshirilgan tadbirlar (1917-1940 y.y.).*
2. *O‘zbekistonda arxiv ishi sohasida amalga oshirilgan tadbirlar (1940-1990 y.y.).*

### **Adabiyotlar**

1. Is’hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. –T., 2017.
2. Алимов И.А. Архившунослик. –Андижон, 2005.
3. Бобоқулов Б. Архив иши назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. – Т., 2011.
4. T.R.Schellenberg Modern archives. Princihles Techniques. Chicago. 2003.
5. Report on archives in the enlarged European Union Increased archival cooperation in Europe: action plan. Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities, –2005.

6. Archive Principles and Practice. Crown copyright. 2011. P.25.
7. Ҳужжатлар. Архив атамалари изоҳли луғати. –Т., 2000.
8. Азаров А.И., Брежестовская Н.В. Государственные архивы и архивное дело в союзных республиках. –М., 1971.
9. Козлитин И.П. Государственные архивы республик Средней Азии. –М., 1961.
- 10.Крайская Ж.В. Организация архивного дела. –М., 1980.
- 11.Максаков В.В. Архивное дело в первые годы советской власти. –М., 1959.
- 12.Рудельсон К.И., Долгих В.И. Теория и практика архивного дела. –М., 1980.
- 13.Справочник по фондам Государственного архива г. Ташкента. Под ред. Остроумовой Д.Г. –Т., 1992.
- 14.Справочник. Государственные архивы. Т.1,2. Под ред. Ваганова Х.М. и др. –М., 1989.
- 15.Тилеуколов Г.С. Роль архивов Узбекистана в научно-исследовательской и культурной жизни республики (1918-1980 гг.) –Ташкент, 1995.
- 16.Центральный государственный архив Узбекистана //Каталог. –Т., 1975.
- 17.Центральный государственный исторический архив УзССР. Путеводитель. –Т., 1948.
- 18.Центральный государственный архив кинофотофонодокументов Узбекской ССР. Путеводитель. –Т., 1964.

### **11-§. Mustaqillik davrida O‘zbekistonda arxiv ishining takomili**

11.1. O‘zbekistonda arxiv ishi bo‘yicha me’yoriy hujjatlar  
 O‘zbekiston mustaqillikga erishgach jamiyatimizning barcha sohalarida, jumladan arxiv ishini rivojlantirish sohasida ham tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan jamiyatni barpo etish borasida, davlat mulkini xususiylashtirish, ko‘p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish, ishlab

chiqarish korxonalarini va xususiy biznesni rivojlantirish natijasida nodavlat arxiv fondlari tashkil qilindi. Nodavlat sanoat, qurilish korxonalarini, fermer xo‘jaliklari, kasaba uyushmalari, xayriya va boshqa jamg‘armalari, siyosiy partiyalar va harakatlar, diniy tashkilotlar arxiv fondlari nodavlat arxiv fondini tashkil qildi. Davlat va nodavlat arxiv fondlari O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi (O‘zMAF)ga aylantirildi. O‘zR Milliy arxiv fondi hujjatlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hujjatlar egasiga, tashkilotga maxsus guvohnoma berish joriy etildi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona va tashkilotlarning shaxsiy tarkib bo‘yicha hujjatlari saqlanishini ta’minlash maqsadida respublika shaharlari va tumanlari hokimliklari tomonidan shaxsiy tarkib bo‘yicha idoralararo arxivlar soni ortdi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati arxiv ishi bo‘yicha Qonun va me’yoriy hujjatlar ishlab chiqdi. 1999 yil 15 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi “Arxivlar to‘g‘risida” Qonun va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1999 yil 30 oktyabrda “Arxiv ishi bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 482-sonli Qaror qabul qildi. Vazirlar Mahkamasining qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi to‘g‘risida Nizom”, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi”, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi (“O‘zbosharxiv”) to‘g‘risida Nizom”, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardagi idoraviy arxiv to‘g‘risida Namunaviy nizom” tasdiqlandi. Bu hujjatlar respublika arxiv idoralarini mustaqilligini, erkinligini qonuniy yo‘l bilan rasmiylashtirdi.

Respublikada arxiv sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar arxivlar to‘g‘risidagi Qonunni qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Natijada 2010 yil 15 iyunda “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Qonunda arxiv muassasasi, idoraviy arxiv, arxiv hujjati kabi o‘ziga xos institutlar mohiyati amaliyotga mos ravishda ajratilib,

har birining haqqoniy tushunchasi yoritib berilgan. Bundan tashqari, unda MAF va davlat arxivlari qatori nodavlat arxivlar, idoraviy arxivlar, shaxsiy arxiv hujjatlari tarkibida ham butlanishi, hisobga olinishi, saqlanishi va ulardan foydalanishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004yil 3 fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasi arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 49-sonli Qaroriga ko‘ra “O‘zbosharxiv” “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligiga aylantirildi. Joylarda hokimliklar arxiv bo‘limlari o‘rniga Arxiv ishi hududiy boshqarmalari tashkil qilindi.

Mustaqil O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida ko‘plab xususiy, nodavlat tashkilotlar, korxonalar va ularning arxiv fondlari vujudga keldi. Nodavlat tashkilotlar idoraviy arxivi ularning mulki hisoblanadi.

Davlat va nodavlat korxonalari arxivi fondi hujjatlarini saqlash uchun hujjatlar saqlaydigan joylarning mavjudligi va undagi talab darajasida shart-sharoitning bo‘lishi muhim sanaladi. 1996 yilga qadar respublikada faqat 9 ta davlat arxivlari uchun maxsus qurilgan bino mavjud bo‘lgan. 68 ta davlat arxivlarining binolari hujjatlar saqlash uchun moslashtirilgan binolar bo‘lib, ularning ko‘pchiligi hujjatlar bilan to‘lgan va idoraviy arxivlardan davlat saqlovi uchun hujjatlar qabul qila olmas edi. Arxivlarning rejali butlashni ta’minlash uchun respublika bo‘yicha 1,5 mln dan ortiq yig‘ma jild saqlanadaigan joylar qurilishi lozim edi.

2008 yil 26 avgustda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 194-sonli Qarori bilan tasdiqlangan 2011yilgacha arxiv ishini va ish yuritishni rivojlantirish Dasturi hamda Maqsadli mo‘ljallariga davlat arxivlari uchun yangi binolar qurish, ta’mirga muhtoj binolarni rekonstruksiya qilish kiritildi. 2011yilgacha bo‘lgan maqsadli mo‘ljallariga muvofiq 2008-2011yillar davomida 18 markaziy davlat arxivi, viloyat davlat arxivlari hamda uning

filiallariga qo'shimcha arxiv saqlovxonasi qurish, 2 ta davlat arxivi va uning filialiga qo'shimcha arxiv saqlovxonasi ajratish ishlari amalga oshirilishi belgilandi.

Mustaqillik yillarda MAF hujjatlarini butlash hamda saqlash va ularning xavfsizligini ta'minlash maqsadida, saqlovxonalarini havoni mo'tadillashtirish tizimi, yong'inni o'chirish va yong'inga qarshi signalizatsiyaning zamonaviy tizimi, binoda va o'quv zallarida perimetral nazorat va video kuzatish tizimi, metall stellajlar bilan, yig'ma jildlarni kartonlashtirish uchun qutilar, davlat arxivlarini noyob va alohida qimmatli hujjatlarni restavratsiya qilish, konservatsiya qilish va ehtiyyot nusxalari ko'chirish uchun yuqori texnologiyali asbob-uskunalar bilan jihozlashga e'tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik sharoitida arxiv ishini boshqaruv davlat organi O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi hisoblanadi. Uning tizimiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududiy boshqarmalari, ularning qaramog'idagi davlat arxivlari (ularning filiallari) hamda markaziy davlat arxivi kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida mamlakatimizda arxiv ishi va ish yuritish sohasida davlat boshqaruvi va nazoratini takomillashtirish, qog'oz shaklidagi, kino, foto va fono hujjatlarini raqamlashtirishni yanada jadallashtirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi negizida O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi tashkil etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi negizida O'zbekiston Milliy arxivi; O'zbekiston Respublikasi Kinofotofono hujjatlari markaziy davlat arxivi negizida O'zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi; O'zbekiston Respublikasi Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari markaziy davlat

arxiv negizida O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyat hujjatlari milliy arxivi; Toshkent shahar davlat arxiv negizida Toshkent shahar markaziy davlat arxiv tashkil etildi.

## 6.2. O‘zbekiston davlat arxivlarida ilmiy-ma’lumot apparati

O‘zbekiston davlat arxivlarida hujjatli axborotlar bilan ta’minalash uchun O‘zR Milliy arxiv fondi (MAF) tarkibi va mazmuni to‘g‘risida ilmiy-ma’lumot apparati (IMA) barpo qilindi. Davlat arxivlarining IMA tarkibiga quyidagi ma’lumotnomalar kiradi: 1) arxiv ro‘yxati (opislar); arxiv bo‘yicha yo‘lko‘rsatkich (putevoditel); 3) viloyat arxivi bo‘yicha qisqacha ma’lumotnama; 4) fondlar katalogi; 5) tizimli, ismli, mavzuli kataloglar; 6) fondlar va mavzular bo‘yicha sharhlar. Viloyat davlat arxivlari filiallarida fondlar katalogi va ro‘yxatlar, viloyat davlat arxivlarida bulardan tashqari arxiv fondlari bo‘yicha qisqacha ma’lumotnama va tizimli katalog. Markaziy davlat arxivlarida IMAning barcha turlari albatta bo‘lishi kerak.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida 80 dan ortiq davlat arxivlari bo‘lib, ularda 6 mln. yig‘majildlardan ziyod hujjatlar asrab-avaylab saqlanmoqda. Bu hujjatlardan turli sohalar bo‘yicha tadqiqotchilar, talabalar va boshqa mutaxassislar ilmiy, madaniy-ma’rifiy izlanishlarda keng foydalanmoqda.

Hozirgi kunda jahonda globallashuv jarayoni jadallahgan, axborot-texnologiyalari inson faoliyatining barcha sohalariga jadal kirib borayotgan davrda O‘zbekistonda arxiv ishini yanada takomillashtirish masalasi asosiy vazifa bo‘lmog‘i kerak. Zero, arxiv ishida yangi informasion texnologiyalarning tadbiq etilishi hujjatli ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatini kengaytiradi, arxiv hujjatlarini qidirib topishning yangi usullari yaratilishini talb qiladi.

## 11.3. O‘zbekiston arxivlarida hujjatlarni raqamlashtirish

Arxiv ishini axborotlashtirish bu informatika fanining nazariy va amaliy ishlanmalarini arxiv ishiga tadbiq etish yordamida arxiv hujjatlariga ishlov berish texnologiyalari takomillashtirishni, arxivlarni saqlash imkoniyatlarini qidirib topishni talab etmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston arxivlari ish suratini yanada jadallashtirish maqsadida rivojlangan Yevropa davlatlaridagi hujjatlarni arxivlashtirish uslublarini o‘rganib chiqish va ularni saqlash choralarini izlab topishni talab etmoqda. Shu madsadda Yevropa ittifoqi institatlari va organlarining arxivlar xizmati, arxivdagi ish jarayonlari va arxivlarni manbalar bilan ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami ortib bormoqda.

XXI asrdagi zamonaviy ijtimoiy boshqaruvdagi tezkorlik, axborotlarning o‘sib borishi, elektron hukumatning oldinlab ketishi, raqamlashtirish va yangi texnologiyalarning joriy etilishining zaruriyati bo‘yicha o‘zgarishlar shiddat bilan davom etmoqda. Yevropa ittifoqi a’zolarining ko‘payishi ma’muriy boshqaruv madaniyatini tizimlashtirishni talab etadi.

Bugungi kunda yer yuzining ko‘pgina davlatlarida elektron hujjatlarni boshqarish va saqlash doirasida ishlar amalga oshirilgan. Elektron hujjatlarning huquqiy-normativ asoslari ham shakllangan. Elektron hujjatlarni tadbiq etishning ba’zi muammolari xalqaro darajada, boshqalari esa davlatning ichki doirasida hal etiladi. Elektron hujjat aylanishini amalga oshirish uchun kelajakda dasturiy ahamiyatga ega bo‘ladigan normativ hujjatlarning qabul qilinishi talab etiladi. Ushbu normativ hujjatlar orqali elektron hujjatlar aylanishi, saqlanishi, qo‘lga kiritilishi, ulardan foydalanish qoidalari va ishning boshqa ko‘pgina jihatlari tartibga solinadi.

Shundan kelib chiqib, arxiv xizmatlarini uyg‘unlashtirish maqsadida o‘quv kurslari yoki ish yuritishni o‘rganish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish taklif qilinadi.

Hozirgi kunda katta o‘zgarishlar bo‘layotgan dunyoda yashayotgan ekanmiz, bu o‘zgarishlar talabga javob beradigan va uzoq muddat davomidagi arxiv hujjatlarini saqlashga va arxiv me’rosidan foydalanishda ba’zi xavf xatarlarni tug‘dirishi mumkinligini e’tibordan qochirmslikni talab qiladi. Zero, ochiq xildagi arxivlarga tabiiy ofatlar va boshqa fojeaviy holatlarning yetkazishi mumkin

bo‘lgan ziyonlarning oldini olish hamda shikast yetgan arxiv hujjatlarini tiklash texnologiyalarini yaratishni talab etadi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Milliy arxiv fondi, “Arxivlar to‘g‘risida” Qonun, “O‘zarxiv”, “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, ilmiy-ma’lumot apparati (IMA).

Nazorat uchun savollar:

1. Mustaqil O‘zbekistonda arxiv ishini takomillashtirish bo‘yicha qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlar.
2. Davlat arxivlari faoliyatida amalga oshirilgan o‘zgarishlar.
3. “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi.
4. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zarxiv” agentligi va “O‘zbosharxiv” boshqarmasi faoliyatlaridagi farqlar to‘g‘risida so‘zlab bering.
5. Arxiv hujjatlaridan foydalanishda zamonaviy texnik vositalarning qo‘llanilishi.
6. Elektron hujjatlarning huquqiy-normativ asoslari.
7. Hujjatlarni arxivlashtirishda zamonaviy G‘arb tajribasidan foydalanish.

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. *Mustaqil O‘zbekistonda arxiv ishini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar.*
2. *Mustaqil O‘zbekistonda arxiv ishini takomillashtirish borasida zamonaviy G‘arb tajribasidan foydalanish usullari.*

### **Adabiyotlar**

1. “Arxivlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 1999yil 15 aprel.
2. “Arxiv ishi to‘g‘risida” 2009 yil 3 noyabr O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 3-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2008 yil 26 avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirish to'g'rsida"gi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 5-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to'g'rsida"gi qarori.
6. Is'hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. –T., 2017.
7. Алимов И.А. Архившунослик. –Андижон, 2005.
8. Бобоқулов Б. Архив иши назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. – Т., 2011.
9. T.R.Schellenberg Modern archives. Princihles Techniques. Chicago. 2003.
10. Report on archives in the enlarged European Union Increased archival cooperation in Europe: action plan. Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities, –2005.
11. Archive Principles and Practice. Crown copyright. 2011. P.25.
12. Ҳужжатлар. Архив атамалари изоҳли лугати. –Т., 2000.
13. Вальберг Х. Электронные документы в архивах // Отечественные архивы. 2004. № 1.
14. Жукова М.П. Комплектование архивов электронными документами // Отечественные архивы. 2000. № 2. С. 5–17.

## GLOSSARIY

**Arxiv** – arxiv hujjatlari majmui, shuningdek arxiv muassasasi yoki korxona, muassasa va tashkilotning arxiv hujjatlarini qabul qiluvchi, saqlovchi va ulardan foydalanuvchi tarkibiy bo‘linma

**Arxiv hujjatlar qimmatlilagini aniqlash ekspertizasi** – hujjatlarni saqlanish muddatini belgilash maqsadida ularning qimmatini aniqlash uchun tuzilgan guruh

**Arxiv qonunchiligi** – arxiv sohasini tartibga solish maqsadida qabul qilingan arxiv ishi bilan bog‘liq qonunlar va qonunosti hujjatlari

**Arxivshunoslik** – arxivlar haqidagi fan bo‘lib, arxiv ishining tarixi, arxiv faoliyatining vazifalari va xarakteri, ularni komplektatsiya qilish tamoyillari va arxiv hujjatlaridan foydalanishni o‘rganadi

**Arxivarius** – arxiv xodimi

**Baqtriya yozuvlari** – Kushonlar davrida shakllangan boxtar yozushi ijtimoiy va madaniy hayotning hamma sohalarida keng qo‘llangan. Boxtar yozushi orqali bizgacha ko‘plab noyob hujjatlar yetib kelgan. Kushonlar sultanati davriga qadar davlat mahkamachiligidagi yunon alifbosidan foydalanilgan bo‘lsa, Kanishka davrida islohot ro‘y berib, yunon alifbosi boxtar tiliga moslashtirilgan. Kanishka davri tangalaridagi yozuvlar boxtar tilida yozila boshlangan. Monumental yodgorliklarda ham boxtar yozushi na’munalari uchraydi, jumladan, Ayritomdan topilgan buddaviy haykallar guruhi tag kursisidagi hamda Surx Ko‘tal ibodatxonasi toshga o‘yilgan xotirot bitigi ham shu tilda yozilgan.

**Beresta** – qayin yoki terak po‘stiga yozilgan matn.

**Behistun yozuvlari** – Kambiz hukmronligining oxirlaridagi voqealarni va Doro I podsholigining birinchi yillaridagi tarixiy voqealarni o‘zida aks ettirgan Kirmonshoxdan sharqda 30 km masofadagi Bobil bilan Ekbatanni bir-biriga bog‘laydigan karvon yo‘li ustidaga Behistun qoyasiga yozilgan yozuv. Yozuv 105 m balandlikda tik tog‘ qoyasiga fors, elam va akkad tilida yozilgan. Yozuvning umumiy balandligi 7,80 m, eni 22 m.

**Bronza qo‘ng‘iroqcha** – 1952 yilda Kulob viloyatining Dashtijum tumanidan bronza qo‘ng‘iroqcha topilgan. Qo‘ng‘iroqchaga yunon harfiga o‘xhash bo‘lgan 17 (yoki 18) belgidan iborat yozuv yozilgan edi. Bu yozuv hanuzgacha o‘qilmagan.

**Bulla** – hujjat o‘rami bog‘langan tizimcha ustidan yopishtirilgan qizil tuproqdan qilingan loy ustiga bosilgan muhr izi. Unga odatda tasvir va yozuv izlari saqlanib qoladi. Bu loy muhr hujjatni adresatga yetguncha hech kim ochmaganiga guvohdir.

**Bull** – farmon 1952-1955 yillarda turk arxeologlari Kichik Osiyodagi Eron satrapi poytaxti Daskildan ahmoniyalar davriga oid 300 ga yaqin farmondan iborat arxiv topishgan. Ulardan 41 ta farmon mixxat yozuvidagi va aramey yozuvidagi muxrlarning bo‘laklari (bullla-farmon) bilan tasdiqlangan.

**Buxoro amiri Qushbegi arxiv hujjatlari** – hozirda O‘zbekiston Davlat arxivi fondida (№ I-126) saqlanadi. Ushbu arxiv xonlikning ijtimoiy-siyosiy tarixi, iqtisodiyoti va boshqa masalalarni o‘rganishda muhim manba ro’lini o‘taydi. “Qushbegi arxivi”ning yuz mingdan ortiq hujjatlari 2656 papkaga joylashtirilib, mazmuniga ko‘ra o‘n bir guruhga ajratilgan.

**Vaqfnoma** – biror mulkning diniy, ta’limiy, iltimoiy muassasalar foydasiga ehson (vaqf) qilinganini tasdiqlovchi huquqiy hujjat nomi. Biror mulk vaqfga berilayotgan vaqtida vaqf hujjati bir necha nusxada yozilgan va hujjatlarning nusxalari turli xil shaharlarda saqlangan. Buning ma’nosи vaqf berilganligini tasdiqlovchi hujjatning saqlanishini ta’minalashdan iborat edi. Vaqf qilingan mulklar sotilishi, sovg‘a qilinishi, meros qoldirilish ulardan soliq undirilishi man’ qilingan.

**Gemma** – qimmatbaho toshlardan zargarlik buyumlari ko‘zlar o‘rnatalib (ularga o‘yib tushirilgan yozuvlar ham bo‘lgan), ulardan muhr sifatida foydalanan hollar gemma deyiladi.

**Geterografiya** – matn tuzishda o‘zga til so‘zlarining “so‘z-signal” vazifasida ishlatalishi, ya’ni o‘z tili so‘zlarini o‘qish uchun yozuvda o‘zga tildan kirgan

“qolip” so‘zlardan fodalash amaliyoti gterografiya deyiladi. Getero “o‘zgacha” grafo “yozmoq”

**Dinori adliya** – Mirzo Ulug‘bek davrida zarb etilgan oltin tanga pul; vazni 4,4 gr.ga teng.

**Dorug‘a** – shaharning harbiy boshlig‘i

**Yobisa** – qo‘riq yer

**Jufti gov** – bir juft ho‘kiz yordamida haydab ekiladigan yer.

**Jo‘ybor xo‘jalari arxivi** – Buxoro xonligi va amirligi davrlarida yashagan yirik mulkdor xonodon – Jo‘ybor xo‘jalariga tegishli arxiv. Hujjatlarida xonodon vakillari tomonidan sotib olingan mulklar, do‘konlar, qishloqlar va hokazolar qayd etilgan.

**Zuliqtidor** – iqtidor (kuch qudrat) egasi

**Ixrojot** – saroyning kundalik xarajatlari uchun raiyatdan to‘planadigan maxsus yig‘im.

**Kadxudo** – oila boshlig‘i.

**Kalontor** – qishloq, daha oqsoqoli

**Kino-foto-fono-hujjatlar markaziy davlat arxivi** – O‘zSSR XKSning 1943yil 18-fevral qarori bilan O‘zSSR kino-foto-fono-hujjatlar markaziy davlat arxivi tashkil qilingan. Kino-foto-fonohujjatlar – biror tarixiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy xarakterga ega bo‘lgan kino, fotosuratlar va ovozli yozuv shaklidagi hujjatlardir.

**Lapidar yozuv** – matnda harflarning o‘zaro bog‘lanmagan holda yozilishi

**Maktuboti Temuriya** – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 2278 raqam ostida saqlanayotgan maktublar majmuasi. Majmua 191 varaqdan iborat bo‘lib, XVI asrda kitobat qilingan.

**“Maktuboti Allomiy”** – “Maktuboti Abulfazl”, “Inshoyi Abulfazl” (“Abulfazl (Allomiy) tarafidan bitilgan va (ko‘chirilgan) maktublar”)i deb ham ataladi. Maktublarning asosiy qismi Boburiylar sultanati (1526-1858)ning atoqli

podshohlaridan Jaloliddin Akbar (1556-1605) nomidan, bir qismi vazir va yirik tarixchi olim Abulfazl ibn Muborak Allomiyning shaxsiy mazmundagi maktublaridan iborat. To‘plam uch qismga bo‘lingan. Undan bizga uchdan ikki qismi, ya’ni ikkita daftar yetib kelgan. U Allomiyning qarindoshi Abdusamad ibn Afzal Muhammad tomonidan tuzilgan.

**“Muraqqa’i Mir Alisher” yoki “Majmu’ayi murosilot (“Maktublar to‘plami”)”** – o‘z davrining nufuzli ruhoniylari – Abdurahmon Jomiy (1414-1492), xo’ja Ubaydulla Axror (1404-1492), xo’ja Axrorning o‘g‘li xo’ja Muhammad Yaxyo (1500 yili o‘ldirilgan), xo’ja Axrorning safdoshi va kuyovi Mir Abdulavval Nishopuriy (1495 yili vafot etgan) va boshqalarning Sulton Abu Said Mirzo (1451-1469), Sulton Husayn Mirzo va Alisher Navoiyga yo‘llagan maktublarini o‘z ichiga oladi. To‘plamga Abdurahmon Jomiyning 334 ta xatlari kiritilgan bo‘lib, ular shaxsiy mazmunda bitilgan xatlar hisoblanadi. Xo’ja Axrorning maktublariga javoblar esa 128 ta bo‘lib, ular mazmunan Abdurahmon Jomiy xatlariga o‘xshashdir.

**Mamlaki podshohiy** – podshoh (xon) devoniga tegishli yer-suv.

**Man** – og‘irlilik o‘lchovi; 4,32 gg.ga teng bo‘lgan o‘lchov birligi.

**Monumental yozuv** – yozuv usulidan qat’iy nazar xotirot maqsadida yozib qoldirilgan epigrafik yodgorliklar.

**Mulki xurri xolis** – soliq va boshqa to‘lovlardan ozod etilgan yer-suv.

**Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlari** – 1932yil bahorida Tojikiston SSR Zahmatobod tumani Xayrabod qishlog‘i yaqinida Mug‘ qal’asi qo‘rg‘onining xarobalaridan to‘qilgan hujjatlar. SSSR FA prof. A.A.Freyman boshchiligidagi ekspeditsianing izlanishlari natijasida jami 79 ta hujjat topilgan, shundan 74 tasi sug‘d tilida, 1 tasi arab tilida va 3 tasi xitoy va yana biri turk tilida bo‘lgan. Ular turli materiallarga – charmga, taxtaga va qog‘ozga yozilgan.

**Naqshi Rustam yozuvi** – Persopoldan shimoldagi Naqshi Rustamda yozilgan yozuv. Ahmoniyalar shohlari qabrlariga kirishda, qoyaga mixxat xatida Doro I ning qadimgi eron, elam va akkad yozuvlaridagi xatlari yozilgan. Unda shox shajarasi

va Eronga tobe mamlakatlar ro‘yxati, hamda etnik va huquqiy asoslari bitilgan bo‘lib, Doro I ning mamlakatni idora qilishda undan foydalangan.

**Niso** – Parfiya davlatining markazi Mixrdartkirtda Eski Niso qal’asi bo‘lgan. Bu yerda shoh qasri joylashgan.

**Omil** – qishloq oqsoqoli. Arab halifaligi hukmronligi davrida ajam yurtlarida mahalliy mulklar ustidan nazoratchi noibning xizmat unvoni.

**Palimpisest** – Ikkinchi marta yozuvlari yuvib tashlanib qayta ishlatilgan sopol parchasi, charm va b. yozuv materiallari yuzida saqlanib qolgan avvalgi matnning izi. Uning ustidan yangi matn bitilgan boladi. Eski Nisodan topilgan arxiv hujjatlari tush bilan sopol parchalariga yozilgan. Sopol parchalari bir necha marta ishlatilgan. Eski yozuv yuvib tashlanib o‘rniga yangi xat bitilgan. Sopol parchasining yuza qismida eski yozuv izlarining saqlanib qolishi palimpisestga misol bola oladi.

**Parfiya arxivi** – Parfiya davlatining markazi Mixrdartkirtda Eski Niso qal’asi bo‘lgan. Eski Niso (Turkmaniston hududi) shahridan vino ombori topilgan. U yerda ko‘plab arxiv hujjatlari aniqlangan. Bu hujjatlar tarixga Parfiya hujjatlari nomi bilan kirgan.

**Persopol arxivi** – 1933-1934yilda Chikago universiteti Sharqshunoslik instituti arxeologik ekspeditsiyasi E.Xersfeld rahbarligida Persepolning shimoli-g‘arbiy burchagida qal’a devorini kovlab ochgan. U yerdan ko‘plab elam yozuvidagi mixxat matnlari topilgan. Ular shartli ravishda “qal’a devori taxtachalari” (“taōlichki krepostnoy steni”) deb atalgan.

**Podshohlik yerlari** – hukumatga qarashli yer-suv, mulki podshohiy, mulki sultoniy va mamlaka deb ham ataladi.

**Mixrdatkirt** – Parfiya davlatining markazi Mixrdartkirt.

**Potxi** – pal’mal daraxti bargidan yozuv materiali sifatida keng foydalanilgan. Bunday yozuv materiallari potxi deb atalgan.

**Sadr** – Buxoroi sharifning ichkari qismida joylashgan vaqflarning hisob-kitobi bilan shug‘ullanuvchi mansabdor.

**Sayfiddin Boxarziy** – Buxoro shayxi Sayfiddin Boxarziy XII asrning ikkinchi yarmida Xuroson viloyati Boxarz degan joyda tavallud topgan. Hirot va Nishopur shaharlarida dastlabki diniy-huquqiy bilim olgan. Keyinchalik u Xorazmga keladi va mashhur Najmuddin Kubroga murid tushadi. Boxarziy undan diniy falsafiy bilimlarni chuqur o‘rganib shayx bo‘lib yetishadi. Sayfiddin Boxarziy ustozи Najmuddin Kubroning tavsiyasi bilan Buxoroga jo‘naydi. U Buxoroda 40 yilga yaqin yashagan.

**Skifat** – so‘zi tanga yuzasining maxsus yumaloq muhra yordamida hosil qilingan botiq kurinishi ma’nosidagi atama. Bunday tangalar Buxoro vohasda ko‘p topilgan.

**Suza arxivi** – Fransuz arxeologlari tomonidan Suzadagi akropolda qazish ishlari davrida elam xo‘jalik hujjatlari arxivi topilgan. Matnlar sanasi ko‘rsatilmagan, lekin mazmuniga ko‘ra, ular ilk ahmoniyalar davriga (Kir II podsholigi davriga) taalluqli bo‘lishi mumkin deb hisoblanadi.

**Surx-Ko‘tal yodgorligi** – 1957yilda boxtar tilidagi “Katta Surx-Ko‘tal yozuvi” ochildi. Topilgan yozuv to‘liq saqlangan 25 qatordan iborat toshtaxta edi. Surxko‘tal yozuvi “qurilish”, “barpo etish” haqida ekanligini aniqlangan.

**Sug‘d tilidagi manbalar** – asosan IV-X asrlarga oid bo‘lib, turli mazmundagi huquqiy hujjatlar – ahdnomalar, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotdi hujjatlari, tilxatlar, Sug‘d, Shosh, Turk va Farg‘ona hukmdorlari o‘rtasidagi yozishmalar, xo‘jalikning kundalik faoliyatiga oid hujjatlar, masalan; xarajatlar yozilgan hujjat hamda farmonlardan iborat. Bu hujjatlar Sug‘diyonaning o‘zidan, Mug‘ qal’asidan, Samarqandda Afrosiyobdan, Qirg‘iziston va Sharqiy Turkistondan topilgan.

**Taxtacha** – xumdonda pishirilgan g‘isht ko‘rinishidagi yozma yodgorlik bo‘lib, yuzasiga o‘yib xat bitilgan loy taxtacha.

**Toxariston yozivi** – toxariston yozuvidagi harflar soni 25 ta bo‘lib, gorizontal chapdan o‘ngga qarab yozilgan.

**Trilingva** – uch tilda bitilgan yozuvlar. Masalan, Hamadon yaqinida mixxat yozuvli trilingva hamda Uruqda mixxat yozuvidagi trilingva bitilgan alebastr vaza topilgan.

**Tuproqqal'a arxivi** – 1945-1950yillarda S. P. Tolstov tomonidan (xalqimiz madaniyatining durdonasi sanalmish Tuproqqal'a shahar xarobasi Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida joylashgan,) o'rganilgan. Tuproqqal'adan xorazimshoxlar davriga oid teri va yog'ochga yozilgan xujjatlar topilgan. Ularning umumiy soni 140 ta bo'lib, shundan 122 tasi teriga yozilgan bo'lib, qolganlari yog'och taxtacha va yog'ochlarga yozilgan.

**Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi** – general-gubernatorlik devonxonasi hujjatlari O'zbekiston Markaziy davlat arxivida I-I- fondida saqlanmoqda.

**Udaychi** – urush paytida navkar va qo'shining to'g'ri taqsimlanishi bilan shug'ullangan

**Formulyar** – hujjatning boshlov va tugallash qismlaridagi an'anaviy jumlalardir.

**Xiva Qozilik hujjatlari** – Tarixchi olim P.P.Ivanov 1936yilda Leningraddagi Saltikov-Shchedrin nomli xalq kutubxonasidan kutubxona qo'lyozma bo'limining ro'yxatga olinmagan fondlaridan "XIX asrdagi Xiva xonlarining arxivi"ni topgan. Umumiy hajmi 333 daftar, 11.000 varaqdan ortiq bo'lgan qimmatli arxiv.

**Chuhra og'osi** – xon qo'riqchilari boshlig'i

**Chorpo** – to'rt oyoqli jonivorlar

**O'zbekiston meditsina hujjatlari markaziy davlat arxivi** – 1962 yilda Toshkentda tashkil qilingan.

**Axborot texnologiyasi** – axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami qurilmalar, usullar va jarayonlar.

**Elektron hujjat** – bu elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va uni identifikatsiya qilishda foydalaniladigan elektron hujjatning boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan elektron shaklda qayd qilingan axborot.

**Elektron arxiv** – arxiv maqomiga ega bo‘lgan, tashkilot elektron hujjatlarini jamlovchi, hisobga oluvchi, saqlovchi va foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotning tarkibiy bo‘limi.

**Qo‘qon xonligi arxivi** – 1939- yilda Sankt Peterburgdagi Saltikov-Shedrin nomidagi Markaziy davlat kutubxona yerto‘lasidan Qo‘qon xonlari arxivi hujjatlari topilgan. Bu hujjatlar Qo‘qon xonlarining XIX asrga taalluqli bo‘lgan. Mazkur hujjatlar Qo‘qon xonligi Rossiya tomonidan egallanganidan so‘ng 1876yilda imperatorning Markaziy kutubxonasiga ko‘chirilgan edi.

**Ekspertiza qilish** – hujjatlarning (davlat saqloviga qabul qilishda hujjatlarning ilmiy va amaliy qimmatini) qimmatdorligini aniqlash, arxiv hujjatlarini tanlash va ulardan tarixiy, huquqiy va ma’muriy sohani ko‘rib chiqishda foydalanish. Davlat arxivlaridagi hujjatlarni to‘ldirish, saqlash muddatini aniqlash va saqlash uchun tanlab olish yoki yo‘q qilinishi jarayoni

**Ekspert komissiyasi** – mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxona, muassasa, tashkilotda hujjatlar, shu jumladan boshqaruv (ish yuritish), ilmiy-texnikaviy va boshqa maxsus hujjatlarning qimmatini ekspertiza qilish va ularni davlat saqloviga topshirishga tayyorlash bo‘yicha ishlarni tashkil qilish va olib borish uchun tuziladigan komissiya

**Eshik Og‘a (eshik og‘asi)** – saroybon; podshoh (xon) saroyiga arz bilan keluvchilarni, shuningdek elchilarni kutib oluvchi mansabdar.

**Yagona davlat arxiv fondi (YaDAF)** – O‘zSSR MIK va XKSning 1925- yil 22-iyul qarori bilan “O‘zSSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi. Bu nizomga ko‘ra, respublikada Yagona davlat arxiv fondi (YaDAF) tashkil qilindi. Bu fondga hukumat, savdo, sanoat, kooperativ, kasaba uyushma tashkilotlari arxivlari, shuningdek diniy va shaxsiy arxivlar kiritildi.

Viloyatlarda viloyat arxiv byuro'lari (1925yilda - Farg'ona, Samarqand, Toshkent, Zarafshon, 1926yilda – Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo) tashkil qilindi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

### **Rahbariy adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.- 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b. Abduvahobova M.R. Qushbegi arxivida tarixiy toponimlar va Buxoro amirligining ma’muriy hududiy tizimi. T. 2006.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, mafkura. 1-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 1996.
6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. –T.: “O‘zbekiston”, 1998.
7. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998- yil 27-iyuldagagi qarori. Xalq so‘zi, 1998- yil, 27-iyul.
8. “Arxivlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 1999yil 15 aprel.
9. “Arxiv ishi to‘g‘risida” 2009 yil 3 noyabr O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonuni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 3-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2008 yil 26 avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirish to'g'rsida"gi qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 5-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to'g'rsida"gi qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

### **Asosiy adabiyotlar**

14. Is'hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. O'quv qo'llanma. –T., 2017.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

#### **O'zbek tilida**

15. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (Қадимги замон ва ўрта асрлар). –Т.: Ўқитувчи, 2001.
16. Абдуваҳобова М.Р. Қушбеги архивида тарихий топонимлар ва Бухоро амирлигининг маъмурий-ҳудудий тизими. –Т., 2006.
17. Алимов И.А. Архившунослик. –Андижон, 2005.
18. Бобобеков Ҳ.Н. Қўқон тарихи. –Т.: "Фан", 1996.
19. Бобоқулов Б. Архив иши назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. – Т., 2011.
20. Исҳоқов М. Унитилган подшоликдан хатлар. –Т., 1992.
21. Йўлдошев М.Й. XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. –Т.: "Фан", 1960.
22. Мадраимов А. Фузайлова Г. Манбашунослик. Бакалавриат таълим йўналиши талабалари учун дарслик. –Тошкент, 2008.
23. "Мактуботи Темурия". ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. № 2278.
24. "Мактуботи Алломий". ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. № 290.

- 25.“Мураққайи Мир Алишер”. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. № 2178.
26. Раҳимов Ж. Ўзбекистон тарихини ўрганишда архив манбаларидан фойдаланиш. –Т.: “Ўқитувчи”, 1995.
27. Абдураззоқ Самарқандий. Матла ус-садайн ва мажма ул-баҳрайн. –Т.: Фан, 1960, 1969.
28. Тарихий манбашунослик. –Т.: Фан, 2006.
29. Усанова М. Исмоил Сомоний вақфномаси //Шарқшунослик, № 6. – Тошкент, 1995. 24 – 31- бб.
30. Ҳужжатлар. Архив атамалари изоҳли луғати. –Т., 2000.
31. Ўринбоев А. Ёзишмалар. –Т., 1998.
32. Йўлдошев М.Й. Хива давлат ҳужжатлари. I-II жиллар. –Т., 1960

#### **Rus tilida**

33. Административное устройство Бухарского эмирата в конце XIX – в начале XX века. –Т., 2001.
34. Азаров А.И., Брежестовская Н.В. Государственные архивы и архивное дело в союзных республиках. –М., 1971.
35. Абдураимов М.А. “О малоизвестном источнике по истории аграрных отношений в Средней Азии в XVIв. //Журнал “Народы Азии и Африки”. –М., 1968. № 3.
36. Аҳмедов Б.А. “Роль джуйберских ходжей в общественно-политической жизни Средней Азии XVI-XVII веков // Духовенство и политическая жизнь. Сб.статей. –М., 1985.
37. Бартольд.В.В. Туркестан в эпоху монголского нашествия. Сочинения. Т. И. –М., 1965.
38. Бертельс Е.Е. Из архива шейхов джуйбари. –М., –Л., 1938.
39. Бухарский вакф XIII в. Факсимиле, издание текста, перевод с арабского и персидского, введение и комментарий А.К Арендса, А.Б.Халидова, О.Д.Чехович. –М., 1979 (ППВ – 52).

40. Вальберг Х. Электронные документы в архивах // Отечественные архивы. 2004. № 1.
41. Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. –М., Гл.ред. Восточной литературы. “Наука”, 1980.
42. Документы к истории аграрных отношений в Бухарском ханстве. Выпуск I. Акты феодальной собственности на землю XVII-XIX вв. Подбор документов, перевод, введение и примечания О.Д.Чеховича, под редакцией А.К.Арендса. –Т., 1954.
43. Дьяконов И.М. Люди города Ура. –М., 1990.
44. Дьяконов И.М., Лившиц В.А. Документы из Нисы. –М., 1960.
45. Датированные документы из дворца Топраккала проблемы эры Шака I эры Канишка. –П-Б., 1961. –С. 54-71.
46. Жукова М.П. Комплектование архивов электронными документами // Отечественные архивы. 2000. № 2. С. 5–17.
47. Иванов П.П. Хозяйство джуйберских шейхов. –М., –Л., 1954.
48. Иофе В.Г., Исакова М.С., Ишанходжаева З.Р. Подготовка профессиональных архивистов в Узбекистане в постсоветский период. – Т., 2008. – 56 с.
49. Исакова М.С. Нечкин Д.И. и становление государственной архивной службы Узбекистана (1919-1923) // Отечественные архивы. 2009. – 34 с.
50. Исакова М.С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. Монография. – Ташкент: Университет, 2012. – 201 с.
51. Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой писменной культуры (древность и раннее средневековье). –Т., 2008.
52. Камалиддинов Ш. С. “Китаб аль-Ансаб” Абу Саъда Абд аль-Карима ибн Мухаммада ас-Самъани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. –Т.: Фан, 1993.
53. Камолиддин Ш.С. Происхождение Саманидов. –Т.:IFEAC, 2008.

54. Козлитин И.П. Государственные архивы республик Средней Азии. – М., 1961.
55. Крайская Ж.В. Организация архивного дела. –М., 1980.
56. Лившиц В.А. Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии В.А Лившиц. //Согдийские документы с горы Муг. Чтение, перевод, комментарии. Вип ИИ. Изд-во Восточной литературы. –М., 1962.
57. Лившиц В.А. Парфянская ономастика. Санкт-Петербург., 2010.
58. Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. –М., 1980.
59. Максаков В.В. Архивное дело в первые годы советской власти. –М., 1959.
60. Мухамаджонов А.Р. Населенные пункты Бухарского эмирата. -Т., 2001.
61. Петрушевский И.П. Из истории Бухары XIII в. Ученые записки ЛГУ, Серия востоковедческих наук. Вып. I, –Л., 1949.
62. Ростиславов М.Н. Несколько слов о важности вакуфных документов в историческом отношении //Туркестанские ведомости, 1873, №42,
63. Рудельсон К.И., Долгих В.И. Теория и практика архивного дела. –М., 1980.
64. Семенов А.А. К вопросу о происхождении Саманидов //Труды ИИАЕ АН ТаджССР. Т.27. Сборник статей, посвященных истории и культуре периода формирования таджикского народа и его государственности (IX – X вв. н.э.). – Сталинабад, 1955. –С.3-11.
65. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История. Составители Д.Ю.Юсупова, Р.П.Джалилова. –Т., 1998.
66. Справочник по фондам Государственного архива г. Ташкента. Под ред. Остроумовой Д.Г. –Т., 1992.
67. Справочник. Государственные архивы. Т.1,2. Под ред. Ваганова Х.М. и др. –М., 1989.

68. Тилеукулов Г.С. Роль архивов Узбекистана в научно-исследовательской и культурной жизни республики (1918-1980 гг.) –Ташкент, 1995.
69. Толстов С.П. Древнекорезмийская память. 1939.
70. Топракала. Дворец. –М., 1984.
71. Толстов С.П. Хорезмийская археологическая экспедиция. 1940 г.КСИИМК. 1946 . 12.
72. Толстов С.П. Древний Хорезм. –М., 1948.
73. Толстов С.П. По следам древнекорезмийской цивилизации. –М., 1948.
74. Троицкая Л.А. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. –М., 1968.
75. Чехович О.Д. Бухарские документы XIV века. –Т., 1965.
76. Чехович О.Д. Вакуфный документ времени Тимура из коллекции Самаркандинского музея. Эпиграфика Востока. ИВ, –М., –Л., 1951.
77. Чехович О.Д. Бухарские поземельные акты XVI-XIX вв. //Проблемы востоковедения, ИВ. –М., 1955.
78. Чехович О.Д. Бухарские акты XIV в. –Ташкент, 1965.
79. Чехович О.Д. Бухарский вакф XIII в. Журнал «Народы Азии и Африки». 1967, № 3, –С.74-82.
80. Чехович О.Д. Крестьянские обязательства 1914 г. на основании мнимой грамоты Исмаила Самани //ИЗ, т. 33. –М., 1950. –С.260-270.
81. Чехович О.Д. Новая коллекция документов по истории Узбекистана //ИЗ, т. 36, –М.: Изд-во АН СССР, 1951. –С.266-268.
82. ЦГА УзССР. Ф. И-323, оп. 1, № 1429.
83. Центральный государственный архив Узбекистана //Каталог. –Т., 1975.
84. Центральный государственный исторический архив УзССР. Путеводитель. –Т., 1948.
85. Центральный государственный архив кинофонодокументов Узбекской ССР. Путеводитель. –Т., 1964.

86. Юлдашев М.Ю. Новый архивный источник по истории Средней Азии.  
– Краткая сообщения института востоковедения АН СССР. № 1, 1951.
87. Юлдашев М.Й. “Новые данные о хозяйстве джуйберских шейхов”  
//Журнал ОНУ, 1963.

**Ingliz tilida**

88. T.R.Schellenberg Modern archives. Princihles Techniques. Chicago. 2003.
89. Report on archives in the enlarged European Union Increased archival cooperation in Europe: action plan. Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities, –2005.
90. Nicolas Sims Williams. Bactrian documents. Oksford. 2000.
91. Archive Principles and Practice. Crown copyright. 2011.

## MUNDARIJA

<b>SO‘Z BOSHI.....</b>	<b>3</b>
<b>I – BO‘LIM. QADIMGI VA ANTIK DAVR ARXIVLARI.....</b>	<b>7</b>
<b>1-§. Arxivshunoslik kursining predmeti, metodologik asoslari, maqsad va vazifalari.....</b>	<b>7</b>
1.1. Arxivshunoslik fanining maqsad va vazifalari.....	7
1.2. Arxivshunoslik fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.....	12
<b>2-§. Markaziy Osiyoda qadimiy yozuvlar, yozuv madaniyati va arxiv ishining mujudga kelishi.....</b>	<b>20</b>
2.1. Yozuv madaniyatining shakllanish bosqichlari.....	20
2.2. Markaziy Osiyoda yozuv madaniyatining shakllanish bosqichlari.....	21
2.3. Markaziy Osiyoda oramiy yozuvining tarqalishi.....	22
2.4. Markaziy Osiyo mintaqasiga arab yozuvining kirib kelishi.....	24
<b>3-§. Ahmoniyalar hukmronligi davrida Yaqin Sharq arxiv ishi an’analarining Markaziy Osiyo xalqlariga ta’siri.....</b>	<b>28</b>
3.1. Qadimgi Eronning ahmoniyalar davri yozma manbalari.....	28
3.2. Avesta.....	31
3.3. Elam hujjatlari.....	32
3.4. Persepol arxivi.....	33
3.5. Akkad hujjatlari.....	36
3.6. Oramiy matnlari.....	39
3.7. Demotik matnlar.....	43
<b>4-§. Yunon-Baqtriya, Parfiya va Kushonlar davrida davlat ish yuritish an’analari va arxivlar.....</b>	<b>45</b>

4.1. Yunon-Baqtriyada davlat ish yuritish an’analari va arxivlar.....	44
4.2. Parfiya arxivi.....	47
4.3. Baqtriya yozuvi yodgorliklari.....	50
<b>II-BO‘LIM. MARKAZIY OSIYONING ILK VA RIVOJLANGAN O’RTA ASRLAR ARXIVLARI.....</b>	<b>61</b>
<b>5-§. Afrig‘iylar davriga oid Tuproqqal‘a arxiv hujjatlari.....</b>	<b>61</b>
5.1. Tuproqqal‘a hujjatlarining topilishi va o‘rganilishi.....	59
5.2. Teriga yozilgan va loy(kesak) parchalariga singib qolgan hujjatlar.....	69
5.3. Yog‘och va tayoqlarga yozilgan hujjatlar.....	69
<b>6-§. Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlari.....</b>	<b>77</b>
6.1. Sug‘diy yozuv yodgorliklarining topilishi va o‘rganilishi.....	77
6.2. Mug‘ tog‘i sug‘d arxiv.....	80
6.3. Yuridik hujjatlar va xatlar.....	82
<b>7-§. Markaziy Osiyoda o‘rta asrlar (IX-XVI asr boshi) davlat ish yuritishining taraqqiysi.....</b>	<b>94</b>
7.1. IX-XIV asr boshlarida arxiv ishi.....	94
7.2. XIV-XVI asr boshlarida arxiv ishi.....	113
<b>8-§. So‘nggi o‘rta asrlarda davlat devonxonalarida ish yuritish: Jo‘ybor xo‘jalari arxiv, Buxoro amirligi Qushbegi arxiv, Xiva va Qo‘qon xonliklari arxivlari.....</b>	<b>120</b>
8.1. Jo‘ybor xo‘jalari arxiv.....	120
8.2. Buxoro amirligi Qushbegi arxiv.....	134
8.3. Xiva xonligi qozilik arxiv.....	142
8.4. Qo‘qon xonligi arxiv.....	150
<b>III-BO‘LIM. XIX ASR SO’NGGI CHORAGI VA XXI ASR BOSHLARI-DA O‘ZBEKİSTONDA ARXIV ISHI.....</b>	<b>157</b>
<b>9-§. Turkiston o‘lkasi mustamlaka davri arxiv (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).....</b>	<b>157</b>

9.1. O'rta Osiyoda Rossiya bosqini davrigacha arxiv ishi.....	157
9.2. Turkiston general-gubernatorligida arxiv ishi.....	159
9.3. Turkistonda arxiv ishining tashkil qilinishi.....	160
<b>10-§. O'zbekistonda arxiv ishi (1917-1991).....</b>	<b>162</b>
10.1. Turkistonda arxiv ishi.....	162
10.2. O'zbekistonda arxiv ishining tashkil qilinishi (1925-1940 y.y.).....	166
10.3. O'zbekistonda arxiv ishi (1940-1990 y.y.).....	168
<b>11-§. Mustaqillik davrida O'zbekistonda arxiv ishining takomili.....</b>	<b>171</b>
11.1. O'zbekistonda arxiv ishi bo'yicha me'yoriy hujjatlar.....	171
11.2. O'zbekiston davlat arxivlarida ilmiy-ma'lumot apparati.....	175
11.3. O'zbekiston arxivlarida hujjatlarni raqamlashtirish.....	175
<b>GLOSSARIY .....</b>	<b>179</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>188</b>